

# KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2024, № 2-son



# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal  
2024-yil, 2-son

## Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim  
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

**Bosh muharrir:** Z.Y.XUDAYBERDIYEV

**Ijrochi direktor:** H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,

A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV

J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,

A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,

K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida  
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,  
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi  
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori  
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar  
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Manzil:** 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani

Universitet ko'chasi, 2-uy

**Tel.:** 90-979-75-89; 94-677-90-32;

**E-mail:** kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

## Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

## Sahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"  
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 25.02.2024-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

Shukurullayev O.A. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda iqtisodiy tarbiya orqali tejamkorlikni shakllantirishda o'yinning ahamiyati.....	3
Isakov J.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish .....	9
Raxmatova D.A. Duduqlanishni logopedik shaxobcha sharoitida bartaraf etishga qaratilgan korreksion ish uslublari.....	12
Sadikova G.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fani mashg'ulotlarida 4k model ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati..	17
Куранбоева М.Ш. Педагогические условия формирования предметно-практических компетенций будущих педагогов профессионального обучения.....	21
Amirsaidova Sh. Quyi sinf aqli zaif o'quvchilar xotirasini rivojlantirish usullari.....	26
Mahmudova S.A. Innovatsion yondashuv asosida umumta'lim maktablarida musiqiy madaniyatni shakllantirish metodlarini takomillash-tirish.....	31
Kurbonova G.U. Bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativ o'qitish muhitini yaratish kompetensiyalarini shakllantirish.....	34
Аюпова М.Ю. Логопунктларда ўқитувчи-логопеднинг ҳамкорликда-ги ишларини ташкил этиш.....	38
Сафарова С.О. Основные проблемы и условия реализации инклюзивного образования.....	43
Yo'ldoshev O.A. Globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish (boshlang'ich sinflar misolida).....	48
Salomova G., Shodiboyeva M. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini rivojlantirishda doir ishlar tizimi.....	51
Xudoyqulov J. Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish uzviyiligi ta'minlash omillari.....	56
Qosimov Sh.U. Kasbiy ta'lim jarayonini tashkil qilishning uslubiy asoslari.....	60
Boymirov Sh.T., Xudoynazarova V.M. Umumta'lim maktablardagi fizika fanini o'qitishda tajribalarning o'rni va ahamiyati.....	66
Xamidova M. Matematika darslarda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'nlari.....	70
Nurkeldiyeva D. Maxsus pedagog kadrlarni tayyorlashning xalqaro tajribasi.....	73
Raximqulova M.B. Boshlang'ich ta'limda ekologik qadriyatlarini o'rganishda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish....	79
Saypillayeva H.B. Ixtisoslik modullarini o'qitishda individual ta'lim tamoyillarining qo'llanilishi.....	86
Abdulazizova N.A. O'quvchilarida zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishning amaliy ahamiyati.....	91
Xodjabekova S.A. Duduqlanuvchi bolalarda kommunikativ qobiliyatini shakllantirish muammosini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari.....	94
Arslanova M.M. Mustaqil ta'lim bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali ta'lim shakli sifatida .....	99
Nurmanova D.J. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda 4k modelining ahamiyati.....	103
Narziyeva N.N. Veterinariya oliy ta'lim muassasalarida talabalarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish.....	107
Alimov N.N., Boqiyev R.A. Professional ta'lim va oliy ta'lim tizimlarini integratsiyalash borasidagi innovatsion texnologiyalarning ahamiyati.112	
Alimov J.R. Treninning predmet mazmunini aniqlash kombinatsiyalangan mahorat va til va nutqni tanlash uni amalga oshirish uchun materiallar ishlab chiqish.....	116
Shermatova X.K. Bo'lajak musiqi o'qituvchilarini mustaqil bilimlarini rivojlanishining ilmiy pedagogik asoslari.....	122
Abdubannobova M.A. Inklyuziv ta'lim tizimi jarayonining mazmun va mohiyati.....	126
Quvvatova Z.R. Bokschilarda o'z-o'zini boshqarishning gender farqlari.....	129
Исакулова Н.Ж. Божхона соҳасига оид терминлар типологияси..	132

<b>Mizroyeva N.Sh., Hakimova M.I.</b> Yoshlar ta'lim-tarbiyasi Mahmudxo'ja Behbudiy nigohida.....	141
<b>Turganov Y.</b> Baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar va xorijiy tajriba..	145
<b>Yalgashev U.M.</b> Oliy o'quv yurtlarida virtual laboratoriyalar vositasida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni.....	151
<b>Axmedova U.Y.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarda algoritmik fikrlashni shakllantirish .....	155
<b>Kayumova N.A., Iskandarov B.Q.</b> Qishloq xo'jaligi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirish .....	159
<b>Sbernazarov I.E.</b> Xalqaro baholash tadqiqotidagi savodxonlik kompetensiyalarini umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarda shakllantirishi.	163
<b>Maxmudova D.M.</b> Xalqaro baholash pisa tadqiqotida matematik savodxonlik kompetensiyalari.....	169
<b>Yalgashev U.M., Rahmanov V.T.</b> Oliy o'quv yurtlarida fizika fanidan virtual laboratoriya ishlarini real laboratoriya ishlaridan farqi va afzalliklari .....	178
<b>Karshiyeva D.U.</b> O'qituvchilarda zamonaviy darslarni online ta'lim platformalarida tashkil etish metodikasini rivojlantirish .....	184
<b>Сандова М.</b> Бошланғич синф математика дарслигининг халқаро киёсий таҳлили .....	190
<b>Xanimkulov B.R.</b> "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mobil texnologiyalar asosida o'qitish jarayonini modellashtirish .....	196
<b>Karimova M.</b> Pedagogik - psixologik fanlar va ularning o'ziga xosliklari.....	199
<b>Komilova F.M.</b> Xalqaro hamkorlik asosida pedagog hodimlarni malakasini oshirish .....	203
<b>Turakulova V.</b> Milliy-manaviy qadriyatlar asosida o'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish.....	206
<b>Abdreimova N.</b> Intelektida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarni shakllantirish .....	213
<b>Ergasheva F.A.</b> Grammatik interferensiyani bartaraf etish orqali talabalarning kasbiy lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish .....	218
<b>Axatqulov A.</b> Bo'lajak informatika o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalari .....	223
<b>Turdiyeva Sh.</b> Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirish .....	229
<b>Шодиева М. С.</b> Инновационные методы и приёмы на уроках русского языка в иностранных группах .....	234
<b>Боймирзаева Д.</b> Формирование социальной креативности у будущих менеджеров в сфере образования: перспективная парадигма образовательного лидерства .....	239
<b>Эсанбоева М.А.</b> Теорическое обоснование инновационных методов английского языка .....	244
<b>Бобомуродова Г.И.</b> Художественный текст как культурная единица.....	248
<b>Умиркулова М.Б.</b> Преподавание словарного запаса учащимся ESL с использованием метода Total Physical Response .....	254
<b>Muslimov Sh.N.</b> Integratsion yondashuvda kasbiy-grafik kompetentlikning mohiyati va nazariy jihatdan tahlili .....	258
<b>Жўрабоев М.</b> Педагогика коллежларида инновацион фаолият мониторинги мазмуни .....	263
<b>Xuramova F.U.</b> Bo'lajak muhandislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish dasturini ishlab chiqish .....	269
<b>Умарова Г.А.</b> Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода.....	277
<b>Umarova M.</b> Maktabgacha yosh davrdagi bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanishi .....	284

# МАКТАBGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IQTISODIY TARBIYA ORQALI TEJAMKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI

SHUKURULLAYEV OZODBEK ARZIYEVICH

Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim  
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha kata yoshdagi bolalarda iqtisodiy tarbiya orqali tejamkorlikni shakllantirishning usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Olingan tajribalar natijasi, kuzatishlar tahlil qilinib ularning mezonlari ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, faoliyat, ta'lim-tarbiya, iqtisodiy tarbiya, tejamkorlik, ota-ona, mezonlar, yuqori, o'rta, quyi.

Tarbiyalanuvchilar iqtisodiy ongining qaror topishi ularda iqtisodiy tushunchalar tizimini shakllantirishni, ularning jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish qonuniyatlarini, iqtisod, ishlab chiqarishni tashkil etishga doir umumiy ma'lumotlarni o'zlashtirib olishini, ularda fikrlash operatsiyalari (tahlil, sintez qilish, umumlashtirish va boshqalar) ni rivojlantiradi va keyinchalik eng oddiy iqtisodiy tahlil qilish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi matematika mashg'ulotlarida iqtisodiy tarbiya elementlarini oshirib borish lozim. Iqtisodiy tarbiya — tarbiyalanuvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga qaratilgan, uyushgan (tashkil etilgan) pedagogik faoliyat, maxsus o'ylangan ish sistemasidir.

Uni amalga oshirish jarayonida tarbiyalanuvchilar tartibli va samarali iqtisodiyot haqida, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish to'g'risida, ishlab chiqarish munosabatlari haqida, amaldagi xo'jalik mexanizmi to'g'risida tushuncha va tasavvurlar majmuyini o'zlashtirib oladilar. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy tafakkurning rivojlanishini iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan axloqiy va ishchanlik fazilatlarining, ijtimoiy faollikning, tadbirkorlikning, tashabbuskorlikning,

ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan, halol munosabatning shakllanishini ta'minlaydi.

Tarbiyalanuvchilarda iqtisod borasida ijodiy fikr yuritishni shakllantirishda mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaziyatlarda unumli foydalanish lozim. Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadiga bir qator vazifalarni hal etish natijasida erishish mumkin. Bu vazifalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib borish;

- oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish,

- bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalganlikni tarbiyalash;

- kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lish, tejamkorlik, rejalilik, omilkorlik, ishchanlik, xo'jalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash;

- tarbiyalanuvchilarni iqtisodiy tahlil qilish malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini tarbiyalash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mehnatni ilmiy tashkil etish asoslarini egallab olish;

-mas'uliyatsizlikka, mehnatdagi tartibsizlikka, bekorchilikka, boqimandalik kayfiyatlariga, xo'jasizlikka, isrofgarchilikka,

beparvolikka murosasiz munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va hokazo.

Manashunday tushunchalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga sinfda va sinfdan tashqari ishlarda bosqichma bosqich singdirib borishimiz zarur. Bozor" so'zi sotuvchi va xaridorlarning o'zaro uchrashadigan, tovarlar oldi – sotdi qilinadigan joyni bildiradi.

Bozor kishilar, korxonalar, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini namoyon qiladi. Narxlar vositasida iqtisodiyotda rivojlanish bo'ladi, tovar ishlab chiqarganlar rag'batlantiriladi. Pul - bozor iqtisodida katta hizmat qiladi. Pul juda qimmatli qog'oz. Qiziq, tillani ham yoki oddiy tuzni ham pulga sotib olishar ekan. Barter usuli – o'rtaga pulni aralshtirmay, narsani narsaga tengma – teng almashtirish barter usuli deyiladi.

Ota-onalarning farzandlari barcha ehtiyojlarini so'zsiz qondirishga intilishlari tarbiyadagi katta xatodir. Ota-onalar o'z farzandlarini mehnatsevar va tejamkor qilib tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishlari kerak.

1. Bola o'z ota-onasining qaerda ishlashini va nima ishlab chiqarishini, bu ishlab chiqarishning butun jamiyat uchun qanday ahamiyati borligini bilishi kerak. Umuman, Bola ota-onasi ishlab, topib keltiradigan daromadning katta va foydali ijtimoiy mehnat evaziga olinadigan ish haqi ekanini mumkin qadar ertaroq yaxshi tushunishi lozim.

2. Bolani oila byudjeti bilan mumkin qadar ertaroq tanishtirish lozim. Agar oilaning moddiy sharoiti juda yaxshi bo'lsa, Bolaning o'z tengdoshlari oldida bunday yaxshi sharoit bilan g'ururlanish va maqtanishga odatlantirmaslik kerak.

3. Ota-ona farzandi halol, rostgo'y va sofdillikka odatlanib borishlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Ular hech narsani

Boladan atayin yashirmasliklari va shu bilan birga uning ko'z o'ngida yotgan bo'lsa ham, so'roqsiz olmaslikka o'rgatishlari kerak.

4. Oilada tejamkorlik va ehtiyotkorlik tarbiyasini to'g'ri tashkil etib, eskirib qolgan narsalarni yaxshilab, ta'mir qilib, yangisini sotib olish vaqtini cho'zish va shu yo'l bilan ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari topgan pulning ma'lum qismini tejab qolish mumkin bo'ladi.

5. Bola faqat o'z buyumlarini emas, boshqalarning buyumlarini ham ehtiyot qilishga o'rganishi lozim. Tejab-tergab ish ko'rish odatlarini bolalarda mumkin qadar ertaroq tarbiyalamoq kerak. Pulni tejab-tergab sarflashga o'rgatish muhim.

6. Oilada ota-onalar o'z farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyotkor kishilar bo'lib yetishishlarida o'zlari namuna bo'lishlari kerak. Oilada mehnat tarbiyasini amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim.

Tarbiyalanuvchilarni tejamkorlik ruhida tarbiyalashda maqol va hikoyalardan foydalanish. Bozor iqtisodiyoti oila tarbiyasida keng qo'llanib kelingan milliy qadriyat sifatidagi tajribalariga suyanishni ham taqozo etadi. Masalan, o'zbek oilalarida bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalab kelganlar, isrofgarchilikka yo'l qo'y manganlar. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda, so'mni ayamas. Sahovatning ziddi bahillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrovdur. Alloh. Taolo isrof qiluvchilarni suymas».

Ota-bobolarimizning o'z farzandlarini tejamkor bo'lishga undaganlarini xalq og'zaki ijodi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, tejamkorlik mavzui xalq maqollarida ham o'z aksini topgan. Zero, bu maqollar yuz yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning dilida saqlanib kelgan.

Maqollar kishilarning tarixiy tajribasi sifatida ko'pgina sinovlardan o'tib

shakllanadi va chuqur ma'no kasb etadi. Mana ularning ayrimlari: «Tejagan-birga birni qo'shar, tejagan birini ham boy berar», «Pul topish uchun kuch-quvvat kerak, tejash uchun-fahmu-farosat», «O'zingnikini bir bor tejasang, xalqnikini ming bor teja», «Tejamligu rasomadlik-aka-uka, to'g'riligu halollik-opa-singil», «Tejamkor-olqish olar, isrofgar koyishga qolar» va hokazo. Respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini, uning ilmiy salohiyatini saqlab qolish, mustaqil, ongli ravishda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda mas'uliyatli qaror qabul qila oladigan erkin shaxsni tarbiyalamasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy etgan jamiyatning iqtisodiy, intellektual, madaniy, ma'naviy va axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va zamonaviy o'zbek jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yangi iqtisodiy sharoitlar maktabgacha yoshdagi mustaqil, faol, mehnatkash, iqtisodiy jihatdan savodli, yuqori axloqiy, insoniy shaxslarni tarbiyalash zarurligini belgilaydi, bu esa insonning keyingi hayotiy faoliyatining asosi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash, iqtisodiy madaniyat asoslarini shakllantirish, bolalarni iqtisodiyotga jalb qilish, dastlabki iqtisodiy ta'lim iqtisodiy sotsializmning omillaridan biri bo'lib, bolaning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlariga va umuman, bola shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot nazariyasida o'rganilayotgan muammolarning xilma-xilligi tahsinga loyiq, biroq maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning pedagogik shartlarini o'rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. A. S. Makarenkoning fikriga ko'ra, erta

yoshdan boshlab bola oilaviy sharoitda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga odatlangan bo'lishi va halollik, g'amxo'rlik, tejamkorlik, mas'uliyat haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. XX asrning 70-yillarida olimlar L.N. Ponomaryov va L. E. Epstein iqtisodiy tarbiya xalq xo'jaligini rivojlantirishning muhim omili, ishlab chiqarishni ilmiy tashkil etishning zarur sharti hamda yosh avlodning mehnat va mol-mulkka to'g'ri munosabatni shakllantirishning muhim vositasi sifatida targ'ib etishdi. "Iqtisodiy ta'lim", "iqtisodiy tarbiya", "iqtisodiy tayyorgarlik" kabi tushunchalarni talqin qilishda tadqiqotchilar A. F. Amend, L. P. Kurakov, B. T. Lixachev, V. A. Povstik, V. D. Popov, A. S. Prutchenkovlarning nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, biz iqtisodiy tarbiya shaxsning axloqiy va iqtisodiy fazilatlarini shakllantirishning maqsadli jarayoni-tejamkorlik, mas'uliyat, samaradorlik, tadbirkorlik, shuningdek, qiymat munosabatlariga yo'naltirilgan odamlarning iqtisodiy hayoti haqidagi bilimlarni o'zlashtirishning maqsadli jarayonidir, degan umumiy ta'rif berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotining holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ta'lim jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning yaxlit nazariyasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Maktabgacha yoshda iqtisodiy ta'lim muhitining mazmuni quyidagilardan iborat: obyektiv muhit (o'yinga asoslangan iqtisodiy muhit yaratish); ijtimoiy -"qiziqishlariga atrof-muhit (ota-onalar, ta'lim jamoasi MTT), voqea-bilim muhiti (qiziqarli ekskursiyalar, mashhur odamlar bilan uchrashuvlar) va axborot muhit (jumboq, illyustratsiyalar, do'konlar, banklar, xizmat markazlari, shahar sanoat korxonalarini xaritasi, tanga namunalari). Tarbiyachi ijtimoiy agentlarning

ma'lumotlarini professional tarzda qayta ishlab, ushbu ta'sirni maqsadli yo'naltira olishi, ijtimoiy rivojlanish holatini pedagogik holatga aylantira olishi, yetakchi axloqiy va iqtisodiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim muhitini yarata olishi lozim. Iqtisodiy ta'limning yana bir sharti-oila, odamlar, jamiyat va jamiyatning iqtisodiy ahvoriga oid bolalar faoliyati turlarini (o'yin, mehnat, bilim) tashkil etish va to'ldirish, shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning ijobiy me'yorlari va tanash va iqtisodiy ta'lim bo'yicha faoliyat turlari bolalarning maqsadlari, vazifalari, yoshiga bog'liq. O'yin bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda faol omil bo'lganligi sababli, o'yin mazmunini hayotiy muhim jihatlar bilan boyitilishi juda muhimdir. Jumladan, bola iqtisodiyot to'g'risidagi bilimning dastlabki tushunchalarini o'yinlar orqali egallashi iqtisodiyot haqidagi g'oyalarni aniqlashtirish va mustahkamlash, odamlarning iqtisodiy hayoti haqida yangi bilimlarga ega bo'lish, bolaning o'zi, uning atrofidagi kattalar va tengdoshlari uchun muhim bo'lgan bilimlarga muvofiq to'g'ri harakatlar, munosabatlar, faoliyatlarda namoyon bo'lish imkonini beradi. Oila iqtisodiyoti, ona shahri, viloyat, biznes sohasidagi kasb-hunar haqida bilim olishning eng muhim rag'batlantiruvchi omillaridan biri-bu iqtisodiyotga bo'lgan bilim va qiziqishni rivojlantirishdir, bu esa bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Maktabgacha ta'limda mezonlarga mos keladigan ko'rsatkichlarning mavjudligi va majmui bo'yicha iqtisodiy ta'lim darajasini: yuqori, o'rta, past darajada baholash mumkin.

Yuqori darajada: bolalar iqtisodiy tushunchalarning boshlang'ich ma'nosini tushuntirishlari, ota - onalarning ishiga aniq va barqaror qiziqish ko'rsatishlari, ota-onaning kasbi haqida tushunchaga ega bo'lishlari, iqtisodiy so'zlar va iboralarni ishlatishlari mumkin; o'yinlarda olingan bilimlarni

hayotda qo'llay olishlari mumkin; ular kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilishga tayyor, ko'plab savollar berishadi va ularga mustaqil ravishda javob topishga harakat qilishadi; ishda kattalar va tengdoshlarga yordam berish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ongli ravishda muomala qilish, ish mavzulariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uning natijalari, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, o'z mehnatlari va o'rtoqlarining natijalarini to'g'ri baholashga qodir; materiallardan oqilona foydalanish; samarali faoliyat jarayonida ishbilarmon, qobiliyatli, ixtirochi, tengdoshlarning ijodiy izlanishlarini faol qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi; tashabbusni qabul qilishga intiladi va biladi, vazifalarni qat'iyat bilan bajaradi, boshlangan ishni oxirigacha olib keladi.

O'rta daraja: bolalar iqtisodiy tushunchalar haqida g'oyalarga ega, lekin ularni har doim tushuntira olmaydi; ularning oila ehtiyojlariga, ota-onalarning ishiga beqaror qiziqish bor; ularda mavjud bo'lgan bilimlar tiniq bo'lmay, noaniq, yuzaki; bolalar atrofdagi hodisalar haqida faqat tarbiyachi o'yin sharoitlari, mashqlar, ijodiy vazifalar orqali bilimga qiziqishni kuchaytirgandan so'nggina savollar berishadi, ular atrofdagi dunyo haqida yetarli g'oyalarga ega, ammo o'yinda mavjud bo'lgan bilimlardan qanday foydalanishni bilishmaydi; kattalar rahbarligi ostida o'z faoliyatini tashkil qilish, o'z vaqtida topshiriqlarni bajarish; moddiy qadriyatlarga sodiqlik bilan munosabatda bo'lish, ular kuchli, tashabbuskor, ishlashga ijodiy yondashishni bilishadi, lekin tayinlangan ishlar vijdonan, faqat kattalar rahbarligi ostida o'z vaqtida amalga oshiriladi; ular har doim faol emas, maqsadga erishishda qat'iyatlilikni qisman namoyon eta oladi.

Past darajadagi: bolalar iqtisodiy tushunchalarning ma'nosini tushuntira olmaydi, oila ehtiyojlariga qiziqish

ko'rsatmaydi, ota-onalarning ishi, zamonaviy jamiyatning atrofidagi hodisalari, nutqda iqtisodiy so'zlarni ishlatmaydi; samarali faoliyatga qiziqish bildirmaydi, faqat tashqi kuzatuvchilar sifatida harakat qiladi; ular ishni oxirigacha olib kelmaydilar, birgalikda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida qanday muzokara qilishni bilishmaydi, tezda ishlashga qiziqishlarini yo'qotadilar va o'z ishlarini qoldirib, o'yinga qaytishadi; shaxsiy va ijtimoiy mulkka nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga moyil emaslar; ishni bajarayotganda ular o'z natijalarida hech qanday qiziqish bildirmaydi; mas'uliyatsiz, tashabbuskor, maqsadga erishishda qat'iyatlilikni ko'rsatmaydi.

Mazkur iqtisodiy ta'lim darajasini 6-7 yoshdagi bolalarda aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: intervyular, shaxsiy suhbatlar, kuzatish. Ularga "Odamlarga pul nima uchun kerak?", "Reklama nima uchun qilinadi?", "Nega kitob, o'yinchoq, buyumlar, tabiatni muhofaza qilishimiz kerak?", "Do'konga borsang oilaga nimalarni sotib olish kerak?" kabi savollar bilan murojaat qilish orqali bolaning iqtisodiy tafakkurini aniqlash mumkin.

Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarining ahamiyati

Xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga yehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida ye'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil yetadi.

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda

qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlab ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligina muhim





## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK KREATIVLIK VA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

ISAKOV JASURBEK ARIFJONOVICH,

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, Arxitektura va qurilish kafedrası v.b  
professori

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida rahbarlik qilishning liderlik qilish madaniyati hamda pedagogik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Boshqaruv, kompetensiya, ta'lim tizmi, pedagogic mahorat, qonun va qaror

**Аннотация.** В этой статье описывается культура лидерства в управлении образовательным учреждением, а также формирование креативности и профессиональной компетентности в педагогическом менеджменте.

**Ключевые слова.** Управление, компетенция, система образования, педагогические навыки, право и решение

**Annotation.** This article describes the culture of leadership of the educational institution and the formation of creativity and professional competence in pedagogical management.

**Key words.** Management, competence, educational range, pedagogical skill, law and decision

Bugungi o'quvchi-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun pedagog namunaviy intellektga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o'z kasbi bilan bog'liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Hozirgi zamondagi yosh avlodni tarbiyalayotgan professor-o'qituvchilarimiz o'z shogirdlariga Vatanga sadoqat, mehroqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy maslahat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashga odatlantirish va ijod qilishni o'rgatishi lozim. Bo'lajak pedagoglarga kreativlik bo'yicha ijodiy faoliyat turlarini shakllantirish quyidagicha bo'ladi.

Kommunikativ kompetensiya - o'qituvchidan to'laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda ta'lim oluvchi va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Informatsion kompetensiya - o'qituvchi o'z fani va unga bog'liq holda bo'lgan barcha yangiliklardan xabardor

bo'lishi zarur. Shuning uchun ham pedagog axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik takt va pedagogik etika mavzusi bo'yicha talabalarga nazariy materiallar beriladi, seminar mashg'ulotlarini bajarishlari uchun uslubiy maslahatlar beriladi. Talabalar o'z ustilarida muntazam ishlab, berilgan seminar mavzusi topshiriqlarini turli axborot vositalaridan foydalanib bajarish hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishlari darajasiga yetishgan, ya'ni pedagogik kompetentliklar shakllanishi kerak.

Pedagog faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi hamda pedagogik takt va pedagogik etika mavzusini yoritishda o'qituvchi faoliyatida muomala madaniyatining o'ziga xos turlari, muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, pedagogik etikaning mohiyati va xususiyatlari hamda o'qituvchi etikasida dilkashlik va pedagogik

takt bo'yicha bilimlar beradi. Bu bilimlar amaliy va seminar mashg'ulotlari jarayonida mustahkamlanib boriladi. Mavzu yakunida talabanning bilimi testlar yoki boshqa topshiriqlar orqali tekshiriladi. Har bir modul bo'yicha mavzular shu tarzda talabalarga yetkazilib, ularda shu fan bo'yicha bilim va ko'nikmalari shakllantirib, bo'lajak o'qituvchi xislatlari tarbiyalanadi, pedagogik kompetentligi shakllantirib boradi.

Zamonaviy maktabni boshqarish murakkab, ko'p komponentli tashkiliy tuzilishlarga ega bo'lib, bunda asosiy maqsadga, ya'ni o'quvchilarni bo'lajak mustaqil hayotga tayyorlash, ularni mehnatga va murakkab ijtimoiy shart-sharoitlarga mustaqil ravishda tezroq moslashishlarini ta'minlashga erishishda ta'lim muassasasidagi barcha subyektlarning sa'y harakatlarini shu maqsad yo'lida birlashtirish, o'zaro hamkorlik muhitini yaratish muhimdir.

Tadqiqotchi A.Nosirov rahbarlik menejmentida kompetentsiyani muhimligini ta'kidlab o'z fikrlarini bildiring boshqarishda qo'yidagi qobiliyat kompetentsiyalari:

1. Standart kompetentsiya ushbu ya'ni faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilab olishi qobiliyatidir;
2. Asosiy kompetentsiya - ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilash olish qobiliyati;
3. Yetarli kompetentsiya kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati;
4. Kasbiy kompetentsiya - pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirishdan iborat, deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi Temurov D - ta'lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni o'zlashtirishni amaliy faoliyatiga qo'llash bo'yicha qo'yidagi tamoyillarni tavsifa qiladi:

1. Ong va faoliyat birligi. Ushbu tamoyil rahbarning ta'lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni o'zlashtirishni va amaliy faoliyatda qo'llashi.
2. Ta'lim muassasasini boshqarishning ilmiy

va g'oyaviyligi. Mazkur tamoyil boshqaruvga yuksak g'oyaviylik hamda ilmiy asoslangan quyidagi muvofiq boshqariladi.

3. Ta'lim muassasalarida boshqaruvning izchil va uzviylik .Ushbu tamoyil rahbarlar samaradorligining demokratik harakatda kasb kasb etishini anglatadi .

4. Ta'lim muassasasida rahbar boshqaruvning gumanitar xususiyatlarga ega ekanligi. Mazkur tamoyil ijtimoiy faoliyat negizida umum-jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlar ifodalaydi.

5. Ta'lim muassasalarini boshqarishga har tomonlama (kompleks) tizimli yondashuv. Ushbu tamoyil o'ziga ta'lim muassasa xodimlari bir ijtimoiy faoliyat birlashtiradi.

6. Ta'lim muassasalarini boshqarishning muayan aniq maqsadga yo'naltirilganligi. Mazkur tamoyil ta'lim muassasasining ijtimoiy harakatdagi faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda harakatlarning tashkil etishi bilan izohlanadi

G.Kunts va S.O.Dannelning aniqlashicha, "agar bo'ysunuvchilar rahbarlar tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar va ehtiyojlarga ko'ra boshqarilsa, ular o'z imkoniyatlarining taxminan 60 yoki 65% darajasida ishlashi mumkin, ya'ni o'z ishida saqlanib qolish maqsadida, shunchaki o'z majburiyatlarini qoniqarli darajada bajaradi, bo'ysunuvchilarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun, rahbarlar liderlikni amalga oshirish bilan ularda tegishli mulohaza shakllantirishi zarur" Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq boshqaruvning tarkibiy qismidir. Saylab qo'yilgan yoki tayinlangan rahbar qator funktsiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 23- avgustdagi xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan bo'lgan

telemuloqotda quyidagicha fikrlarni bildirganlar: "Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri - kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodligi va o'z kasbini sevishidir. Bu fazilatlar pedagoglarni boshqa kasb egalariidan ajratib turadi".

Bugungi o'quvchi-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun bugungi pedagog namunaviy intellektga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o'z kasbi bilan bog'liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bugungi professor-o'qituvchi o'z shogirdlariga Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy maslahat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashga odatlantirish va ijod qilishni o'rgatishi kerak bo'ladi.

Pedagogik takt va pedagogik etika» mavzusi bo'yicha talabalarga nazariy materiallar beriladi, seminar mashg'ulotlarini bajarishlari uchun uslubiy maslahatlar beriladi. Talabalar o'z ustilarida muntazam ishlab, berilgan

seminar mavzusi topshiriqlarini turli axborot vositalaridan foydalanib bajarish hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishlari darajasiga yetishgan, ya'ni pedagogik kompetentliklar shakllanishi kerak.

"O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi hamda pedagogik takt va pedagogik etika" mavzusini yoritishda o'qituvchi faoliyatida muomala madaniyatining o'ziga xos turlari, muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, pedagogik etikaning mohiyati va xususiyatlari hamda o'qituvchi etikasida dilkashlik va pedagogik takt bo'yicha bilimlar beradi. Bu bilimlar amaliy va seminar mashg'ulotlari jarayonida mustahkamlanib boriladi. Mavzu yakunida talabaning bilimi testlar yoki boshqa topshiriqlar orqali tekshiriladi. Har bir modul bo'yicha mavzular shu tarzda talabalarga yetkazilib, ularda shu fan bo'yicha bilim va ko'nikmalari shakllantirib, bo'lajak o'qituvchi xislatlari tarbiyalanadi, pedagogik kompetentligi shakllantirib boradi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. Kenjaboyev A, Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz 2022 yil. 100 bet.
3. Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta'lim jur. 2020 № 10. 83 bet.
4. Kenjaboyev A.E. "Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi -bugungi kun talabidir". Xalq ta'limi jurnali 2020 yil №

## DUDUQLANISHNI LOGOPEDIK SHAXOBCHA SHAROITIDA BARTARAF ETISHGA QARATILGAN KORREKSION ISH USLUBLARI

RAXMATOVA DILNAVOZ A'ZAM QIZI

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika  
va inklyuziv ta'lim fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish sabablari, turlari, darajalari yoritilgan. Shuningdek, duduqlanishni logopedik shaxobcha sharoitida bartaraf etishga qaratilgan korreksion ish uslublari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** duduqlanish, duduqlanuvchi bolalar, maktabgacha yosh, fiziologiya, nutq, psixika, artikulyatsiya, fonema, nutq, klonik, tonik, aralash, nevro'z, shaxobcha olimlar, korreksiya.

**Abstract** This article describes the characteristics, causes, types, and levels of the speech of preschool children who stutter. Also, corrective work methods aimed at eliminating stuttering in the conditions of a speech therapist are described.

**Key words:** stuttering, stuttering children, preschool age, physiology, speech, psyche, articulation, phoneme, speech, clonic, tonic, mixed, neurosis, branchial scientists, correction.

**Аннотация** В данной статье описаны особенности, причины, виды и уровни речи детей дошкольного возраста, страдающих заиканием. Также описаны методы коррекционной работы, направленные на устранение заикания в условиях логопеда.

**Ключевые слова:** заикание, заикающиеся дети, дошкольный возраст, физиология, речь, психика, артикуляция, фонема, речь, клоническая, тоническая, смешанная, невроз, жаберные ученые, коррекция.

Zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir bolaga uning aqliy rivojlanishi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun munosib sharoitlarni ta'minlashga ustuvor ahamiyat beradi. Ko'p jihatdan, shaxsning qulay rivojlanishi va bolaning ijtimoiylashuvining muvaffaqiyati shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini o'z ichiga olgan ijtimoiy ko'nikmalarning shakllanish darajasi bilan ta'minlanadi.

Psixologlarning (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontiev, M.I.Lisina, V.S.Muxina va boshqalar) qarashlariga ko'ra, muloqot bola rivojlanishining asosiy shartlaridan biri, uning shaxsiyatini shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi va nihoyat, boshqa odamlar orqali o'zini bilish va baholashga qaratilgan inson faoliyatining etakchi turi. Bolaning tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishdagi qiyinchiliklari ko'pincha uning shaxsiy rivojlanishining kechikishiga,

sinf jamoasidagi past mavqega, noto'g'ri moslashishga va tashvishga sabab bo'ladi.

Ta'limiy eksperiment algoritmi bir-biriga bog'langan to'rtta blokni o'z ichiga oladi: metodologik blok, dastlabki-dagnostika blokini, korreksion-texnologik blokini va yakuniy-dagnostika blok.

Ushbu modelning dastlabki diagnostika bloki duduqlanuvchi bolalarini har tomonlama o'rganish, texnikani aniqlash, tadqiqot usullari va materiallarni miqdoriy qayta ishlashni nazarda tutadi.

Ushbu modelning korreksion-texnologik bloki eksperimentning shakllantirish bosqichida amalga oshirildi.

Duduqlanishni logopedik shaxobcha sharoitida bartaraf etishning pedagogik texnologiyasining yaxlit modelining uslubiy asosi zamonaviy aloqa tushunchasi (M.M.Baxtin, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontiev, A.A.Leontiev, M.I.Lisina, T.N.Ushakova,

E.G.Fedoseeva, R.M.Frumkina, A.M.Shaxnorovich, F.Verderber, V.Spitzberg va boshqalar), psixolingvistikada qo'llanilgan, duduqlangan bolalarni o'qitishda kommunikativ va integratsiyalashgan yondashuvlar.

Duduqlanishni logopedik shaxobcha sharoitida bartaraf etishda psixolingvistik yondashuvning asosi kattalar va tengdoshlar bilan shaxslararo muloqotga qiziqishni saqlab qolish, ichki va tashqi aloqa mexanizmlarini takomillashtirish orqali muloqotga kirishish malakasini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga hissa qo'shadigan bolalar muloqotining kompensatsion zaxiralari. Turli sub'ektiv yo'nalish va kommunikativ vazifalar bilan muloqotning tobora murakkablashib borayotgan holatlariga izchil qo'shilishi bilan og'zaki va og'zaki bo'lmagan kommunikativ vositalardan foydalanish tajribasini to'plash orqali bayonotlarni shakllantirish.

Kommunikativ yondashuv nutq va muloqot ko'nikmalarini tabiiy muloqotga (shu jumladan nutqni yaratishga) imkon qadar yaqin sharoitlarda shakllantirishni o'z ichiga oladi, boshqacha aytganda, u muloqot modeli sifatida o'qitishni tashkil qilishni ta'minlaydi.

Integratsiyalashgan yondashuv duduqlanuvchiga kompleks ta'sir ko'rsatish choralardan iborat bo'lib, asab tizimini yaxshilash va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni (dorivor preparatlar - tiklovchi va tinchlantiruvchi, fizioterapiya, massaj), shaxsiyatni qayta tarbiyalashga (psixoterapiyaning turli), shuningdek, duduqlanishni bartaraf etish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan oilani (va qisman maktabni) korreksion-logopedik ishiga faol jalb qilishga qaratilgan.

Nutq buzilishlarini diagnostika qilish va bartaraf etish tamoyillarini sharhlovchi adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki,

ta'lim tamoyillari masalasi juda muhim, chunki u korreksiya va tarbiya jarayonining bevosita ilmiy asosiga aylanadi, bu aniq usullarni ishlab chiqishni va ularning logopediya amaliyotida empirik tarzda qo'llanilishi ta'minlaydi.

Korreksion-rivjlantiruvchi ishlarning tashxislash va tashkil etish tamoyillarini ishlab chiqishning asl nazariy asosi qonuniyatlar, kompensatsiya va zaxira qobiliyatlari, shuningdek, bolaning rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi ta'limot L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojets, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida korsatib otilgan.

Duduqlanishning beqaror tezligini o'rganish to'g'ri nutqning saqlanib qolgan qismi haqidagi, saqlanib qolgan nutqning nutq faoliyatidagi va nutq vaziyatidagi turli darajali murakkabliklariga bog'liq ravishdagi ko'rsatkichini belgilash to'g'risidagi tushunchalarni asoslash uchun imkoniyat yaratadi. Saqlangan nutq darajasini aniqlash logopedik ishning har bir bosqichidagi asosiy korreksiya vazifalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'yilgan maqsadlarga erishish va yuqorida korsatilgan logopedik vazifalarini hal qilish uchun quyidagi tamoyillarni hisobga olish zarur:

- ilgarilovchi yondashuv tamoyili bir tomondan rivojlanishda funksional va organik kamchiliklari bor bolalarni ertaroq aniqlash zaruriyatini, ikkinchi tomondan shunga mos korreksion oqitishni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

- rivojlantiruvchi-organik tamoyili L.S.Vigotskiyning eng yaqin rivojlantirish zonasi goyasiga asoslanadi-organik bolaning rivojlanishiga olib kelishi zarur.

- polifunksional yondashuv tamoyili bitta mashgulot tuzilmasida bir vaqtning ozida bir nechta korreksiyalash vazifalarini hal qilishni ko'zda tutadi.

- faollik va onglilik tamoyili-oz ishida bolalarning yanada jadal ruhiy rivojlanishiga komaklashadigan bolalarning bilish qobiliyatlarini faollashtirish usullarini koza tutadi, bolaning organilayotgan materialni tushunishi va uni amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qollay olishini koza tutadi.

- yakka yondashuv va tushunarlik tamoyili-patologik jarayonning yosh, fiziologik xususiyatlari va oziga xos tomonini hisobga olishni koza tutadi. bu tamoyilning amal qilishi harakat, nutqiy va musiqiy vazifalarning izchilligi asosida quriladi.

- talablarni asta-sekin oshirib borish tamoyili-shakllanayotgan malakalarni egallab va mustahkamlab borilishi bilan asta-sekin ancha sodda vazifalardan ancha murakkab vazifalarga otishni koza tutadi.

- korgazmalilik tamoyili-bolalarning eshitish, korish va harakat obrazlarini boyitish maqsadida organizmning barcha analizator tizimlarining ozaro uzviy aloqasi va ozaro keng harakatlarini taminlaydi.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi duduqlanuvchi boalarda og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot vositalarida ravonlikni rivojlantirish, ularga turli kommunikativ vaziyatlarda muloqot sub'ektlarining o'zaro ta'sirida o'z rejasini amalga oshirishga imkon berishdir. Pedagogik texnologiya quyidagilarni rivojlantirishga qaratilgan:

sezgi va motor funktsiyalari;

og'zaki bo'lmagan muloqot;

og'zaki muloqot;

hissiy - irodaviy soha;

barkamol va murakkab bo'lmagan shaxs xususiyatlarini shakllantirish.

Nutqiy nafasning buzilish duduqlanishning doimiy buzilishidir. Nutq apparati muskullarida faol tortishishlarni paydo bolishi bilan birga nutqiy nafasning buzilishi quyidagi korsatkichlar bilan xarakterlanadi: nutqni boshlashdan oldin olinadigan havo oqimi kolamining yetarli

emasligi, nutqiy nafasning qisqaligi, nutqiy nafas va fonatsiya ortasidagi koordinatsiyalashgan mexanizmlarining shakllanmaganligi.

Nutqiy nafasni rivojlantirish boyicha ishlash oz ichiga uch bosqichni qamrab oladi:

Nafas apparatining fiziologik imkoniyatlarini kengaytirish (difragmali qovurgali nafasni ornatish).

Davomli fonatsion nafas chiqarishni shakllantirish.

Nutqiy nafasni shakllantirish.

Psixoterapevtik treninglar (Logotrening) - dam olishga, o'z-o'zini kuzatishga, voqealar va his-tuyg'ularni eslab qolishga yordam beradi. Ular mashg'ulotning boshida ham - sozlash maqsadida, ham oxirida - mashg'ulot davomida olingan tajribani birlashtirish uchun o'tkaziladi.

Pedagogik texnologiyada maqsadiga qarab quyidagi kommunikativ mashqlar turlaridan foydalaniladi. Individual mashqlar o'z tanasi bilan aloqani tiklash va yanada chuqurlashtirishga, holatlar va munosabatlarning og'zaki bo'lmagan ifodasiga qaratilgan. Juftlik mashqlari sherikga nisbatan "ochiqlik" ni targ'ib qiladi, ya'ni. his qilish, tushunish va qabul qilish qobiliyati. Talim muassasasi mashqlari birgalikdagi faoliyatni tashkil etish orqali oquvchiga jamoada ozaro munosabat konikmalarini beradi.

Duduqlanishni logopedik shaxobcha sharoitida bartaraf etishning tavsiflangan pedagogik texnologiyasi o'quv yili davomida olib borildi.

Mashg'ulot jadvali: haftasiga 3 ta mashg'ulot.

Mashg'ulot vaqti: 60 daqiqa.

Ta'lim shakli: kichik guruh (3 dan 6 kishigacha). Sinflar bir xil yoshdagi o'quvchilar uchun.

Mashg'ulot tuzilishi:

baqtni tashkil etish;

psixoterapevtik treninglar;

nafas olish mashqlari;  
 artikulyatsion gimnastika;  
 mimik muskullarni rivojlantirish  
 mashqlari;  
 intonatsiya - fonetik va ovozli mashqlar;  
 muloqot mashqlari.

Pedagogik texnologiyani amalga oshirishda mashgulotlarni o'tkazishning didaktik tamoyillari V.I.Seliverstov; A.N.Strelnikovaning nafas olish mashqlaridan mashqlar; psixo-gimnastikani o'tkazish g'oyalari M.I.Chistyakova.

7-8 yoshli o'quvchilarda duduqlanishni bartaraf etishning pedagogik texnologiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bosqichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro bog'liqdir.

Tayyorgarlik bosqichi ikki qismdan iborat:

1. Noverbal muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali muloqotga kirishish malakasini rivojlantirish.

2. Og'zaki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali muloqotga kirishish malakasini rivojlantirish.

Og'zaki bo'lmagan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali muloqotga kirishish malakasini rivojlantirish.

Ushbu bo'limning maqsadi - og'zaki bo'lmagan aloqa vositalaridan erkin foydalanishni rivojlantirish. Maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

aloqaning optokinetik vositalarini takomillashtirish (mimik, pantomimik vositalar yordamida berilgan hissiy holatni etkazish qobiliyatini shakllantirish);

paralingvistik aloqa vositalarini (ovoz balandligi, tovushning davomiyligi va kuchi, ovoz tembri, intonatsion-fonetik va ovozli mashqlar yordamida) rivojlantirish;

aloqaning ekstralingvistik vositalarini (nutqning temp-ritmik tomoni, musiqiy-ritmik mashqlardan foydalanish, bo'g'inlarni,

so'zlarni, metronom ostida o'qishni) rivojlantirish;

vizual aloqani yaxshilash:

- nafas olish mashqlari yordamida nafas olishni rivojlantirish;

- yordamida artikulyatsion vosita ko'nikmalarini rivojlantirish artikulyatsion gimnastika.

Og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish orqali muloqotga kirishish malakasini shakllantirish.

Og'zaki muloqot - bu og'zaki nutq bo'lib, u hanuzgacha muloqotning eng keng tarqalgan va fikrlarni etkazishning eng universal usuli bo'lib qolmoqda.

Ushbu bo'limning maqsadi - duduqlanmasdan muloqot qilishning kommunikativ va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.

Nutq mahorati - optimal parametrlar bo'yicha amalga oshiriladigan nutq operatsiyasi. Bunday parametrlar - ongsizlik, to'liq avtomatiklik, til normasiga muvofiqligi, normal sur'at (bajarilish tezligi, barqarorlik, ya'ni o'zgaruvchan sharoitlarda operatsiyaning o'ziga xosligi). Agar ushbu mezonlarga (parametrlarga) ko'ra nutq operatsiyasi bizni qanoatlantirsa, o'quvchi uni to'g'ri bajaradi - nutq mahorati shakllanadi.

Asosiy bosqich. Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish orqali muloqotga kirishish malakasini rivojlantirish.

Asosiy bosqichning maqsadi - kommunikativ faoliyatni amalga oshirish jarayonida boshqa odamlar bilan samarali munosabatda bo'lish uchun olingan bilimlardan faol foydalanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni turli vaziyatlardagi harakatlarni rivojlantirish.

Ushbu bosqichning maqsadi quyidagi vazifalarni hal qilish jarayonida amalga oshirildi:

- shaxslararo muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish: bolalarni jamoaviy ishning



berilgan qoidalariga rioya qilishga, bir-biri bilan mohirona muloqot qilishga, yaxshi ishbilarmonlik munosabatlarini ornatish va saqlashga orgatish;

"Bahs-munozara" metodida o'quvchilarga o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini tug'ri topishga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarini shakllantirish, muammo yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoning yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammo kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish hisoblanadi.

Mazkur metodlar o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatiga ham ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Zero o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish, mustakil fikrlashga o'rgatish, bilim olishga qiziqishlarini uyg'otish pirovardida o'quvchi faoliyatini oshirishni ta'lim texnologiyalarning mohiyatini belgilaydi. Xalqimiz ta'lim - tarbiyaga oid boy ma'naviy merosga ega bo'lib, avlodlarga vatanparvarlik, insonparvarlik, samimiymilik, kamtarlik, mexnatsevarlikni o'rgatish kabi umuminsoniy fe'l-atvorlarni tarbiyalab keladi.

Xulosa qilib aytganda musiqa madaniyati ta'limi va tarbiyachi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni mukammal ado etish, o'quvchilarning o'quv dasturi materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari juda ko'p va xilma-xil omil-larga bog'liq bo'lib, bu omillar



## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QITISH MUHITINI YARATISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

KURBONOVA GULMIRA USMONOVNA

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativ o'qitish muhitini yaratish kompetensiyalarini shakllantirish mavzusiga bag'ishlanib, kompetensiya, kompetensiya turlari, kompetensiyaviy yondashuv, kollaborativ o'qitish muhitini yaratishning ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, hamkorlik muhiti.

**Аннотация:** Данная статья посвящена теме формирования компетенций по созданию среды обучения в сотрудничестве у будущих учителей, выделены компетенции, виды компетентности, компетентностный подход, важность создания среды обучения в сотрудничестве.

**Ключевые слова:** сотрудничество, общение, творческое мышление, критическое мышление, творческое мышление, командная работа, среда сотрудничества.

**Annotation:** This article is devoted to the topic of formation of competences for creating a collaborative learning environment in future teachers, competence, types of competence, competence approach, the importance of creating a collaborative learning environment are highlighted.

**Key words:** collaboration, communication, creative thinking, critical thinking, creative thinking, teamwork, collaborative environment.

Bizga ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Barcha sohalar qatori kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunda mamlakatimizning har bir fuqarosi umumiy madaniyatining zaruriy elementi bo'lib, umumta'lim maktabini bitirgan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotning turli jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari kerak. So'nggi paytlarda «kompetensiya», «kompetensiyaviy yondashuv» kabi tushunchalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon xalqaro tendensiyalar ta'sirida ham, ulardan qisman mustaqil ravishda ham rivojlanmoqda.

Hozirgi vaqtda kompetensiyaning umumiy qabul qilingan yogona ta'rifi mavjud emas. Barcha ta'riflar umumiy bo'lib, uni asl mohiyati shaxsning turli vazifalarni yengish qobiliyati sifatida tushuniladi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «kompetensiya» so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi.

Kompetensiya (lotincha: *competo* -erishyapman, munosibman, loyiqman) - 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. [1].

Ta'limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish

tushuniladi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh kadr bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, kollaborativ o'qitish texnologiyalari (collaborative learning) asosida kompetensiyani shakllantirish juda muhim vazifalardan sanaladi. Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha kollaborativ o'qitish texnologiyalari dunyoning aksariyat mamlakatlarida qo'llanilib, umumiy ta'lim va boshqa ta'lim muassasalarida ikkala jinsdagi bolalar va yoshlarni o'qitish deb ta'lqin etiladi.

Ta'limni isloh qilish tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq. Ana shunday innovatsion yondashuvlar kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab oladi.

-Kollaboratsiya – ta'lim oluvchining jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;

-Kommunikativlik - odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;

-Kreativ fikrlash-o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish; I

-----+Kritik fikrlash-o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish demakdir.

Mashhur ingliz psixologi J. Raven "Zamonaviy jamiyatdagi kompetensiya" (1984 yil, London) asarida kompetensiyaning 37 turini ko'rsatib o'tadi.

1. Muayyan maqsadga nisbatan qadriyatlar va munosabatlarni tushunishga moyillik;

2. O'z faoliyatini nazorat qilish tendensiyasi;

3. His-tuyg'ularning faoliyat jarayonida ishtirok etishi;

4. Mustaqil bilim olishga tayyorlik va qobiliyat;

5. Fikr-mulohazalarni izlash va ulardan foydalanish;

6. O'ziga ishonch;

7. O'z-o'zini nazorat qilish;

8. Moslashish;

9. Kelajak haqida o'ylashga moyillik;

10. Maqsadlarga erishish bilan bog'liq muammolarga e'tibor berish;

11. Fikrlash mustaqilligi, o'ziga xosligi;

12. Tanqidiy fikrlash;

13. Murakkab masalalarni hal qilishga tayyorlik;

14. Har qanday bahsli ish ustida ishlashga tayyorlik;

15. Atrof-muhitni o'rganish;

16. Sub'ektiv baholarga tayanishga va tavakkal qilishga tayyorlik;

17. Fatalizmning yo'qligi;

18. Maqsadga erishish uchun yangi g'oyalar va innovatsiyalardan foydalanishga tayyorlik;

19. Innovatsiyalardan foydalanishni bilish;

20. Jamiyatning yangilanishiga ishonch;

21. O'zaro manfaat va istiqbollar kengligini belgilash;

22. Qat'iyatlilik;

23. Resurslardan foydalanish;

24. Ishonch;

25. Xulq-atvor ko'rsatkichlari sifatida qoidalarga munosabat;

26. Qaror qabul qilish qobiliyati;

27. Shaxsiy javobgarlik;

28. Maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilish qobiliyati;

29. Belgilangan maqsadga erishish uchun odamlarni birgalikda ishlashga undash qobiliyati;

30. Odamlarni tinglash va ularning aytganlarini hisobga olish qobiliyati;

31. Xodimlarning shaxsiy salohiyatini sub'ektiv baholash istagi;

32. Odamlarga mustaqil qarorlar qabul qilishga ruxsat berishga tayyorlik;

33. Nizolarni hal qilish va kelishmovchiliklarni yumshatish qobiliyati;

34. Bo'ysunuvchi sifatida samarali ishlash qobiliyati;

35. Boshqalarning turli turmush tarziga bag'rikenglik;

36. Plyuralistik (Manfaatlar, g'oyalar, qarashlarning ko'pligini) siyosatni tushunish;

37. Tashkiliy va ijtimoiy rejalashtirish bilan shug'ullanishga tayyorlik[2, 230].

Kompetensiya – o'quvchining tegishli kompetensiyani o'zlashtirish natijasi bo'lib, uning faoliyat predmetiga shaxsiy munosabati kiradi. Shu sababli ma'lum bir ta'lim sohasidagi kompetensiya – bu muayyan faoliyat sohasiga xos muammolarni samarali aniqlash va hal qilish imkonini beradigan tegishli bilim, ko'nikma va ko'nikmalar, qobiliyat va tajribalarning kombinatsiyasi [3]. Kompetensiya – ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan sohadagi faoliyati tajribasi bilan bog'liq bo'lgan talabaning shaxsiy fazilatlarini (qadriyat-semantik yo'nalishlar, bilim, ko'nikma, qobiliyatlar) majmui hisoblanib uning tarkibiy qismlari mavjud.

Kollaborativ o'qitish muhitini yaratish kompetensiyalarini shakllantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

1. Kommunikatsiya: O'qituvchilar o'rtasida samarali va ishonchli kommunikatsiya o'rnatish. Bu, fikr almashish, fikrlarni bayon etish, maslahatlashish va jamoatda ishonchli aloqani ta'minlashga yordam beradi.

2. Hamkorlik: O'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor berish. Bu, bir-biriga qo'llab-quvvatlash, fikrlarni birgalikda ishlab chiqish va yaratishda ko'maklashishni o'z ichiga oladi.

3. Ta'lim-tarbiya texnologiyalari: Kollaborativ o'qitish muhitini yaratishda ta'lim-tarbiya texnologiyalarini samarali va foydali shaklda qo'llash kerak. Bu texnologiyalar o'quvchilarning faol qatnashishini, ma'lumot almashishini va amaliy mashg'ulotlarni o'rganishini oshirishga yordam beradi.

4. Qo'shimcha resurslar: Kollaborativ o'qitish muhitini yaratishda qo'shimcha resurslardan foydalanish. Bu, onlayn platformalar, maqolalar, videolar, mashg'ulotlar va boshqa materiallar orqali o'quvchilarga qo'llanma ta'minlashga imkon beradi.

5. O'quvchilarni motivatsiyalash: Kollaborativ o'qitish muhitini yaratishda o'quvchilarni motivatsiyalashning ahamiyatini tushuning. Ular uchun ilhomlantiruvchi vazifalar, maqsadlar va muvaffaqiyatni rag'batlantiruvchi mukofotlar tuzing.

Kollaboratsiya-texnologiyasini qo'llaganda:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi; Innovative Development in Educational

- o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha egallagan ko'nikma, bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq eta olishini ta'minlashi;

- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari, qobiliyatlarini namoyish qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta'limda eng muhim pedagogik jarayon dars hisoblanadi. Har bir o'qituvchi darsda kolloborativ yondashuv asosida o'quvchilarning bilim faoliyatini tashkil



## ЛОГОПУНКТЛАРДА ЎҚИТУВЧИ-ЛОГОПЕДНИНГ ҲАМКОРЛИКДАГИ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

АЮПОВА МУКАРРАМ ЮЛДАШЕВНА

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети “Логопедия”  
кафедрасининг профессори

**Аннотация.** Ушбу мақолада умумтаълим мактаблари логопедининг бошланғич синф ўқитувчиси, мактабгача таълим ташкилотларининг логопедлари ҳамда ота- оналар билан ҳамкорлиги масалалари ёритиб берилган

**Калит сўзлар:** нутқ, коррекция, логопед, бошланғич синф ўқитувчиси, фонетик-фонематик, лексик-грамматик, талаффуз, талаффуз нуқсонлари, ёзма нутқ.

**Аннотация.** В данной статье освещены вопросы сотрудничества логопедов общеобразовательных школ с учителями начальных классов, логопедами дошкольных образовательных организаций и родителями.

**Ключевые слова:** речь, коррекция, логопед, учитель начальных классов, фонетико-фонематические, лексико-грамматические, произношение, дефекты произношения, письменная речь.

**Annotation.** This article highlights the issues of cooperation between speech therapists of secondary schools with primary school teachers, speech therapists of preschool educational organizations and parents.

**Keywords:** speech, correction, speech therapist, primary school teacher, phonetic-phonemic, lexico-grammatical, pronunciation, pronunciation defects, written speech.

Коррекцион ишларнинг самарадорлиги ўқитувчи – логопеднинг бошланғич синф ўқитувчиси билан олиб боровчи ҳамкорлигига боғлиқ.

Кўпинча ўқитувчи – логопед бошланғич синф ўқитувчилари томонидан норозиликлар бўлишига дуч келади. Бунинг сабаби бошланғич синф ўқитувчилари, айниқса катта авлод вакиллари логопедик ишнинг мақсадини тўғри тушунмасликлари натижасида келиб чиқади, уларнинг фикрига кўра логопед фақатгина товуш талаффузида нуқсонни бўлган болалар билан иш олиб бориши керак ва улар товушларнинг барчасини тўғри талаффуз қилувчи, бироқ ёзма нутқ нуқсонларига эга бўлган болаларнинг логопед томонидан машғулотларга олишини тушунмайдилар. Мана шу сабабга кўра ўқитувчи – логопед ва бошланғич синф ўқитувчиси орасида келишмовчиликлар пайдо бўлади.

Худди шундай вазиятни олдини олиш учун логопед ўқув йилининг бошидаги пе-

дагогик кенгашда нутқ нуқсонларининг турлари ва уларнинг ўқувчилар томонидан барча фанлардан ва айниқса она тили, ўқишдан ўқув материалларини ўзлаштиришларига таъсир этиши ҳақида маълумот билан чиқиш қилиши керак. Шунингдек логопед ўзининг чиқишида коррекцион ишнинг мазмуни, уни ташкил этиш, коррекцион ишларнинг она тили ва ўқиш дастурлари билан боғлиқлиги ҳақида ҳам гапириб ўтиши керак. Тажрибаларнинг кўрсатишича, бошланғич синф ўқитувчилари логопедик ишларнинг мақсади ва вазифалари билан яқиндан танишгач, бу жараёнга объектив ва қизиқиш билан муносабат билдиришни бошлайдилар.

Ўқув йили давомида логопед бошланғич синф ўқитувчиларини ёзув ва ўқиш жараёнларини ўзлаштиришга тўсқинлик қилувчи нутқ нуқсонларининг ўзига хослиги, синфдаги улгурмовчи ўқувчиларга дифференциал ёндошув (иложи бўлса мактабда таълим олаётган аниқ ўқувчилар

мисолида) ҳақида, бошланғич синф ўқитувчилари ўз иш жараёнларида қўллашлари мумкин бўлган айрим логопедик иш усуллари ва машқлари ҳақида, логопедик пунктда фақатгина интелекти ва эшитиши нормада бўлган логопед ёрдамига муҳтож болаларгина шуғулланиши, бундан мустасно бўлган ўқувчиларни тегишлми тартибда мутахассис – шифокорларга юбориш кераклигини ва махсус муассасаларга юборишда ўқитувчи – логопед, ҳамда бошланғич синф ўқитувчиси бажариши керак бўлган расмий ишлар тўғрисида таништириб бориши лозим.

Тарғибот ишларини янада самарали бўлиши учун ўқитувчи – логопед ўқув йили давомида бошланғич синф ўқитувчилари учун бир нечта очиқ дарслар бериши керак.

Ўқитувчи – логопед она тили ва ўқишга ўргатиш методикасини, синфларда қайси мавзунини қайси вақтда ўтилишини яхши билиши, ва ўз машғулотларида давлат дастури талабларига риоя этиши керак. Ўқитувчи – логопед ва бошланғич синф ўқитувчиси ҳамкорликда логопад болага бир хилдаги талабларни қўйишлари, унинг нутқий камчиликларини мавзунини ўзлаштирмаганлик ёки грамматик қоидаларни билмаслик билан боғлиқ бўлган хатоликлар билан адаштирмаслик ва ўқувчини баҳолашда алоҳида эътиборли бўлиш муҳимдир. Зарур деб топганда ўқитувчи – логопед бошланғич синф ўқитувчиларига логопедик хатоликлар ва уларнинг қайси нутқ нуқсони билан келиб чиққанлигини эслатиб турувчи эслатма тайёрлаши ва тарқатиши мумкин.

Бошланғич синф ўқитувчилари учун эслатманинг намунаси

I. Фонематик жараёнлар ва эшитув идрокнинг шаклланмаганлиги билан шартланувчи хатолар:

1) ҳарф ва бўғинларнинг тушиб қолиши – “машина” (машина);

2) ҳарф ва бўғинлар ўрнининг алмашиши – “рекмала” (реклама);

3) ҳарф ва бўғинларни сўз охирида ту-

шириб қолдириш, тўлиқ ёзмаслик – “олд” (олди);

4) ортиқча ҳарф ва бўғинлар қўшиб сўзларни узайтириш – “бувви” (буви);

5) сўзни умуман ўзгартириб юбориш – “ичча” (чой ич);

6) сўзларни қўшиб ёзиш ёки ихтиёрий жойидан ажратиш – “кир ибкелди” (кириб келди), “тезке” (тез кел)

7) матнда гапларнинг чегарасини аниқлай олмаслик, гапларни қўшиб ёзиш – “Менинг отам ҳайдовчи. Ҳайдовчининг иши оғир у машинани. Яшхи билиши керак мен ҳам. Мактабни тугатгач мен ҳам машина ҳайдашни ўрганаман”;

8) бир ҳарфни бошқаси билан алмаштириш – “макдаб” (мактаб);

II. Нутқнинг лексико-грамматик томонларининг шаклланмаганлиги билан шартланувчи хатолар:

1) аграмматизм;

2) олд қўшимча ва қўшимчаларнинг ажратиб ёки қўшиб ёзиш.

Болаларда кузатиладиган нутқ нуқсонларини коррекция қилишда комплекс ёндошувни таъминлаш мақсадида икки муҳим муассаса – мактабгача таълим муассасаси ва мактабдаги логопедик пунктларнинг ҳамкорлигига эришиш муҳимдир. Уларнинг ҳамкорликда ишлашлари болалардаги нуқсонларни олдини олиш ва бу нуқсонларнинг ўқувчилар томонидан ёзув ва ўқиш малакаларини ўзлаштиришга салбий таъсири минимал даражага олиб келади. Бундан ташқари, мактабгача таълим муассасаларининг логопедларининг мактаб логопедик пункти логопеди ҳамкорликда ишлашлари, болаларни ўрганиб чиқиш ва уларга ёндошувни аниқлашга сарфланувчи вақтни нисбатан тежалишига олиб келади.

Бу икки муассасанинг логопедлари ҳамкорлиги асосан ҳамкорликда ташкил этиладиган туман метод кенгашларида амалга оширилади ва уларда ташкилий, методик масалалар ҳал этилади, илғор тажрибалар ўрганилади.



Ташкилий масалаларга авваламбор, мактаб логопунктида логопедик гуруҳларни ташкил этиш ишлари киритилади.

Мактабгача таълим муассасаларининг логопедлари ўқув йилининг охирида (15 майда) уларнинг тарбияланувчилари тумандаги қайси мактабларга кетишларини аниқлашади ва болаларнинг фамилияси, исми, уй манзили ва телефон рақами, таълим олувчи мактаби рақами, ҳамда мактабгача таълим муассасасини тугатиш вақтидаги логопедик хулосани кўрсатган холда болаларнинг рўйхатини тузади. 15 майдан кейин ушбу маълумотлар мактабгача таълим муассасаларида бошланган коррекцион ишлар мактаб логопедик пункти логопеди томонидан давом эттирилиши учун унга тақдим этилади.

Ўқув йилининг бошида, биринчи метод шўъбада мактабгача таълим муассасаларининг логопедлари ва мактаб логопедик пункти логопедлари янги ўқув йилидаги ҳамкорлик ишлари режасини тузиб оладилар, унда метод кенгашларни ўтказилиш миқдори ва вақти, асосий коррекцион иш турларининг йўналишлари кўрсатилиб ўтилади.

Мактаб логопедик пункти логопедининг ишида логопунктга қабул қилинган болаларнинг ота-оналари катта кўмакчи ҳисобланадилар.

Логопед илк бор ота-оналар билан сентябр ойининг ўртасида, гуруҳларни тузиб олгач ва машғулотлар жадвали чиқгач ота-оналарни йиғанида учрашади. Тажрибаларнинг кўрсатишича, ота-оналарнинг аксарият қисми ўқитувчи – логопед нима иш қилишини умуман билмайдилар. Бундан ташқари, айрим ота-оналар уларнинг фарзандлари логопунктга жалб этилганлигига салбий муносабат билдирадилар ва шу аснода келишмовчиликлар келиб чиқади.

Мана шундай келишмовчиликларнинг олдини олиш мақсадида логопед сентябр ойининг бошида бошланғич синф ўқитувчиси йиғган ота-оналар мажлисида иштирок этади ва умуман ўзининг иши мазмуни

ҳақида қисқа ахборот беради. Логопед нутқ нуқсонлари бу фақатгина товушлари талаффуз қилишдаги нуқсон эмаслигини, товушларни барчасини тўғри талаффуз қилувчи ўқувчиларда ҳам ёзув ва ўқишни ўзлаштиришга тўсқинлик қилувчи фонетико-фонематик, лексик ва грамматик нуқсонлар кузатилишини, бунинг натижасида эса ўқувчи барча фанларни ўзлаштиришга қийналишини ота-оналарга тушунтириб бериши керак. Мана шундай арзимасдек туюлган, лекин боланинг мактаб дастурини ўзлаштиришида муҳим ҳисобланган нуқсонларни логопунктдаги машғулотлар натижасида бартараф этиш мумкинлигига ота-оналарни ишонтириши зарур.

Логопед ота-оналар йиғилиши ҳақида бошланғич синф ўқитувчиси орқали хабар бериши, янада кўпроқ алоқани ўрнатиш мақсадида ота-оналарга мажлис ўтказилиш вақти ва жойи кўрсатилган таклифнома хатлари ёки телефон қўнғироғи орқали мурожаат этиши мумкин.

Дастлабки йиғилишда логопед нутқ нуқсонлари ҳақида тўлиқроқ маълумот беради ва ҳар ота-оналарга уларнинг фарзандларида аниқланган нуқсон, бунинг натижасида келиб чиқиши мумкин бўлган оқибатлар тўғрисида маълумот беради ва дисграфик болаларнинг ёзма ишларидан намуналар келтиради, уларни тушунтиради.

Сўнгра гуруҳ ва гуруҳчаларнинг таркиби, машғулотларнинг жадвали билан таъиништиради ва тўлдириш учун “Ўқувчиларнинг индивидуал харита”ларини тарқатади. Ота-оналарнинг эътиборини “Ўқувчиларнинг индивидуал харита”ларига имзо қўйиш орқали улар бошланғич синф ўқитувчиси билан тенг равишда болаларнинг логопункт машғулотларига қатнашишларига жавобгарликни олаётганликларини алоҳида таъкидлаб ўтиш керак.

Ота-оналар логопунктнинг йиллик иш режаси, яъни ўқувчилар йил давомида нималар билан шуғулланишлари, логопунктга қатнаш учун ўқувчиларга керак бўладиган

ўқув қуроллари (машғулотлар ва назорат ишлари учун катак дафтарлар ва қизил, кўк, яшил рангдаги ручкалар) ҳақида маълумотга эга бўладилар.

Шунингдек, ота-оналарга оиладаги нутқий тартиб, ўз фарзандларига ёндошув, болаларнинг луғат бойлигини ошириш мақсадида уй шароитида бажариладиган ишлар, логопадларга чиройли ва тўғри ёзувга эришиш учун уй вазифаларини бир неча бора кўчиртириш мумкин эмаслиги, фарзандлар уй вазифаларни бажаришларида ортикча зўрикмасликлари учун санитария нормаларида белгиланган 1-синфлар учун - 1 соат, 2- ва 4- синфлар учун - 1-1,5 соатдан оширмаган вақт ичида барча фанлардан уй вазифаларини бажаришни тугатиш кераклиги айтиб ўтилади.

Зарурият сезилганда логопед болаларни мутахассис – шифокорлар кўригига юбориши мумкинлигини, буни боланинг манфаатларини ўйлаб қилишини эслатиб ўтиши керак. Товушлар талаффузида камчилиги бўлган болалар ота-оналарига уларнинг фарзандларида товушлар талаффузини мустаҳкамлаб бориш, иш самарадорлигини ошириш ва коррекцион ишларнинг чўзилиб кетмаслиги учун кундалик-вазифалар дафтари тутилиши шартлиги маълум қилинади.

Ўқув йили давомида ота-оналар билан ўтказиладиган маслаҳат-консултациялар кунлари ва вақтини маълум қилиш билан бирга доимий равишда логопед билан алоқада бўлишларини тайинлайди.

Логпед машғулотларига қатнамаётган, уй вазифаларини бажариб келмаётган, психоневролог ёки нервпотологнинг кўригига муҳтожлиги сезилган болаларнинг ота-оналари мактабга алоҳида таклиф этилади ва сабаблари ўрганилади.

Ўқув йилининг охирида ота-оналар яна мажлисга таклиф этиладилар. Бу мажлисда ўқувчиларда содир бўлган ўзгаришлар, бажарилган ишлар, бунда ота-оналар ўрни ва улар томонидан бажарилган ишлар, логопунктдан чиқариладиган, ҳамда кейинги

ўқув йилида логопед ёрдамига муҳтож болаларнинг рўйхати маълум қилинади.

Мажлиснинг иккинчи қисмини ёзги таътилда ота-оналарга вазифалар ва маслаҳатлар бериш, логопедик ишларни ҳам узлуксиз уй шароитида давом эттириб бориш иш самарадорлигини камайишини олдини олишини эслатиб ўтади. Ёзда болалар ўзларининг луғат бойликларни оширишлари учун муҳим вақт эканлигини, ота-оналар фарзандларига яқин кўмакчи бўлишлари лозимлигини таъкидлаши зарур.

Тадқиқотларнинг исботлашича, нутқ нуқсонига эга бўлган болаларнинг аксарияти эрта ривожланиш даврида нотўғри нутқий тарбиялангандир. Олимларнинг таъкидлашича, шахс ўз ривожланиши даврида 5 ёшгача нормал ривожланаётган бола 2,5-3 мингта сўз бойлигига эга бўлса, 5 ёшдан 60 ёшгача яна шунча сўз бойлигини ўзлаштириш қобилиятига эга бўлар экан. Шунинг учун болаларга ўз вақтида тўғри нутқий тарбияни сингдириш, бунинг зарурлигини тарғиб этиш логопедларнинг иш фаолиятидаги муҳим томонларидан бири бўлиши керак. Фарзандининг фанларни ўзлаштира олмаётганидан йиллар давомида ташвишланиб юрган ота-оналар логопедларнинг маслаҳатларини тинглагач: “Сабаби бунда эканлигини билганимда эди!”, - деб кўзларига ёш олган ҳолатлар ҳам кўп учрайди.

Логопед тарқибот ишларини болалар мактабга келадиган мактабгача таълим муассасаларида, поликлиника ва маҳаллаларда олиб боришлари керак. Бунда муассасаларнинг раҳбарларидан руҳсат олиш ва оғзаки бўлса ҳам шартномалар тузиш керак.

Бундай тарқибот ишларида нутқ нуқсонлари, уларнинг яққол кўзга намоён бўлмайдиган, бироқ боланинг мактабда таълим олишига таъсир этувчи турлари ҳақида гапириш, болаларнинг дафтарларини, видео тасмаларни кўрсатиш, уларни шарҳлаб бориш муҳимдир.

Шунингдек, оила шароитида ота-оналар бажаришлари керак бўлган ишлар, кун-



## ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

САФАРОВА САНОБАР ОМОНТАШЕВНА

доцент кафедры Клинические основы специальной педагогики, ТГПУ  
имени Низами

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены актуальные вопросы внедрения инклюзивного образования, основная цель которых, направлена на широкое внедрение данной системы образования. Главной задачей современности является забота о детях и подростках, нуждающихся в специальной помощи, социальная поддержка их прав, организация образовательного процесса в соответствии с потребностями и возможностями детей. В статье предоставлены основные сведения и результаты исследований о развитии инклюзивного образования. Кроме того, всесторонне освещена проблема того, на что необходимо сделать основной упор для развития инклюзивного образования. А также представлены выводы и предложения по развитию инклюзивных компетенций.

**Ключевые слова:** особые образовательные потребности, инклюзивное образование, интегрированное образование, специальный педагог, развитие, обучение, дети с ограниченными возможностями, сотрудничество.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga g'amxo'rlik qilish, ularning huquqlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini bolalarning ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish hozirgi davrning asosiy vazifasidir. Maqolada inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha asosiy ma'lumotlar va tadqiqot natijalari keltirilgan. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi muammosi har tomonlama yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** maxsus ta'lim ehtiyojlari, inklyuziv ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, maxsus o'qituvchi, rivojlanish, o'qitish, nogiron bolalar, hamkorlik.

В нашей стране прекрасно развита система социальной защиты детей и предоставления образовательных услуг лицам с ограниченными физическими возможностями.

Указы Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № ПФ-5712 «Об утверждении Концепции развития системы государственного образования Республики Узбекистан до 2030 года» и «Дети с особыми образовательными потребностями» «О мерах для дальнейшего совершенствования системы образования» от 13 октября 2020 года, PQ-4860 – это одна из многообещающих попыток каждого ребенка найти свое место в обществе.

Важное значение для дальнейшего со-

вершенствования системы инклюзивного образования и решения практических задач приобретает принятое главой нашего государства решение «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования детей с особыми образовательными потребностями». В выступлении Президента Шавката Мирзиёева на 46-й сессии Совета ООН по правам человека особое внимание было уделено стратегическим вопросам, в том числе ратификации Конвенции о правах инвалидов. Учитывая, что в мире насчитывается почти 1 миллиард людей с ограниченными возможностями, это чрезвычайно важная инициатива.

В Узбекистане реализуются меры, направленные на широкое внедрение системы

инклюзивного образования, проекты государственного и негосударственного сотрудничества по изучению международного и национального опыта работы. Инклюзивное образование означает, что дети с ограниченными возможностями получают специальное образование по специальным программам наряду с основной учебной программой в общеобразовательных школах регионов проживания и участвуют вместе со сверстниками в классных занятиях.

Чтобы облегчить образовательный процесс, необходимо внедрить специальную систему педагогического, психолого-педагогического сопровождения ребенка. Специальный педагог выступает ведущим специалистом, который проводит и координирует коррекционно-воспитательную работу с ребенком.

В инклюзивном образовании главным фактором является профессиональное мастерство классного руководителя. Требования к его личностной компетентности следующие: отношение педагога к детям должно быть гуманным, уровень социальной компетентности детей с отклонениями в развитии должен быть повышен.

Основное назначение условий внедрения инклюзивного образования соответствует Указу Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития системы государственного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля, 2019 № ПФ-5712 Развитие инклюзивного образования в Узбекистане, совершенствование системы образования детей с особыми образовательными потребностями и повышение качества предоставляемых им образовательных услуг, а также «Специальное образование» от 13 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования детей с особыми потребностями» во исполнение решения РQ-4860, находится в ведении Министерства народного образования, высшего и среднего специального образования.

Целью является популяризация инклюзивного образования среди педагогических работников, сотрудники, психологи, ученые, студенты и общественность.

В 2020-2025 годах реализация следующих вопросов по внедрению и развитию инклюзивного образования в системе народного образования направлена на:

- совершенствование нормативно-правовой базы в сфере системы инклюзивного образования;

- подготовка, переподготовка и повышение квалификации квалифицированных педагогов для системы инклюзивного образования;

- укрепление материально-технической базы учреждений, где внедряется инклюзивное образование, необходимой литературой, методическими пособиями; предоставление оборудования и расходных материалов для обучения различным профессиям;

- внедрение современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сфере инклюзивного образования;

- создание позитивной социальной среды среди населения путем разъяснения права на образование детей с особыми образовательными потребностями, сущности инклюзивного образования;

- реализация мер, направленных на предотвращение дискриминации детей с особыми образовательными потребностями, негативного обращения с ними;

- реализация мер, направленных на обеспечение права на инклюзивное образование каждого ребенка с особыми образовательными потребностями;

- совершенствование методов обучения в инклюзивном образовании и постепенное внедрение принципов индивидуализации в образовательный процесс;

- оптимизация количества специализированных государственных образовательных учреждений для детей с особыми об-

разовательными потребностями исходя из физических и психических потребностей обучающихся и территориального расположения образовательных учреждений.

Всем детям, независимо от их способностей и обстоятельств, должно быть предоставлено качественное образование. (ЮНИСЕФ)

Инклюзивное образование — это философия и подход, которые способствуют участию и достижениям всех учащихся, независимо от их различных способностей, происхождения и характеристик. Она стремится создать инклюзивную среду обучения, в которой каждый ученик чувствует себя ценным, уважаемым и поддерживаемым. Однако успешная реализация инклюзивного образования требует разных потребностей учителей и учащихся.

включая знания, навыки, отношения и практику, необходимые для удовлетворения требует инклюзивной компетентности.

Ребенок с ограниченными возможностями, которому нужна чья-то помощь от его имени. Но мы забываем, что не все дети одинаковы.

Среди них есть и дети, имеющие право на получение образования и приобретения знаний, а также здоровые дети, мало нуждающиеся в помощи. Хотя качество коррекционно-педагогической работы специального образования и воспитания находится на высоком уровне, возникают некоторые проблемы в адаптации к нашей социальной жизни, поскольку дети с особыми потребностями не получают образования и воспитания в здоровой среде.

Поэтому мировым сообществом признается, что обучение детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья в возрастно-стратегической системе образования вызывает множество негативных последствий, и поддерживается политика инклюзивного образования. По мнению Л. С. Выготского: «Нашим специальным школам свойственны как преимущества, так и

некоторые недостатки, которые ограничивают их воспитателей узким школьным сообществом: глухой, слепой или умственно отсталый ребенок находится в центре внимания, ориентируясь на имеющиеся недостатки в организме, он закрывается, приспособлявая все условия к этому дефекту. Все это мешает ребенку войти в реальную жизнь. Вместо того, чтобы выводить ребенка из ограниченного мира, спецшкола обычно развивает такие навыки, что в результате усиливается его сепаратизм, и ребенок глубже погружается в свой собственный мир.

Также в результате демократизации реформы образования на международном уровне и борьбы с дискриминацией изменилось мировоззрение общества, сформировался новый подход, взаимное уважение и позитивный настрой среди людей разных категорий. Начата реализация политики пересмотра развития сферы специального образования.

Многие страны отказались от «сегрегационного» образования и сочли необходимым внедрить интегрированное образование для детей с ограниченными возможностями. В нашей стране основное внимание уделяется обучению детей с ограниченными возможностями в дифференцированных специальных образовательных учреждениях, и эта образовательная система развита.

В течение следующих 10-15 лет в Узбекистане реализуется вопрос включения детей с ограниченными возможностями в систему общего образования на комплексной и инклюзивной основе. Стратегия интеграции и инклюзивного образования предполагает интеграцию детей, не занимающихся наукой, в полную систему специального или инклюзивного образования в общеобразовательных учреждениях, а коррекционное образовательное учреждение, в связи с удаленностью от места жительства детей, до общеобразовательных учреждений. в районах их проживания., состоит из преподава-

ния.

Интегрированное образование. В настоящее время в России бурно развиваются интегративные модели обучения детей с образовательными потребностями, основанные на принципе нормализации. Преимуществом данной модели является возможность образовательной организации и родителям выбрать удобную для ребенка форму интеграции. В образовательной практике разработаны различные интегрированные модели обучения детей с отклонениями в развитии.

Постоянная частичная интеграция эффективна для детей, которые вместе со своими нормально развивающимися сверстниками могут приобрести лишь небольшую часть необходимых навыков и умений и могут проводить с ними лишь часть учебного и внеклассного времени.

Временная частичная интеграция, при которой все учащиеся специальной группы (класса) независимо от уровня психофизиологического и речевого развития объединяются со здоровыми детьми не реже 2 раз в месяц для проведения различных образовательных мероприятий.

На постоянной очной форме для детей, умственное развитие которых несколько ниже возрастной нормы, нуждающихся в систематической и существенной коррекционной поддержке, но способных учиться вместе и наравне со своими нормально развивающимися сверстниками по ряду интегрированных предметов.

Эпизодическая интеграция – целенаправленная организация минимального социального взаимодействия детей-инвалидов со сверстниками.

Непрерывная полноценная интеграция может быть эффективна для детей, соответствующих возрастным нормам по психофизиологическому и речевому развитию и психологически готовых к обучению вместе со здоровыми сверстниками. Эта модель интегрированного образования близка к добавлению своих особенностей.

Исследования показывают, что инклюзивные программы развития компетенций вносят значительный вклад в улучшение знаний и навыков учителей в удовлетворении разнообразных потребностей учащихся. Эти программы включают специализированное обучение, возможности совместного обучения и постоянную поддержку со стороны экспертов в этой области. Учителя, участвующие в таких программах, демонстрируют улучшенную практику преподавания, повышенную уверенность в себе, а также вовлеченность и успеваемость учащихся.

Для достижения указанной эффективности в инклюзивном образовании решаются следующие задачи:

- создание необходимых материально-технических, психолого-педагогических и коррекционных условий для обучения обучающихся с ограниченными возможностями здоровья во всех образовательных учреждениях;

- гарантирование права на равенство в образовании среди учащихся;

- обеспечение права детей и подростков-инвалидов на жизнь без отрыва от семьи;

- формирование в обществе доброжелательного и любящего отношения к детям и подросткам с ограниченными возможностями здоровья;

- устранение препятствий между детьми-инвалидами и здоровыми детьми при активном участии общества и семьи, ранняя адаптация к социальной жизни;

- увеличение количества активных участников развития общества, дальнейшее сокращение числа безработных;

- на основе повышения качества образования для всех развивать экономику государства и поднимать моральный дух народа.

Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями в основном организуется в учреждениях, близких к месту проживания детей с особыми потребностями. Такие учреждения определяют различия





# GLOBALLASHUV DAVRIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH (BOSHLANG'ICH SINFLAR MISOLIDA)

YO'LDOSHEV OTABEK ABDUG'ANIYEVICH

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta'lim  
fakulteti dekani.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalar asosida boshlang'ich sinflarda darslarni mazmunli, samarali tashkil etish, o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'quvchining bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz berishi, izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati, o'quvchida atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishi lozimligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiya, kompyuter texnikasi, mobil aloqa vositalari, internet tarmog'i, boshlang'ich ta'lim, an'anaviy ta'lim metodlari, sivilizatsiya.

Kirish. Bugunda raqamli axborot makoni o'quvchi yoshlar ongida hayotiy haqiqatni to'g'ri anglashi va globallashuv davrida turli oqimlar, harakatlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllanishida asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

XXI asr yangi texnologiyalar bilan birga hayotimizga shiddat bilan kirib keldi. O'zbekiston Respublikasida shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ta'lim tizimini, ayniqsa, boshlang'ich ta'limni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Sifatli ta'lim olish ehtiyojining kuchayishi O'zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta'lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylikning asosiy omilidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son va "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va

moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida" 2017-yil 18-dekabrda PQ-3437-son qarori hamda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida texnogen sivilizatsiya tushunchasining yuzaga kelishi, kategorial tahlili, metodologik asoslari, davrlararo texnogen o'sishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat mavqei uning salohiyatini ta'lim-tarbiyaning kichik yosh maktab o'quvchilariga yaratilgan sharoitlar bilan bog'liq holda ko'rish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kompyuter texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'limda joriy etilishi bilan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi subyektlarning faoliyatlarida keskin burilish jarayoni sodir bo'ldi, texnogen sivilizatsiya jarayonlarida yoshlar "ommaviy madaniyat", millat va yurt uchun butunlay begona bo'lgan salbiy axborot ta'sirlariga tushib qolish xavfi kuchaydi. Ayniqsa, Internet saytlari orqali yaxshi g'oyalar bilan birgalikda, diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik misolida yot, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi mumkinligi

masalani yanada murakkablashtirdi.

Ayniqsa, an'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi sababli, an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qolgandilar. O'qituvchining to'la nazorati o'quvchilarda motivatsiyani vujudga keltirmay, balki o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha xatti-harakatlar qat'iy talab asosida sodir bo'lishi o'quvchida ijodiy tashabbusni uyg'otmay, aksincha o'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydilar. Chunki har bir dars bosqichi muayyan qoidalarga asoslanganligi va bu bosqichlar o'qituvchining ixtiyorida sodir bo'layotganligi muloqotning har xil shakllarini namoyon bo'lishiga ehtiyoj tug'dirmaydi. Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir-xil bo'lmaganligi sababli sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin, ya'ni an'anaviy ta'limda mashg'ulotga va bilish jarayoniga o'quvchilarni qiziqitiruvchi har xil uslublar, xotirani mustahkamlovchi o'yinli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlaridan foydalanilmasligi mazkur oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilim bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

An'anaviy sivilizatsiyada ijtimoiy jarayonlar o'zgarish sur'ati evolyutsion tarzda kechib, vorisiylik xarakteriga egadir. Unda ta'lim-tarbiya jarayoni ajdodlar tajribasini

jamlovchi an'analar, me'yorlar, fikrlash uslublariga ustuvorlik berilishi bilan alohida ajralib turadi. Vaqtning idrok etishda davrlar almashinuvi nazarda tutilgan bo'lib, ibtidoiy jamoat tizimidan hozirgi tezkor axborot asrigacha bo'lgan vaqtda ta'lim-tarbiyaning bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, dunyoqarash dominantlarining barqarorligi bilan belgilangan. Bunda, asosan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitishda tafakkuriy dunyoqarashni rivojlantirish, bilimga munosabatni rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan.

Zero, zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, o'quvchining bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu, o'quvchida atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishi lozim.

Birinchidan, o'qituvchining mashg'ulotdagi vaqtini tejash va tezkor ravishda ko'proq ma'lumot berishga erishishga imkoniyat yaratiladi. Fan va texnika jadal rivojlanib borayotgan hozirgi kunda jamiyat a'zolarining aksariyat qismi turli zararli g'oya va mafkura tashuvchi axborot xurujlarini baholash ko'nikmasiga ega emas. To'g'rirog'i, buning uchun ularda texnogen ko'nikma yetishmaydi. O'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladigan ta'lim jarayonida shaxsning tafakkuri, ma'lumoti va tarbiyasi ham shakllana boradi.

Ikkinchidan, bolalarning kichik yoshda eslab qolish qobiliyatlari yuqori ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning texnogen

sivilizatsiya vositalari bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. O'quvchilar matnni shunchaki o'qiydilar. Ko'rgazmali, mexanik vositalar ularning diqqatni tortib, mashg'ulotga qiziqishini oshirib, diqqat va e'tiborini mashg'ulotga qaratishga undaydi va natijada sinfdagi barcha o'quvchilar faol ishtirok etadilar. Bu texnologiyani o'qitishning tushuntirish va illyustrativ usuli deb qarash mumkin, uning asosiy maqsadi o'quv materialini muloqot qilish orqali o'quvchilar tomonidan axborotlarni o'zlashtirishni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli idrok etilishini ta'minlashdan iborat bo'lib, vizual xotira ulanganda takomillashadi. Bu boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiya jarayoni samadorligini oshirish pedagogdan katta mas'uliyatni talab etib, uning asosiy vazifasi sinflar kesimida qulay texnogen muhitni yarata olishi bilan belgilanadi.

Texnogen boyitilgan ta'lim-tarbiya jarayonida murakkab mazmundagi material material o'rganilayotganda ham an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda unga turli-tuman o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtiradi, o'zlashtirish darajasini rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion / Recommendations). Darslarda o'qituvchi o'z bilim, ko'nikma va malakalarini turli texnik vositalarda o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borib,

undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuningdek ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda Microsoft Power Point va Windows Movie Maker kabi dasturlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda multimedia effektlari bilan bitta slayd filmiga mo'ljallangan bir qator axborotlarga boy slaydlarni tez va oson yaratish imkonlari foydalidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minotlar bundan mustasno, zamonaviy multimediali ensiklopediyalar, lug'atlar, o'quv elementlariga ega o'yinlar o'qituvchi va metodistning maxsus moslashuvi, ijodiy ishlarini talab etadi. Ayniqsa, o'qituvchining o'zi tomonidan tuzilgan o'quv va nazorat kurslari (taqdimot dasturlari, kompyuter sinflari) qiziqarlidir.

Birinchidan, ular yangi materialni metodik jihatdan to'g'ri taqdim etishni ifodalaydi.

Ikkinchidan, o'quv rejasiga muvofiq materialni taqdim etishda qat'iy ketma-ketlik kuzatiladi.

Uchinchidan, mashg'ulotlarda foydalaniladigan didaktik material imkon qadar xilma-xil bo'lishi va kerak qadar tez-tez yangilanib turishi mumkin.

Dars mavzusi qanchalik murakkab va zerikarli bo'lmasin, ekrandagi o'quv materialini ranglarda, tovush va boshqa effektlar bilan taqdim etilsa, o'quvchiga qiziqarli bo'ladi.

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

1. Котенко В.П. История и философия технической реальности. –М.: Трикста, 2009.
2. Коменский Я.А., Локк Д., Руссо Ж.-Ж., Песталоцци И.Г. Педагогическое наследие. -Москва: Педагогика, 1989. -416 с.
3. Коджаспирова Г. М. История образования и педагогической мысли: таблицы, схемы, опорные конспекты. - М., 2003.- С. 69.
4. Краевский В.В. Общие основы педагогики. Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений. -М.: «Академия», 2003. -256 с.
5. Крутецкий В.А. Основы педагогической психологии. -М.: Просвещение, 1972. –253.
6. Кручинина Е.А. Новые информационные технологии в учебном процессе / Мультимедийные обучающие программы. - Нижний Новгород, 2000.
7. Латишина Д.И. История педагогики//О великих педагогах: Коменский, Песталоцци, Руссо, Ушинский. Учебное пособие. -М.: 2003.

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DOIR ISHLAR TIZIMI

SALOMOVA GULNOZA

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

SHODIBOYEVA MOHINUR

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta'minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutq o'z ichiga oladi. U mazmunliligi, mantiqliligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o'zlashtirganligining ko'rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estelik, emotsional jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ushbu maqolada bolalar bog'chasida nutq o'stirish mashg'ulotining tutgan o'rni, uni tashkil qilish shakllari va metodlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, nutq o'stirish mashg'uloti, til boyligi, ravon nutq.

**Abstract:** All the child's achievements in acquiring the language system include fluent speech, which is considered as a meaningful, widespread thought that provides communication. It is distinguished by its content, logic and consistency. Fluent speech is an indicator of how well the child has mastered language, it reflects the child's level of mental, aesthetic, emotional development. This article talks about the role of speech training in kindergarten, forms and methods of its organization.

**Key words:** Preschool educational organization, speech training, language richness, fluent speech.

**Аннотация:** Ко всем достижениям ребенка в овладении языковой системой относится беглая речь, которая рассматривается как осмысленная, распространенная мысль, обеспечивающая общение. Его отличает содержание, логика и последовательность. Беглая речь является показателем того, насколько хорошо ребенок овладел речью, она отражает уровень умственного, эстетического, эмоционального развития ребенка. В данной статье говорится о роли речевого обучения в детском саду, формах и методах его организации.

**Ключевые слова:** дошкольная образовательная организация, речевая подготовка, языковое богатство, беглая речь.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o'stirish fanining o'rni, ahamiyati kattadir.

Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi.

Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalari fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr muloqazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodikasi fanining o'qitilishi, nutq o'stirish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'stirish

vazifalarini to'g'ri hal etish imkonini beradi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'zbek tili qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari uchun xizmat qilmoqda.

Respublikamiz mustaqilligi o'zbek tili taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi, tilimiz mustaqillikning mohiyatini ifodalash, ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tili ta'limini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish ularga ona tilini amaliy o'rganish demakdir.

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920-yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi, so'ng mustaqil fan sifatida shakllandi.

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan "Ilk qadam" tayanch dasturini o'quv jarayoniga joriy etish, nutq o'stirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'stirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq me'yorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar kompleksini hal etishda quyidagilar alohida hisobga olinadi:

1. Insondagi bilish instinkti, tug'ma qiziquvchanlik nutq vositasida amalga

oshiriladi.

2. Bola nutq ishtirokida olamni bilib boradi. Psixologlarning kuzatishicha, tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlar nutq orqali o'zlashtiriladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish nutqni rivojlantirishda keng imkoniyatlar tug'diradi.

Shunga ko'ra tarbiyachilar maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini to'g'ri yo'naltirishni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiradi. Bolalar nutqini rivojlantirish samaradorligiga erishish uchun ularning bilim darajasi, qiziqishi va shaxsiy qobiliyati xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Shu narsa aniqlanganki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning barcha harakat va xulqini boshqarishda bosh miya faoliyatining roli ortib boradi. Ya'ni bolalar boshqalarning xatti-harakatlarini, atrofda kechayotgan voqea-hodisalarni bilishga va baholashga intiladilar. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar bajaradigan faoliyat turlari ham xilma-xil va mazmunli bo'lib boradi. Demak, bolalar faoliyatining sermahsul turlari nutq o'stirishda katta rol o'ynaydi. Bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi birgalikda uyushtiriladigan o'yinlarda yuqori darajada shakllanadi. Ijtimoiy foydali mehnat va o'qish kabi faoliyat turlari tobora ko'proq rol o'ynay boshlaydi. Shu bilan birga, tengdoshlariga nima bilandir ko'mak berish, ular uchun biron-bir foyda yetkazish maqsadida namoyon bo'ladigan mehnatning ijtimoiy motivlari yanada ahamiyatliroq, ya'ni sezilarli bo'lib qoladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar o'z xulqlarini yanada asosliroq

boshqara boshlaydilar. Bolalar tarbiyachisi tomonidan ular oldiga qo'yilgan vazifalar ma'nosini aniq biladilar, topshiriqlarni mustaqil va nuqsonsiz bajarish uchun astoydil intiladilar. Bularning

barchasi nutqni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlari bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, ta'limda biror-bir yutuqqa erishish tarbiyaga bog'liq. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy xulq-odatlarini shakllantirishga muayyan darajada e'tibor berish lozim. Ularda yaxshilik, kamtarlik, adolatlilik, vijdonlilik to'g'risidagi axloqiy tasavvurlarni tarkib toptirish kerak.

Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o'simliklar olami, suv osti dunyosi) to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi. Nutqni rivojlantirishning samaradorligini oshirish rejasida nafaqat tevarak-atrof obyektlari ustida oddiy kuzatishlar (mushohadalar) uchun, balki ularni o'rganish uchun ham sayrlar, sayohatlar o'tkazish muhimdir.

Shu o'rinda tevarak-atrof obyektlarini o'rganishda nimalarga erishish mumkinligini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, nutq o'stirishga oid tevarak-atrof manbalarining o'zini guruhlashtirish taqozo etiladi.

Tevarak-atrofnio'rganishda(tarbiyachilar yoki ota-onalar tomonidan) bolalar shunchaki kuzatmasliklari, balki predmetlarni ularning qismlari, elementlarini ko'rib, jarayonlar, hodisalarni idrok eta borib, ular to'g'risida mulohaza yuritishlari ham lozim. Bunga erishish uchun tarbiyachi oldiga qiyoslash, taqqoslash, ajratish, umumlashtirish, tahlil qilish va boshqa shu kabi usullardan foydalanish vazifasi qo'yiladi. Bundan tashqari, o'rganish jarayonida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarni mehnatning ular uchun qulay bo'lgan turlari (ariqchalarni tozalash, daraxtlar tagini yumshatish, gul lam I parvarish qilish)ga jalb qilish muhimdir. Bunday yondashuv shu bilan bog'liqliki,

inson biron narsani o'z qo'li bilan bajarsa, uni ko'proq va to'laroq esda saqlaydi. Mazkur usul bilan maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqidagi kamchiliklar narsa-predmetlarning nomlarini so'zma-so'z va eslash orqali to'ldiriladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan quyidagi narsalarning to'g'ri hal etilishiga bog'liq:

- nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar (tarbiyachi va ota-onalarning ma'lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o'qib yoki aytib beriladigan ertaklar, qo'shiqlar, hikoyalar);

- ta'limning didaktik materiallarni o'zlashtirish uchun foydalaniladigan metod va usullari;

- ta'limni tashkil etish (tevarak-atrof obyektlarini saralash, shunga bog'liq nutq o'stirishni rejalashtirish).

- o'quv materialining mazmuni, uni o'rganishning ayrim usullari hamda ularga tegishli tamoyillarga tayanib, tarbiyachi nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni rejalashtirmog'i zarur.

Bolalarning tevarak-atrofnini kuzatib borishi natijasida talaffuzi ham ijobiy tomonga o'zgarib boshlaydi; tovushlarni to'g'ri talaffuz qila boshlaydilar, jumlar mazmuni kengaya boradi, grammatik tomondan gapni to'g'ri tuza boshlaydilar, lug'at boyligi ham ortadi. Bolalarning o'zlari kichik-kichik hikoyalar tuza boshlaydilar va bu hikoyalarni erkin bayon qila oladilar. Ularda kattalar bilan muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Shunga ko'ra bolalar nutqida tovush madaniyatini takomillashtirish, atrofdagi narsalar, predmetlar, hodisalar nomini ifodalovchi so'z boyligini kengaytirish, faollashtirish, monologik nutqning oddiy shakllariga rioya etish, o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri va aniq ifodalay olish ko'nikmalarini paydo qilish muhim va zarur

hisoblanadi. Bu talablar bolalarda borliqni, tevarak-atrofnı idrok etish, uni tushunish, his etish, hikoyalar tuzish, o'z fikrini bayon qila olish, ifodali o'qish faoliyati jarayonida tarkib toptiriladi.

Ma'lumki, bog'lanishli nutqda bolalarning atrofdagilar bilan voqe ahodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati, aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jumalalarda o'z aksini topishi mumkin. Nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ularning bog'lanishli nutqi yoshiga ko'ra orqada qolib, qator kamchiliklar mavjud. Shuning uchun biz ularning nutqini kuzatishda odatdagi hayotiy faoliyatidan chetga chiqmaslikka harakat qildik. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1. Ona tili boyligidan unumli foydalanish.
2. Nutqni rivojlantiruvchi omillarni to'g'ri belgilash.
3. Nutqni rivojlantirish jarayoni.
4. Nutqni rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik.
5. Nutqni rivojlantirish mazmuni.
6. Nutqni rivojlantirish shakllari.
7. Nutqda ijtimoiy-maishiy omillarning o'zaro aloqasi.
8. Sayrlar, o'yin va mehnat jarayoni - nutqni o'stirishning muhim vositasi ekanligi.

Bolalarning nutqini rivojlantirish maxsus o'rganilmaydi, natijalari ishlab chiqilib, mashg'ulotlar tizimi belgilab olinmaydi, mashg'ulotlar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda muntazam va izchil olib borilmaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalarining katta guruhlarida bolalarning nutqi qay darajada shakllanganligi aniqlanib, maxsus topshiriqlar ro'yxatini ishlab chiqiladi, har bir bola bilan yakka tartibda mashg'ulotlar olib boriladi.

Misol. Bolaga tavsiya etilgan ertak yoki

hikoyani qayta hikoya qilib bera olishini aniqlash. "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq", "Ikki echki", "Ur, to'qmoq", "Echki bolalari", "Toshbaqa bilan chayon" kabi ertak va hikoyatlardan uchtasini taklif etiladi. Bola ertakni eslay olmasa, shu ertaklarga ishlangan rasmlar havola qilinadi. Bolalar hikoyasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi:

- hikoyani mustaqil bayon qilish (kattalarning yordamisiz);
- matn mazmunining to'liqligi;
- matnni bayon qilishda izchillik;
- ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi;
- nutqning ravonligi.

Tevarak-atrofdagi narsa-predmetlarga oid matnni qayta hikoya qilib berishda bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin.

- bolalar ertakni yordamchi savollar bermasdan turib mustaqil hikoya qila olmaydi;
  - matndagi so'zlarga taqlid qilib so'zlaydi;
  - ba'zi muhim voqealarni tushirib qoldiradi;
  - bir oz to'xtab-to'xtab hikoya qiladi, nutqda uzilish bo'ladi;
  - nutqda ifodalilik yetishmaydi;
  - bir xil tezlikda, bir xil tovushda hikoya qiladi;
  - o'zicha ba'zi so'zlarni qo'shib, ma'nosiz hikoya qiladi;
  - kattalar yordami vositasida hikoya qiladi;
  - hikoya qilish jarayonida matn ma'nosini o'zgartirib yuboradi;
  - mantiqiy izchillikka rioya qilmaydi.
- Bolalarning nutqini o'rganishning eng qulay usuli, shubhasiz, suhbat metodi hisoblanadi. Shuningdek, bolalarning tevarak-atrofdagi mavjud bo'lgan narsalarni kuzatish va ularni tahlil etish, ular haqida sayrlarda uyushtirilgan savol-javoblar ham muhimdir.

Shu bilan birga, bolalarning bog'lanishli nutqini o'rganishda ularning tarjimai holi yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki,

- Bolaning nutqi til qonuniyatlariga to'g'ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o'zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi.

- Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o'simliklar olami, suv osti dunyosi) to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi.

- Tilni to'g'ri o'rganish, uning grammatik tuzilishiga e'tibor berib so'zlashish, bolalarda erkin muhokama yuritish, savollar berish,

boshqalardan eshitgan fikrlari yuzasidan xulosalar chiqarish, narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishning turli ko'rinishlarini anglab yetishga olib keladi.

- Maktabgacha tarbiya muassasasida sog'lom, tabiiy muhit yaratish, ularning to'g'ri muomalaga kirishishi, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo'ladi.

- Bolalarni narsalarning nomlarini to'g'ri aytishga, ularning o'xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalari, jinsi va turiga oid yo'naltiruvchi lug'atini faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, dialogik va monologik nutqini takomillashtirish va nihoyat savod o'rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**



1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. -T.: 2016 y., 29-dekabr.
2. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish». -T.: «O'qituvchi», 1990
3. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish: Sat. ilmiy tr. / Ed. Ushakova O.S. - M.: SSSR APN nashriyoti, 1999 yil
4. Ushakova O.S., Strunina E.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasi. M.: Gumanitar nashriyot markazi, 2004 yil.
5. Ushakova O. S. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida nutq ta'limi. Muvofiq nutqning rivojlanishi: Dok. konspekti . diss . - M., 1996 yil. 6. Ushakova O.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish. M., 2001 yil.



# BOSHLAN G'ICH TA'LIMDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISH UZVIYLIGINI TA'MINLASH OMILLARI

JAMSHID XUDOYQULOV

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda uzviylikni ta'minlash, takomillashtirishning pedagogik shart- sharoitlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich, ta'lim, ona tili, o'qish savodxonligi, o'qitish, uzviylik, ta'minlash, takomillashtirish.

**Abstract:** Pedagogical conditions for ensuring coherence and improvement in the teaching of mother tongue and reading literacy in primary education are highlighted in this article.

**Key words:** primary, education, mother tongue, reading literacy, teaching, continuity, provision, improvement.

**Аннотация:** В статье освещены педагогические условия обеспечения системности и совершенствования преподавания родного языка и читательской грамотности в начальной школе.

**Ключевые слова:** начальное образование, образование, родной язык, грамотность чтения, обучение, преемственность, обеспечение, совершенствование.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20- dekabr kuni Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida birinchi navbatda e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi deb ta'kidladilar. Jumladan davlatimiz rahbari boshlang'ich sinflardan mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qish yo'lga qo'yilishini ta'kidladi. Hozirgi kunda darsliklar xalqaro ekspertizadan o'tib o'zimizda sinovdan o'tkazilayotganligini aytib o'tdilar, bundan tashqari farzandlarimizga maktabda ona tili va chet tillarni puxta o'zlashtirib kompyuterda ishlash kasb-hunarlariga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz o'quvchilarni erkin va kreativ fikrlashga, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakillantirish zarurligiga e'tibor qaratdi. Ma'lumki boshlang'ich

ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil etadi. Binoning mustahkamligi, "ko'p umr ko'rishi" uning poydevoriga bog'liq bo'lganidek umumiy o'rta ta'limning asosi bo'lgan boshlang'ich ta'limga bog'liqligi hech kimga sir emas. Shu bois boshlang'ich ta'limga e'tibor davlatimizning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "Boshlang'ich ta'lim, ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta talimni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, Malaka va ko'nikmalar asoslarini shakillantirishga qaratilgan", - deb ko'rsatilgan.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida ushbu ta'limning maqsadi va vazifalari aniq belgilab berilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimi amal qiladi. Maktabga ilk qadam qo'ygan bolalar yosh xususiyatlari va ruhiy taraqqiyot darajalariga muvofiq keladigan ta'limiy faoliyatga

kirishadilar. Bu davrda o'qish, o'rganishga asoslangan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida har bir o'quv fani bo'yicha bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tevarak atrof va tabiat bilan tanishtirish ijodiy va mantiqiy fikrlash hislatlarini nutq va hulq-atvor madaniyatli shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iboratligi ko'rsatilgan.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili, o'qish va matematika ta'limining ahamiyati beqiyosdir. Bu ta'lim jarayoni o'quv fanlarini o'qitish samaradorligi va sifatini belgilaydi. Ona tili (o'qish) ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga ularda erkin fikrlay olish, o'z fikrlarini og'zaki yozma ravishda bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozimligi uqtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasixalqta'limtizimini2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF 5712-son farmonida ham "Kichik yoshdagi o'quvchilarda sog'lom , kuchli va ta'sirchan munosabatni shakllantirish"ga alohida etibor qaratilgani bejiz emas [3.34]. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan tegishli o'quv meyoriy huquqiy hujjatlarda ham boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirishga etibor qaratilgan.

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda uzviylikni ta'minlash to'g'risida fikr yuritishdan

oldin kichik yoshdagi o'quvchilarning anatomik, fiziologik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyat kashf etadi. Sababi, kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tili va o'qish savodxonligini shakllantirish ko'p jihatdan ularning salomatligiga, jismoniy sifatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Pedagog olimlarning fikrlariga ko'ra "Kichik yoshdagi bolalar jismoniy jihatdan nisbatan teng o'sadilar" o'g'il va qiz bolalar tashqi ko'rinishlari bilan bir birlaridan deyarli farq qilmaydilar. Bo'yi o'rtacha 120 sm, og'irligi 25 kg atrofida bo'ladi. Ko'krak qafaslari va umurtqa pog'onalari suyaklarining yetarlicha qotmaganligi tufayli ular tez shkastlanishlari mumkin. Suyak va muskullar tez o'sadi. Bu davrda o'quvchilarning bosh miyasi og'irligi jihatdan kattalarnikiga tenglashsa ham tuzulishi jihatidan farqlanadi. O'pka, qon tomirlari o'sishda davom etadi. Nafas yo'li va diafragma bo'sh rivojlangan bo'ladi, shu tufayli kichik yoshdagi o'quvchilar harakatsiz qolsalar nafas olishlari sustroq bo'lib, tana a'zolarining kislorod bilan ta'minlanishi yomonlashadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning yuragi o'zidan kattalarnikiga nisbatan ikki marta ko'p qon chiqaradi. Yurak urishi minutiga 90-92 marotabani tashkil etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar eshitgan va o'qiganlarini harfma - harf to'g'ri ma'noda anglaydilar. 6-7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarninig xotirasi juda kuchli taraqqiy etgan, o'qish qobilyati ancha o'sgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning talab va qiziqishlari odat va sezgilari, tasavvur va tushunchalari hayotiy faoliyatlari, diqqat etiborlari, tirishqoqliklari va boshqa jihatlari borasida bir biridan farq qiladi. (6)

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitishda uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda uzviylik tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi. "Pedagogika fanining izohli lug'ati"da "Uzviylik - ta'lim

- tarbiya jarayonini muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etishni ifodalovchi muhim sifat bo'lib, ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi" Uzviylik falsafiy psixologik va pedagogik jihatlariga ega. Pedagogik uzviylik - bu didaktik tamoyil (o'quv jarayonining mazmuni tashkiliy usul va shakllarini belgilab beruvchi asosiy qoida), (ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi holatlar), harakatga keltiruvchi kuch (ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil), ta'lim rivojlanish va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlanadi.

Ta'limda uzviylik ikki xil turda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari (bo'g'inlari) orasidagi uzviylik. Ikkinchidan, o'quv fanlari orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmatlararo integratsiya orqali amalga oshiriladi [7]. Demak, uzviylik - ta'lim mazmunini muayyan ketma - ketlikda tizimli joylashtirilishi, yangi mavzuni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishi, o'quv materialini ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishini, o'quv tarbiya jarayoni bosqichlarning davomiyligini ifodalaydi. Hozirgi kunda uzliksiz ta'lim nuqtayi nazaridan uzviylik muammosining yechimini samarali topish uning amaliyotga tadbiq vositalarini ishlab chiqish zarurati vujudga keldi. Darsda Ta'lim oluvchilar yosh xususiyatlariga mos keladigan ta'lim mazmunini uzviylik talabiga asosan joylashtirish va uni pedagogik jihatdan asoslash muhim ahamiyatga ega. Tanlangan ta'lim mazmuni imkoniyatlaridan kelib chiqish va ta'lim oluvchilar bilim darajasini inobatga olgan holda yangi bilim, ko'nikma malakalarini tizimli va uzviy ravishda shakllantirish ta'lim oluvchilarning

o'zlashtirishini taminlaydi. Ta'lim mazmunini uzviylik asosida shakllantirish nafaqat muayyan fanning o'quv dasturi rejasining tuzilishiga balki unga turdosh bo'lgan fanlar o'quv dasturiga moslashtirish orqali ta'lim samaradorligi ta' sir etadi[7]. Ma'lumki, ayni paytda amaliyotda 1,2,3,4 - sinf o'quvchilari ona tili va o'qish savodxonligi yangi nashr darsliklari o'qitilmoqda. Boshlang'ich sinf 3- sinf O'qish savodxonligi darsligi 120 sahifadan iborat bo'lib, yangi talablar asosida tayyorlangan. Aniqrog'i darslikda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olingan. Mavzular bir biri bilan mantiqan bog'liq, darslikda mavzular bo'yicha berilgan rasm va topshiriqlar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. So'z boyligini oshiradi. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajarish kreativlikni shakllantiradi, bolalar rasmlarga qarab hikoya yozish ko'nikmalari shakllantiriladi. Matnlarda berilgan obrazlarni o'xshashlik tomonlarini aniqlashga harakat qilishadi [8]. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida berilgan mashqlar, matnlar va rasmlar o'quvchilar mustaqil rivojlantirish uchun tizimli ravishda tuzilgan muammoli topshiriqlar kiritilgan. Internet tizimi orqali kirib mustaqil mavzulardan QR kod orqali topshiriqlarni bajarish mumkin. Bevosita mavzuning davomi tushurib qoldirilgan so'zlarni qo'yib matnni o'qish topshirig'i berilgan. O'quvchi matindagi nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlardan tug'ri foydalanishni bilishi va uni joy-joyiga qo'yishni bilishi lozim. Bu vazifani bajargan o'quvchida mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq ko'nikmalar shakllanadi. O'quvchining dunyo qarashi kengayadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi[9].

Boshlang'ich ta'lim muamolari respublikamiz pedagog olimlari tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan R.Mavlonova, M.Quronov, R.Safarova,

B.Adizov, Q.Xusanboyeva, M.Hazratqulovlar ilmiy-tadqiqot ishlarida, nashr etilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalarida boshlang'ich ta'lim mazmuni, kichik yoshdagi o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashning pedagogik shart - sharoitlari, mustaqil fikrlashni shakllantirish muammolari, kichik yoshdagi o'quvchilarning fiziologik xususiyatlari o'z aksini topgan. Ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash omillari ham turli olimlar tomonidan tizimli ravishda o'rganilmoqda. Jumladan, tadqiqotchilar Q.Tursunov va D.Islomovlarning "Ta'limda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash omillari" to'g'risidagi ilmiy maqolasida maktab ta'limi uzviylikni ta'minlash muammolari haqida fikr yuritilib, kelajak avlodni tarbiyalash va o'qitish sifatini oshirish, o'quv tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish va ta'lim tarbiya uzviylikni hamda uzluksizligini ta'minlashning umumiy masalalari ishlab chiqildi [5].

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda uzviylikni ta'minlashni takomillashtirish uchun muammoning quyidagi jihatlariga etibor qaratish lozim:

- boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish uzviylikni ta'minlashning metodik tizimini

takomillashtirish alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilsa;

- boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish uzviylikni ta'minlashda ta'lim bosqichlari o'rtasida sinflararo o'quv fanlaridan mavzular bilimlar va fanlararo uzviylikni tizimli ravishda amalga oshirish yo'lga qo'yilsa;

- boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga oid dars ishlanmalari, o'quv uslubiy qo'llanmalar, tavsiyalar tayyorlanib joylarga yetkazib berilsa;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda oliy o'quv yurtlarining o'quv reja va dasturlariga mazkur muammo bilan bog'liq masalarning yechimlariga ko'proq etibor qaratilsa;

-"Boshlang'ich ta'lim", "Zamonaviy ta'lim", "Xalq ta'limi" jurnallari hamda "Ma'rifat" gazetasida mazkur muammolar kengroq yoritilsa;

-umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etilgan metod birlashmalarda mazkur mavzu bilan bog'liq masalalar muntazam ravishda muhokama etilib tegishli yo'l - yo'riqlar belgilab olinsa, boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda uzviylikni ta'minlashdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'lar edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun T.:2020-yil 23-sentabr, O'RB -637
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019-yil 29-aprelda PF-52 12 son Farmon
4. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. T.: 2015-yil
5. Tursunov Q, Islomov D. Ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash omillari // Zamonaviy ta'lim jurnali, 2018-yil. 11(84)
6. Pedagogika A.Munavvarov tahriri ostida T.: "O'qituvchi" 1996-yil, 200 bet.
7. Pedagogika fanidan izohli lug'at. J.Xasanboyev va boshqalar. T: "Fan va texnologiyalar", 2009-yil 517-519 betlar.

# KASBIY TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISNING USLUBIY ASOSLARI

**QOSIMOV SHAVKAT UROLOVICH**

**Termiz davlat pedagogika instituti, fakultet dekani.**

**Annotatsiya.** Maqolada kasbiy ta'lim jarayonini tashkil yetishda ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil uslubiy yondashuvlarni ko'rib chiqilgan. Ta'limning maqsad va vazifalari, o'quv dasturining mazmunini tanlash, ta'lim usullari va shakllari, o'quv natijalarini baholash, o'qituvchi va talabanning o'quv jarayonidagi o'rni kabi jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada kompetensiyaviy yondashuvi, tizimli yondashuv va shu kabi boshqa uslubiy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Muallif kasbiy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun ushbu yondashuvlarning qaysi tamoyillari va usullaridan foydalanish mumkinligini tahlil qiladilar.

**Kalit so'zlar:** kasbiy ta'lim, amaliyot, amaliy ta'lim, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, tizim, bilim, malaka, ko'nikma.

**Аннотация.** В данной статье исследуются различные методологические подходы, которые могут быть использованы при организации процесса профессионального образования. Рассматриваются такие аспекты, как цели и задачи образования, выбор содержания образовательной программы, методы и формы обучения, оценка результатов обучения, роль преподавателя и студента в образовательном процессе. Также в статье рассматриваются и другие методологические подходы, такие как компетентностный подход, системный подход и др. Авторы анализируют, какие принципы и методы этих подходов могут быть использованы для повышения эффективности процесса профессионального образования.

**Ключевые слова:** профессиональное образование, практика, практическое образование, компетентность, компетентностный подход, система, знания, квалификация, умения.

**Annotation.** This paper examines various methodological approaches that can be used in organizing the process of vocational education. Such aspects as the goals and objectives of education, the choice of the content of the educational program, methods and forms of education, evaluation of learning outcomes, the role of the teacher and the student in the educational process are considered. The paper also considers other methodological approaches, such as the competence approach, the systematic approach, etc. The authors analyze which principles and methods of these approaches can be used to improve the effectiveness of the vocational education process.

**Keywords:** professional education, practice, practical education, competence, competence approach, system, knowledge, qualifications, skills.

Kasb ta'limi muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash ikkita mustaqil qismdan, ya'ni nazariy va amaliy kasbiy ta'limdan iborat. Kasb o'quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi ko'zda tutilgan. Nazariy ta'limning vazifasi, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bitta maqsadga, ya'ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratiladi. Shuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasalaridagi o'quv jarayonining mustaqil, ammo o'zaro

aloqador qismlari hisoblanadi.

Nazariy ta'lim talabalarning umumiy ta'lim, ijtimoiy, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishlarini o'z ichiga olib, ularda o'rganilayotgan kasbni ongli tarzda mustahkam va chuqurroq egallashlari uchun zarur hajmdagi bilimlar tizimini shakllantirish hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

Amaliy kasbiy ta'limning asosiy vazifasi – kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishayotgan talabalarni muayyan

kasb sohasida bevosita faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan, kasb sohasidagi mehnat faoliyatini bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmunlarini egallashlarini ta'minlashdan, bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Bilim talabalarning fanlar va real voqelik hodisalari haqidagi, tabiat va jamiyat qonunlari haqidagi tasavvurlari, tushunchalari va mulohazalarini mustaqil o'qish, hayotiy va ishlab chiqarish tajribasi natijasida shakllanadigan va xotirada mustahkamlanib qoladigan natijadir.

Ko'nikma – bu talabalarning ma'lum sharoitda maqsadga muvofiq harakat usullarini tanlash va qo'llash hamda shu tufayli mehnat qilishni ongli va to'g'ri bajarish, mehnatda ijobiy natijalarga erishishdir.

Malaka – ko'nikmaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim komponentlarini maksimal aniqlikda, tezlikda va maqsadga muvofiq ravishda avtomatlashtirilgan tarzda bajarishga bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Malaka talabalarda ko'p karra mashq qilish natijasida shakllanadi.

Kasbiy ta'lim nazariy ta'limdan o'zining ta'lim maqsadi, o'rgatish maqsadi, dasturlari va dastur mazmunining tanlanishi bilan farqlanadi. Nazariy va kasbiy ta'lim jarayonlari asosan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ko'p hollarda bir xil didaktik prinsiplar va metodik usullar qo'llaniladi, kasbiy ta'lim nazariy va amaliy o'qitish jihatlari bilan tubdan ajraladi. Chunki kasbiy ta'lim jarayoni ko'pincha ishlab chiqarish bilan birgalikda olib boriladi, bunda ish natijasida ular o'rganiladi, ishlab chiqariladi, faoliyat ko'rsatiladi.

Ta'lim jarayoni (o'quv jarayoni)

deyilganda o'qituvchining hamda uning rahbarligidagi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari sistemasini ongli va mustahkam o'zlashtirishga, ularni hayotga tatbiq etish masalasini shakllantirishga, mustaqil fikr yuritishga, bilish qonuniyatlarini rivojlantirishga, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini egallashga qaratilgan izchil va o'zaro bog'liq harakatlarning majmui tushuniladi.

O'quv jarayonining bir qismi hisoblangan amaliy kasbiy ta'lim uchun uning barcha umumiy qonuniyatlari xosdir. Kasbiy ta'limning o'ziga xos jihati avvalo shundan iboratki, bunda o'quv jarayoni talabalarning unumli mehnati davomida amalga oshiriladi. Bu esa o'quv jarayonining o'ziga xosligini (uning mazmuni, talabalarning o'quv faoliyati, ustozning ta'lim berish faoliyati, ta'lim vositalarini, ya'ni uning barcha asosiy qismlarini) ifodalaydi. Demak, kasbiy ta'lim bu aqliy, jismoniy faoliyat natijasida kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonidir.

Kasbiy ta'limining mazmuni tegishli kasbdagi mutaxassisning mehnat faoliyatini va malakasi darajasini tahlil qilish asosida aniqlanadi. Bunday tahlil bo'lajak mutaxassisning ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyati, kasbidan qat'i nazar, quyidagi vazifalarni bajarishni ko'rsatadi: ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko'rsatish.

Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish topshiriq bilan tanishish, materiallarni, texnologik jarayonlarni tanlash, zarur hisoblashlarni bajarish, ishni bajarish rejasini tuzishlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayonini tayyorlash

– bu materiallarni, asboblarni, qurilmalarni ishga tayyorlashdir.

Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish – bu dastlabki amallarni bajarish, ishlayotgan qurilmani boshqarish, apparat va qurilmalarda kechayotgan texnologik jarayonlarni tartibga solish.

Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilishga texnologik jarayonning kechishini, mutaxassisning shaxsiy faoliyatini, qurilmaning ishlashini, mahsulot sifatini tekshirish va baholash kiradi.

Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish qurilmaga qarashni, nosozliklarni bartaraf etishni, ish o'rnini tashkil etishni nazarda tutadi.

Amaliy ta'limining asosiy vazifasi – ularni ishlab chiqarish jarayonini kasblarga xos bo'lgan holatda rejalashtirishga tayyorlashga, amalga oshirishga, nazorat qilishga va xizmat ko'rsatishga o'rgatishdir.

Mutaxassis bajaradigan ana shu vazifalarning tegishli kasbga va malaka darajasiga muvofiq aniq mazmuni kasbiy mahorat tavsifnomasida aks etadi. Bu hujjat mutaxassisning bajaradigan ish faoliyati (tayyorlash yo'nalishlari) bo'yicha malaka talablari asosida tuziladi. Unda o'quvchi o'quv muassasasida ta'lim olish davomida egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalarga asosiy talablar qayd etilgan. Malaka talablari asosida o'quv rejalari va dasturlar tuziladi.

Kasbiy ta'lim dasturida o'quv materialining murakkabligiga qarab mehnat jarayonlarini bajarishning o'zaro bog'liq yo'llari, operatsiyalari va usullari muayyan tartibda joylashtirilgan mavzularga (oddiydan murakkabga tomon) birlashtiriladi.

Ko'pchilik kasblar bo'yicha o'qitishning

turli metodlaridan foydalanilgan holda uchta bosqichda amalga oshiriladi: a) o'quv ustaxonalarida, o'quv maydonlarida, o'quv laboratoriyalarida, o'quv muassasasining o'quv xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish ta'limi; b) ishlab chiqarish sharoitlarida (korxonalarda, qurilishlarda, xo'jaliklarda) ishlab chiqarish ta'limi; v) ishlab chiqarish tajribasi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsadga va o'quv jarayonida o'z o'rniga ega bo'lib, kasb xususiyatiga qarab ular turli muddatli bo'ladi va u ishlab chiqarish ta'limi dasturi bilan belgilanadi. Bu jarayon ishlab chiqarish ta'limi ustoz rahbarligida amalga oshiriladi. Bu ustoz o'ziga birlashtirilgan guruhga o'quv muassasasida ta'limning boshidan oxirigacha rahbarlik qiladi.

O'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda va ishlab chiqarish sharoitida, o'quv uchastkalarida talabalarning ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakli darsdir.

Ishlab chiqarish ta'limi darsning davomiyligi, odatda ta'lim oluvchilarning yoshiga bog'liq holda 6 soatni tashkil etadi. Avvalo ustaning rahbarlik qiluvchi roli bilan ifodalanuvchi o'qitishni tashkil etishning dars shaklida guruhdagi barcha talabalar aynan bitta yoki bir xil turdagi o'quv materiallarni o'rganishadi, bir xil turdagi o'quv – ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishadi. Ishlab chiqarish ta'limi darsi uchun maqsad va mazmunning, shuningdek tashkiliy tuzilmasining aniqligi xosdir. Ishlab chiqarish ta'limi darsi tuzilishi jihatidan uch asosiy elementni o'z ichiga oladi: kirish yo'riqnomasi, talabalarning mashqlari (mustaqil ish) va ularning usta tomonidan joriy yo'riqnoma berish va yakuniy yo'riqnoma.

Kirish yo'riqnomasining asosiy

vazifasi – talabalarda bo‘lajak o‘quv ishlab chiqarish jarayonining vazifalari, uni bajarish shartlari, vositalari, usullari xususiyatlari haqida, shuningdek nazariy va o‘zini nazorat qilish usullari to‘g‘risida to‘liq va mufassal tasavvur hosil qilishdir.

Ta‘lim oluvchilarga usta tomonidan joriy yo‘riqnomani berishning bosh vazifasi – o‘quv - ishlab chiqarish ishlarini bajarishda ularning faoliyatiga rahbarlik qilish, talabalarining o‘qishdagi yutuqlarini nazariy va amaliy tahlil qilish, ularning bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini tekshirish va baholash.

Yakuniy yo‘riqnomaning maqsadi – darsga yakun yasash.

Kasbiy ta‘lim o‘qituvchilarining o‘rgatish faoliyati yo‘l-yo‘riq berishdan tarkib topadi. U talabalarda mehnat jarayonini bajarish va nazorat qilish vazifalari, shart-sharoitlari, usullari va vositalari haqida to‘liq tasavvurlar hosil qilishi, o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish jarayonida talabalar faoliyatiga rahbarlik qilishi, talabalarining o‘qishdagi yutuqlarini tahlil va nazorat qilishi, ularning bilim, ko‘nikma hamda malakalarini tekshirishi va baholashi lozim.

Talabalarining ishlab chiqarish sharoitida (sexlarda, uchastkalarda, qurilish ob‘ektlarida va h.k) ta‘lim olishlarida o‘quv jarayonini tashkil etishning shakllari quyidagilar bo‘ladi:

talabalarni o‘quv brigadalari tarkibida o‘qitish;

malakali ishchilar brigadasi tarkibida o‘qitish;

talabalarni malakali ishchilarga shaxsan biriktirib qo‘yish.

Avval ta‘kidlanganidek, ishlab chiqarish ta‘limini tashkil etish shakllarini

va talabalarining o‘quv-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish shakllarini farqlash kerak. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi: frontal-guruhiy, brigada va shaxsiy. Ularning har biri o‘zining yutuq va kamchiliklariga ega hamda talabalarining ishlab chiqarish ta‘limi aniq sharoitlarga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ta‘limni tashkil etishning brigada shakllarida talabalarni korxonada qurilish xo‘jaliklarining ishchi birigadalari tarkibida ishlashga tayyorligiga alohida ahamiyat beriladi.

Amaliy kasbiy ta‘limda talabalarining o‘quv faoliyati quyidagilardan iborat:

amaliy kasbiy ta‘lim o‘qituvchisining yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalari mohiyatini anglash, o‘z oldida turgan ishlarni o‘ylab ko‘rib, barcha ishlarni rejalashtirish;

usullar, operatsiyalar, texnologik va mehnat jarayonlarini bajarish bo‘yicha o‘quv-ishlab chiqarish faoliyatini o‘zlashtirish;

o‘quv mehnat faoliyati jarayonida o‘z-o‘zini va ish natijalarini nazorat qilish va boshqalar;

Amaliy kasbiy ta‘lim berish jarayonida quyidagi vositalardan foydalaniladi:

a) o‘quv-moddiy jihozlanish-dastgohlar, verstaklar, stendlar, o‘quv-ishlab chiqarish qurollari, o‘quv xonalari, mashq maydonchalari, mashqlantiruvchilar, mashinalar, ishchi va nazorat-o‘lchov asboblari, xom ashyo materiallar va h.k.;

b) o‘quv-texnik hujjatlar-jihozlarning pasportlari, ishchi chizmalar, prinsipial va yig‘uv chizmalari, texnologik jarayon xaritalari, texnologik xaritalar, ish sifatiga texnik talablar, ishlab chiqarish yo‘riqnomalari va h.k.;

v) talabalar uchun o‘quv qo‘llanmalar–darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari,



ma'lumotnomalar, standartlar va me'yorlar jadvallari, laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, ilg'or ish usullari va h.k.;

g) mashg'ulotning didaktik vositalari - yo'riqnomalar, yo'riqli texnologik xaritalar, qurollar, ta'limning texnik vositalari, materiallar va tayyor mahsulotlar namunalari va h.k.;

d) o'qituvchi uchun metodik qo'llanmalar - amaliy kasbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi bo'yicha ko'rsatma va qo'llanmalar, xususiy metodika, metodik ishlanmalar, ma'lumotnoma va qurilish me'yorlari hamda qoidalari (QM va Q.) to'plami, ilg'or yo'l qurilish tajribalari to'g'risida metodik qo'llanma va h.k.;

Amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchilari (muhandis-pedagog, ishlab chiqarish ta'limi ustalari) maxsus fanlar bo'yicha darslarga tayyorgarlik ko'rishda didaktik prinsiplarni hisobga olishlari zarur.

O'qituvchilarning o'qitish qonuniyatlarini bilishigina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish ham muhimdir. Bunga esa o'quv jarayonini tashkil etishda o'qitishning asosiy qoidalariga tayanish kerakligini chuqur anglagan taqdirda erishish mumkin. Bu qoidalar didaktikada o'qitish prinsiplari yoki didaktik prinsiplar deb ataladi.

Didaktik prinsiplar: ta'limni ilmiy asosda tashkil etish, uning tarbiyaviy xarakteri, muntazamligi va izchilligi; ko'rgazmaliligi, mazmunning talabalarga mos bo'lishi; o'qitishning faolligi va ongliligi; bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish va har bir o'quvchiga yakka tartibda yondashishdan iboratdir.

Ta'limni ilmiy asosda tashkil etish

prinsipi talabalarning ta'limiy ishlarini faollashtiruvchi, aqliy qobiliyatlarini o'stiruvchi, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatuvchi usullarni tanlash va texnik atamalardan foydalanishga odatlanishdir.

Ta'limning tarbiyaviy xarakteri talabalarga kasbiy bilim berish, ularning aqliy o'sishi hamda dunyoqarashining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Ta'limni amalga oshirishda o'qituvchi talabalarda o'z kasblariga muhabbat, ongli intizom, o'z mehnatini rejalashtira bilish, jamoa bilan ishlay olish ko'nikmalarini tarbiyalashi lozim. Har bir darsni talabalar nafaqat bilim va malakalarni egallaydigan balki, ularning dunyoqarashi ham shakllanadigan tarzda tashkil qilish lozim.

Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi o'rganilayotgan hodisa va narsalarni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishni ko'zda tutadi va o'quv materialini aniq obrazlar orqali idrok qilishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik vositalardan to'g'ri foydalanish talabalarning texnikaga oid bilimlarni puxta o'zlashtirib olishiga, ularning malakalari yanada oshishiga yordam beradi. Agar ko'rgazmalilik qurol biror o'quv materialini ko'rsatish vositasi bo'lsa, nutq asosiy, ko'rgazmalilik qurol esa yordamchi vosita bo'ladi. Agar ko'rgazmalilik vosita kuzatishni rivojlantirish uchun qo'llansa, nutq qisqa bo'lishi, faqat asosiy vositaga, ya'ni kuzatishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilishi kerak.

Bilimlarni egallash jarayonida narsa va hodisalarni kuzatish, sezish va idrok etishning muhimligini ifodalagan Ya.A. Komenskiy shunday yozgan edi: «Talabalar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni albatta, sezgilar vositasi bilan, ya'ni ko'rish



# UMUMTA'LIM MAKTABLARDAGI FIZIKA FANINI O'QITISHDA TAJRIBALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

BOYMIROV SHERZOD TUXTAYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti v/b., dotsenti

XUDOYNAZAROVA VISOLA MUSURQULOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada umumta'lim maktablari fizika darslarini tashkil etishda tajribalarning roli va ularni tashkil etish shakllari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** fizik tajriba, qonuniyat, metod, bilim, malaka, ko'nikma, jarayon, eksperiment, kuzatish, o'lchash.

**Abstract.** The article talks about the role of experiments and forms of their organization in the organization of physics lessons in secondary schools.

**Key words:** physical experiment, law, method, knowledge, skill, skill, process, experiment, observation, measurement.

**Аннотация.** В статье говорится о роли экспериментов и формах их организации в организации уроков физики в общеобразовательной школе.

**Ключевые слова:** физический эксперимент, закон, метод, знание, навык, процесс, эксперимент, наблюдение, измерение.

## KIRISH

Fizika fanini tajribalarsiz tasavvur qilish qiyin. Fizika qonunlari empirik tarzda tasdiqlangan faktlarga asoslanadi. Barcha fizik qonuniyatlar tajribalar asosida yaratiladi, kuzatishlar natijasida faktlar to'planadi. Keyin tajriba va kontseptsiyalarni ishlab chiqiladi bu raqamlar ko'rinishidagi sifat xususiyatlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Binobarin, eksperimentsiz fizikani oqilona o'qitish mumkin emas. Fizikani faqatgina og'zaki o'qitish fanni rasmiyatchilik va mexanik o'rganishga olib keladi. O'qituvchi qonuniyatni bolalarga yaxshiroq tushuntirishi uchun o'quvchining o'zi tajribani ko'rishi va uni o'zi bajarishi, o'qituvchining qo'lidagi asbobni ko'rishi va uni o'z qo'lida ushlab turishi kerak. Ko'rgazmali eksperiment o'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'qituvchi tomonidan maxsus asboblardan yordamida ko'rgazmali stolda fizik hodisalar namoyish etiladi. Bu esa o'quvchilarga tajribani ko'rishga va qonuniyatni yaxshiroq

tushunishga imkon beradi.

Ko'rgazmali eksperimentning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar fizika fanidan eksperimental bilim usuli bilan, fizik tadqiqotlarda eksperimentning roli bilan tanishadilar (natijada ularni ilmiy dunyoqarash shakllanadi);

- o'quvchilarda ba'zi eksperimental ko'nikmalar shakllanadi: hodisalarni kuzatish, gipotezalarni ilgari surish, eksperimentni rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish, miqdorlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, xulosa chiqarish va hokazo.

## TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Ko'rgazmali eksperiment anqlik vositasi bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini idrok etish, uni tushunish va esda saqlashni tashkil etishga yordam beradi; talabalarning politexnikaviy tayyorgarligini amalga oshirish imkonini beradi; fizikani o'rganishga qiziqishning ortishiga va o'quv

motivatsiyasini yaratishga yordam beradi. Ammo o'qituvchi ko'rgazmali eksperiment o'tkazganda, talabalar o'qituvchi tomonidan olib borilgan tajribani faqat passiv ravishda kuzatadilar, o'zlari esa o'z qo'llari bilan hech narsa qilmaydi. Shuning uchun fizika fanidan talabalarning mustaqil eksperimentini o'tkazish zarur. Bunga talabalarning laboratoriya fizik eksperimentini o'tkazishida, jihozlarni o'zlari yig'ishida, fizik kattaliklarni o'lchashida, tajribalar o'tkazishida yaxshi natijalarga erishiladi. Laboratoriya mashg'ulotlari talabalarda katta qiziqish uyg'otadi, bu tabiiydir, chunki talabaning atrofdagi dunyoni bilishi uning shaxsiy tajribasi va his-tuyg'ulari asosida amalga oshiriladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarining fizikadagi ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilarda eksperimentning bilishdagi roli va o'rni haqida tasavvur hosil bo'ladi. Talabalar eksperimentlar o'tkazishda aqliy va amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan eksperimental ko'nikmalar shakllanadi. Birinchi guruh quyidagi malakalarni o'z ichiga oladi: eksperiment maqsadini aniqlash, gipotezalarni ilgari surish, asboblarni tanlash, tajribani rejalashtirish, xatolarni hisoblash, natijalarni tahlil qilish va bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot berish. Ikkinchi guruh quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi: eksperimental qurilmani yig'ish, kuzatish, o'lchash, tajriba. Bundan tashqari, laboratoriya tajribasining ahamiyati shundaki, u bajarilganda o'quvchilarda asboblarni ishlashda aniqlik kabi muhim shaxsiy fazilatlar shakllanadi; ish joyida, tajriba vaqtida tuzilgan yozuvlarda tozalik va tartibga rioya qilish, tashkilotchilik, natija olishda qat'iyatlilik rivojlanadi. Ularda aqliy va jismoniy mehnatning ma'lum madaniyati shakllanadi.

Frontal laboratoriya ishi sinfdagi barcha talabalar bir vaqtning o'zida bir

xil asbob- uskunalar yordamida bir xil turdagi eksperimentlarni bajaradigan amaliy ish turidir. Shunga ko'ra, sinfda frontal laboratoriya ishlari uchun 15-20 asboblarni to'plami bo'lishi kerak. Frontal laboratoriya ishlarining nomlari o'quv rejasida beriladi. Ularning ko'plari bor, ular fizika kursining deyarli har bir mavzusi uchun taqdim etilgan. O'qituvchi ishni bajarishdan oldin o'quvchilarning ishni ongli ravishda bajarishga tayyorligini aniqlaydi, ular bilan birgalikda uning maqsadini aniqlaydi va ishning borishini, asboblarni ishlash qoidalarini, o'lchash xatolarini hisoblash usullarini muhokama qiladi. Frontal laboratoriya ishlari mazmunan unchalik murakkab emas, xronologik jihatdan o'rganilayotgan material bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qoida tariqasida bir dars uchun mo'ljallangan. Laboratoriya ishlarining tavsiflarini fizika bo'yicha maktab darsliklarida topish mumkin.

#### TADQIQOT NATIJASI

Eksperimental tajriba darsi fizika kursining turli mavzularidan olingan bilimlarni takrorlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va umumlashtirish maqsadida olib boriladi; murakkabroq jihozlardan, murakkabroq eksperimentdan foydalanish orqali o'quvchilarda eksperimental ko'nikmalarni rivojlantirish va takomillashtirish; eksperiment bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ularning mustaqilligini shakllantirish imkonini beradi.

Fizikadagi qiziqarli tajribalar nafaqat turli jarayonlarni tasvirlashi, balki bolalarning faolligi va ulardagi o'rganish istagini rag'batlantirishi mumkin. Misol uchun Inertsia mavjudligining qiziqarli tasdig'i oddiy avtobusning harakatidir. Avtobus tinch turgan holatidan birdan harakatga kelsa uning ichidagi yo'lovchi orqaga harakatlanadi. Harakatlanib ketayotgan avtobus to'satdan to'xtaganda esa uning ichidagi yo'lovchilar

oldinga harakatlanishi bu har ikkala holatda ham inertsianing namoyon bo'lishidir. Ya'ni inertsiya tufayli yo'lovchilar o'z tinchli va harakatdagi holatini saqlashga intilmoqdalar.

Jismlarni Yerga tortadigan tortishish kuchini tananing og'irligidan farqlash kerak. Og'irlik tushunchasi kundalik hayotda keng qo'llaniladi. Jismning og'irligi - bu jismning Yerga tortilishi tufayli tayanch yoki osmaga ko'rsatadigan ta'sir kuchidir. Tana tayanch yoki suspenziyaga nisbatan harakatsiz deb taxmin qilinadi. Tana Yerga nisbatan o'rnatilgan gorizontal stolda yotsin. Yer yoki boshqa sayyora uning yuzasiga yaqin bo'lgan barcha jismlarga ta'sir qiladigan kuch tortishish deyiladi. Gravitatsiya tana vazniga to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Endi siz uchun nima uchun kattaroq massaga ega bo'lgan jism og'irroq ekanligi aniq, chunki Yer uni ko'proq kuch bilan tortadi. Gravitatsiya tanaga vertikal pastga qarab harakat qiladi. Nazariyani tekshirish uchun quyidagi tajribalardan foydalanish mumkin: 10 sm diametrli metallan tayyorlangan diskni oling. Bir qog'oz varag'ini uning o'lchamiga qarab kesib oling. Bir qo'lingizda qog'oz diskni oling va boshqa qo'lingizda metallan tayyorlangan disk bo'lsin. Ularni bir xil balandlikdan erkin tushishiga imkon bering. Nima uchun metall disk qog'ozga qaraganda tezroq tushadi? Qog'oz diskini metallga qo'ying va ularni erkin tushishiga ruxsat bering. Nima uchun bu holatda ular bir vaqtning o'zida tushadi?

#### MUHOKAMA

Javob: Har bir diskda ikkita kuch ta'sir qiladi: tortishish kuchi va havo qarshiligi kuchi. Harakatning boshida bu kuchlarning natijasi pastga qarab, ko'proq metall disk uchun yo'naltiriladi, shuning uchun u katta tezlashuv bilan harakat qiladi. Ammo tezlik ortishi bilan havo qarshilik kuchi kuchayadi va tortishish kuchiga teng bo'ladi. Natijada, ikkala disk ham bir xilda harakatlanadi, lekin

metall disk katta tezlikda harakatlanadi. (Shunga o'xshash holat parashyutchi erkin parvoz holatida bo'lganda sodir bo'ladi: samolyotdan sakrab, u nisbatan past tezlikka ega va keyin taxminan 50 m / s ga tezlashadi, bu ikki kuch muvozanatlanadi va u doimiy tezlikda yiqiladi. Ikkinchi holda, havo qarshiligi faqat metall diskni engib o'tadi va tortishish kuchi jismlarga ularning massasidan qat'i nazar, teng tezlanishlarni beradi.

Bir xil o'lchamdagi va og'irlikdagi ikkita qog'oz varag'ini oling. Bir varaqni g'ijimlang. Bir vaqtning o'zida varaqlarni bir xil balandlikdan qo'yib yuboring. Qaysi varaq yerga tezroq tushadi?

Javob: g'ijimlangan qog'oz tezroq tushadi, chunki unga havo qarshiligi kamroq ta'sir qiladi.

Fizikani fan sifatida belgilashda nazariy va amaliy qismlarning kombinatsiyasi bizga ma'lum. Bu jarayonda nihoyatda muhim hisoblanadi. Fizikani o'qitish jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga ushbu qismlarning o'zaro bog'liqligini imkon qadar to'liq ko'rsatishi o'qitish samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Zero, o'quvchilar bu munosabatni his qilganlarida, ular atrofida, kundalik hayotda, tabiatda sodir bo'layotgan ko'plab jarayonlarga to'g'ri nazariy tushuntirish bera oladilar. Bunda o'qituvchi talabalarga amaliy mashg'ulotlarning qanday shakllarini taklif qilishi mumkin? Albatta, talabalar yangi materialni tushuntirishda yoki darslarni takrorlashda sinfda o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan eksperimentlar namoyishini kuzatishadi, frontal mashg'ulot jarayonida dars davomida o'quvchilarning o'zlari tomonidan sinfda o'tkaziladigan tajribalarni taklif qilishlari mumkin. Bu jarayonlar o'qituvchining bevosita rahbarligida bajariladigan laboratoriya ishlaridir.

Bundan tashqari o'quvchilarga

quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin:

1) tajriba darsi davomida talabalarning o'zlari tomonidan sinfda o'tkaziladigan tajribalar;

2) javob tariqasida talabalar tomonidan o'tkaziladigan ko'rgazmali tajribalar;

3) o'quvchilar tomonidan maktabdan tashqarida o'qituvchining uy vazifasi bo'yicha o'tkaziladigan tajribalar;

4) o'qituvchining maxsus topshirig'i bo'yicha uyda o'quvchilar tomonidan tabiat, texnika va hayotning qisqa va uzoq muddatli

hodisalarini kuzatish.

#### XULOSA

Tajribanafaqato'rgatadi, balki o'quvchini hayratda qoldiradi, u ko'rsatayotgan hodisani yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ma'lumki, yakuniy natijaga qiziqqan odam muvaffaqiyatga erishadi. Shunday qilib, talabani qiziqtirgan holda, biz bilimga intilishni davom ettiramiz. Fizikani o'qitishda tajribaning roli katta bo'lib, biz har bir darsda tajribadan foydalanishimiz dars samaradorligi oshiradi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Quvondiqov O.Q. Fizikani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. Samarqand-2021.
2. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi. Toshkent, "Abu matbuot-konsalt"- 2015.
3. Yo'ldashev M. "8-sinf fizika darslik" Toshkent, - 2010. 105-122 betlar.
4. Kamenskiy S. Ye., Orexov V. P. O'rta maktabda fizikadan masalalar yechish metodikasi. O'qituvchilar uchun qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1976. -468 b.
5. Baydedayev A., Mamadazimov M., Djo'rayev M. va boshq. Maktabda fizika va astronomiya o'qitish. Metodologik va dunyoqarash aspektlari. –T.: O'qituvchi, 1994. -276 b.
6. Boymirov Sh. T. Principles of Material Selection in Problem Teaching of Electrodynamics // Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2020. –p. 362-368.

# MATEMATIKA DARSLARDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

MUYASSAR XAMIDOVA

Nizomiy nomidagi oshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aqli zaif o‘quvchilarga matematika fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish usullari, fanni tushuntirishda, o‘quvchilarni to‘g‘ri va samarali bilim olishga ko‘maklashadigan didaktik o‘yinlarning ahamiyati masalasi tahlil qilingan.

**Kalit so‘z va iboralar:** matematika, aqli zaif, didaktik o‘qinlar, ta‘lim, dastur, his-tuyg‘u.

**Аннотация.** В данной статье анализируются методы использования дидактических игр при обучении математике учащихся с задержкой психического развития, значение дидактических игр в объяснении предмета, помощи учащимся в приобретении правильных и эффективных знаний.

**Ключевые слова и фразы:** математика, умственно отсталые, дидактические чтения, образование, программа, эмоции.

**Annotation.** This article analyzes the methods of using didactic games in teaching mathematics to students with mental retardation, the importance of didactic games in explaining the subject, helping students to acquire correct and effective knowledge.

**Key words and phrases:** mathematics, mentally retarded, didactic readings, education, program, emotion.

Aqli zaif o‘quvchilarga fan asoslarini, ayniqsa, matematika fanini o‘rgatish o‘ziga xos qiyin kechadi. Jumladan, birinchi sinfga qabul qilingan bolalarga matematika fanini o‘rgatish o‘qituvchida murakkabliklar tug‘diradi. Chunki, birinchi sinf o‘quvchilarning matematika fani tushunchalarini o‘zlashtirishga bo‘lgan tayyorgarlik darajalari bir-biridan farq qiladi. Ba‘zi bolalar, maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan, ba‘zi birlari oilalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri keladilar. Oilalardan kelganlarning ham tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘ladi. O‘qishga munosabati ijobiy bo‘lgan oilalardan kelgan bolalarda matematika fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchliroq bo‘ladi.

Bolalar bilimidagi va ularning fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlaridagi turli-tumanlik kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarida bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu esa o‘qituvchilardan o‘z vazifasiga mas‘uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha,

bu mas‘uliyat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Har bir darsga dars mavzulari va o‘quvchilar bilim darajalaridan

kelib chiqib, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish.

2. Dars davomida darsning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, didaktik o‘yinlardan foydalanish

Didaktik o‘yinlar, butun sinf ishtirok etganda bolalar o‘rtasida o‘zaro hamkor bo‘lib ishlash, o‘z-o‘zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig‘ish, saranjom-sarishta bo‘lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday didaktik o‘yinlar, o‘quvchining o‘qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o‘qituvchi bolaga do‘stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi. Matematika darsida foydalaniladigan har qanday didaktik o‘yinlardan asosiy maqsad - ta‘limiy maqsaddir.

Ta‘lim - o‘quvchilarga dars jarayonida

beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish hamda mustahkamlashning rejali jarayonidir.

Matematika dasturidagi barcha mavzularda didaktik o'yinlardan unumli foydalanish mumkin. Sinf o'quvchilarining bilish darajasi va qiziqishlari matematika darsining mazmuni va tuzilishidan kelib chiqib, uning hajmiga katta ahamiyat bergan holda, undan darsning istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Darsning boshida o'quvchilarni shu darsga qiziqtirish uchun, darsning o'rtasida yangi mavzu materiallarining yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlash uchun, darsning oxirida esa egallagan matematik bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlash va nazariy bilimlarni kundalik amaliy hayot bilan bog'lash maqsadida kiritiladi.

Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

O'yin jarayonida ham hamjihat bo'lishga, hayotni bilishga o'rganadilar.

Bu o'yinlarda bolalarning o'z-o'zlarini boshqara, tuta bilishga o'rganishlarini ta'kidlab o'tish lozim. Bu o'yinlar bolalarni intizomli qiladi.

Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan

ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bo'z tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi. o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi g'aydalanadi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqurroq va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz bu ishimizda qo'llaydigan ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berishga to'xtalib o'tishimiz zarur

O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi.

O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik yoshdagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul



bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan maqsad, masalan, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya'ni ma'lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi.

Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i—o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim

g'olib chiqqan hisoblanishini va hokazolarni tushuntirish tarzida beradigan topshiriqidir.

O'yin jarayonida o'quvchilarda namoyon bo'lgan yakka tartibda ruhiy farqlarini hisobga olish orqasidagina o'qitishda yuqori natijalarga erishish mumkin. Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, shaxsiy qiyinchiliklarni hisobga olib, yakka tartibda yondoshish o'yin jarayonida muntazam ravishda olib borilgandagina samarali bo'lishi mumkinligini kuzatdik.

O'quvchilarga u yoki bu bilimlarni ma'lum qilishdan oldin, ularda bu bilimlarni idrok qilish va ma'nosiga tushunishlari uchun aniq yo'l-yo'riq yaratish lozim. Bu o'yin yoki amaliy-hayotiy sharoit yaratish bilan amalga oshirilsa yaxshi natija beradi.

Izlanishimiz natijalarini tahlili shuni ko'rsatdiki o'yin vaqtidagi ijobiy tuyg'ular bolalar faoliyatini faollashtirishga, o'z fikrlarini bayon qilishga, o'yinda o'quvchilar o'zlari payqamagan holda juda ko'p narsalarning xususiyatlarini bilib olishga yordam berdi.

O'yinlarni o'tkazish uslubiyati o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qiladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Баряева Л.Б. Формирование элементарных математических представлений у дошкольников (с проблемами в развитии): Учебно-методическое пособие. СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена; Изд-во «СОЮЗ», 2002. — 479 с.
2. Каирова Л.А. Коррекционно-развивающие технологии в обучении математике: учебное пособие. Барнаул: АлтГПУ, 2016. — 91с
3. Кузьмина-Сыромятникова Н.В. Методика арифметики во вспомогательной школе. Изд.2-е, —М., 1949.
4. Назарова Н.М. Специальная педагогика: в 3 т.: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. под ред. Н.М. Назаровой. Т.
5. Педагогические системы специального образования. Н.М. Назарова, Л.И. Аксенова, Л.В. Андреева и др. М.: Издательский центр «Академия», 2008. 400 с.
6. Перова М.Н. Методика преподавания математики в специальной (коррекционной) школе VIII вида. М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2001. — 481с.
7. Перова М.Н. Методика преподавания математики во вспомогательной школе. М.Н. Перова—М., Просвещение, 1989—480с.
8. Эк В.В. Обучение математике учащихся младших классов специальных (коррекционных) образовательных. Учреждений VIII вида: пособие для учителя. В.В. Эк. — 2-е изд., перераб. — М.: Просвещение, 2005. — 221 с.

# MAXSUS PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHNING XALQARO TAJRIBASI

NURKELDIYEVA DILBAR

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada bir qator xorijiy oliy o'quv yurtlari amaliyotini sharhlash kontekstida maxsus pedagoglar (defektologlar) tayyorlash tajribasi yoritilgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, jumladan Belgiya, Kanada, Finlyandiya, Shvesiya, Avstraliya, AQSH, Buyuk Britaniyada maxsus pedagog kadrlarni tayyorlash tajribasini qisqacha sharxlangan. Sharxlashdan maqsad maxsus predagoglarni tayyorlash bo'yicha mavjud xorijiy tajribani ko'rib chiqish, ijobiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, shuningdek, maxsus pedagoglar kadrlarni tayyorlashda mahalliy va xorijiy oliy ta'lim tizimini birlashtiruvchi tendensiyalarni izlashdan iborat.

**Kalit so'z va iboralar:** maxsus pedagogika, oliy ta'lim, ta'lim, tarbiya, standart, korreksion ta'lim, o'qituvchi.

**Аннотация.** В статье рассматривается опыт подготовки специальных педагогов (дефектологов) в контексте обзора практики ряда зарубежных вузов. Представлен краткий обзор опыта подготовки специальных педагогов в странах Евросоюза, в т.ч. Бельгии, Канады, Финляндии, Швеции, Австралии, США, Великобритании. Основной целью обзора стало рассмотрение существующих зарубежных практики подготовки специальных педагогов, выделение как положительных характеристик, а также поиск тенденций, объединяющие отечественную и зарубежные системы высшего образования.

**Ключевые слова и фразы:** специальная педагогика, высшее образование, образование, воспитание, стандарт, коррекционное образование, педагог.

Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi tomonidan joriy etilayotgan ijobiy tajribalar tahlili bugungi kunda respublikamizda mutaxassislar tayyorlaydigan pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni eng yuqori talablar darajasida tashkil etilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi, ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarishda, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda ilg'or xalqaro standart va talablar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan aholining kamrov darajasini oshirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilishi hozirgi zamon talablaridandir.

O'quv rejaları va dasturlarni tayyorlashga xorijiy oliy o'quv yurtlari mutaxassislari ekspert va hammualliflar sifatida jalb etilib borilmoqda.

Bularning barchasi pedagogika oliy o'quv

yurtlarida maxsus pedagoglarni tayyorlashga ham chambarchas bog'lik.

Korreksion-rivojlantiruvchi, davolov, ijtimoiy-moslashuv va reabilitatsiya ishlari samarali tashkil etilgan sharoitda ijtimoiy himoyaga muhtoj, alohida yordamga muhtoj bolalar jamiyatning faol a'zosiga aylanadilar, ularning jamiyat hayotiga moslashuvi muvaffaqiyatli kechadi. Bularning barchasi alohida yordamga muhtoj bolalar bilan faoliyat ko'rsatadigan mutaxassis-kadrlarga, ya'ni maxsus pedagoglarga (defetologlarga) ko'p jihatdan bog'liqdir. Keyingi yillarda maxsus pedagoglarni tayyorlashda Maxsus pedagogika (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi, fan dasturlari xorijiy mamalakatlar tajribasi asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda maxsus pedagoglar (defektologlar)ni tayyorlashning tashkiliy

shakllari bir nechta bir-biridan farqlanadigan yo'nalishlarga bo'linadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida eng keng tarqalgan shakl umumiy pedagogik va maxsus ta'lim sintezi bo'lib, unda ta'limning birinchi bosqichida (odatda uch yil davomida) talabalar bazaviy pedagogik ta'lim oladilar (ko'p hollarda alohida yordamga muhtoj bolalarni o'qitishga bag'ishlangan alohida kurslarni o'z ichiga olgan) va to'rtinchi kursda maxsus ta'limning bir yoki ikkita yo'nalishi bo'yicha o'qitiladi. Rivojlanish buzilishlarining turli shakllari bo'lgan har qanday toifadagi shaxslar (bolalar va kattalar) bilan ishlashga qodir universal maxsus pedagogni tayyorlash keng tarqalgan emas.

Ko'pincha, maxsus pedagog bir nechta nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan samarali ishlashga imkon beradigan aniq bir yoki ikkita maxsus ixtisoslikni (yoki bakalavr darajasidagi o'quvprofilarini): oligofrenopedagogika+surdo pedagogika; surdopedagogika+tiflopedagogika va boshqalarni egallaydi.

Shu bilan birga, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida universal o'qituvchi-defektolog tayyorlanmoqda. Bakalavriatda o'qishning dastlabki yillari fundamental umumiy maxsus pedagogik (defektologik) ta'limga (Vengriya, Polsha, Chexiya va boshqalar) bag'ishlangan, so'ngra ixtisoslik boshlanadi. Biroq, masalan, Vengriyada oligofrenopedagogika sohasidagi ixtisoslik hamma uchun majburiydir, Chexiyada esa - logopediya va psixologiya. Ikkala mamlakatda ham talaba bunga o'zi tanlagan boshqa ixtisoslikni qo'shishi mumkin.

Amaliy tajriba bilan tasdiqlangan dastlabki umumiy pedagogik tayyorgarlik zarurati bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida - Angliya, Germaniya, Daniya, Italiya, Finlyandiya, Fransiya, Shveysariya, Shvetsiya va boshqalarda maxsus ta'lim tizimida ishga joylashishning eng muhim sharti bo'lib qolmoqda.

Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida,

shuningdek, AQSHning ba'zi shtatlarida korreksion ta'lim o'qituvchisi sifatida malakaga ega bo'lish uchun sizga maxsus (korreksion) ta'lim bo'yicha magistr darajasi kerak; bakalavr diplomi yetarli bo'lmaydi.

Maxsus pedagog sifatida ishlash uchun har qanday sohada magistr darajasiga ega bo'lish, keyin esa korreksion ta'lim bo'yicha mutaxassislar tayyorlash uchun zarur ta'lim dasturini o'zlashtirish orqali korreksion ta'lim o'qituvchisi malakasini olish zarur.

O'qituvchilarni tayyorlashning bir fazali va ikki fazali deb ataladigan modellari o'rtasida tub farqlar mavjud. Birinchi holda, o'qituvchi bazaviy (asosiy) tayyorgarlikni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng darhol o'qituvchilik lavozimini egallashi mumkin. Ikkinchisida bo'lajak o'qituvchilarning nazariy tayyorgarligi oliy o'quv yurtida (birinchi bosqich), amaliy mashg'ulotlar (ikkinchi bosqich) maktablar va maxsus markazlarga o'tkaziladi. Ikkinchi bosqichda maktabdagi amaliy ishlar maxsus kurslarda o'qitish bilan birlashtirilib, bu yerda maxsus fanlarni o'qitish metodikasi va psixologik-pedagogik tayyorgarlik masalasi o'rganiladi. To'liq huquqli o'qituvchi maqomi faqat o'qitishning ikkinchi bosqichini muvaffaqiyatli tugatgandan, diplom yozgandan va davlat testini rasmiylashtirgandan keyin beriladi.

Turli mamlakatlarda o'qituvchilar ta'limi tizimini boshqarish va nazorat qilishni tashkil etish juda xilma-xildir: avtonomiyadan (Germaniya) davlat milliy xizmatlari nazoratigacha (ANGLIYAdagi pedagogik ta'lim agentligi) hamda hukumat va xalq ta'lim vazirining (Fransiya) bevosita ko'rsatmalari bo'yicha.

O'qituvchilarni tanlashga qo'yiladigan yuqori talablar, shuningdek, karlar uchun maxsus muassasada yoki ijtimoiy ta'minot tizimida (Germaniya Federativ Respublikasining ba'zi yerlari, Shveysariya kantonlari) dastlabki kasbiy yo'nalish amaliyotini o'tkazish orqali

ta'minlanadi. O'qituvchi-defektolog, bu birinchi navbatda, me'yorida rivojlanayotgan bolani o'qitish va tarbiyalash san'atini puxta egallagan, so'ngra an'anaviy usullar samarasiz bo'lganda, qo'shimcha bilim, ijodiy, nostandart yondashuv talab etadigan va faoliyatining o'zi ko'proq mehnat talab qiladigan va natijalari darhol ko'rinmaydigan murakkab pedagogik vaziyatda qiyin bolani o'qitish va tarbiyalash qobiliyatini tushunadigan o'qituvchidir deb ta'kidlanadi (Lunch I., 1984).

Ba'zi ta'lim muassasalarida kasb tanlash tizimi tanlov imtihonlarini (ba'zan pullik) o'z ichiga oladi. Ba'zi hollarda esa muayyan turdagi pedagogik diplomga ega bo'lish yetarli. AQSH, Angliya, Germaniya, Shveysariya va boshqa mamlakatlarda qabul qilish uchun yagona qoidalar yo'q, shuning uchun biz faqat eng tipik talablar haqida gapirishimiz mumkin. Tanlovning asosiy mezonlari o'quv fanlari bo'yicha bilim emas (bu, albatta, zarur), balki abituriyentning kasbiy faoliyatning ma'lum bir sohasida o'rganish va oldinda ishlash qobiliyatidir (Nikandrov N.D., 1978).

Maxsus ta'lim o'qituvchilari uchun eng qulay davlat rejimi va birinchi navbatda, iqtisodiy jihatdan bir qator G'arbiy Yevropa mamlakatlarida (Angliya, Skandinaviya, Germaniya va boshqalar) bir necha o'n yillar davomida maxsus pedagogikada sohasiga qabul qilish uchun jiddiy raqobat mavjud. Qabul qilish bepul va kirish imtihonlari bilan cheklanmagan fakultetlar (masalan, Germaniyadagi ba'zi universitetlar) ancha ko'p yuklama bilan faoliyat yuritishlariga to'g'ri keladi.

Maxsus pedagoglarni tayyorlash bo'yicha alohida mamlakatlar tajribasini ko'rib chiqaylik.

Avstraliya. Avstraliyada maxsus pedagoglikka o'qitish dasturlari shtatdan shtatga farq qiladi. Kvinslendda maxsus ta'lim o'qituvchisi sifatidagi malaka odatda maxsus pedagogika bo'yicha bakalavr darajasini,

so'ngra "ta'limni qo'llab-quvvatlash", "maxsus ehtiyojlar" yoki "inklyuziv ta'lim" bo'yicha magistr darajasini talab qiladi.

Shu bilan birga, Avstraliyaning deyarli barcha shtatlarida maxsus pedagoglarni tayyorlashning birinchi bosqichi barcha sohalarida o'qituvchilar uchun bir xil asosiy kasbiy tayyorgarlik bo'lib, ularning o'quv dasturi, boshqa fanlar qatorida, alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish bo'yicha kurslarni o'z ichiga oladi. Faqat bitta universitet - Griffit universiteti mavjud bo'lib, u yerda bazaviy o'qituvchilar tayyorlash faqat alohida ta'limga muhtoj bolalarga qaratilgan. Bazaviy kasbiy tayyorgarligi keyingi maxsus / inklyuziv ixtisoslikni ta'minlaydigan bir qator universitetlar mavjud.

Viktoriya Ta'lim Departamenti va kadrlar tayyorlash ham "maxsus pedagogika" yo'nalishi bitiruvchilaridan kamida 45 kunlik tegishli amaliy tajribani, jumladan, turli xil ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida tajribali maxsus ta'lim amaliyotchilari nazorati ostida kamida 30 kunlik amaliyotni talab qiladi.

Maxsus pedagoglar (defektologlar) uchun tasdiqlangan ta'lim standartlari, jumladan, quyidagi talablarni o'z ichiga oladi: a) barcha o'quvchilarni jalb qilgan holda qulay va intellektual rivojlangan o'quv sharoitlarini yaratish ko'nikmalari; b) ta'lim, o'qitish, bilim va ko'nikmalarni baholash sohasidagi barcha o'quvchilar bilan shug'ullanish; d) o'quvchilar haqidagi bilimlardan foydalanish, individual va guruhlar uchun kerakli ta'lim natijalariga olib keladigan mazmunli ta'lim imkoniyatlarini yaratishni o'rganish; e) qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli maqsad va vazifalarni o'z ichiga olgan individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish; f) ta'limda ustuvorliklarni belgilash; g) muayyan kasalliklar va nogironlikning ta'limga ta'siridan xabardor bo'lish; h) o'quv strategiyalari va xatti-harakatlarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish.

Belgiya. Belgiyada maxsus pedagoglarni tayyorlash rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish bo'yicha umumiy ma'lumot va asosiy bilimlarni hamda ta'limning oxirgi yilida o'qituvchilik amaliyotini o'z ichiga oladi. Ta'lim juda amaliy xarakterda bo'lib, o'qitish usullari, o'quv vositalari, muayyan turdagi buzilishlar (sensor nuqsonlar, aqli rivojlanishdagi buzilishlar va boshqalar), imo-ishora tili kabi maxsus metodlar bo'yicha bilimlarni o'z ichiga oladi.

Kanada. Ta'lim ikki provinsiya yurisdiksiyasiga tegishli bo'lganligi sababli, maxsus ta'lim bilan bog'liq bo'lgan pedagogik ta'limi bo'yicha provinsiya tartiblarining tavsifi Kanada kelishuvlari haqida ma'lumot berish uchun yetarli bo'ladi.

Britaniya Kolumbiyasida davlat maktabida yoki davlat agentligida dars berish odatda ikkita malaka talab qiladi. Bu ta'lim bo'yicha bakalavr darajasi yoki nogironlar bilan ishlash bo'yicha ijtimoiy fanlardan biri bo'yicha bakalavr darajasi va o'qituvchilik sertifikatini. Maxsus pedagoglar uchun bazaviy kasbiy tayyorgarlik maxsus ta'limga qaratilgan va maxsus ta'limga yo'naltirilgan ta'lim bakalavriatini taklif qiluvchi Viktoriya universiteti kabi bir qator uni-versitetlar orqali amalga oshiriladi.

Albertada maxsus pedagoglar odatda maxsus ta'limga ixtisoslashtirilgan ta'lim bo'yicha bakalavr darajasiga ega. Bundan tashqari, Edmontondagi Alberta universiteti kabi muassasalar alohida ta'limga muhtoj bolalarni o'qitishga qiziqqan o'qituvchilar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha bir yillik Diplom dasturini taklif qiladi. Ushbu dastur asosiy mavzularni o'z ichiga oladi: maxsus o'quvchilarni tashxislash va o'qitish, xulq-atvori og'ir buzilgan bolalarni boshqarish, maxsus ta'lim sohasida maslahat va hamkorlik, diagnostika va ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitish uchun ilg'or texnologiyalar.

Finlyandiya. Universitetlar magistratura

bosqichini (odatda ta'lim magistri) tugatgandan so'ng maxsus pedagoglarni tayyorlash uchun bir yillik dasturni taklif qiladi. Ta'limning asosiy yo'nalishlari a) o'qish, yozish va matematikani o'rganishdagi qiyinchiliklar; b) ijtimoiy-hissiy va xulq-atvor muammolari; c) kommunikatsiya muammolari; d) individual ta'lim dasturini ishlab chiqishda mutaxassislarining hamkorligi; e) ota-onalar bilan hamkorlik. Biroq, inklyuziv ta'lim alohida taqdim etilmaydi, lekin ko'plab kurslarga kiritilgan.

Shvesiya. Shvesiyada maxsus pedagogika bazaviy o'qituvchilar tayyorlashning barcha jihatlarini qamrab oluvchi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'qituvchilarni bazaviy kasbiy tayyorlashning 2001 yildagi islohotlar maxsus pedagogika mavzularini asosiy fanlarni o'qitishning bir qismi sifatida kiritishni talab qiladi. Barcha talabalar o'quv yillarining yarimi mobaynida maxsus pedagogika masalalarini o'rganadilar, shuningdek, uni mutaxassislik yo'nalishi sifatida tanlash imkoniyatiga egadirlar. Biroq, maxsus pedagogika bo'yicha keng bilim talab qiladigan hukumat siyosati "o'quv rejasining haddan tashqari ko'p qamrov ekanligi tufayli amalga oshirish qiyin" (Yemanuyelsson va boshq., 2005, 127-bet).

Buyuk Britaniya. Maxsus pedagoglar (defektologlar) jismoniy nuqsonlari, hissiy nuqsonlari (ya'ni, kar / ko'zi ojiz), til va nutq muammolari, masalan, disleksiya, aqli zaiflik, autizm, hissiy jihatdan zaif, xulq-atvorda qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashi mumkin. Ular shuningdek, iqtidorli va qobiliyatli bolalar bilan ham ishlashlari mumkin.

Ularning faoliyatining asosiy jihati individual ehtiyojlarni aniqlash va o'quvchilarlarga o'qishlarida muvaffaqiyatga erishish imkonini beruvchi xavfsiz, rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishni ta'minlashdan iborat bo'lib, buning uchun quyidagi kasbiy kompetensiyalar talab qilinadi: alohida

o'quvchilarga yoki kichik guruhlariga sinf ichida yoki undan tashqarida dars berish; darslar va o'quv materiallarini tayyorlash; ishning samaradorligini baholashni o'tkazish; o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun an'anaviy o'qitish usullarini ishlab chiqish va moslashtirish; o'qishga qiziqishni rag'batlantirish uchun audio-vizual materiallar va kompyuterlar kabi maxsus jihozlar va texnik vositalardan foydalanish; ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga Brayl alifbosini o'rgatish yoki eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga imo-ishora va labda o'qish kabi maxsus ko'nikmalardan foydalanish; barcha o'quvchilar uchun o'quv dasturiga tegishli tadbirlarni aniqlash uchun sinf o'qituvchisi bilan hamkorlik qilish; ta'lim olishda ancha vaqtdan buyon yoki yaqinda vaqtda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalarni baholash va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash uchun hamkasblari bilan hamkorlik qilish; ijtimoiy ishchilar, logopedlar, fizioterapevtlar va pedagogik psixologlar kabi boshqa mutaxassislar bilan o'zaro hamkorlik qilish; ota-onalar va tarbiyachilar bilan yaqindan ishlash; maktab ekskursiyalarini yoki sport musobaqalarini, jamoat joylariga borish kabi sinf xonasidan tashqaridagi faoliyatni tashkil etish; og'ir nogironligi bo'lgan o'quvchilarga g'amxo'rlik qilishda yordam ko'rsatish; o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni qayd etish va yangilab borish kabi ma'muriy faoliyat.

Angliya va Uelsda maxsus pedagog bo'lish uchun malakali o'qituvchi maqomi talab qilinadi. Ushbu maqomga ega bo'lish uchun bitiruvchilar va maxsus ta'lim muassasalarida dars berishni boshlaganlar uchun o'qituvchi sifatida bir yillik muvaffaqiyatli faoliyat talab etiladi.

Ko'rish, eshitish qobiliyati zaif yoki bir necha sensor nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni o'qitishga ixtisoslashgan maxsus pedagoglar uchun qo'shimcha majburiy malaka talablari mavjud. Ushbu malakalarni faqat ma'lum

tasdiqlangan muassasalarda to'liq yoki yarim kunlik asosda ishlagandan keyin olish mumkin.

AQSH. Qo'shma Shtatlardagi 700 ga yaqin kollej va universitetlar maxsus pedagoglar uchun bazaviy o'quv dasturlarini taklif qiladi. Aksariyat shtatlar maxsus pedagogdan bakalavr darajasiga ega bo'lishni talab qiladi, ba'zilar esa magistr darajasini talab qiladi. Ba'zi shtatlar esa umumiy pedagogika, keyin esa maxsus pedagogika bo'yicha ixtisoslikni talab qiladi.

Council for Exceptional Children (CEC) alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlaydiganlar kasbiy tashkilot vakili sifatida maxsus pedagoglarni o'qitish dasturlari bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqdi. Ular talabalardan quyidagi yo'nalishlarni o'rganishni talab qiladi:

Maxsus pedagogikaning falsafiy, tarixiy va huquqiy asoslari

- O'quvchilarning xususiyatlari
- Baholash, diagnostika va baholash
- Trening mazmuni va amaliyoti
- Ta'lim va o'qitishni rejalashtirish va boshqarish

• O'quvchilarning xulq-atvorini va ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini boshqarish

- Jamoaviy ishlash
- Kasbiylik va axloqiy me'yorlar
- Bolalar bilan ishlash tajribasi, shu jumladan 8 dan 10 haftagacha davom etadigan pedagogik amaliyot.

Chet elda maxsus pedagog (defektolog) larni tayyorlashning tashkiliy shakllarini ko'rib chiqishni yakunlab, biz xorijiy mamlakatlar mutaxassislari tomonidan taklif qilingan bir nechta turli yo'nalishlarni istiqbolli deb ta'kidlashimiz mumkin.

Chet elda maxsus pedagog (defektolog) larni tayyorlashning tashkiliy shakllarini ko'rib chiqishni yakunlab, biz xorijiy mamlakatlar mutaxassislari tomonidan taklif qilingan bir nechta turli yo'nalishlarni istiqbolli deb ta'kidlashimiz mumkin.

Xorijda keng tarqalgan kasbiy ta'limni bosqichma-bosqich egallash konsepsiyasi asosida tarixan avvalroq bo'lgan va ba'zi mamlakatlarda an'anaviy bo'lib qolgan birinchi shakl universitet tizimida umumiy pedagogik ta'lim yoki oliy pedagogik ta'lim



# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA EKOLOGIK QADRIYATLARNI O'RGANISHDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

RAXIMQULOVA MAXBUBA BAXRONOVNA

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası dotsenti

**Annotatsiya.** Maqolada maktab ta'limi tizimidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik qadriyatlarni o'rganishda tadqiqotchilik ko'nikmalarining mazmuni va metodologik asoslari tahlil qilingan. O'qituvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishning loyihaviy dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shu bilan birgalikda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya doirasidagi mazmuni tizimli tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar.** Ekologik qadriyat, tadqiqotchilik ko'nikmasi, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, mazmun

**Аннотация.** В статье анализируется содержание и методологические основы исследовательских умений при изучении экологических ценностей младших школьников в системе школьного образования. Учителям рекомендуется разрабатывать проектные программы для развития исследовательских навыков. Также, систематически проанализировано содержание образования в развитии исследовательских навыков в воспитательные мероприятия.

**Ключевые слова.** Экологические ценности, исследовательские навыки, начальное образование, ученик, содержание

**Annotation.** The article analyzes the content and methodological basis for research skills in the study of ecological values for elementary school students in the school education system. Teachers are advised to develop project programs for the development of research skills. At the same time, a systematic analysis of the content in the field of education has been analyzed in the development of research.

**Keywords.** Ecological values, research skills, primary education, students, content

**KIRISH.** Ekologik muammoning dolzarbligi bugungi kunda inkor etib bo'lmaydigan va juda muhim hisoblanadi. Hozirgi zamonda atrof-muhit muammolarining dolzarbligining bir necha asosiy sabablari aniqlangan. Iqlimning o'zgarishi sayyoramiz oldida turgan eng katta muammolardan biriga aylandi. Atmosferadagi issiqxona gazlari darajasining oshishi, birinchi navbatda, inson faoliyati natijasida global isish, ob-havoning o'zgarishi, ekstremal hodisalar va yerdagi hayotga tahdidlar sababdir. Tabiiy muhitning yo'q qilinishi va biologik xilmaxillikning yo'q qilinishi jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suv va quruqlik ekotizimlarining ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi, yashash joylarining buzilishi va

yovvoyi hayvonlarning noqonuniy savdosi ko'plab o'simlik va hayvonlar turlarining yo'q bo'lib ketishiga olib keladi, bu esa pirovardida ekologik muvozanatni buzadi va ekotizimlar barqarorligiga tahdid soladi. Havo, suv va tuproq sanoat faoliyati, qishloq xo'jaligi, chiqindilar va boshqa manbalar tomonidan tobora ko'proq ifloslanmoqda. Bu odamlar, hayvonlar va o'simliklar salomatligiga, shuningdek, umumiy ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir qilib bormoqda. Suv, o'rmonlar, minerallar va energiya kabi tabiiy resurslardan doimiy va nazoratsiz foydalanish ushbu resurslarning tugashiga olib keladi va ta'minot va muvozanat muammolarini keltirib chiqaradi.

Ekologik muammolar inson salomatligiga bevosita ta'sir qiladi. Ifloslangan havo, suv



va tuproq, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan kimyoviy moddalar turli kasalliklarni, jumladan, nafas olish yo'llari, saraton, zaharlanish va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu va boshqa ko'plab sabablar ekologik muammoning dolzarbligini va sayyoramizni saqlab qolish va tiklash uchun choralar ko'rish zarurligini ta'kidlaydi. Ekologik muammolarni hal qilish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlar, global hamkorlik va samarali siyosat va amaliyotlar talab etiladi.

**MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI.** O'z faoliyatida ekologik muammolarni, ekologik qadriyatlarni o'rgangan va targ'ib qilgan ko'plab xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari mavjud. Ekologik ta'lim sohasiga katta hissa qo'shgan Mariya Montessori (1870-1952) italiyalik o'qituvchi va shifokor, odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi aloqaning muhimligini ta'kidlaydigan o'qitish usulining asoschisi hisoblanib, u bolalarni ekologik qadriyatlar bilan tarbiyalashga va ularda tabiatga mas'uliyatni rivojlantirishga chaqiradi.

Richard Louv (1951 yilda tug'ilgan) amerikalik jurnalist va yozuvchi tabiat va ekologik ta'limga oid ishlari hamda bolalarning tabiat bilan aloqasini tiklash va o'quv jarayoniga ekologik mavzularni ko'proq kiritish tarafdori ekanligi bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Devid Orr (1944 yilda tug'ilgan) amerikalik pedagog va yozuvchi, ekologik ta'lim sohasidagi mutaxassisdir. U o'quv dasturiga ekologik qadriyatlarni kiritishni faol ravishda targ'ib qiladi va talabalarni ekologik fikrlashni rivojlantirishga undaydi. Randall Schlusser (1950 yilda tug'ilgan) amerikalik o'qituvchi va yozuvchi, ekologik ta'lim va talabalarda ekologik ongini rivojlantirishga ixtisoslashgan ko'plab ekologik ta'lim dasturlari va resurslarini ishlab chiqdi.

Bular o'z faoliyatida ekologik qadriyatlarni o'rgatish va targ'ib qilishda faol ishtirok etgan o'qituvchilarning bir nechta misollari.

Dunyo bo'ylab ko'plab boshqa o'qituvchilar ham ekologik ta'lim sohasiga o'z hissalarini qo'shib, o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirishga yordam berishmoqda.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda Sharq mutafakkirlari A.R.Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Maxmud Koshg'ariy, tasavvuf ilmining yetuk namoyondalari Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziylarning boy madaniy meroslarida olg'a surilgan komil inson g'oyasiga tayandik. Shuningdek, milliy pedagogikamiz namoyondalari M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Shakuriylarning pedagogik meroslari boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashda milliylik tamoyiliga asoslanishimizda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga tadqiqot ishini amalga oshirishda respublikamiz pedagog olimlari O.Musurmonova, N.Shodiyev, M.Quronov, S.Temurova, S.Sh.Shermuhammedovlarning fikrlariga ham murojaat etdik. Respublikamizda boshlang'ich ta'lim jarayonida ekologik qadriyatlar ruhida ta'lim berishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ishlari yaratilmagan bo'lsada, umumta'lim maktab o'quvchilarini ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ba'zi qirralari mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari maydonga kelgan.

Bu borada amalga oshirilgan ishlar ichida E.Turdiqulov (Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim berish muammolari), Sh. Avazov (Yuqori sinf o'quvchilarini o'lkashunoslik ishlari jarayonida ekologik tarbiyalash), M.Hoshimova (O'smirlarni geografiya, biologiya fanlarini o'rganish jarayonida ekologik tarbiyalash) larning ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar ekologik tarbiyani tarbiya tizimining tarkibiy qirralaridan biri sifatida o'rganib, asosan maktab o'quvchilarini aniq fanlarni o'rganish jarayonida ekologik tarbiya va ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy

tadqiqot ishlari olib borganlar.

ADABIYAOTLAR TAHLILI. Ekologik qadriyat, ekologik tarbiya va ekologik madaniyat muammolariga ko'proq falsafiy nuqtayi-nazardan tahliliy mulohazalar bildiriladi. Ta'lim va tarbiya muammolari bilan ekologik qadriyatning o'zaro aloqadorligi kabi masalalar o'zaro bog'liq holda tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Qadriyatlar tushunchasi voqealardagi muayan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladi [3;235]. "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat elat va ijtimoiy guruhlarning manfatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalarini majmui tushunilmog'i lozim" [4;12) Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Jumladan insin va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. [4;13b) Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Qadriyatlarining xilma-xil shakllari bor: moddiy, ma'naviy va umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy; jamiyat sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar... [3;475)

Qadriyatlar insoniyat tarixi davomida shakllanadi. Ayni vaqtda qadriyatlar mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy bo'lishi tabiiydir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ekologik qadriyatlar mazmuniga ko'ra tarkibiy qirralaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy qadriyatlarpedagogolima O.Musurmonovanning ta'rifiga ko'ra «Insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatda davr sinovidan o'tgan, o'z shakl va mazmunida u yoki bu halqning ma'naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida halqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida kadrlanib kelingan ma'naviy-ruhiy hatti-harakatlari narsa va hodisalar majmuidir»[1].

O'zbek faylasuf olimi ekologik madaniyat

tushunchasiga "tabiat – jamiyat - inson" tizimidagi qismlarning o'zaro munosabatlarini muvafiqlashtiradigan, insoniyat borliqdagi barcha mavjudotning dialektik bog'liqligini anglatadigan, atrof-muhit musaffoligini saqlashga undaydigan va shu orqali butun koinotni tanazzuldan saqlashga xizmat qiladigan falsafiy-axloqiy kategoriyadir", deb ta'rif beradi. [2]

MAQOLANING MAQSADI hozirgi davrda o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish jarayonida ekologik qadriyatlarini, atrof-muhit muhofazasiga ongli munosabatni shakllantirishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishning aniq yo'llarini ilmiy-pedagogik jihatdan ishlab chiqishni va amaliyotga joriy etishni talab etadi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni ekologik qadriyatlarini o'rganishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish maxsus tadqiq etilmaganligi sababli ilmiy asoslangan pedagogik xulosalar, g'oyalar va tavsiyalarga muhtojlik sezmoqda.

Ekologik qadriyatlarini o'rganishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish mavzusining o'rganilganlik darajasi uning ilmiy ta'rifi, mazmun-mohiyati va ijtimoiy ahamiyati haqida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va o'rganish ishlarining umumiy manzarasi, ekologik tarbiya vazifalari doirasida tashkil qilingan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ekologik qadriyatlarini o'rganishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishga oid meyoriy-xuquqiy hujjatlarni o'rganilishi pedagogik yondashuv orqali kundalik faoliyat mazmuniga singdirish zarurati aniqlanmoqda. Bu esa boshlang'ich ta'limda amalga oshirilishi zarur bo'lgan dalzarb vazifalarni ko'zda tutadi. O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari o'quvchilarga tabiat haqidagi ilmiy bilimlarni egallash; jamiyat va insoniyat uchun zarur bo'lgan tabiatning ko'p qirrali qadriyatlarini tushunish; shaxsiy gigiyena qoidalariga, toza-

ozodalikka rioya etish malaka va ko'nikmalarini tarkib toptirish; atrof-muhit bilan munosabatda bo'lish qoidalarini o'rgatish; tabiatga muhabbat qo'yish ehtiyojlarini rivojlantirish; tabiatni sevish, avaylab-asrash va uni chiroy ochishiga, ko'payishiga ongli ravishda hissa qo'shish; tabiat go'zalligidan ilhomlana olish tuyg'usini shakllantirishdan iboratdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish zamirida yoshlarda ekologik savodsizlikni tugatishga erishish, tabiatga madaniy munosabatni tarbiyalashdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida inson va tabiatning o'zaro ta'siri natijalarini tushunishlariga qaratilgan ilmiy bilimlar tizimi, tabiatga nisbatan ekologik qadriyatlarni o'rganishdagi tadqiqotchilik ko'nikmasini va malakalarini shakllantirish ishlarini tashkil etishda maqsad va tizimlilik kerak bo'ladi. Ma'lumki inson har doim izlanishda, o'rganishda va izlanishda bo'ladi. Bu jarayonda esa ekologik tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari odamlarning hayotiy zarurati orqali paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinf yoshida bola ijtimoiy, jismoniy va ma'naviy jihatdan o'zgaradi. Bu yoshda bolada tanqidiy tafakkuri shakllanadi, kattalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Berilgan topshiriqlarni o'ylab bajaradi. Ularni qiziqtirgan savollar murakkablashadi, o'z hulq-atvori, yurish-turishi, kattalar bilan munosabati nuqtayi-nazaridan butunlay o'zgaradi. Ularda ekologik tajriba, bilim ham oshadi va ichki dunyosi sifat jihatdan takomillasha boradi. Shuning uchun bu davr o'ziga xos murakkab davr hisoblanadi.

Bu yoshdagi o'quvchilar kattalar bilan qanchalik ko'p muomalada bo'lsa, tabiat bilan mulqotda bo'lsa, u shunchalik keng fikr qilishga, tasavvur etishga o'rganadi. Aks holda esa bolaning intilishi, shijoati, kziqishi sunishi, atrof-muhitdagi ishlarga, tabiat hodisalariga, hayvonot va o'simliklar olamiga befarq bo'lishi mumkin.

Ularg a xos xususiyatlardan yana biri

mustaqillik sari intilishdir. Demak, shunday ekan bu bolalar bilan atrof-muhit hodisalari haqidagi ba'zi masalalarda o'qituvchilar, ot-onalar maslaxatlashmokliklari zarur. Ular bilan muloyim muomalada bo'lish, ruhiy holatiga, ekologik bilim saviyasini oshishiga ijobiy ta'sir qiladigan badiiy asarlarni o'qish va o'rganishni tavsiya etish, tabiat qo'yniga sayohat qilish, xovli, maktabni obodonlashtirish, saranjom-sarishta qilish ishlari bilan band qilish, turli to'garaklarga jalb etish maqsadga muvofikdir. Bu davrda ularni ko'prok ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, unga intilish, qiziqishni tarbiyalash ekologik tarbiyada muhim rol o'ynaydi. Ekologik tarbiyada tabiatga ongli munosabatni tarkib toptirishda hissiyot, qarash va tafakkur asosiy ruhiy jarayon hisoblanadi.

Jumladan, u qo'yidagi yetakchi g'oyalar, tushunchalarni o'z mazmunida qamrab oladi:

- jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasi;
- tabiat qonun-qoidalarining o'ziga xosligi (paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi, halok bo'lishi yoki boshqa shaklga aylanishi);
- tabiatning mehnat jarayonida o'zgarib borishi;
- tabiatning, atrof-muhitning o'zaro aloqasi o'zaro ta'siri;
- ekologik ong, tafakkur, faoliyatni o'quvchi ekologik madaniyatini shakllantirishdagi yetakchiligi.

Umumta'lim maktabi o'quvchilarda ekologik ong va madaniyatni tarbiyalash murakkab va o'ziga xos tizimga ega bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro aloqada va o'zaro ta'sirda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik qadriyatlarni o'rganishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishda fasllarga, oila etikasiga taalluqli qadriyatlar muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega. Boshlang'ich ta'limda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishni qo'yidagi o'quvchilar uchun loyihalarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Bahor fasliga oid ekologik qadriy

holatlarni o'quvchi tadqiqi qiladi va qo'yidagi ekologik tasavvur va hissiyotni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bahor. Kunlar erib, qorlar eriy boshlaydi. Yomg'ir ta'sirida atrof-muhit top-toza, xavo musaffo. Daraxt barglar chiqara boshlagan, har xil o't-o'lanlardan yer ko'm-ko'k ko'ylak kiygan. Qaldirg'och, chumchuqlarning uchib kelishi tabiatga kurk bag'ishlaydi. Loloqizg'aldok, momoqaymoq, binafsha, lolalar ochiladi. Ularning go'zalligi qishiga zavq-shavk bag'ishlaydi. Inson hayotida, kayfiyatida ham o'zgarish vujudga keladi. Issiq kiyimlar (palto, etik, telpak) yechilib, yengilroq kiyimlar kiyishga o'tiladi. Hayvonlar ham o'zlarini oftob nurida toblay boshlaydilar. Dehqon yer haydash, ekin ekishga kirishadi. Ko'chalarga, hovlilarga daraxt, buta ko'chatlari o'tkaziladi, gulzorlarga gullar ekiladi. Daraxtlarning ortiqcha shoxlari kesilib, ularga shakl beriladi. Qishloqlarda sigir-buzoqlar, kuy-echkilar yaylovlarga o'tlatishga chiqariladi. Bolalar hayotida ham keskin o'zgarishlar vujudga keladi, ya'ni chavgon, chillak, ko'rash, tuptosh, xo'roz urishtirish, hashar, kim o'zar kabi halq o'yin qadriyatleri, futbol, voleybol, basketbol kabi tup o'yinlari bilan mashg'ul bo'lalilar.

Bahor kayfiyati bilan qo'yidagi ekologik qadriyatlar o'quvchilar ongiga singdiriladi: osmon, yer, suv va havo muqaddas; atrof-muhit toza-ozodaligi salomatlik garovi; daraxtlar, o'simliklar, hayvonlarni parvarish qilish – umuminsoniy qadriyat; milliy an'analar, urf-odatlar – hayotiy ehtiyoj; go'zallikka intilish, uni avaylab-asrash estetik-ekologik qadriyatdir.

Yoz – quyosh harorati eng yuqori fasl. Yozda o'simliklar quyosh nuridan tez o'sadi, yetiladi, pishadi. Mehnat qaynaydi. Bug'doylar, makkajuxorilar, pomidor, bodring, qovun-tarvuz, bulg'or qalampiri, sabzavotlar, ko'katlar quyosh nuridan shirin-shakar bo'lib pishadi. Hayvonot olami quyosh nuridan o'zini soya salqin joylarga tortadi. Olma, o'rik, nok,

shaftoli, olcha, gilos va boshqa mevalar ham pishib yetiladi. Hasharotlar va turli tuman qushlar uchun yoz fasli yashash, yashnash fasli hisoblanadi. Daraxtlar, o'simliklar, poliz ekinlari shamol ta'sirida changlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi ongiga singdirish lozim bo'lgan yoz fasli bilan bog'liq ekologik qadriyatlar: pishib yetilgan meva sabzavotlarni nobud qilmaslik, isrof qilishning oldini olish; qish uchun ho'l va quritilgan mevalarni g'amlash; xo'l mevalarni saqlash tartib-qoidalariga amal qilish; mevalarni is'temol qilishda toza-ozodalikka rioya etish; o'simlik va hayvonot olamiga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lish; yoz ne'matlarini avaylab-asrash, tabiatga muhabbat qo'yish, suvdan unumli foydalanish; yoz faslida dam olish, quyosh nuridan salomatlikni mustahkamlash maqsadida foydalanish; dehqon mehnatini qadrlash va ulug'lash; shamolning tabiatdagi ijobiy ta'sirini anglab yetish.

Kuz – fasli ham yoz faslidek issiq bo'ladi. Kunlar qiskarib, ertaroq qorong'u tusha boshlaydi. O'simliklar dunyosidagi o'sish susayadi, daraxt barglari sarg'ayadi va oktabr oyidan boshlab ular to'kila boshlaydi.

Meva-sabzavotlar yig'ib olinadi. Xazonrezgilik boshlanadi. To'kilgan barglar yoqilmasdan yerga ug'it bo'lish uchun ko'mib tashlanadi. Agar yoqib yuborilsa ekologik muhit zaharlanadi, inson organizmi zaharli havodan kasallanishi mumkin. Haroratning pasayishi bilan hasharotlarning bir qismi o'ladi, kolganlari esa sovuqdan pana joylarga yashirinadilar. Qushlar esa tudalashib issiq o'lkalarga uchib ketadilar (qaldirg'och, jibljibon, zarg'aldaq, ko'k qarg'a, turna, g'oz, o'rdak, laylak). Ularning o'rniga sovuqqa chidamli go'ngqarg'a, qoraqarg'a, sufiturg'ay, dala chumchuq, chigirtka va qorayaloqlar paydo bo'lalilar. Qishlash uchun kelgan qushlar bolalarning yordamiga muhtojdir. Ularni ovqatlantirish, maxsus inlar yasash, daraxtlarga donxo'raklar osib qo'yish, har bir o'quvchining

hayvonot olamiga bo'lgan mehr-muhabbatidan dalolatdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'z fasli bilan bog'liq qadriyatlardan: kunning har bir daqiqasidan unumli fodalanish; qish uyqusiga ketadigan daraxtlar va yerni qishga tayyorlash; xazonrezdan atrof-muhitni ozoda saqlash; qishlash uchun kelgan qushlarga g'amxo'rlik qilish; uy hayvonlarini sovuqdan saqlash chora-tadbirlarini qurish; uy gullarini o'stirishga ehtiyojni o'stirish, mehnatsevarlik kabilarni o'zlarida shakllantirishlari zarur.

Qish fasli o'zining qorli, yomg'irli va sovuq kunlari bilan boshqa fasllardan ajralib turadi. Qishda daraxtlar, ba'zi xasharotlar uyquga ketadi. Yer kelgusi ekish pallasiga qadar dam oladi, ozuqalantiriladi. Atrof-muhit qor, yomg'ir iflosligidan tozalab turiladi. Qish havosi ayrim kasalliklarni bartaraf etadi. Bolalar yaxmalaklarda uchib, o'zlarining jismoniy salomatliklarini tiklaydilar. Hayvonlar, o'simliklar olami bu faslda alohida parvarishni talab etadi. Ular uchun issiq joy, to'yimli ozuqa, suv va toza havo zarur. Bahorgi ekin ishlari uchun tayyorgarlik olib boriladi. Qish fasli bilan bog'liq ekologik qadriyatlar: hayvonlar, qushlar, o'simliklar uchun alohida g'amxo'rlik; atrof-muhitni kor-omg'irdan tozalash, toza-ozodalikka rioya etish, yerga mehr bilan munosabat; jismoniy chiniqish, inson mehnati mahsulidan baxramand bo'lish, rohatlanish; oppoq qordan g'ururlanish, ilhomlanish, ruhiyatini ko'tarish, salomatligini mustahkamlash.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini fasllarni mohiyatini o'rganishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida jonli va jonsiz tabiatning voqeahodisalari to'g'risidagi bilimlari aniqlanadi va kengaytiriladi; tabiat va jamiyatda yuz beradigan voqea va hodisalarning qonuniyatlari haqidagi dastlabki tushunchalar shakllantiriladi; tabiatda bo'ladigan mavsumiy o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llashga

o'rgatiladi; o'simlik va hayvonot olamini parvarish qilish bo'yicha kattalar mehnatida qo'lidan kelgan mehnat bilan ishtirok etish, yordam berish ehtiyoji paydo qilinadi; atrof-muhitning ekologik toza-ozodaligini saqlash odati shakllantiriladi; an'anaviy ovqatlar, yil fasllarida yuz beradigan o'zgarishlar, shifobaxsh ne'matlardan foydalanish, dangasalikning sog'liqqa zarari, mehnat meyeri haqidagi ma'lumotga ega qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni ekologik qadriyatlarga o'rgatishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish, tarbiyalash, tabiatga, atrof-muhitga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, asrab-avaylash hohishini tarbiyalash ishi ma'lum izchillik asosida olib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik qadriyatlarni o'rgatishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishning samaradorligi dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning rang-barangligi, usullari va vositalarining mashg'ulot shakliga mosligiga bog'liq. Bu yoshdagi o'quvchilarning ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalashda hikoya, suhbat, ko'rgazmali, she'r, badiiy, publitsistik asarlardan parchalar o'qib berish, jonli burchaklardan foydalanish, tabiat shaydolari bilan uchrashuv va suhbatlar o'tkazish, sayohat uyushtirish va boshqa ta'limiy-tarbiyaviy usullardan foydalanish ham taqozo etiladi.

XULOSA. Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda ekologik qadriyatlarni o'rgatishda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishni to'g'ri tashkil etish va o'tkazishda muhim pedagogik talablar, shart-sharoitlar, tamoillar, xususiyatlarga amal qilish ekologik tarbiya samaradorligining muhim omillaridandir.

Ekologik mavzularda tashkil etiladigan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning natijasini oldindan ko'ra bilish, dolzarb mavzularni olib chiqish, xududiy muammolarga e'tibor, maqsadni aniq ko'ra bilish, dars va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirning

o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash, maktab pedagogik jamoasi, ota-onalar va jamoatchilik hamkorligida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda halqimizning ekologik qadriyatlarini, urf-odatlarini, an‘analari asosida tarbiyaviy tadbir mazmunini ishlab chiqish va uyushtirish ularda milliy ekologik qadriyatlarga muhabbat hissini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi ta‘lim tizimida ekologik qadriyatlarni o‘rgatishda tadqiqotchilik ko‘nikmasini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratish va tadqiq etishni taqozo etadi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari uchun tadqiqotchilik ko‘nikmasining loyihaviy xarakterga ega dasturlarini ishlab chiqish lozim. Ekologik qadriyatlarni o‘rganishda tadqiqotchilik ko‘nimasini rivojlantirishda ta‘lim-tarbiya doirasidagi mazmuni tizimli tahlil etilishi lozim.

Jumladan, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning har bir shakli aniq maqsad asosida, natijasini oldindan ko‘ra bilgan holda dolzarb ekologik masalalarga bag‘ishlab o‘tkazilsa, o‘quvchida shakllantirilishi lozim bo‘lgan ekologik qadriyatlar ularning xulq-atvori meyoriga mos bo‘lishi, ko‘rgazmali vositalar va jixozlarning o‘quvchi ekologik madaniyatini

shakllantirishga qaratilganligi, tarbiyaviy tadbirning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, tadqiqotchilik asosida tadbir o‘tkazayotgan o‘qituvchining tarbiyaviy jarayonni tashkil etish qonuniyatlari, qarama-qarshiliklari, tashkil etish mahorati, natijani tahlil etish darajasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalar muhim ahamiyatga. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalash samaradorligi tarbiyaviy tadbirning eng maqbul, noan‘anaviy shakllaridan, rang-barang metod va vositalaridan foydalanishga, tadqiqotchilik-tarbiyaviy jarayonni boshqarish va unga rahbarlikka, izlanuvchanlik jarayonning natijasini hisobga olishga bog‘liq.

Shuningdek, ta‘lim-tarbiya jarayoni andazasini yaratishda uni bosqichma bosqich tashkil etish, mashg‘ulotlarning o‘quvchi yoshi va individual xususiyatlariga, qiziqishlariga mosligi, dolzarbligi, xududiy sharoitdan kelib chiqishi, darsdan va maktabdan tashqari ishlarning dars bilan o‘zaro aloqada olib borish, tarbiyaviy tadbirning rang-barangligi, noan‘anaviyligi, o‘quvchi egallagan ekologik bilimlarning o‘quvchi kundalik hayotiy ehtiyojiga aylanib qolishiga erishish tamoyillariga asoslanish tadqiqotchilik asosida o‘qitish metodikasining asosli va samarador ekanligidan dalolat beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Мусурмонова О. Ёшларни маънавий-ахлокий кадриятлар руҳида тарбиялаш. Услубий кулланма. Тошкент-1996 йил.
2. Яздонов З.Ш. Ўзбек халқ экологик маданияти аънаналарини тиклаш ва ривожлантириш тенденциялари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд – 2019. -Б.11.
3. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. M.Abdullayev va boshqalar. To‘ldirilgan uchinchi nashri. T.: “Sharq”, 2006. -528 b.
4. To‘lanov J. Qadriyatlar falsafasi. -O‘zbekiston, 1998. -236 b.
5. Рахимқулова М.Б. Бошланғич синф ўқувчиларини дарсдан ташқари жараёнда экологик қадриятлар руҳида тарбиялаш. Педагогика фанлари номзодилиги учун тақдим этилган диссертация. -Т.: 2000 йил, -140 б.
6. Raximqulova Maxbuba Baxronovna. (2023). DEVELOPING TEACHER’S SKILLS IN USING SCIENTIFIC METHODOLOGICAL ARTICLES IN SCIENCE TEACHING. International Journal of Advance Scientific Research, 3(09), 122–127. <https://doi.org/10.37547/ijasr-03-09-21>

# IXTISOSLIK MODULLARINI O'QITISHDA INDIVIDUAL TA'LIM TAMOYILLARINING QO'LLANILISHI

SAYPILLAYEVA HILOLA BAROT QIZI

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyaning didaktik imkoniyatlarini o'rganishning muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan. Maqolada ixtisoslik modullari dasturini loyihalashdagi umumiy tamoyillar, o'quv jarayonini modullilik tamoyillari asosida qayta qurish, integratsiya ta'rifi va uning qo'llanilishi, integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Yaxlitlik, tizim, mazmun, fan, o'quv elementi, bilish, faoliyat, ko'nikma, hamkorlik.

**Абстрактный.** Важно изучить дидактические возможности интеграции в содержании модулей специальности в области педагогики и психологии. В статье говорится об общих принципах построения программы модулей специализации, перестройке образовательного процесса на основе принципов модульности, определении интеграции и ее применении, а также педагогических возможностях интеграции.

**Ключевые слова.** Целостность, система, содержание, наука, элемент обучения, знание, деятельность, умение, сотрудничество.

**Abstract.** It is important to study the didactic possibilities of integration in the content of specialty modules in the field of pedagogy and psychology. The article talks about the general principles in the design of the program of specialization modules, the restructuring of the educational process based on the principles of modularity, the definition of integration and its application, and the pedagogical possibilities of integration.

**Keywords.** Integrity, system, content, science, learning element, knowledge, activity, skill, cooperation.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, axborot asri, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlashda ixtisoslik modullarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari juda katta. Bu ta'lim tizimida jahon tajribasidan keng foydalanish imkonini beradi. Shu talabdan kelib chiqib, pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyaning didaktik imkoniyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga,

pedagogika va psixologiya yo'nalishida bilim olishga bo'lgan harakatni, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan talablarni ham kuchaytirdi. Bu esa, o'z navbatida, zarur qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, samarali pedagogik faoliyat yuritish uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan pedagoglar tayyorlashnigina emas, balki ularni o'qitadigan pedagogika va psixologiya yo'nalishidagi ixtisoslik modullarini ham qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o'zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash

va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari dasturini loyihalashda quyidagi umumiy tamoyillarni hisobga olish kerak:

- ta'lim jarayoni mazmunini asosiy tushuncha va metodlar atrofida joylashtirish;
- o'quv materialini taqdim etishning tizimli va mantiqiy ketma-ketligi;
- mazmunning yaxlitligi va amaliy ahamiyati;
- o'quv materialini taqdim etishning aniqligi.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi ixtisoslik modullari dasturini loyihalashning o'ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat: modullilik, tuzilish, dinamiklik, moslashuvchanlik, paritet, teskari aloqani amalga oshirish, ongli nuqtai nazar.

Shuningdek, mashg'ulotlar talabalar uchun mo'ljallangan kasbiy faoliyat to'g'risidagi ta'lim ma'lumotlarini o'zlashtirishning asosiy vositasi sifatida alohida modullar bo'yicha qurilishi kerak. Bu modullik tamoyili hisoblanadi.

Modullarni taqsimlash mutaxassislar faoliyatining mazmuniga muvofiq amalga oshiriladi va bilim, ko'nikma va malakalarni egallash harakatlar tizimi orqali quriladi.

Tuzilish tamoyili modulning o'quv materialini tarkibiy elementlarga - bosqichlarga bo'lishni talab qiladi, ularning har biriga aniq didaktik maqsad qo'yiladi va o'quv mazmuni hajmda taqdim etiladi.

Dinamiklik tamoyili modulli dasturlarning o'zgaruvchanligini ta'minlaydi, ularni kasblarga bo'lgan talab dinamikasini va talabalarning kasbiy ixtisosligini hisobga olgan holda o'zgartiradi.

Moslashuvchanlik tamoyili modulli dasturlarni o'zgaruvchan ilmiy-texnikaviy

va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, individual qonunlar va talabalarni tayyorlash darajalariga oson moslashadigan holda loyihalashni ta'minlaydi.

Paritet tamoyili o'qituvchi va talaba o'rtasidagi sub'yektiv munosabatlarni nazarda tutadi.

Teskari aloqani amalga oshirish tamoyili modulning o'quv materialini o'rganish muvaffaqiyatini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish, tuzatish va baholash tizimini yaratishga yordam beradi.

Ongli nuqtai nazar tamoyili muvaffaqiyatli o'rganishning sharti bo'lgan o'rganish uchun kasbiy motivatsiyani shakllantirish, uning yaqin va uzoq istiqbollarni bilishdir [1].

Mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan konsepsiyalarda modulli o'quv dasturlari har xil tarkibga va tizimli loyihaga ega. Hujjatlarda ular turli shakllarda taqdim etilishi mumkin, ammo uchta asosiy komponentni majburiy ravishda o'z ichiga oladi: maqsadli kontent dasturi, ma'lumotlar banki va tinglovchilar uchun uslubiy qo'llanmalar.

O'quv jarayonini modullilik tamoyillari asosida qayta qurish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv fanlaridan takroriy qismlarni yo'q qilish uchun mavjud ta'lim dasturlari mazmunini dastlabki chuqurlashtirilgan fanlararo o'rganish;
- kasbiy modul doirasida mumkin bo'lgan ta'lim trayektoriyalarini o'rnatish,
- ta'lim muassasasining moddiy-texnikaviy, axborot-kutubxona bazasini sifat jihatidan yangilashni talab qiladigan kasbiy modullarni joriy etish tizimini ishlab chiqish;
- o'quv jarayoniga modulli yondashuvni amalga oshirishda professor-o'qituvchilar malakasini oshirish;



- ta'lim jarayonini zamonaviy qayta qurishga javob beradigan yangi tamoyillar asosida ma'muriy va boshqaruv faoliyatini amalga oshirish va boshqalar.

Demak, modulli o'qitish texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, talabalarning malakasining zarur darajasiga erishish uchun tegishli tamoyillar va yondashuvlar asosida o'quv materialini kompleks tizimlashtirish amalga oshiriladi, o'qitishning tegishli usullari, unga to'liq, qisqartirilgan yoki chuqurlashtirilgan ta'lim variantini mustaqil tanlash va tugatishga qaratilgan vositalar va shakllar tanlanadi. Mutaxassislar tayyorlash dasturining maqsadli funksional birligi sifatida modul to'liqlik, mustaqillik va murakkablik bilan tavsiflanadi.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyaning didaktik imkoniyatlarini o'rganishda integratsiya tushunchasiga alohida e'tibor qaratiladi. Hozirgi kunga kelib, jamiyatning iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy sohalarida, shu jumladan, ta'lim sohasida, mikroolamdan tortib to makroolamgacha integratsiya katta ahamiyat kasb etadi va uning rivojlantiruvchi funksiyalarini amalda qo'llash orqali muhim ilmiy muammolarni hal qilish mumkin.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ushbu atama quyidagicha izohlangan: «Integratsiya lotincha so'z bo'lib, integratio – tiklash, to'ldirish, integyer - butun degan ma'nolarni anglatadi. Unga quyidagicha ta'riflar berilgan: Integratsiya:

1. Sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha.

2. Fanlarning mazmunan yaqinlashishi,

birlashishi va o'zaro aloqalari jarayoni differentsiatsiya bilan birga kechadi.

3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish».

A.I.Avazboyev integratsiyani «Ayrim tarkibiy qismlarning yangi xossa hosil qilib, bir butun birlashish jarayonidir», - degan xulosaga kelgan. Bunda integratsiya jarayon sifatida talqin qilingan bo'lib, ancha to'liq ta'rif hisoblanadi, ya'ni bunda jarayonda ishtirok etuvchi ayrim-ayrim qismlarning birlashishi natijasida hosil bo'ladigan yangi xossaga ega bir butun, yaxlit qism nazarda tutilgan.

R.A.Mavlonova ham integratsiyani jarayon sifatida talqin qilib, uning xil ikki ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qismlari va vazifalarining bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiya deganda biz malakali kadrlar tayyorlashdan manfaatdor bo'lgan va bu jarayonda bevosita ishtirok etadigan fanlarning integrativ faoliyat jarayonini va uning natijalarini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyaning ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini ochib berish tadqiqot ishining muhim vazifasi hisoblanadi. Albatta, bunda integrativ ta'lim uzviyligi va birligini ta'minlamasdan samarali natijalarga erishib bo'lmasligini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Biz ilmiy pedagogik tadqiqotlarga asoslanib, pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida

integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini belgiladik:

- yaxlitlik - kadrlarni kasbiy tayyorlashning yaxlitligini ta'minlash;
- tizimlashtirish - o'quv materiallari mazmunini tizimlashtirish;
- umumkasbiy fanlardan o'quv elementlarini o'zaro uzviylashtirish;
- o'quv-bilish va o'quv-amaliy faoliyatidan kasbiy faoliyatga o'tishni izchillashtirish;
- kasbiy faoliyat sohasiga oid egallangan bilimlardan turdosh sohalarda proporsional foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish;
- malakali kadrlar tayyorlashdan manfaatdor bo'lgan tarmoqlarning samarali ijtimoiy-pedagogik hamkorligi.

Ijtimoiy-pedagogik amaliyot pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyani ta'minlashda integrativ ta'limning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik tajribalar ko'rsatishicha, integrativ ta'limning uzviyligi va birligini ta'minlamasdan sifatga erishib bo'lmaydi.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida modulli ta'lim nazariyasi va amaliyotining eng kam rivojlangan masalalaridan biri o'qitish yoki ta'lim modullarini ishlab chiqish jarayonini tavsiflashdir.

Ko'pgina pedagogik texnologlar dars qurishda buni o'qituvchi pozitsiyasidan amalga oshiradilar, texnologik turdagi o'quv jarayonida esa barcha turdagi o'quv materiallari talaba faoliyatini tashkil qilish uchun rejalashtirilishi kerak. Aynan shu pozitsiyalardan biz kognitiv qismda tarkibni qurish va modulning operasion qismida vazifalar va topshiriqlar turlarini aniqlashni ko'rib chiqamiz. O'quv modulining

operasion qismini yaratish uchun asos bu "Faoliyatning tabiati" - reproduktiv, qisman qidiruv, ijodiy.

Uning asosiy elementlari quyidagilardir:

- axborot (kognitiv) qism, ya'ni bir qator tamoyillar asosida ta'lim elementlariga yig'ilgan va kontekstual yondashuv asosida tanlangan ta'lim ma'lumotlari;
- turli darajadagi amaliy topshiriqlar shaklida taqdim etilgan operativ (ijro etuvchi) qismi
- faoliyatning indikativ asoslari to'plamlari bilan yolg'on, shuningdek ular uchun uslubiy ko'rsatmalar bilan amaliy va laboratoriya ishlari to'plami;
- turli qiyinchilik darajasidagi nazorat vazifalari va testlarni o'z ichiga olgan nazorat qismi;

- talabalarining ta'lim faoliyati murakkabligining turli darajalarini hisobga olgan holda darslarni o'tkazish usullari tavsifini o'z ichiga olgan uslubiy qism [9].

Shunday qilib, pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari - bu ma'lum modulli birlik uchun o'quv mazmuni, talabaning ta'lim faoliyatini boshqarish tizimi (yoki uning elementlari), muayyan mazmun va uslubiy tavsiyalar uchun bilimlarni nazorat qilish tizimidir.

O'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida innovasion pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va ta'lim jarayoniga joriy etishga katta ahamiyat berilayotgan xozirgi vaqtda pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyaning didaktik imkoniyatlari juda keng. Ulardan texnika fanlarini o'qitishda samaraliroq deb topilganlarini zamonaviy sharoitlarda va gumanitar fanlarni o'qitishda ham qo'llash mumkin.

Modulli o'qitish o'quv ma'lumotlarini,

o'quv mazmunini va talabalarning to'liq, mantiqiy tugallangan o'quv bloklari (modullari) bilan ishlashini tashkil etishning qat'iy tuzilishini o'z ichiga oladi. Modul fan mavzusiga mos keladi. Biroq, moduldagi mavzudan farqli o'laroq, hamma narsa o'lchanadi, topshiriqlar, ish, darsga qatnashish, talabalarning boshlang'ich, oraliq va yakuniy darajalari va boshqa hamma narsa baholanadi. Modulda ushbu modulning o'quv maqsadlari, vazifalari va o'rganish darajalari aniq belgilab beriladi, ko'nikma va malakalar nomlanadi. Modulli

o'qitishda nafaqat o'quv materialini o'rganish ketma-ketligi, balki uni o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatini nazorat qilish kabi hamma narsa oldindan dasturlashtiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyaning didaktik imkoniyatlari juda keng, murakkab va ko'p vaqt kerak bo'ladigan jarayon hamda o'qituvchidan pedagogik malakani talab qiladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Saypillayeva H. Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishning tashkiliy metodik aspektlari. Published in proceedings of 46th conference of "prospects of development of science and education. 2024 y.
2. Saypillayeva H. Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullari mazmunida integratsiyaning didaktik imkoniyatlari. Innovative development in educational activities. 2024 y.
3. Saypillayeva H. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun elektron o'quv adabiyotlarning o'rni. Jizzax davlat pedagogika universiteti Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2022 y.
4. Mavlyanova R.A., Raxmankulova N.H. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya". O'quv qo'llanma. -T.: "Voris-nashriyot"-2013. - 240 b.
5. Safin R.S. i drugiyе: Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii v texnicheskom vuze: monografiya., izdatelstvo: Izd-vo Kazansk. gos. arxitekt.-stroit. univ, g. Kazan, Rossiya, 2014, – 217 s.
6. Erganova N.Ye. Pedagogicheskiye texnologii v professionalnom obuchenii. Uchebник. – Moskva: 2014. – S. 160.
7. Norbutayev H.B. Specific features of interdisciplinary integration in teaching natural subjects. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. Impact Factor: SJIF. Vol.11,10.5958/2249-7137.2021.00766.7. Issue 3, March 2021.- P.1123-1128.
8. Saypillayeva H. Mechanisms for the development of a culture of reading in students. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education London Conference. 2022 y.
9. Saypillayeva H. THE ROLE OF ELECTRONIC EDUCATIONAL LITERATURE FOR THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Malasia Conference 2022 y.

# O'QUVCHILARIDA ZARARLI ODATLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY AXAMIYATI

ABDULAZIZOVA NILUFAR ABDURAXMONOVNA

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarning kundalik faoliyatlari, o'quvchilarning kun tartibi va mobil qurilmalardan foydalanish madaniyati, o'quvchilarda zararli odatlarni oldini olish, mukkasidan ketishning yo'qotish yo'llari, o'quvchilar bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish omillari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** zararli odatlar, smartfonlar, noutbuklar, kompyuterlar, raqamli texnologiya.

**Аннотация.** В данной статье описаны повседневная деятельность студентов, распорядок дня студентов и культура использования мобильных устройств, профилактика вредных привычек у студентов, способы избавления от стресса, содержательная организация свободного времени студентов.

**Ключевые слова:** вредные привычки, смартфоны, ноутбуки, компьютеры, цифровая техника.

**Abstract.** In this article, students daily activities, students' routines and the culture of using mobile devices, prevention of harmful habits in students, ways to get rid of stress, and meaningful organization of students' free time are described in this article.

**Key words:** harmful habits, smartphones, laptops, computers, digital technology.

So'nggi bir necha o'n yilliklarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi butun dunyoni qamrab olgan uyali epidemiyaga olib keldi. Kompyuterlar, mobil telefonlar, televizorlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda deyarli hamma xonadonda kamyuterlar, mobil telefonlar, televizorlar bor. Har kuni kamyuterlar, mobil telefonlar, televizorlarning inson salomatligiga zararli ta'sirini isbotlovchi nashrlar paydo bo'ladi. Biroq, biz kamyuterlar, mobil telefonlar, televizorlarning qulay shakliga shunchalik o'rganib qolganmizki, endi biz uni rad eta olmaymiz.

Dunyoda ta'lim- tarbiya sharoitida o'quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishning psixologik-pedagogik omillarini aniqlashtirish, o'quvchilarda axborot bilan ishlash, mobil qurilmalar ya'ni telefon, kamyuter, televizorlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishning tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 9 sentabrdagi O'RQ-444-sonli "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi

axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, 2020.yil 30.oktabrdagi PF-6099-sonli "Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish choratadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilayotgan ishlar shular jumlasidandir.

Kompyuter ham bizning hayotimizga mustahkam kirdi. Universal kompyuterlashtirish insonga katta ta'sir ko'rsatadi. Har qanday taraqqiyot yutug'i singari, kompyuter, telefon, televizor insonga salbiy ta'sir ko'rsatadigan manba bo'lib, noto'g'ri ishlatilsa, uning sog'lig'iga zarar etkazadi, kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin, hatto o'smirlar undan doimiy uzoq vaqt o'yin-kulgi (kompyuter o'yinlari) sifatida foydalanilsa, kompyuterga qaramlik paydo bo'ladi.

A x b o r o t - k o m m u n i k a t s i y a texnologiyalaridan foydalanish aqliy faoliyatning faollashishiga olib keladi, olingan ma'lumotlar hajmini oshirishga imkon beradi, fikrlashni tizimlashtiradi. Shu bilan birga, kompyuterdan uzoq vaqt foydalanish o'smirlarning jismoniy va aqliy faoliyatiga

va funksional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kompyuter asrimizda insonlar kompyuter bilan ishlashni qanchalik tez o'rgansa, shunchalik yaxshi bo'ladi, boshqa tomondan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, bolalar va o'smirlarning kasallanish darajasi oshadi. Monitor ekrani oldida o'tkaziladigan soatlar ertami-kechmi asab tizimining buzilishiga, immunitet darajasini pasaytiriga olib keladi. Mobil qurilmalarning o'smirlar salomatligiga salbiy ta'sirini aniqlash va oldini olish juda muhimdir. Shifokorlar o'smirlarning ko'rish organlari, tayanch-harakat apparati, oshqozon-ichak traktining organlari va ko'z kasalliklari bilan kasallanganini aytib o'tadi. Ko'z kasalliklari rivojlanish statistikasi shuni ko'rsatadiki, 15,5 million kishi og'ir ko'z kasalliklaridan aziyat chekmoqda.

Kompyuterda ishlash faqat intellektual ishdir. Shuning uchun yukning asosiy qismi asab tizimiga, ya'ni miyaga tushadi. O'smirlar uchun kompyuterda uzoq vaqt o'tirish asab tizimining haddan tashqari zo'riqishiga, uyquning buzilishiga va bosh og'rig'iga olib kelishi mumkin. Kompyuterda o'smirlarning charchoq'ga olinayotgan ma'lumotlarning mazmuniga ham bog'liq. O'smirlarni charchoq'iga sabab bu tezkor reaksiya uchun mo'ljallangan kompyuter o'yinlari, harbiylashtirilgan jangovar o'yinlar – "otishmalar", "qotillar", "quvg'inchilar". Psixologlar va o'qituvchilar bunday o'yinlarning tajovuzkor va shafqatsiz xatti-harakatlari haqida ogohlantiradilar.

O'smirning psixikasishakllanish bosqichida zaif bo'lib, kompyuter o'yinlari bolalarning aqliy va intellektual rivojlanishining buzilishiga olib kelishi mumkin. Natijada, ko'plab o'smirlar oddiy algebraik operatsiyalarni bajara olmaydi va mantiqiy fikr yurita olmaydi.

Mobil qurilmalarga, kompyuter o'yinlariga, internetga qiziqish ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt foydalanishga olib keladi. O'smirlar tezda zararli odatlarga, jumladan, kompyuterga qaram bo'lib qolishadi. Buning natijasida his-tuyg'ularning yo'qolishiga, o'smirning

kayfiyatini o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar xayol qilishni to'xtatadilar, o'zlarining vizual tasvirlarini yarata olmaydilar, ular ma'lumotni umumlashtirish va tahlil qila olmaydilar, xotirasi yomonlashadi. Ko'pgina kompyuter o'yinlari hatto uyqu va ovqatni taqsimotini buzib yuboradi. Bularning barchasi bolalarda kompyuterga qaramlikning alomatlaridir.

Ma'lumotlarga ko'ra, hattoki smartfon stolda, sumkada bo'lsa ham kognitiv fikrlashga ta'sir qiladi, kognitiv funksiyalar (xotira va diqqat), ularning mahsuldorligini pasaytiradi. Bu ta'sir "brain-drain" (miya drenaji) deb ataladi va kognitiv funksiyalarning zaiflashishini anglatadi miya, ayniqsa, smartfonga qaram bo'lgan talabalarda aniq bo'ldi.

Kompyuterga qaramlik bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi, agar jarayonlari o'z vaqtida to'xtatilmasa, keyinchalik ko'plab muammolar paydo bo'lishadi. Ota-onalar buni kech sezadilar va bolalarni jazolashadi, taxdid qiladi, unga bolalar tajovuzkorlik bilan javob qaytaradilar.

Bola tez rivojlanayotgan organizmdir. Kompyuterdan uzoq vaqt foydalanishdan noto'g'ri yo'nalish umurtqa pog'onasi kasalliklarining rivojlanishining asosiy sababidir. Umurtqa pog'onasi bilan bog'liq muammolar bolalikdan boshlangan bo'lsa, o'z vaqtida davolanmasa, keyinchalik jiddiy kasalliklarga olib keladi. 10 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda 80-85 foizda har qanday holatda turganda xam kaddini norasoligini ko'rsatadi, 20 foiz o'smirlarda esa skolyoz kasalligi aniqlangan. Skelet tizimi shakllanmoqda, shu jumladan bilak suyaklarining intensiv o'sishiga mobil qurilmalarni uzoq vaqt davomida ishlatish salomatligi uchun zararlidir. Ushbu davrda ko'zning vizual sinishi ham sezilarli o'zgarishlarga uchraydi.

Kompyuterning o'smirning ko'rish qobiliyatiga salbiy ta'sirining oldini olish uchun quyidagi tavsiyalarni keltiramiz:

o'smirning kompyuterda o'tkazadigan vaqtini cheklash va myyorini belgilash;

o'smirning kompyuterda o'tirganda ko'z mashqlarini bajartiring;

kompyuter monitorida hech qanday chaqnash yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Kompyuterning ko'rishga ta'sirini yuqori aniqlikdagi va yuqori yangilanish tezligiga ega monitor yordamida kamaytirish mumkin, bu miltillash ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun optimal ekran o'lchami 15 dyuym, maktab o'quvchisi uchun esa 17 dyuymli monitordan foydalanish lozim. Monitorgacha bo'lgan masofani to'g'ri hisoblash kerak – bu taxminan 45-60 sm, va u ko'z darajasidan past bo'lishi kerak. To'g'ri yoritish - chapdan tushgan tabiiy yorug'lik ham miyopi ko'rish kasalligini rivojlanishini kamaytiradi. Qorong'ulikda chiroq monitor ekranini emas, faqat hujjatni yoritishi uchun kerak.

Xulosa qilganda, zararli odatlarni olish o'sib kelayotgan yosh avlodga ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishiga yopdam bepib, o'smirning ijtimoiy moslashuvi, aqliy va jismoniy rivojlantirishning effektiv omili, shaxsning ijtimoiy faolligini tapbiyalash va salbiy hayotiy tanlovlapni engib o'tish vositasi bo'lishi mumkin. Umuman olganda, o'quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirish pedagogik xususiyatlari, ta'sir ko'rsatish omillari va imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirish o'quvchilarning yot g'oyalardan saqlashga, vaqtni qadriga yetishga hamda mobil texnologiyalardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 mart kuni o'tkazgan videoselektrda so'zlagan nutqi. <https://xabar.uz/kmd>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3907-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.
4. Бурлаков И.В. Психология компьютерных игр. / Наука и жизнь. 2006 №5, 6, 8, 9
5. Ward Adrian F., Duke Kristen, Gneezy Ayelet, Bos Maarten W. Brain Drain: The Mere Presence of One's Own Smartphone Reduces Available Cognitive Capacity // Journal of the Association for Consumer Research. 2017. № 2. P. 140-154. URL: <https://doi.org/10.1086/691462> (дата обращения 15.05.2018).
6. Abdulazizova, N. A. (2023). O'quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirish yo'llari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2),671-676.
7. Абдулазизова Н. А, Д.Зокирова "VALUE OF DISTANCE LEARNING IN CONTINUING EDUCATION" Журнал Ученый XXI века. №12(25) стр 42-45.
8. Н.Абдулазизова, Д.Зокирова, А.Тажибаева. "The nature and importance of the education credit transfer system". Журнал Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Журнал номер 12-6. Стр 61-63
9. Н Абдулазизова "FACTORS OF THE ORGANIZATION OF FREE TIME IN THE PREVENTION OF HARMFUL HABITS OF STUDENTS" Web of Scientist International Scientific Research Jornal, 3(11) betlari 624- 631. 2022.11.11.
10. Abduraxmonovna, A. N. (2022, April). Abdulazizova Nilufar Abduraxmonovna. In E Conference Zone (pp. 47-49).
11. Abdulazizova N. A. (2022.April) O'QUVCHILARDA ZARARLI ODATLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA BO'SH VAQTLARINI TASHKIL ETISH OMILLARI. In E Conference Zone (118-120)
12. N Abdulazizova "O'quvchilarda zararli odatlarini oldini olishda mexnat faoliyatining o'rnini" MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. ISSUE 5(39) Part 2 June 2021 betlari 104-106
13. N Abdulazizova.Masofali o'qitishning uzluksiz ta'lim tizimidagi ahamiyati. Журнал Ученый XXI века.том 42.2016й
14. N.Abdulazizova, S.Evatov Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida zararli odatlarni oldini olish omillari. Журнал вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха.Том 25. №4. Стр 38-41
15. Abdulazizova Nilufar Abduraxmonovna, Mo'minov Islomjon Iqboljon o'g'li. O'smirlarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishning ahamiyati.TA'LIM JARAYONINING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Respublika ilmiy-amaliy anjumani MATERIALLARI. 20-may 2023.
16. Abdulazizova Nilufar Abdurakhmonovna. Mechanisms of Immunity Formation Against Harmful Habits in Adolescents. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES. Volume: 04 Issue: 08 | Aug 2023 ISSN: 2660-5317. <https://cajotas.centralasianstudies.org>

# DUDUQLANUVCHI BOLALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

XODJABEKOVA S.A.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Logopediya kafedrası tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada duduqlanuvchi bolalarda kommunikativ qobiliyatini shakllantirish muammosi o'rganilgan. Maqolada duduqlanuvchi bolalarning muloqotga kirish hususiyatlari, ko'nikmalari korreksiyalashning asosiy usullari o'rganilgan. Shu bilan birgalikda duduqlanuvchi bolalarni nutq kamchiliklarini bartaraf etishga oid tavsfiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, qobiliyat, muloqot, kommunikativ, talaffuz, odob-axloq, adaptatsiya, artikulyatsiya, differensatsiya, potalogiya, fonematik eshituv, fonematik idrok, nutqiy e'shituv.

**Аннотация.** В данной статье изучается проблема формирования коммуникативных способностей у заикающихся детей. В статье изучаются основные методы коррекции особенностей и навыков заикающихся детей. Наряду с этим есть описания, как устранить дефекты речи у детей, которые заикаются.

**Ключевые слова:** речь, способности, общение, коммуникативность, произношение, манеры, адаптация, артикуляция, дифференциация, патология, фонематический слух, фонематическое восприятие, речевой слух.

**Annotation.** This article studies the problem of developing communicative abilities in children who stutter. The article studies the basic methods of correcting the characteristics and skills of children who stutter. Along with this, there are descriptions of how to eliminate speech defects in children who stutter.

**Key words:** speech, abilities, communication, communicativeness, pronunciation, manners, adaptation, articulation, differentiation, pathology, phonemic hearing, phonemic perception, speech hearing.

Bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi psixologiya va pedagogikadagi eng muhim masalalardan biridir. Qobiliyatlarining tabiati va kelib chiqishi masalasida ikkita nuqtai nazar ma'lum. Ulardan biri (R.Dekart va G.V.Leybnits) qobiliyatlarni tug'ma shakllanish sifatida tavsiflaydi. Ikkinchisi (J.Lokk) insonning hayotining tashqi sharoitlariga to'liq bog'liqligi haqidagi fikrlar. Bu ikkala nuqtai nazar ham A.A.Madvaliyev taxriri ostida nashr etilgan "O'zbek tilining izoxli lug'ati"da kompetensiya-layokatli, munosib bulmok 1) muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy xujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat 2) Shaxsning biror-bir soxadan xabardorlik, shu soxani

bilish darajasi.

B.M.Teplov fikriga ko'ra, qobiliyat bir shaxsni boshqasidan ajratib turuvchi individual psixologik xususiyatlar tushuniladi. Bu qobiliyatlar psixologik xususiyatga ega bo'lib, bir odam boshqasidan farq qiladi.

Qobiliyatlar individual xususiyatlar qatoriga kirmaydi va faqat ma'lum bir faoliyatning muvaffaqiyati bilan bog'liq emas. "Qobiliyat" tushunchasi ma'lum bir shaxs tomonidan ishlab chiqilgan psixologik shakllanishlar (bilimlar, ko'nikmalar) bilan tavsiflanmaydi.

B.M.Bim-Bad "qobiliyat" tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradi. Qobiliyatlar - u yoki bu ishlab chiqarish

faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti bo'lgan shaxsning individual psixologik xususiyatlari. Qobiliyat faqat shu qobiliyatsiz amalga oshirib bo'lmaydigan faoliyatda topiladi.

Shunday qilib, kommunikativ qobiliyat odam qanchalik oson aloqa o'rnatishi, suhbatni davom ettirishi, ma'ruzachini diqqat bilan tinglashni bilishi ya'ni aloqa faoliyatida aniqlanadi.

Asosan, psixologlar muloqot qobiliyatlarini insonning individual psixologik xususiyatlari, uning muloqot samaradorligini va boshqa odamlar bilan mosligini ta'minlaydigan tarzda tavsiflaydilar.

Muloqot haqidagi tushunchani tavsiflashda A.A.Leontev P.Y.Galperin, V.V.Davydov, A.V.Zaporojets, M.I.Lisina tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat kontsepsiyasidan kelib chiqamiz. Muloqot kommunikativ faoliyat sifatida qaraladi. Har qanday faoliyat singari, kommunikativ ham o'z rivojlanishining har bir bosqichida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'ziga xos tarkibiy qismlarga ega. Faoliyatning alohida turi sifatida muloqot o'ziga xos elementlarga ega: rag'batlantiruvchi-motivasion qism (ehtiyotlar - bilimga intilish va odamlarni baholash; motivlar, maqsad); faoliyat motiviga muvofiq predmet; mahsulot yoki faoliyat natijasi va uni amalga oshirish vositalari (T.V. Dragunova, Ya.L. Kolotenskiy, A.N. Leontev, M.I. Lisina).

A.A.Leontev nazariyasiga ko'ra, aloqa vositalari operatsiyalarga ekvivalent bo'lib, ular yordamida muloqotning har bir ishtirokchisi o'zining muloqot harakatlarini shakllantiradi va boshqa shaxs bilan o'zaro munosabatlarga hissa qo'shadi.

Psixologiya sohasidagi mutaxassislar turlixil aloqa vositalarini ajratib ko'rsatishadi, ammo eng muhimi, bizning fikrimizcha, M.I.

Lisina tomonidan tavsiflangan 3ta quyidagi vositalar: ekspressiv-mimik, predmet-harakatli, nutqiy bayonotlar. V.V.Vetrova, S.V.Kornitskaya va boshqalarning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, ekspressiv-mimik muloqot vositalari yordamida sherik aloqa jarayonida o'zining hissiy holatini va sherigiga nisbatan paydo bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Sub'yektiv vositalarning asosiy maqsadi kattalar bilan birgalikdagi faoliyatga tayyorligini bildirishdir. Nutqiy muloqot vositalari ko'p funksiyaga ega bo'lib, ular nafaqat atrofimizdagi dunyo haqida ma'lumot olish va birgalikdagi faoliyatda g'oyalarni muvofiqlashtirish, balki hissiy holatni yetkazish, sherigi bilan o'zaro tushunishni baholashga qaratilgan.

Muloqotni faoliyat (ya'ni kommunikativ qobiliyat) sifatida tashkil etish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradigan yetakchi vosita sifatida biz nutqiy etiketni suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish, tanlangan ketma-ketlikda aloqani saqlash uchun jamiyat tomonidan belgilangan barqaror aloqa formulalari tizimi sifatida ko'rib chiqamiz. (N.I. Formanovskaya).

Muloqot qilish qobiliyati yoki kommunikativ qobiliyat uchta komponentni o'z ichiga oladi, unga asoslanadi va ularsiz mavjud bo'lmaydi:

- motivasion ("Men muloqot qilishni xohlayman");
- kognitiv ("Men qanday muloqot qilishni bilaman");
- xulq-atvor ("Men muloqot qila olaman").

Birinchi komponent, "istak sohasi" bolaning boshqalar bilan aloqa qilish istagini belgilaydigan muloqotga bo'lgan ehtiyojni o'z ichiga oladi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojning yo'qligi yoki yetarli darajada rivojlanishi fiziologik (miya kasalliklari) va psixologik kasalliklar bilan bog'liq bo'lishi



mumkin.

Kommunikativ qobiliyatlarning ikkinchi komponenti (bilim sohasi) bolaning samarali muloqot normalari va qoidalari haqida qay darajada tasavvurga ega ekanligi bilan belgilanadi. Bu soha bolaning nutq odobi formulalari haqidagi bilimlarini ham o'z ichiga oladi. Muloqot qoidalari to'g'risida bilimning yetishmasligi, uni haqiqiy muloqotda amalga oshira olmaslik bolaning boshqa bolalar bilan aloqa o'rnatishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan keyingi qiyinchiliklarini aniqlaydi: nizo, tajovuzkorlik, uyatchanlik, izolyasiya va boshqalar.

Samarali muloqotga oid mavjud g'oyalardan foydalanish qobiliyati muloqot qobiliyatlarining uchinchi (xulq-atvor) komponentidir ("mahorat sohasi"). U xabarga javob berish va suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish qobiliyatini, muloqotning xayrixohligi va argumentatsiyasini, suhbatdoshni o'z fikri bilan qiziqtirish va uning nuqtai nazarini qabul qilish qobiliyatini, o'z fikriga, harakatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish, bayonotlar, tinglash qobiliyati, hissiy empatiya, shuningdek, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Demak, nutq etiketiga ega bo'lish, muloqotda axloqiy lug'atdan mohirona foydalanish kommunikativ qobiliyatning zaruriy tarkibiy qismidir. Ushbu yo'nalish bilan bir qatorda, kommunikativ qobiliyatning mazmuni bolaning umumiy kommunikativ qobiliyatlari (muloqotni tashkil etish va davom ettirish qobiliyati), shuningdek, suhbatdoshning his-tuyg'ularini tushunish va ularning hissiy holatini ifodalash qobiliyatidir.

Kommunikativ qobiliyatni xulq-atvor komponentining eng muhim belgilovchi omili - bu bolaning xatti-harakatlar

qoidalariga ongli munosabati. Demak, S.L.Rubinshteyn ijtimoiy xulq-atvor tashqi xulq-atvorning jamiyat talablariga rasmiy mos kelishidan iborat emas, balki «insonda shunday ichki intilishlarning... shakllanishidan iborat, deb hisoblagan».

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolada kommunikativ qobiliyatni shakllantirish uchun uchta yo'nalishda ishlash kerak: odobli muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish; samarali muloqot qoidalari haqida g'oyalarni shakllantirish, ularning adolatligini tushunish, shaxsiy ahamiyat va axloqiy qadriyatni anglash; nutq xatti-harakatlarining ma'lum qoidalarga va boshqalarning hissiy holatiga muvofiqligi.

Ushbu yo'nalishlar maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirish bo'yicha ishlarning ketma-ketligini uchta mazmunli yo'nalish bo'yicha aniqlashga imkon beradi: bolaning umumiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, nutq odob-axloqiga o'rgatish va hissiy sohani rivojlantirish. Faqatgina uchta uyg'un rivojlangan komponentlar mavjudligida bolaning shakllangan kommunikativ qobiliyati haqida gapirish mumkin.

Muloqot qilish qobiliyati ijtimoiy jihatdan aniqlangan qobiliyat turlaridan biri bo'lib, u odamlarni idrok etish, ularni baholash, o'zaro tushunishga erishish va boshqalarga ta'sir qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Muloqot qilish qobiliyati o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy me'yorlarga muvofiq qurish qobiliyatini nazarda tutadi, ya'ni insonning o'zi boshqalar tomonidan qabul qilinishi va tushunilishi mumkin bo'lgan talablar, tavsiyalar va tegishli xatti-harakatlarning kutishlari.

Psixologlar va pedagoglarning xulosasiga ko'ra, muloqot madaniyati maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun muhimdir.

Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlar natijalari muloqot madaniyatining inson salomatligiga ta'siridan dalolat beradi (A.L.Myasnikov). Yurak-qon tomir kasalliklari, nevrozlar, psixonevrozlarning sabablaridan biri oilada, jamoada, jamoat joylarida muloqot qilish madaniyati yetishmasligi ekanligi isbotlangan.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, katta maktabgacha yoshdagi bolada kommunikativ qobiliyatni shakllantirish, pedagog va tengdoshlar bilan pedagogik jihatdan tashkil etilgan o'zaro munosabatlar jarayonida nutq odob-axloq qoidalarini o'rgatish uchun zarur psixologik sharoitlar mavjud.

Hayotning oltinchi yiliga kelib, nutqni aloqa vositasi sifatida takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ladi. Bu yoshda bolada boshqa odamlar bilan muloqot qilish uchun aniq ijtimoiy ehtiyoj paydo bo'ladi, muloqot darajasi oshadi (M.I.Lisina, L.G.Ruzskaya, R.A.Smirnova). Tengdoshlar bilan muloqot birinchi o'ringa chiqib boshlaydi. Bola kattalardan tengdoshini afzal ko'ra boshlaydi. Tengdoshi bilan muloqot tobora ko'proq mustaqil qiymatga ega bo'lib, bolaning empatiya, o'zaro tushunish va tengdoshlari bilan hissiy yaqinlik istagida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar sherigining nutqini idrok etish va nutqni keyingi o'zlashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi, bu esa yetakchi aloqa vositasiga aylanadi: nutq vositalarining ulushi barcha aloqa vositalarining 96,2% ni tashkil qiladi (M.I.Lisina).

Muloqot madaniyatiga, nutq odobiga o'rgatishning eng muhim sharti katta maktabgacha yoshda shakllana boshlaydigan ixtiyoriy jarayonlar - bolani boshqalar bilan muloqot qilishda maqsadli xulq-atvoriga tarbiyalash uchun

asosdir (L.I.Bojovich, A.V.Zaporojets, D.B.Elkonin). Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida muloqot madaniyatini tarbiyalashga bag'ishlangan ishlarda buning uchun eng qulay davr katta maktabgacha yosh ekanligi isbotlangan (L.N.Durandina, M.V.Ilyashenko, L.V.Lidak, S.V.Peterina, N.A.Xalezova, E.Yu. Yaniskaya).

Kommunikativ qobiliyatni shakllantirish bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bizga quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotni faoliyat sifatida tashkil etish qobiliyati sifatida kommunikativ qobiliyatning shakllanishini uning uchta tarkibiy qismining birligida ko'rib chiqish mumkin: bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq odob-axloqiga o'rgatish va hissiy sohani rivojlantirish.

2. Bu sohalarning mazmuni ma'lum bir ketma-ketlikda ochiladi: odobli muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, samarali muloqot qilish qoidalarining ahamiyati va mohiyati to'g'risidagi g'oyalarni rivojlantirish, nutqiy xulq-atvorni ushbu qoidalarga muvofiq shakllantirish va suhbatdoshning hissiy holati.

3. Nutq odobiga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, aloqalar sonining doimiy o'sib borayotgan zamonaviy sharoitida muloqot odob-axloq qoidalariga o'rgatish bolaning tanasini asabiy ortiqcha yuklanishdan saqlaydigan himoya mexanizmi rolini o'ynaydi.

4. Katta maktabgacha yoshdagi bola nutq odob-axloq qoidalarini o'zlashtirish uchun bir qator psixologik shartlarga ega bo'lib, ulardan eng muhimi nutqqa qiziqishni rivojlantirish, muloqot qilish

istagi va umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalariga amal qilishdir.

Ushbu qoidalar nutq odob-axloq qoidalarini o'rgatishni katta maktabgacha

yoshdagi bolalarning kommunikativ qobiliyatini shakllantirishning asosiy,

yetakchi vositasi sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi.



#### Foydalanilgan Adabiyotlar:



1. Abidova N.Z., Xodjabekova S.A. Aqli zaif o'quvchilarning nutqiy faolligini ko'rgazmali vositalar asosida rivojlantirish//Innovatsii v pedagogike i psixologii. – 2021. -T. 4. -№. 8.
2. Xodjabekova S.A. O'quvchilar nutqiy faolligini rivojlantirish yo'llari «Inklyuziv ta'lim: strategiya, fan, amaliyot va texnologiyalar» -2021.-T
3. Abidova N.Z., Xodjabekova S.A. Duduqlanuvchi bolalarda muloqot ko'nikmalarini korreksiyalashning asosiy usullari // "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnali -2022. -T. № 5
4. Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasuflar jamiyati. 2007 y.
5. Mo'minova L.R., Nurkeldiyeva D. 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorligini tekshirish dasturi. –T., 1997. –55 bet.
6. Mo'minova L.R., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflar jamiyati. O'zbekiston faylasuflar jamiyati. 2013

# MUSTAQIL TA'LIM BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNI KASBIY-PEDAGOGIK KONPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING

SAMARALI TA'LIM SHAKLI SIFATIDA  
ARSLANOVA MADINAXON MANSUROVNA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası P.F.F.D. (PHD), DOTSENT V.B.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqil ta'lim bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali ta'lim shakli sifatida yoritiladi. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish usullari tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, inklyuziv talim, bo'lajak oligofrenopedagoglar, kasbiy-pedagogik kompetensiyalar, rivojlantirish, usullari, pedagogik harakat, vositalar, ta'lim texnologiyasi, muammoviy-modul texnologiyasi, loyihaviy ta'lim texnologiyasi

**Аннотация.** В данной статье освещается самостоятельное образование как эффективная образовательная форма развития профессионально-педагогических компетенций будущих олигофренопедогов. Проведен анализ развития профессионально-педагогических компетенций в процессе самостоятельного образования будущих олигофренопедогов.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, инклюзивное обучение, будущие олигофренопедогов, профессионально-педагогические компетенции, методы развития, педагогическое движение, средства, технология

**Abstract.** This article highlights independent education as an effective educational form of development of professional and pedagogical competencies of future mental health teachers. An analysis of the development of professional pedagogical competencies in the process of independent education of future oligophrenopedologists was carried out.

**Key words:** independent education, inclusive education, future oligophrenic teachers, professional pedagogical competencies, development methods, pedagogical movement, means, technology

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Konsepsiyada "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda

mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan. Shuningdek, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarining zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy

yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan.

Hozirgi kunda o'quv rejalarda talabalar o'quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratilgan. Ta'lim dasturining o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishidir. Oliy ta'lim tizimi fan va amaliyot yutuqlari, hamda demokratlashtirish, uzluksizlik, integrativlik, standartlashtirish, moslashuvchanlik va ochiqlik, o'z-o'zini rivojlantirish tamoyillariga asoslanib, milliy va jahon madaniyatining insonparvarlik an'alarini saqlash va ularga amal qilgan holda, uzluksiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asoslanadi. Oliy pedagogik ta'lim talabalarning insonning tabiat, madaniyat, jamiyat, davlat bilan tabiiy munosabatlarini, shaxsni vujudga kelishi jarayonlari haqidagi bilimlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi, ularni psixologik, pedagogik, ijtimoiy muammolarning tarkibiy munosabatlarini hisobga olgan holda o'quv kurslarida taqdim etilgan antropologik bilimlar tizimi bilan qurollantirishni nazarda tutadi[4.-23.b.].

Zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda mustaqil ish faoliyati alohida o'rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hamma ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida berib bo'lmaydi. Qo'yilgan muammo va vazifalar bo'yicha ma'lum yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash

uchun kerak bo'lgan mustaqil ish faoliyatini takomillashtirish, mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlanib boradi. Zamonaviy oliy ta'lim talabada mustaqil ta'lim olishni rejalashtirishga oid ko'nikma va malakalar ( mustaqil faoliyat yuritishning individual rejasini tuzish; reja asosida maqsadli faoliyat yuritish; o'z faoliyatini nazorat qilib,unga zarur tuzatishlar kiritib borish), ilmiy va o'quv axborotlarida yo'nalish olishga oid ko'nikma va malakalari(ilmiy va o'quv axborotlari oqimiga yo'nalish topa bilish; yangi axborotlarni mustaqil tahlil qilish va baholay olish;hal etilishilozim bo'lgan muammo nuqtai nazaridan axborot manbalarini qidirib topish; olinayotgan axborotlar mazmunidagi yangi va istiqbolli yangiliklarni ko'ra olish), Bibliografik ishlarga oid ko'nikma va malakalar(bibliografik qo'llanmalarvakataloglardan tizimli ravishda foydalanish; ilmiy, o'quv va boshqa adabiyotlar ro'ixatini ilmiy bibliografiya qoidalari asosida yurita olish.).

Ma'ruzalarni to'liq va ratsional eshitish va o'zlapggirishga oid ko'nikma va malakalar(ma'ruzalar mavzusi va rejasini,adabiyotlar ro'yxatini belgilab olish; bayon qilinadigan axborotlarni to'liq qabul qilish; asosiy muammo, g'oya va xulosalarni ajrata olish; asosiy mazmuni o'z so'zlari bilan qisqacha yozib olish;to'plangan yozuvlarni qayta ishlash,saqlash va ular mazmunini ta'limiy maqsadlarda qo'llab borish),Kitob bilan ishlashga oid ko'nikma va malakalari(kitob bilan umumiy holatda tanishish,uning muallifi, mazmuni, xulosasi, illyusfatsiyalari hamda annotatsiyalarini bilish; kitob mantiqiy tuzilmasini ajratib olish; o'rganilayotgan matnni to'laqonli tushunib olish uchun qo'shimcha ko'llanmalar:lug'at, ensiklopediya, ma'lumotnomalardan foydalana olish; o'qib chiqqan ma'lumotlarni tezislar, konspektlar ko'rinishida qayd etib

borish; konspektda boshqa manbalardan olingan qo'shimcha materiallardan qayd etib borish.), INTERNET resurslaridan foydalana olish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarga (INTERNETdan zarur manbalarni topa olish; topilgan axborotlarni qayta ishlay olish.) ega bo'lishi talab etiladi [1.-32.b.].

Mustaqil ish faoliyatining yangi bilimlar olish (laboratoriya ishi, darslik bilan ishlash, tarqatish va namoyish materiallari bilan ishlash, ilg'or va yangi vositalar va o'qitish metodlaridan foydalanish); amaliyotda takrorlash, birlashtirish va amalda qo'llash orqali bilimlarni takomillashtirish (darslik, amaliy mashg'ulotlar bilan ishlash, eksperimental, sifatli va miqdoriy vazifalarni hal qilish); o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish, tekshirish va baholash bilan bog'liq ishlar (yozma ishlar, nazorat qilish, nazorat qilish va eksperimental ishlarni boshqarish va boshqalar) tasniflanadi [3.-45.b.].

Mustaqil ta'lim bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimida ushbu turdagi o'quv ishlariga bilvosita o'qituvchi sifatida qabul qilingan yondashuvni amalga oshirishni nazarda tutadi. Intizom mazmunini muvaffaqiyatli rivojlantirish shartlaridan biri bu maxsus ishlab chiqilgan usullardan foydalangan holda talabalarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarining dastlabki darajasini aniqlash; kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, shuningdek talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etish va o'tkazishga munosabatini hisobga olish sanaladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv materialini tanlash izomorfizm va minimallashtirish tamoyillari asosida uning hajmining zarurligi va yetarliligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, talabning fan mazmunining mantiqiy tuzilishini, bo'limlar va mavzularning mavzulararo, fanlararo va

amaliy ahamiyatini tushunishini ta'minlaydi.

Mustaqil ta'lim bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish talabalar tomonidan aqliy faoliyat tuzilishiga mos keladigan turli xil ko'p bosqichli vazifalardan, shu jumladan har bir mavzu uchun test topshiriqlaridan, shuningdek o'z-o'zini boshqarish va uning mazmunini rivojlantirishni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Har bir kurs uchun auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar uchun ajratilgan vaqt har bir mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarishning murakkabligini hisobga olgan holda mutaxassis tayyorlash o'quv dasturi asosida rejalashtirish samara beradi.

Kompetent yondashuv talabadan mustaqil ish jarayonida bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi.

Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li - oily ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi.

Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - "bilim - ko'nikma - malaka"ni oltita birlik (sekstet) - "bilim - ko'nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik" tarzida tahlil



## BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA 4K MODELINING AHAMIYATI

NURMANOVA D.J.

Samarqan viloyati PYMO'MM, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda XX asrdagi zarur hisoblanadigan hayotiy ko'nikmalarni 4K modelidan darslarida to'g'ri qo'llash. Dars mashg'ulotlarida o'yin va interfaol metodlar hamda ulardan umumli foydalangan holda nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganishini o'quvchilarning bilim olishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkinligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** XXI asr ko'nikmalar, 4K modeli, yumshoq ko'nikmalar, umuminsoniy, Milliy o'quv dasturi, role-model, vaqt-resursi, raqamli iqtisodiyot.

**Аннотация:** Эта статья посвящена правильному применению основных жизненных навыков в XXI веке при преподавании предметов начального образования по модели 4K. На уроках было разъяснено, что можно оказать положительное влияние на сознание учащихся, используя игры и интерактивные методы и используя их в целом для обучения не только науке, но и жизненным навыкам, необходимым в XXI веке.

**Ключевые слова:** навыки XXI века, модель 4K, мягкие навыки, универсальные, национальная учебная программа, ролевая модель, временной ресурс, цифровая экономика.

**Abstract:** This article focuses on the correct application of basic life skills in the XXIst century when teaching primary education subjects using the 4K model. The lessons explained that it is possible to have a positive impact on the minds of students by using games and interactive methods and using them in general to teach not only science but also life skills needed in the XXIst century.

**Key words:** XXI st century skills, 4K model, soft skills, universal, National Curriculum, role-model, time-resource, digital economy.

Ta'lim tizimi, xususan maktab ta'limi hamisha e'tibor markazida bo'lgan sohalardan biri bo'lib kelmoqda. Yurtimizda ayni vaqtda maktablardagi darsliklar, ta'lim sifati, yangiliklarni joriy qilish, sohani takomillashtirishda ko'plab yangiliklar amalga oshirilmoqda. Zero, dunyo hamjamiyatida fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallashuvi, jumladan, raqamli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu o'z navbatida, bilimga asoslangan jamiyatda barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, ta'lim sohasiga yangi talablarni qo'ymoqda. Natijada, maktab o'quvchisida hayotiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi muhim

maskanga aylandi. Shu sababdan maktab darsliklari, dars o'tish uslublari, ta'lim sifatini ta'minlashdagi asosiy manba va omillardir. Umumiy o'rta ta'limni yangi rivojlanish bosqichga ko'tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi hamda ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish dolzab vazifalardir. Bu vazifalarni bajarishda uchun "XXI asr ko'nikmalari"ni zamonaviy darslar an'anaviy darsliklardan farqli o'laroq o'quvchida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Aksariyat darsliklarda nima, qachon, qayerda, degan



savollarga javob topiladi va bu bolalarni nari borsa xotirasini rivojlantiradi. Ko'nikma shakllanmagani hisobiga bolalar hayotda duch keladigan masalalar, muammolarga javob topa olmasligi mumkin. Agar o'quvchida muammoga keng qamrovli yechim topish ko'nikmasi shakllantirilsa, muammoga duch kelganda unga qanday yechim topish ustida bosh qotiradi.

Aytaylik, ichimlik suvi butun dunyoda juda oz miqdorda qoldi. Suv atigi bir haftaga yetadi. Insonlar keyin nima qilishlari mumkin. Muammoni har tomondan o'rganishga erinmaydi. Buning uchun ularga bilimdan tashqari ko'nikma kerak bo'ladi. Mas'uliyat, ishtiyoq, tanqidiy fikrlash, muammoga o'ziga xos uslubda yechim topish kabi ko'nikmalar asosida shaxs xarakteri shakllanadi. Agar biz o'quvchilarda ana shunday ko'nikmalarni shakllantirishga erishsak, mehnat bozori sifatli ishchi kuchi bilan ta'minlanadi. Maktab ta'limini olgan holda o'quvchi kelajak uchun foydali mutaxassis bo'lib chiqadi.

Xususan, dars jarayonlarida o'quvchida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga urg'u berilmoqda. Masalan, o'quvchida mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoaviylik ko'nikmalarini shakllantirish, yaratuvchanlik, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash, muammoga asoqlangan, o'yinga asoqlangan, tadqiqotchilikka asoqlangan ta'lim olishlarini shakllantiradigan metodlar, usullar orqali darslar tashkil qilinmoqda. Maktabgacha va maktab ta'limi (Xalq ta'limi) vaziriligining 2020-yil 31-martdagi "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida" gibuyrug'i asosida xalqaro talablarga javob beruvchi umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqdi. Yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, Unicef, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan

taqdim etilgan xorijiy konsultantlar bilan hamkorlikda Milliy o'quv dasturi yaratildi. Maktab ta'limida Milliy o'quv dasturi 6 ta komponentdan - umumiy o'rta ta'limning malaka talablari, umumta'lim fanlarining konsepsiyalari, umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi, umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari, umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi hamda baholash tizimidan iborat bo'ldi.

Maktab ta'lim tizimini takomillashtirishda darsliklarini tayyorlash ayniqsa "Tarbiya" fani darsliklarini yaratishda Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi" fanlari va darsliklari yaqindan o'rganildi. Ilk marotaba darsliklarda "XXI-asr ko'nikmalari" deb nom olgan "Yumshoq ko'nikmalar" joriy qilindi. Yangi avlod fan darsliklaridagi amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va mavzular o'quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg'otadi. Bu esa o'quvchining mustaqil faoliyati va mustaqil o'rganish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini rag'batlantiradi. "Tarbiya" darsliklarida "role-model", ya'ni "namuna keltirish" zamonaviy pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosida yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi. Shu orqali o'quvchida vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasi, yetakchilik, tadbirkorlik, munosib kasb egallash ko'nikmalari rivojlanadi. O'quvchiga yetakchilik, hamkorlik va jamoada ishlashni o'rgatadi.

XXI-asr ko'nikmalari darslarda farzandlarimizda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Shuningdek, sog'lom turmush tarzi, vaqt-resurslardan to'g'ri foydalanish kabi bugunning dolzarb bo'lgan mavzulariga ham urg'u berilmoqda.

Ta'lim tizimidagi har bir yangilik, innovatsion g'oyalar yosh avlodning kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Bugun shiddat bilan ilgarilab borayotgan zamonda XXI asr ko'nikmalarini maktab o'quvchisi uchun zarur ko'nikmalarini o'rgatuvchi model - 4K tamoyili asosida ishlab chiqildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari zamonaviy darsliklar va dars mashg'ulotlari asosida ta'lim oladilar. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri - ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganligidir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish, yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi.

O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. Bu o'rinda 4K ning o'zni beqiyosdir. 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiyada o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlikda o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlashda o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik fikrlashda esa o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tanqidiy-tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va

mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni maktablarda joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Xususan, Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya, BAA kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilgani o'rganildi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda 4Kni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishilgan.

4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvli darslarda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Bu ko'nikmalarni darslarida qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. 4K innovatsion yondashuv natijasini o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi - o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Muxtasar qilib shuni aytishimi mumkinki, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishda 4Kni rivojlantirishda izchillik va tizimlilik tamoyiliga qat'iy amal qilinsa, hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirishda dars jarayonlarida topshiriqlarni mazmunan puxta tayyorlansa, nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. O'quv dasturi asosida takomillashtirib boriladigan dars jarayonlarida bilimlar hajmi sinflar



# VETERINARIYA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

NARZIYEVA N.N.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrası mudiri, dotsent**

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan oliy ta'limning davlat ta'lim standartini qabul qilinishi oliy ta'lim, talaba, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan integratsiyalashuv natijasida kompetentli fikrlovchi yoshlar vujudga kelganliklari bilan izohlanadi.

**Аннотация.** Сегодня принятие государственного образовательного стандарта высшего образования на основе компетентного подхода объясняется тем, что компетентно мыслящая молодежь возникла в результате интеграции высшего образования, студентов, науки и производства.

**Abstract.** Today, the adoption of the state educational standard of higher education based on the competency-based approach is explained by the fact that competently thinking youth arose as a result of the integration of higher education, students, science and production.

**Kalit so'zlar:** veterinariya, integratsiya, integrativ funksiya, integratsiyalash, integrativ yondashuv, talabaning ijodiy faolligi, tadqiqotchilik kompetensiyalari.

**Ключевые слова:** ветеринарная медицина, интеграция, интегративная функция, интеграция, интегративный подход, творческая деятельность студентов, исследовательские компетенции.

**Key words:** veterinary medicine, integration, integrative function, integration, integrative approach, creative activity of students, research competencies.

**INTRODUCTION.** Ta'lim sifatiga zamonaviy yondashuvning tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarni hayoti davomida o'qib-o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish, ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish samarali omillardan hisoblanadi. Ushbu holat talabalarning ijodiy faolligini oshiradi, tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga asos yaratadi, bu esa talabalarning o'z kasb yo'nalishini tanlashlarida o'ta muhimdir.

Undan tashqari, butun dunyoda bo'layotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ham, xususan Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari, Yevropa va Amerika qit'alaridagi 10-15 yildan buyon amalga oshirilayotgan ta'limga oid islohotlar

ta'sirida O'zbekistonning kompetensiyali ta'lim strategiyasi yaratildi.

O'quv jarayoniga ta'limning interfaol shakllari, texnologiyalari – integrativ dars, integrativ kun, o'quvchini tanqidiy fikrlashga undovchi metodlar jadal joriy qilinmoqda. Ta'limning globallashuvi hamda sog'lom va muammoli ta'lim muhitini tashkil etish orqali bolalarni birgalikda o'qitish maqsadiga xizmat qiladigan integrallashgan ta'limni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Integrallashgan kasblar paydo bo'lmoqda. Talabalarni tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda esa integratsiyalashgan ta'limning o'rni ayniqsa, muhimdir.

**Research Methodology.** Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuvni qo'llash va unda axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish pedagogikada

o'ziga xos innovatsion yondashuv bo'lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobiy sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Butalablarni hal qilish esa ijtimoiy, texnologik islohotlarga bog'liq. Bu islohotlarning barchasi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan.

Ma'lumki, Integratsiya (lot. *integratio* — tiklash, to'ldirish, *integer* — butun so'zidan olingan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Integrativ yondashuv – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash jarayonidir.

Bu yondashuv o'rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli yondashish, talabalar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Integrativ yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonlariga kompleks yondashuv, tizimiy yondashuv, tizimiy tahlil tadqiqot metodlarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanishda qo'l keladi.

Integrativ yondashuv ta'lim va tarbiyani iyerarxik tizim sifatida qarab, ular ustida olib boriladigan tadqiqotlar olib borishda ijobiy samaralarni kafolatlaydi.

O'quv jarayoni professor-o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida ta'lim oluvchilarga ma'lum bir sharoitda, muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi, texnologiyalashgan ta'limiy tadbirlar olib borishda rivojlanib boradi.

Integrativ yondashuv bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab

oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

Integratsiya – ta'lim jarayonida ta'lim berishning maqsad va vazifalarini bir butunlikda birlashtirishdir.

Integrativ funksiya – bu funksiya oliy ta'lim va ishlab chiqarishni bog'lovchi bo'g'imdir. Bunda oliy ta'lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmuasini – bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, me'yor, pedagogik tizimlarni o'zida mujassamlab: bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, talabalarda har xil predmetlarda o'tiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir bo'ladigan hodisalar, tushunchalar, g'oyalar, nazariyalar orasidagi o'zaro integratsiya va har tomonlama bog'lanish borligini o'rnatish olish kompetensiyalarini rivojlantirish; bu bog'lanishlar ilmiy va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta'minlash; talabalarda tadqiqotchilik, ijodkorlik masalalarini nazariy to'g'ri texnik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq yechishda, turli o'quv predmetlarini o'rganishda olgan bilim va mahoratlari asosida texnikaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik, tashkiliy-pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini to'g'ri rivojlantirish kompetensiyalarini hosil qilishlarini nazarda tutadi.

Integratsiyalash – lotincha “*integer*” - umumiylik, “*integera*” - umumiylikni to'ldirish, yaratish, tiklash degan ma'noni bildirib, u ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. Ta'lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko'rinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin bo'lib, u umumlashtirish, xulosalashlarda metodologik vosita bo'lib

hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg'unlik algoritmlari yaratiladi.

Tadqiqot ishlarini bajarishda va turli fanlardagi ta'lim mazmunlarini umumlashtirish va to'ldirishda integratsiyalash jarayoni doimo qo'l keladi va ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

O'qitish mazmunini integratsiyasi – o'zaro ta'sir, aloqa, bir-biriga o'tish jarayoni va natijalari, bilimlar sintezi, faoliyat turlari va iqtidori (qobiliyati) yaxlit bir tizim deb tushunilishidir. Veterinariya oliy ta'lim muassasalarida o'quv fanlarini, shu jumladan ijtimoiy fanlarni tabiiy fanlar bilan, tabiiy fanlarni aniq fanlar bilan, aniq fanlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar, barcha fanlarni veterinariya fanlari bilan bog'lab o'qitishni talab qiladi. Chunki, birinchidan, muammolar yechimi kompleks tadbirlarni talab qilib, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlardan qarash va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarur bo'ladi. Ikkinchidan, oliy ta'limda veterinariyaga oid tadqiqotchilik kompetensiyalari faqat ma'lum bir fan asosida aks etmasdan, fanlararo bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Chunki, bironta fan doirasida uni to'liq amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikdaturli fanlarni o'qitish jarayonida ijodiy izlanishni amalga oshirish imkoniyatlari ham bir xil emas. Ular fanning o'ziga xos vazifalari va mazmuni bilan belgilanadi. Masalan, radiobiologiya kursida talabalar radioaktiv moddalar va ularning tirik organizmga ta'sirini o'rganadilar. Fizkolloid kimyo fanida kimyoviy elementlar, ularning xususiyatlari, atmosferaga kimyoviy moddalarning chiqarilishi va uning ta'sir qilishi, suvlar, mineral moddalar va o'g'itlar hamda boshqa tabiiy hodisalar haqidagi tushunchalar keltiriladi. Hayvonlar anatomiyasida tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorligi, biosfera va boshqalar o'rganiladi. Lotin tili va veterinariya atamaları fanida uchraydigan chorvachilik va veterinariya sohasidagi so'zlarning ma'nosi, tuzilishi va boshqa xususiyatlari o'rganiladi.

Demak, veterinariya sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida tadqiqotchilik faoliyati fanlararo xarakterga ega va tadqiqotchilik kompetensiyalari turli xil aspektlarda, ya'ni lotin tili va veterinariya atamaları, biofizika, hayvonlar anatomiyasi, sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari, veterinariya kasb etikasi, lotin tili va farmatsiya terminologiyasi, hayvonlar morfologiyasi, biologik kimyo, biofizika va radiobiologiya, biologiya va genetika va boshqa fan yo'nalishlarining o'zaro uyg'unligida o'zlashtiriladi.

Turli davrlarda fanlararo aloqadorliklar, uning mazmun mohiyati, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida B.L.Farberman, R.G.Musina, B.S.Abdullayeva, O.Abdquddusov, N.J.Isaqulova kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqotchi N.J.Isaqulova esa ta'lim jarayonida fanlar aloqadorligining ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: ta'lim jarayonini tashkil etishda optimal yo'l; dars mavzusiga turli fanlar yondashadi; darsning qiziqarli tomoni kuchayadi; bir mashg'ulot davomida o'zlashtirilgan axborotlarning ko'lami kengayadi; turli fanlar yuzasidan xulosa chiqarish imkoni shakllanadi; mustaqil fikrlashni amalga oshiradi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlik pedagogik muammo, prinsip, metod, muhim samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Analysis and results. Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qitishning yangi texnologiyalari rivojlanishi tez o'zgarayotgan axborotlashgan jamiyatda internet saytlari, xalqaro ta'limiy aloqalar, ta'lim muassasalarining yagona axborot fazosi muhim ahamiyatga ega.

Fanlararo ta'lim asosida tadqiqotchilik faoliyati oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini o'quv-tadqiqot masalalariga bir xilda yondashishga

chorlaydi. Shu sababli o'qituvchi nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur nazariy bilimga ega bo'lishi, balki turli uzviy mutaxassislikka oid muammolar topishning zamonaviy uslublariga ega bo'lishi lozim. Ushbu holat ishimizning mohiyatini bildirdi, chunki, talabalarning tadqiqotchilik layoqatini asosiy yo'nalishlari rivojlanishini aks ettirish, ushbu jarayonda umumlashtirilgan ta'lim asosida veterinar mutaxassisi shaxsini shakllantirishning to'kis jarayoni sifatida veterinariya ta'limi doirasida o'zini samarali namoyon etishga qodir, kasbiy pedagogik faoliyatning barcha turlarini bajarish imkoniyatiga ega shaxs tarbiyalanadi.

Talabalarni tadqiqotchilikka yo'naltirishda muayyan ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsad hisobga olinadi.

Ta'lim maqsadlarini qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya qilinadi:

1. Mavjud ehtiyoj va muammolarning tahlili maqsadni qo'yishning bosh asosi bo'lib xizmat qilishi, birinchidan, dastlabki imkoniyatlar, vositalar, ikkinchidan, zahiralar kabilar;

2. Maqsadlar muhim muammolarni hal qiladigan darajada dolzarb bo'lishi;

3. Maqsadlar murakkab, biroq real bo'lishi;

4. Maqsadlarning aniq (istalgan natijaning aniq darajasi va unga erishish muddati ko'rsatilgan holda) shakllantirilgan bo'lishi(ularga erishganlikni aniqlash shuncha oson bo'ladi);

5. Maqsadlardidiagnostik,rag'batlantiruvchi, undovchi xarakterga ega bo'lishi;

6. Maqsadlar talabaning oldida turgan vazifalariga mos kelishi va yaqin kelajakdagi rivojlanish doirasida bo'lishi;

7. Hamkorlikdagi faoliyat maqsadlari uning barcha qatnashchilariga ma'lum, ular tomonidan tushunilgan va anglangan holda qabul qilingan bo'lishi(bu jamoaviy faoliyat va maqsadlar birligini talab qiladi);

8. Kichikroq aniq maqsadlar yirikroq va uzoq muddatli maqsad va intilishlarga bo'ysungan bo'lishi.

Bu talablar ta'lim maqsadlarining

hayotiyligini ta'minlashda muhim masala sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi masalada biz Sohada raqamli texnologiyasi fanining yaylov cho'l o'simliklari biologiyasi va cho'llanishni oldini olish fani bilan aloqasini tadqiq etdik:

Hozirgi kunda talabalar tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri haqida birmuncha ma'lumotga ega bo'lsalarda, ular matematik muammoli vaziyatlarning miqdoriy tavsifi bilan, ya'ni, insonning atrof-muhitga ta'sirini hisoblab chiqish bilan qiziqmaydilar. Ushbu bo'shliqni inson va tabiatning o'zaro ta'siri jarayonlarining miqdoriy ko'rsatkichlarini hisoblash ishlarini o'quv jarayoniga keng tarzda tatbiq etish bilan to'ldirish mumkin.

Yaylov cho'l o'simliklari biologiyasi va cho'llanishni oldini olish darsida tegishli miqdoriy ko'rsatkichlarni olishning samarali usulidan biri – bu muammoli mazmundagi masalalarni tuzish va yechishdir.

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida matematik ifodalardan foydalanish talabalarning ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi, raqamlarni taqqoslash, solishtirishga o'rgatadi hamda bu ularni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Raqamlar ustida ishlashni xush ko'ruvchi talabalar faolligini yuqori darajada ta'minlaydi. Tabiiy jarayonlarni baholash va bashoratlash ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Aynan tabiiy fanlarda raqamlar ustida eng ko'p ishlanadi va shu bilan birgalikda ular o'zgaruvchandir. Hozirgi axborotlar hajmi ko'paygan va globalashuv jarayonlari kuchaygan bir davrda professor-o'qituvchi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning turli fanlardan olgan bilim va malaka, kompetensiyalariga tayanishi, har xil ma'lumotlardan foydalana olishga o'rgatishi zarur. Bu jarayonda o'quv fanlaridan beriladigan axborotlarni tizimlashtirish, masalaga majmualiy yondashgan holda inson va tabiat o'rtasidagi aloqalarni ochib berish

axborot texnologiyalari bilan fanlararo aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarining yangi o'quv texnologiyalarini ishlab chiqish uchun o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning

didaktik tamoyillari, veterinar-mutaxassis faoliyatining asosiy qoidalari va talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish uchun shaxsga yo'naltirilgan integrativ yondashuvlarga asoslangan holda barcha kerakli imkoniyatlar mavjud bo'lishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.



### Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCIES IN THE CONDITIONS OF INTEGRATED EDUCATION IN STUDENTS ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Thematics Journal of Education*, 8(Q1).
2. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCES OF VETERINARY SPECIALISTS IN THE MODERNIZATION OF VETERINARY EDUCATION. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(3).
3. Norkuzievna, N. N. (2022). Development Of Research Competences Of Future Veterinary Specialists In The Process Of Lessons. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 41-43.
4. Нарзиева, Н. Н. (2022). СПОРТ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА ТРЕНЕР-ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 980-983.
5. Турғунбоев, А., & Нарзиева, Н. Н. (2022). ЗАРДЎШТИЙЛИКНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАНБАИ-“АВЕСТО” ДАГИ ВЕТЕРИНАРИЯ ВА ЧОРВАЧИЛИК ТАЛҚИНИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1180-1183.
6. Norkuzievna, N. N., & Solievna, S. G. (2022). Formation of Students' Research Skills in the Process of English Lessons. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 8, 141-143.
7. Norkuzievna, N. N., & Solievna, S. G. (2022, March). DEVELOPING RESEARCH SKILLS ON THE BASIS OF COMPETENT APPROACH TO STUDENTS IN AN INTEGRATED LEARNING CONDITION. In *E Conference Zone* (pp. 151-154).
8. Turgunboev, A., & Narzieva, N. N. (2022). Zoroastrianism's source of education-interpretation of veterinary and animal husbandry in" Avesta. *Scientific Journal of Agrobiotechnology and Veterinary Medicine*, ps, 1180-1183.
9. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). Factors of the development of socio-cultural competence of history teachers in the process of professional development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (109), 171-173.
10. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Х. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021, 1, 528.
11. Faxriddinova, U. G., Norqo'ziyeva, N. N., & Azimovna, M. N. (2020). SINF DAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA INNOVATION METODLAR ORQALI ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH (1-SINF MISOLIDA). *Интернаука*, 29, 55.
12. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.
13. Нарзиева, Н. Н. (2019). Умумтаълим мактаб ўқувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш: пед. фан...(PhD) дисс. Самарқанд: СамДУ.
14. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science... (PhD) diss. Samarkand: SamDU.
15. Khusenova, N. I., Fayzieva, F. N., Narzieva, N. N., & Rajabova, G. R. (2019). THE CONTENT OF TEACHING LISTENING IN ENGLISH AT ELEMENTARY SCHOOL. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 45-47).
16. Нарзиева, Н. (2017). ФОРМИРОВАНИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 156-158).
17. Narzieva, N. (2017). Development of Education And Research Activity Profile Class Students on The Basis of Integrative And Personal Approach, [www. www. auris-verlag. de](http://www.auris-verlag.de).
18. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).
19. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.
20. НАРЗИЕВА, Н. Зариф БЕГИМҚУЛОВ. <http://science.nuu.uz/uzmu.php>.
21. Хушназаров, А. Х., Райимкулов, И. Х., Эшқораев, А. М., & Давлатов, Р. Б. (2023). Қуён эймериозининг кимёпрофилактикаси. *SCHOLAR*, 1(2), 56-62.
22. Khushnazarov, A. K., & Davlatov, R. B. (2023). DIAGNOSTICS OF RABBIT EMERIOSIS. *Journal of new century innovations*, 22(3), 72-77.



# PROFESSIONAL TA'LIM VA OLIY TA'LIM TIZIMLARINI INTEGRATSIYALASH BORASIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

ALIMOV NARMURAT NASIROVICH

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali  
psixologiya fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

BOQIYEV RAMAZON ABDURASULXON O'G'LI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali stajyor  
tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda rivojlangan ta'lim sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati hamda professional ta'lim va Oliy ta'limni bir-biriga integratsiyalash borasida so'z yuritilib, ta'limni yanada samarali qilish usullari, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Mazkur maqolada ta'limning muhim bosqichi hisoblangan professional ta'limni oliy ta'lim bilan integratsiyalashda o'ziga hos yutuq va imkoniyatlari haqida fikr yuritildi.

**Аннотация:** В данной научной статье говорится о значении инновационных образовательных технологий в современных условиях образования и интеграции профессионального образования и высшего образования, о путях повышения эффективности образования, о том, как использовать информацию о современных инновационных технологиях. В данной статье рассмотрены уникальные достижения и возможности интеграции профессионального образования с высшим образованием, которое считается важным этапом образования.

**Annotatsion:** This scientific article talks about the importance of innovative educational technologies in today's advanced educational conditions and the integration of professional education and higher education, ways to make education more effective, how to use modern innovative technologies information about. This article discussed the unique achievements and possibilities of integrating professional education with higher education, which is considered an important stage of education.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik tajriba, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy qiyofa, yangicha yondashuv, raqamlashtirish, elektron ta'lim resurslari.

**Ключевые слова:** Педагогический опыт, информация и коммуникация, современный имидж, новый подход, цифровизация, электронные образовательные ресурсы.

**Key words:** Pedagogical experience, information and communication, modern image, new approach, digitization, electronic educational resources.

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonaviy ta'lim sistemasida professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilim, ko'nikma va malakalarini – o'qitishning axborot berish darajasidan shaxsni shakllanishidagi rivojlanishini boshqarish darajasiga ko'tarishdan iborat ekanligi bugungi kunda ta'lim sohasining eng oliy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada yangi o'quv adabiyotlarini yaratish hamda professional ta'lim bilan oliy ta'limni uzviylikini bir biriga bog'lashning alohida o'rni mavjud bo'lib, u

ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda yetakchi vositalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'rta maxsus va professional ta'limmuassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviylikini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 31 avgustdagi PQ-5241-son qaroriga muvofiq oliy ta'limmuassasalari o'zlariga birlashtirilgan texnikumlarni o'quv-metodik materiallar (o'qitish materiallari to'plamlari, didaktik

materiallar, praktikumlar, texnologik xaritalar, elektron resurslar, xorijiy o'quv-ilmii va boshqalar) bilan ta'minlash ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Professional ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarni tayyorlash, nashr etish, yetkazib berish hamda ta'lim muassasalarda foydalanish"ga qo'yiladigan talablarni belgilash tartibi bilan professional ta'lim muassasalarini yangi o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashning huquqiy asoslari yaratildi. Bunda o'quv adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, yangi o'quv adabiyotlarni yaratish uchun professor o'qituvchilardan iborat mualliflar jamoasini shakllantirish, chop etish hamda o'quvchilarga foydalanishi uchun topshirish jarayonlarni qamrab oladi. Professional ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklarda o'qitiladigan umum kasbiy va maxsus fanlar bo'yicha yangi o'quv qo'llanmalarini yaratishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali tanlovlar orqali mualliflar tanlab olindi. [1]

Ijtimoiy va iqtisodiy transformatsiya amaliyotining o'sib borayotgan dinamikasi sharoitida ta'lim va ijtimoiy moslash ishning yangi shakllaridan foydalanishni, davlat manfaatlarini optimallashtirishni va kundalik hayotimizda paydo bo'lgan bilimlar jamiyatida individuallikni talab qiladi. Bugungi kunda zamonaviy sivilizatsiyaning o'sish chegaralari ta'lim hamda uning sifati va mavjudligi bilan belgilanadi. Bu borada professional ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalarni oliy ta'lim bilan integratsiyalash ta'lim jarayonining o'zgarishi va shaxsga yo'naltirilgan tendensiyasini ta'minlaydi, va o'quvchilarda bilim, ko'nikma hamda malakalari ularning shaxsiy sifatlarini, kompetentligini rivojlantirishida vositasiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojatnomasida ta'kidlab o'tganlaridek:

"Odamlarimizni kasb-hunarli qilish, ularning biznesiga keng yo'l ochish, haqiqiy mulkdor bo'lib, daromad topishi uchun zarur sharoitlarni yaratmoqdamiz shuningdek aholimizning faolligi, zamonaviy texnologiya va kasb-hunarlariga intilishi oshib bormoqda. Iqtisodiyotimizda kundan-kunga yangi-yangi yo'nalish va sohalar yaratilmoqda ta'lim va fan iqtisodiyotga, ijtimoiy hayotga chuqur singib ketgan bo'lib, hayot darajasi sifatiga va xususan alohida mamlakat va umuman xalqaro ham jamiyatning doimiy rivojlanish imkoniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda" albatta bu ta'kidlar bejiz emas.[2]

Shunday ekan integratsiyalashgan ta'lim, integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish, integratsiyalashgan darslar samaradorligi ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, oliy ta'lim hamda professional ta'limda aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasini ko'rsatmoqda. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarni rivojlantirish va amaliy, ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bunday tayyorgarlik professional ta'lim o'quvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga erkin qo'llash imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda professional ta'limda pedagogik amaliyotni fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Oliy ta'lim bilan fanlararo bog'lanish, ya'ni integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish nazarda tutiladi, bu esa o'z navbatida bilim(anglash) jarayoni bilan chambarchas bo'g'liqdir.

Integratsiya ( lot. Integratio – tiklash, to'ldirish, integer – butun so'zidan ) – o'zida bir qancha ma'nolarni birlashtiruvchi so'z bo'lib, shu ma'nolardan biri " ikki va undan ortiq fan, texnika, hamta boshqa ta'lim

xizmatlarining yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni” dir.

Integratsiyalashgan ta’lim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o‘n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bir yoki bir necha mashg‘ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub’ektiv yangi bilimga — olib kelishi kerak bo‘ladi. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, u fanlararo aloqalarni o‘rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.[3]

Bugungi zamonaviy ta’lim sharoitlarida fanlarni o‘qitishda ularning integratsiyasini ta’minlashga yetarli e’tibor berib kelmoqda. Misol tariqasida shuni ta’kidlab o‘tishimiz mumkinki, o‘rta maxsus, kasb-hunar professional ta’limi o‘quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi shunga o‘xshash va boshqa ta’lim xizmatlari oliy ta’lim tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlikni ta’minmagan holda o‘qitilmoqda. Shunday ekan bu jarayonlarni muvofiqlashtirishda bir qancha muammolar ham yetarli bo‘lib qolmoqda.

Professional ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat ta’lim standarti hamda xalqaro ta’lim standartlariga javob beradigan yangi shakldagi zamonaviy o‘quv adabiyotlari yaratish va o‘quvchilarga yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bugungi kunda professional ta’lim muassasalarida foydalanish uchun tavsiya etilgan o‘quv hamda elektron o‘quv adabiyotlarning tahlili o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biriga aylanmoqda. Sababi yangi o‘quv tizimini shakllantirishda o‘quvchilarni eng so‘nggi ma’lumotlar bilan tanishtirib borish talab etiladi.

Oliy ta’lim bilan professional ta’limni integratsiyalash borasidagi yangi ta’lim texnologiyalari talabalar uchun qaysi

sohaga yo‘naltirilgan hamda ta’limning asosiy texnologiyalari o‘zi nimalardan iborat? degan savolga javob beramiz. Ushbu texnologiyalar kasb-hunar ta’lim jarayonlarida bolaning shaxsiy hamda kasbiy faoliyatlarini rivojlanishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Uning individual xislatlari e’tiborga olinib, o‘qituvchi o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘z mahoratini ta’limni integratsiyalash asosida tashkil etishga yo‘naltiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Ko‘p bosqichli ta’lim texnologiyasi. Ushbu texnologiyaga ko‘ra, o‘quv jarayonini har bir o‘quvchi tomonidan materialni o‘zlashtirish qobiliyatiga qarab ta’minlanishi kerak, ya’ni har bir talabaga o‘zi uchun zarur bo‘lgan va uning imkoniyatlariga mos keladigan dasturni o‘zlashtirish uchun.

- Kollektiv o‘zaro ta’lim texnologiyasi. Ushbu texnologiya talabalarni psixologik moslashuvga ega bo‘lgan kamida ikki kishidan iborat guruhlarga birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ular turli darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo‘lishi mumkin, lekin ular bir-birlariga yordam berish va shu bilan bir-birlarini rivojlantirish orqali vazifalarni bajaradilar. Bu mantiqiy fikrlashni, mas’uliyat hissini, o‘zini hurmat qilishni shakllantiradi.

- Hamkorlik texnologiyasi. Bu texnologiya talabalarni kichik guruhlarga birlashtirish va ularda o‘qitishni o‘z ichiga oladi. O‘rganish bilan birgalikda, bir-birlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklaridan xabardor bo‘lishi kerakligini inobatga olishga undaydi. Ta’limni yagona maqsad va vazifalarini belgilash, har bir o‘quvchining majburiy mas’uliyati va ma’lumotlarni samarali o‘zlashtirish uchun teng sharoitlarni ta’minlash asosida quriladi. [4]

Bu borada o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalar asosida bilimlarini oshirishga xizmat qiladigan yangi adabiyotlarni, ta’lim kontentlarini yaratish, ta’lim muassasalarini



# TRENINGNING PREDMET MAZMUNINI ANIQLASH KOMBINATSIYALANGAN MAHORAT VA TIL VA NUTQNI TANLASH UNI AMALGA OSHIRISH UCHUN MATERIALLAR ISHLAB CHIQUV

ALIMOV JAMSHID RAVSHANOVICH  
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Taraqqiyotning tarkibiy qismi bo'lgan madaniyatlararo munosabatlarning asosi hisoblanayotgan aloqalar samaradorligini oshirish va ko'p madaniyatli shaxsning chet tilini bilish ko'nikmalarini shakllantirish asoslari yoritilgan. Ushbu maqolada so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini ingliz tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida qaraldi. Shu bilan birga ingliz tilidagi so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini shakllanishi, o'quv jarayonida so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini tarmoqlaridan foydalanish o'ziga xos xususiyatlari orqali talabalar o'rtasida ommalashishiga e'tibor qaratilgan. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish va chet tili kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha jahon ilm-fan taraqqiyoti tendensiyalarini hisobga olgan holda ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlari:** so'zlar, so'zlarni biriktirish texnologiyasini, kasbiy axborot kompetensiyasi, chet tili kompetensiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, til grammatikasi, ingliz tilini o'qitish metodikasi, nofilologik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish, ingliz tilini o'qitishning samarali usullari;

**Annotation.** The fundamentals of improving the effectiveness of communication and the formation of foreign language skills of a multicultural person, which are considered the basis of intercultural relations, which are a component of development, are highlighted. In this article, the technology of teaching word association was considered as an additional tool for teaching English. At the same time, attention is paid to the formation of the technology of teaching English word conjugation, its popularity among students through the specific features of the use of networks of the technology of word conjugation in the educational process. In this regard, scientific and practical recommendations have been made, taking into account the trends of world scientific development, on the improvement of the working mechanisms of English language teaching and the formation of foreign language professional competence in higher education institutions.

**Key words:** words, word linking technology, professional information competence, foreign language competence, social networks, language grammar, English language teaching methodology, English language teaching in non-philological directions, English language teaching effective teaching methods;

Chet tilini o'rgatishning istalgan bosqichida o'quvchining nutqiy aloqalari va yangi hosil bo'lgan so'z birikmalarini uchta pozitsiyadan tasvirlash mumkin.

I. So'z birikmalarini grammatik tuzilmalarning leksik tarkibi sifatida ifodalash mumkin. Agar grammatik tuzilmalarni o'rgatish jarayonida ularning maksimal leksik to'liqligini ta'minlash kerak bo'lsa, unda barcha tuzilmalar o'zlarining umumiylikdagi barcha yoki deyarli barcha mumkin bo'lgan so'z birikmalarini qamrab oladi. Demak, masalan, sifatlarning qiyoslash darajalarini

o'zlashtirish mashqlarida shu paytgacha o'rganilgan barcha sifatlarning qiyoslash mumkin bo'lgan barcha otlar kiritiladi. O'tgan noaniq zamonni o'zlashtirish mashqlarida o'quvchilarga tanish bo'lgan barcha fe'llar topiladi va ular bilan qo'shib, vosita, qo'shimchalar va harakatning holatlarini bildiruvchi maksimal leksik birliklar topiladi. Natijada, grammatik tuzilmalar va shakllarning bunday leksik to'liqligi o'rganish paytida so'zlarning va hatto jumalarning barcha mumkin bo'lgan birikmalarini amalda tugatadi. Shuni ta'kidlash kerakki,

adabiyotlarda va eksperimental ma'lumotlarda ifodalangan nuqtai nazarga ko'ra, grammatik tuzilmalarni o'rgatish doimo o'rganilgan lug'atni maksimal darajada qamrab olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Asosan, grammatik tuzilmalarning leksik to'yinganligini cheklash orqali hozirgi vaqtda so'zlarning barcha mumkin bo'lgan birikmalarini aniqlash va shunga mos ravishda birikma asoslari va birikma birliklarini aniqlash juda mumkin. Kelajakda mashqlar to'plamini ishlab chiqishda so'z birikmalarini hisobga olishning ushbu usuli tinglovchilarning nutqining to'g'riligini ta'minlash uchun foydali bo'lishi mumkin, ammo u o'qitishda amalga oshiriladigan til va nutq materialini tanlash uchun unchalik mos kelmaydi. kombinatsiyalar, chunki kamdan-kam hollarda ushbu materialga kontent cheklovlarini qo'yadi.

2. Lug'atning ma'lum bir miqdori uchun ruxsat etilgan so'z birikmalarining maksimal miqdori boshqa yo'l bilan belgilanishi mumkin, ya'ni nutqning mavzu mazmunining asosiy bo'limlari va bo'limlari deb ataladigan kalit so'zlarga va ularning aloqalariga e'tibor qaratish. Og'zaki nutq mavzusida va uning kichik mavzularida barcha so'zlar bir xil darajada muhim kommunikativ yukni ko'tarmaydi; Ular atrofida tugunlar atrofida bo'lgani kabi, asosiy mazmuni jamlangan so'zlarni va shu bilan birga boshqa so'zlarning o'zaro va tugun so'zlar bilan birikmalarining keng tarmog'ini ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, "Bizning qishlog'imiz" mavzusida kalit so'zlar bo'lishi mumkin: dalalar, turar-joy binolari, kino va boshqalar. Agar biz o'z oldimizga ingliz tilida kalit so'zlar bilan ifodalangan tushunchalarni tavsiflovchi, aniqlaydigan, ochib beradigan hamma narsani ifodalash vazifasini qo'ysak, u holda bu bilan birga kalit so'zning ko'plab ulanishlar tarmog'ining og'zaki ifodasi paydo bo'ladi. Keyin, masalan, ingliz tilidagi "Cinema"

kalit so'ziga ko'ra, qishloqda nechta kinoteatr borligi, ular qayerda joylashganligi, qanday binolarda joylashganligi, har kuni yoki faqat ma'lum kunlarda ishlashi haqida xabar beriladi. , filmlar repertuari qanchalik tez-tez o'zgarib turadi, oxirgi kunlarda qaysi filmlar namoyish etildi, talaba kinoga qanchalik tez-tez boradi va qaysi kunlarda va namoyishlarda, qaysi filmlarga borgan, qaysilari sizga ayniqsa yoqadi? u odatda kinoga kimga boradi, butun sinf bilan sayohatlar bormi, ular qaysi joylarda o'tirishni yaxshi ko'radilar (yaqin yoki uzoq) va hokazo. Tasavvur qiling-a, xuddi shu ish barcha kalit so'zlar bilan amalga oshiriladi va shundan keyin mavzu bo'yicha so'zlarning mumkin bo'lgan birikmalarining aksariyati amalga oshirilishi aniq bo'ladi va bu, albatta, ko'plab yangi nutq aloqalarini yaratishni ta'minlaydi.

3. Og'zaki nutqning asosiy mavzularining asosiy nutq vazifalari bilan ushbu ishni bajarish, biz og'zaki nutq mavzulari murakkabligi jihatidan bir-biridan farqlanishini aniqladik, bu mavzu doirasidagi kombinatsiyalash ko'nikmalarini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlariga sezilarli ta'sir qiladi. Bu borada "Bizning qishlog'imiz" va "Kinoga borish" kabi ikkita mavzuni solishtiraylik. Ko'rinib turibdiki, birinchi mavzu juda ko'p komponentli: u organik ravishda ilgari yoritilgan mavzularni o'z ichiga oladi: oila a'zolarining kasbi va ish joyi, maktab va maktab faoliyati, jismoniy tarbiya va sport, bo'sh vaqt turlari, shu jumladan ". Bizning qishloqda kino" va boshqalar. "Bizning qishlog'imiz" ko'p komponentli mavzusidan farqli o'laroq, "Kinoga borish" mavzusi, ayniqsa ta'limning kichik va o'rta bosqichlarida, o'quvchilarning so'z boyligi hali ular suratga olgan filmlarning mazmuni haqida gapirishga imkon bermasa, bir hil bo'ladi. tomosha qildim (... haqidagi filmning umumiy izohidan tashqari). Keling, bu xususiyat birlashtirishni o'rganish

mazmunining o'ziga xos xususiyatlariga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqaylik. Yuqorida sanab o'tilgan, keyinchalik "Bizning qishlog'imiz" ko'p qismli mavzusiga elementlar sifatida kiritilgan bir qismli mavzularning har biri uchun asosiy tayanch jumlar va iboralar va ularning o'zgarishlari ushbu mavzularga birlamchi ishlov berilganda allaqachon shakllangan. tashqariga. Masalan, "Kinoga borish" mavzusini ko'rib chiqishda "Vatan urushi haqida" va "Vatan urushi haqidagi film" ning asosiy kombinatsiyasi allaqachon barcha asosiy variantlar bilan ishlab chiqilgan. Albatta, hammasi ham tinglovchilar xotirasiga muhrlangan emas, lekin umuman olganda, "... haqida film" aniq-kategorik stereotipini o'zlashtirilgan deb hisoblash mumkin. Talabalar kabi ko'p komponentli "jamoaviy" mavzuni boshlaganlarida

Shu bilan birga, har bir asosiy nutq vazifasini va barcha asosiy nutq vazifalarini birgalikda maksimal darajada puxtalik bilan hal qilish uchun zarur bo'lgan so'z birikmalarini yaratish rag'batlantiriladi. Bu barcha kommunikativ yo'naltirilgan nutq materiallarini mavzular bo'yicha tizimlashtirish; shu bilan birga, so'z, ibora va jumalarning kerakli va etarli birikmalarining maksimal miqdori ham aniqlanadi va tizimlashtiriladi. Bunga quyidagilarni qo'shamiz: asosiy nutq vazifasini o'quvchilar imkon qadar puxta, keng va har tomonlama yechishlari uchun yakuniy bo'g'in oldidan yodlash jarayonida bir qator tayyorgarlik mashqlari o'tkazilishi kerak, bu rag'batlantiriladi va shu bilan birga ko'plab yangi so'z birikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Agar talaba mavzuni va ular uchun tayyorgarlik mashqlarini oldindan ishlabchiqqan bo'lsa, aniqtasavvurqilib, loyiha shaklida tuziladigan so'z birikmalarining ro'yxatini belgilab qo'ygan bo'lsa, u holda bir vaqtning o'zida o'rganishning mavzu

mazmunini birlashtirish kerak. Ushbu mavzu doirasi belgilanadi. Talabalar bo'yicha so'z birikmalarining bunday "xaritasi", albatta, to'liq bo'lishi mumkin emas, lekin bu shart emas. Agar asosiy nutq vazifalari to'g'ri tanlangan bo'lsa, agar ular har bir keyingi va oldingi vazifalarning maksimal elementlarini o'z ichiga oladigan tarzda joylashtirilgan bo'lsa va nihoyat, mavzu kengaytirilgan rejada ko'rib chiqilsa (masalan, "Kino" elementi "Bizning qishlog'imiz" mavzusida), keyin bu tarzda aniqlangan so'z birikmalari tizimlashtirilgan shaklda etarli va kommunikativ jihatdan zarur bo'lgan birikmalar to'plamini tashkil qiladi.

Yuqorida bu usulni tematik-strukturali deb atash mumkinligi aytilgan edi, lekin hozirgacha bu faqat uning tematik jihati haqida edi. Keling, tuzilishga murojaat qilaylik. Har bir asosiy nutq vazifasini hal qilish uchun turli xil grammatik tuzilmalar qo'llaniladi va agar og'zaki nutq mavzulari o'quvchilarning asosiy faoliyatini aks ettiradigan va grammatik tuzilmalar eng keng tarqalgan bo'lgan boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlari haqida gapiradigan bo'lsak, unda biz bu holatda, har safar, o'shalar deb taxmin qilishimiz mumkin. Bundan quyidagi xulosaga kelish mumkin: rejalashtiruvchi ushbu tuzilmalar ro'yxatiga ega bo'lishi, ularni asosiy nutq vazifalarini hal qilish mazmuni bilan bog'lashi va shu bilan har bir talaba uchun mumkin bo'lgan bayonotlarning tarkibiy inventarizatsiyasini uning optimal leksik mazmunida aniqlashi kerak. Bu har bir tuzilma ichida boshlang'ich yoki asosiy birikmalarni va ularning o'zgarishi, kengayishi, ulanishi va hokozalar uchun zarur bo'lgan nutq materialini o'rnatish imkonini beradi. Keling, ushbu protsedura haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Shunday qilib, birinchi vazifa - maktab ta'limining ma'lum bir bosqichida, bizning holatlarimizda, o'rta maktabning IV-VI (V-VII) sinflarida kombinatsiyalangan ko'nikmalarni o'rgatish uchun dolzarb

bo'lgan ingliz tilining grammatik hodisalarini tizimli modellarda ifodalash. Bular so'z birikmalarining strukturaviy modellari bo'lishi kerak va shu munosabat bilan tilshunoslarning so'z birikmalari va gaplarni bir-biridan farqlash kerakmi yoki B.A.Ilyish fikricha, so'z birikmalari haqidagi bahslarida ma'lum bir pozitsiyani egallash zarur bo'ladi. "Analitik shakllardan tashqari grammatik birlik bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlarning har qanday birikmasi" deb nomlanadi. B.A.Ilyishdan tashqari bu nuqtai nazarga V.V.Vinogradov ham qo'shilib, so'z birikmalari odatda "nutqning muhim qismlariga mansub ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikishi natijasida hosil bo'lgan va qaysidir bir yakka, lekin biroq so'zlarni belgilashga xizmat qiluvchi grammatik birliklar" deb ataladi. ajratilgan tushuncha yoki tasvir". Boshqacha aytganda, nutqdagi mustaqil so'zlarning har qanday birikmasi – u butun psixologik hukmning ifodasi bo'ladimi yoki uning bir qismi bo'ladimi – so'z birikmasidir demak, gaplar ham so'z birikmasidir. Aksincha, aksariyat tilshunoslar iborani "mustaqil bo'lmagan grammatik birlik", "sintagma", "predikativ bo'lmagan sintagma", "so'z turkumi", "birlashma", "konstruksiya" va qarama-qarshiliklar tarzida izohlaydilar. jumla bilan.

Bu fikrni A.A.Shaxmatov aniq ifodalab, gapni gapga bo'ysundirgan. Shaxmatov so'z birikmalarini (F.F.Fortunatov kabi) to'liq va to'liqsizlarga ajratar ekan, so'z birikmalari haqidagi ta'limotda so'zlarning to'liq bo'lmagan birikmalarinigina ko'rib chiqadi, deb hisoblaydi. So'zlarning to'liq birikmasining asosiy belgisi uning predikativligidir. A.A.Shahmatov va uning izdoshlari kontseptsiyasida so'zlarning "to'liqsiz" birikmalari gap tarkibiga kiruvchi iboralar bo'lib, ular sintaksisdagi iborani o'rganish predmeti hisoblanadi.

Bu ibora jumla uchun " so'zlarni qurilish

materiali" bo'lib, ular yagona, ajralmas tushunchani ifodalaydi, lekin predikativlik yo'qligi sababli mustaqil emas va shuning uchun ular faqat gap orqali kommunikativ vositalar tizimiga kiradilar. til.

Ma'lumki, metodist o'z tadqiqotida tilshunoslarning qarama-qarshi nuqtai nazaridan biriga tayanishga haqli va bu holda metodologiya nuqtai nazaridan, bir-biridan farq qiladigan nuqtai nazarni tanlash samaraliroq va istiqbolli ko'rinadi. ibora va gap o'rtasida. Ushbu tanlovning mantiqiy asosi lingvodidaktik xususiyatni hisobga olish bo'lishi mumkin, ya'ni chet tilini o'rgatishda ibora (sintagma) nisbatan mustaqil pozitsiyani egallaydi, bu uning asoslarning element-element shakllanishidagi roldan dalolat beradi va nutq, bu vaqt davomida nutq reaksiyasi faqat so'z birikmalari yoki so'z birikmalarini oldindan shakllantirish orqali iborani elementma-element tayyorlash va hatto o'ta frazaviy birlik bilan ta'minlanadi .

Maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, har xil turdagi iboralar ona tili bo'lmagan talaba nutqining etakchi tarkibiy qismlari hisoblanadi. Masalan, talabalarning ona tilidagi nutqini tahlil qilishning statistik ma'lumotlariga ko'ra, ular tomonidan tuzilgan 10 000 ta jumlada 6060 atributiv iboralar qayd etilgan <sup>1</sup>. Lekin birikma ko'nikmasini o'rgatishda so'z birikmasi va gapga aniq bo'linish alohida ahamiyat kasb etadi, birinchidan, ibora (= so'zlarning predikativ bo'lmagan birikmasi) birikma birlik (avval o'rganilgan iboralardan yangi birikmalar), ikkinchidan, chunki o'rganish morfologik o'zgaruvchanlik, fe'l shakllarining o'zgarishi

1 Возняк Л.А. Обучение грамматическому оформлению атрибутивных смысловых связей в устном высказывании на немецком языке (на гуманитарных факультетах университета). -Дисс. ...канд.пед.наук. - Рига, 1982. - 195 с.



bundan mustasno, ko'pincha sintagmalar ichida sodir bo'ladi<sup>2</sup> va leksik o'zgaruvchanlik ko'p hollarda sintagmatikdir, uchinchi, jumlaning kengaytirish odatda sintagmalarni qo'shish orqali amalga oshiriladi. (On Monday + I go to school at 7 o'clock + in the morning), ba'zan esa sintagmaning kengayishi ham xuddi shunday sodir bo'ladi (the beautiful houses + of our village). Bu mulohazalarning barchasi so'z birikmalari (sintagmalari) va gaplar uchun tuzilmaviy modellarni alohida ajratish uchun yetarli asos bo'lib ko'rinadi. Shu bilan birga, ibora yoki sintagma ikki yoki undan ortiq "semantik" va funksional so'zlarning predikativ bo'lmagan erkin birikmasi sifatida tushuniladi, ularning tasviri va o'xshashligi sintaktik jihatdan bir xil turdagi birikmalarning N-sonidan iborat. tilda yaratish mumkin.

Aynan ma'lum bir model bo'yicha leksik birliklarning ushbu erkin birikmasi beqaror iborani "til yarim muzlatilgan" yoki "muzlatilgan"<sup>3</sup>dan ajratib turadi, ya'ni. turg'unlardan va ulardan farqli o'laroq, u leksik emas, grammatik xususiyatga ega.

Shu tarzda so'z birikmalari (sintagmalar) va jumalarning strukturaviy modellarida birikma ko'nikmalarini o'rganishning tizimli inventarini to'g'rilashga qaror qilib, manbalar va ularni aniqlash tartibini aniqlash kerak edi. Sizning tadqiqotingiz o'zbek maktabida ingliz tilini o'qitishning dastlabki uch yilidagi material bo'yicha olib borilganligi sababli, sintagma va gaplarning strukturaviy modellari ro'yxati grammatik hodisalar va dasturda va IV-Ingliz tili darsligida taqdim etilgan leksika bilan cheklanishi kerak edi.

2 Смирницкий А.И. Морфология английского языка. – М.: ИИЛ, 1959. - 269 с.

3 Сокирко В.С. Методика работы над словосочетаниями при обучении немецкому языку в средней школе. Канд. дисс. М.: 1972. - 187 с

So'z birikmalarining struktur modellarini aniqlash uchun biz derivatsion grammatika deb ataladigan fan vakillarining tadqiqot natijalariga, birinchi navbatda D. Lloyd va G. Vorfelning fundamental ishlariga tayandik va ulardan o'rnak olib, birliklarni belgiladik. bu modellar gap bo'laklariga mansubligiga ko'ra, chunki model sintagma gapda uning sintaktik vazifasini aks ettira olmaydi. Yuqoridagi auditoriya talabalari nutqida iboralarning 14 ta strukturaviy modeli dolzarb ekanligi aniqlandi, xususan:

1. det<sub>dem.pr</sub> + N - this book
2. det<sub>def.pr</sub> + N - every day
3. det<sub>poss.pr</sub> + N - my book
4. det<sub>num</sub> + N - two books, many books
5. det<sub>art/pr</sub> + adj + that/an interesting book
6. (det) + N<sub>attrib</sub> + N the village library
7. (det) + N<sub>poss.case</sub> + N (my) father's bicycle
8. (det) + N + of + (det) + N the agronomist of our farm
9. det + N + N<sub>appos.</sub> my brother Tom
10. det + N + prep<sub>about</sub> + det + N A story about the war
11. prep + (det) + N in the room
12. prep<sub>in</sub> + N<sub>seasons</sub> in Summer
13. prep<sub>at/on</sub> + (det) + N<sub>place</sub> at school, at the cinema etc. on the farm, on the ship etc.
14. prepat/after + Nmeals at breakfast, after dinner

Xuddi shunday va amaliy nuqtai nazardan, asosiy jumlaning iboralarning strukturaviy modellari ro'yxati bilan o'zaro bog'liqligi ham muhimroqdir. Zero, ta'limning kichik va o'rta bosqichlarida o'quvchilarning nutq faolligini tavsiflovchi reproduktiv va ishlab chiqarish darajasida harakatlarni birlashtirish, birinchi navbatda, iboralar doirasida va iboralarni asosiy gaplarga birlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Shuning uchun iboralarning strukturaviy modellari ro'yxatini ko'rib chiqish, asosan, asosiy iboralar va ular bilan harakatlarni aniqlash orqali asosiy jumalarning kombinatsiyalangan o'zgarishlarini oldindan belgilab beradi. "Kinoga borish" mavzusida, masalan, har bir uchun kombinatsiyalangan harakatlarning dolzarbligi o'rtacha 14 ta iboradan 10-12 ta strukturaviy model uchun belgilanishi mumkin: bu film (1-model), har

yakshanba (2-son), otam va akam bilan (3-son), ko'p filmlar (4-son), bu qiziqarli film, mening sevimli filmim (5-son), (bizning) qishloq kinoteatri (6-son) va qishlog'imiz kinosi, shuningdek ... hayoti (No8),... haqida film (10-son) va boshqalar; va har bir bunday asosiy birikma uchun gapning o'zgarishidagi vazifasi va o'rniga ko'ra, o'zgaruvchanlik uchun maxsus material belgilanishi mumkin.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Бехтерева Н.П. Нейрофизиологические аспекты психической деятельности. Изд-во "Медицина", М., 1974. - 126 с.
2. Бычева А.Н. Интерференция родного языка и внутриязыковая интерференция при формировании грамматического навыка с помощью переводных упражнений // Проблемы обучения грамматическому и лексическому аспектам иноязычной речи. - Владимир, 1960. – С.122-141.
3. Городилова Г.Г. К вопросу об оптимальном пути развития речевых навыков и речевых умений на начальном этапе обучения. - //Психологические и психолингвистические проблемы владения и овладения языком. - М.: Изд-во МГУ, 1969.
4. Горчев А.Ю. О путях реализации принципа противопоставления при обучении грамматической стороне речи. - Иностранные языки в школе, 1979. - №6. - С.
5. Горчев А.Ю. О системном подходе к организации грамматического материала для обучения устной речи // Отбор и организация языкового материала для обучения говорению на иностранном языке в средней школе. - М., 1982. - С.37-42.
6. Григорян С.Т. Проблема мотивации в психологии научения иностранному языку. // Проблемы обучения иностранному языку. Том 5, ч.1. - Владимир, 1970. - С.15-24.
7. Гурвич П.Б. Положительное и отрицательное в концепции сторонников структурального подхода к методике преподавания иностранных языков. ИЯВН. - Вып. I. - 1965. - 27-41 с.
8. Gilpin D. R. Working the Twittersphere: Microblogging as professional identity construction. A networked self: Identity, community, and culture on social network sites. New York, 2011, Chapter11, pp. 232–250.
9. Barnes J.A. Class and Committees in Norwegian Island Parish // Human Relations. Hafner Press. — NY., 1975. — P. 39–58.
10. Nizomova, M. B. (2022). Problems of systematization of pedagogical terms and concepts in the scientific and pedagogical theory of comparable languages. American Journal Of Philological Sciences, 2(03), 1-6.
11. Baratboyevna, N. M. Features of the Formation and Development of Ecological Terms in Languages. Journalnх, 6(06), 55-57
12. Nizomova M. B. Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning tarjima qilish tamoyillari, muammolari va o'ziga xos texnologiyalari. // 2022-6/4 Вестник Хорезмской академии Маъмуна. Хива – 2022. 55-59 betlar. (10.00.00 № 21)

# BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI MUSTAQIL BILIMLARINI RIVOJLANISHINING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

SHERMATOVA XURSHIDA KARIMOVNA

Qo'qon davlat pedagogika instituti

2-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil bilimlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish metodlari xususida so'z boradi. Ushbu jarayonda pedagogning ijodiy mahorati, uning o'quvchilar bilan qilgan muloqati xususida fikr yuritiladi. Mustaqil bilimlarni rivojlantirishda ijodiy jarayonning roli aytib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** morfologik, ergologik, milliy madaniyat, texnologik bilim, urma cholg'ular, musiqa asboblari.

**Абстракт.** В данной статье говорится о методах совершенствования процесса самостоятельного развития знаний будущих учителей музыки. В этом процессе обсуждаются творческие способности педагога и его общение со студентами. Была отмечена роль творческого процесса в развитии самостоятельного познания.

**Ключевые слова:** морфологический, эргологический, национальная культура, технологические знания, ударные инструменты, музыкальные инструменты.

**Abstract.** This article talks about methods of improving the process of independent knowledge development of future music teachers. In this process, the creative skills of the pedagogue and his communication with the students are discussed. The role of the creative process in the development of independent knowledge was mentioned.

**Key words:** morphological, ergological, national culture, technological knowledge, percussion instruments, musical instruments.

Jahon xalqlari musiqa madaniyatida, jumladan, Markaziy Osiyo musiqiy hayotida urma zarbli cholg'ularning o'z o'rnini bor. Urma cholg'ular uzoq tarixga ega bo'lib, ular asrlar davomida umumjamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida takomillashib, mukammallashgan shaklda bizgacha yetib keldi. Ilk nomusiqaviy cholg'ularning "Morfologik" va "Ergologik"<sup>1</sup> ta'rifi: Urma cholg'ularning zarbu-usullaridagi xilma-xil sadolari, inson ruhiyotiga ta'sir qiluvchi ilohiy qudratga ega ekanligi qadimdan ma'lum. Ehtimol, ularning inson hayotiga chuqur kirib borganligi ham shu sabablidir. Odamzodning muntazam harakatlari muayyan usuliy tartibni tashkil etganligi natijasida urma cholg'ularning paydo bo'lishini ta'minlagan deyish mumkin. Urma cholg'ular sadolari yordamida inson

ruhiy olamiga tegishli tahsirlarni o'tkazib kelishgan. Borliqning insonga ta'sirida insonning ichki ritmik-usuliy harakatlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy – g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir Al-Farobiy "Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir", degan edi, bobomiz Shayx Sa'diy esa "Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir" deb ta'kidlaydilar. Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni rivojlantiruvchi vositadir. Musiqa ta'limi o'quvchi - yoshlarga nafaqat qo'shiq kuylash, musiqa tinglash malakalarini shakllantiradi, musiqiy savodxonligini o'stiradi. Shuningdek, musiqiy qobiliyatini tarbiyalashda hissiyotni o'stirishda, diqqat, xotirani rivojlantirishda,

1 Hasanov A. "Musiqa va tarbiya", Toshkent, "O'qituvchi", 1993. 78-bet.

taassurot olamini boyitishi, tafakkur ko‘lamini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchining yuqori darajadagi psixologiksavodivamadaniyat o‘quv tarbiyaviy ishlar jarayonida barcha turdagi psixologik vazifalarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Shuning uchun o‘quvchilar musiqiy madaniyatini shakllantirish barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida o‘quvchilarni diqqatini to‘plash, ularning ham aqliy ham hissiy idrok etishini tashkil etish, xotirasini, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning aqliy, irodaviy va boshqa xususiyatlarini shakllantirish kabi psixologik jarayonlardan samarali foydalanishga bevosita bog‘liqdir. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy qirralaridan biri bo‘lib atrofda go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishda qadrlashga o‘rgatadi, inson yuksak did bilan qurolantiradi va ma‘naviy dunyoqarashini shakllantiradi. “Musiqa inson histuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining histuyg‘ulariga faol ta‘sir etadi. Musiqa ham fan, ham san‘atdir.”<sup>2</sup>

Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liqdir. Musiqiy asarning to‘liq va chuqur idrok etilishi, shuningdek, kompozitor va ijrochi mahoratidan ham dalolat beradi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlari va tayyorgarligi bilan ajralmas holat deb xulosa qilish mumkin. Musiqani idrok etish psixologik jarayon bo‘lib undan ma‘naviy oziqa olish uchun inson go‘zallikni his eta oladigan sof qalb egasi, o‘z kasbiga, Vatanga mehr qo‘ygan yuksak madaniyatli shaxs bo‘lmog‘i kerak. Yuqorida qayd etganimizdek, musiqa asarni ongli idrok etish asar mazmunini ochishda va o‘quvchilarga musiqiy tajribalarni to‘plashda, ularning

ma‘naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi emotsional onglilik prinsipining uyg‘unlashishi, ko‘payishi orqali tinglanadigan asarni to‘g‘ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlarni talab etadi. O‘quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e‘tibor beradi. O‘quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yangi musiqiy tushunchalarni bilib olishadi.

Barkamol avlodni yuksak ma‘naviyat ruhida tarbiyalashda musiqaning o‘zi, usullari va samarali yo‘llarini ishlab chiqishda musiqa o‘qituvchisining kasbiy mahorati quyidagi vazifalardan iboratdir.<sup>3</sup>

- barkamol avlodni milliy an‘analar, milliy g‘urur, faxr tuyg‘ulari ruhida tarbiyalashda musiqa darslari va tadbirlarning samarali yo‘llarini ishlab chiqish;

- musiqa darslari vositasida o‘quvchilarda yuksak ma‘naviyat, milliy qadriyatlar tushunchalarini singdirishning turli shakl va metodlarini qo‘llash;

- ajdodlarimizning musiqiy meroslari bilan yaqindan tanishish, musiqashunos olimlarning ushbu mavzuga oid fikrlarini o‘rganib chiqish;

- musiqa darslarini rejalashtirilishda musiqa darslari faoliyat turlari va ularni xususiyatlari orqali o‘quvchilarda badiiy didni o‘stirishga e‘tibor qaratish;

- bolalar qo‘shiqlari orqali vatanparvarlik, tinchliksevarlik, do‘stlik tuyg‘ularini shakllantirish, yuksaltirish yo‘llarini ishlab chiqish;

- musiqiy-badiiy vositalar orqali o‘smir yoshlarda milliy istiqloq g‘oyalarini shakllantirish;

2 Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. “Musiqa” darsliklari T., 2008. 45-bet.

3 Юлдашев, С., & Азизов, С. (2022). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ СЎЗ САНЪАТИ. Oriental Art and Culture, 3(1), 726-734.

- musiqa darslari jarayonida bolalar qo‘shiq-lari, folklor asarlari vositasida barkamol avlodni tarbiyalashda ma‘lum yutuqlarga erishish;

- musiqa o‘qituvchisining har tomonlama bilimli bo‘lishida o‘z fanini chuqur o‘zlashtirish, innovatsion faoliyatida natijalarga erishish;

- musiqa darslari jarayonida milliy-ma‘naviy qadriyatlardan foydalanish;

- o‘quvchilar ma‘naviyatini yuksaltirishga qaratilgan musiqiy tadbirlar muntazam o‘tkazib borish.<sup>4</sup>

Musiqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash dars samaradorligini oshiribgina qolmay o‘qituvchining kasbiy malakalarini shakllantirishga ham ko‘maklashadi. Shuningdek, darslarda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish pedagogik mahoratni muvaffaqiyatli egallashga yordam berdi. Pedagogik texnologiyada jamoa bilan kirishib ketishi, o‘z ishini kuchli va zaif tomonlarini bilishi, o‘z bilimlarini doimo to‘ldirib borishi o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish yo‘lidan muvaffaqiyatli olg‘a siljishini ta‘minlaydi. Musiqa pedagogikasida fanning zamonaviy tizimini tuzilishi uning metodikasidan keng tarbiya nazariyasi va amaliyotiga o‘tish maqsadga muvofiq ekanligini isbot qilmoqda. Musiqa o‘qituvchisi o‘qitishning turli usullariga murojaat qilmog‘i lozim. U davlat tomonidan chiqarilgan dastur asosida tuziladigan rejasiga suyanib qolmasdan, o‘zi darsga ijodiy yondoshib istalgan faoliyat turidan darsni boshlashi, musiqa o‘qitishning optimal metodlaridan umumiy foydalanib o‘zi ijod qila bilishi lozim. Shuningdek, musiqa o‘qituvchisi

kasbiy mahoratida darsning noan‘anaviy usularidan foydalanib darsni ijodiy tashkil qilish orqali o‘quvchilarni bilimga qiziqtirishi katta o‘rin tutadi. Bunda noan‘anaviy usullardan “dars-konsert”, “dars munozara” kabi integrallashgan dars shakllarini o‘quv jarayonida qo‘llash o‘quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, ularni mustaqil fikrlash doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday darslarda bola o‘zini erkin his qiladi. Bu darsda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan balki o‘qitishning turli-tuman faoliyatlarini tashkil qiladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni rivojlantirishda duch keladigan birinchi didaktik muammo tavsiya etilayotgan dasturning cheklanganligi hamda uning o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. Aksar pedagogik muammoli vaziyatlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari kasbiy kompetentlikni, tajribaning yetishmasligidan misol uchun, ishchi rejani qo‘llash kerak bo‘lganda uni qay tartibda yuritishni tushunmaslikdan yuzaga keladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning oliy ta‘limda yetarlicha kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganligidan kelib chiqadi. Albatta bu hamma OTMda to‘liq 100% shunday degan xulosaga bormaslik kerak. Biroq aksar Oliy ta‘lim tizimida tahsil olayotgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari ishchi rejadagi o‘qitilishi kerak bo‘lgan mavzular, uslubiy ko‘rsatmalar, qo‘shimcha didaktik materiallar (elektron doska, smart kitoblar, 3D ko‘rgazmali fositalar, videoproektor va boshqalar)ni bo‘lajak o‘qituvchilar ishlatish layoqatiga ega emasligidan kelib chiqadi. Yuqoridagi kabi muammolar musiqa o‘qituvchilariga taklif etilayotgan kompetensiyaviy talablar sababli dolzarb bo‘lib bormoqda. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni rivojlantirishning didaktik tavsiflovchi ikkinchi muammo – o‘quv-tarbiya jarayonlarida tavsiya etiladigan o‘qitish metodlarining o‘zgaruvchanligi, bo‘lajak

4 Yuldashyev, A., & Boboyev, V. (2022). CHOLG‘UCHI-SOZANDA TALABALARNI O‘ZBEK XALQ KUYLARI VA BASTAKOR-KOMPOZITORLAR IJODIDAN NAMUNALAR IJRO QILISHLARIDA IJODIY YONDOSHUVCHANLIKKA O‘RGATISH. *Oriental Art and Culture*, 3(1), 219- 225.

o'qituvchilarda ularning doimiy kasbiy tayyor bo'lmaganligi, dars tashkil etish jarayonida musiqa yordamida musiqa o'qitish, ta'lim berish va shaxsni rivojlantirishning mavjud keng ko'lamli faoliyatlarini amalda namoyish eta olmasligi.

Musiqa ta'limi jarayonida to'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish 30% va undan ortiqroq vaqtni tejash imkoniyatini yaratadi. Albatta bunda o'quv jarayonini tuda fanlar bilan integratsiya qilinganda, modulli o'qitishning barcha tamoyillarini to'la amalga oshirilganda erishish mumkin. O'ninchi tamoyil – texnologiklik yondashuv: Musiqa darslarini tashkil etish jarayonida texnologik tamoyil quyidagilarni nazarda tutuadi:

- eng yuqori darajada aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarni rejalashtirish, belgila, diagnostik tahlil etish va prognozlash;
- ta'lim natijalarini tezkor baholash hamda ta'lim usuliga tuzatishlar kiritish;
- ta'limni qayta takrorlanuvchi jarayonga aylanishiga imkon berish;
- samarali ta'limga erishish uchun o'quv me'yoriy hujjatlarning uzviylikini ta'minlash.<sup>5</sup>

5 Abralova M, Galiyeva D. Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi., 2008. 176-bet.

Musiqiy ta'limi samaradorligi, o'quv maqsadlariga ijobiy erishish uchun o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqishda tizimli yondashish nazarda tutiladi. anglatadi. Yuqoridagi omillar asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarni rivojlantirishning didaktik muammo yechimi aniqlanadi hamda yuksak yutuqlarga erishish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqiy faoliyat turlarining barchasi birdek xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari davomida quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi. Musiqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musiqa savodi barcha faoliyatlarini nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy qismi, musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini singdirib borishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov A. "Musiqa va tarbiya", Toshkent, "O'qituvchi", 1993. 78-bet.
2. Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. "Musiqa" darsliklari T., 2008. 45-bet.
3. Юлдашев, С., & Азизов, С. (2022). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ СЎЗ САНЪАТИ. Oriental Art and Culture, 3(1), 726-734.
4. Yuldashyev, A., & Boboyev, V. (2022). CHOLG'UCHI-SOZANDA TALABALARNI O'ZBEK XALQ KUYLARI VA BASTAKOR-KOMPOZITORLAR IJODIDAN NAMUNALAR IJRO QILISHLARIDA IJODIY YONDOSHUVCHANLIKKA O'RGATISH. Oriental Art and Culture, 3(1), 219- 225.
5. Abralova M, Galiyeva D. Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi., 2008. 176-bet.

# INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI JARAYONINING MAZMUN VA MOHIYATI

ABDUBANNOBOVA MAHLIYO ABDURASHID QIZI  
FarDU 1-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarda yosh avlodning barkamolligiga erishish masalalari, xususan, alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'lim-tarbiyasi muammolarini hal etishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar orasida u yoki bu darajada eshitishidan mahrum bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu toifa bolalarga milliy qadriyat va hududiy shart-sharoitlarimizdan kelib chiqqan holda maxsus ta'lim muassasalarida korreksion yordam ko'rsatish, umumiy va xususiy maqsadlari, vazifalari, ta'lim-tarbiyalashning mazmun va tamoyillari, ushbu bolalar imkoniyatlariga mos bo'lgan ish metodlarining ilmiy asoslarini to'liq ishlab chiqish maxsus ta'lim tizimining kun tartibida turgan hamda o'zining tezkor yechimini kutayotgan bosh muammodir.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, alohida yordamga muhtoj bolalar, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, takomillashuv, maxsus ta'lim, konsepsiya, moslashish, umumiy ta'lim, integratsiya.

**Abstact.** In the social reforms carried out by the government of our republic, special attention is being paid to the issues of achieving the perfection of the young generation, in particular, to solving the problems of education and upbringing of people who need special attention. Most of the children who need special help are those who are deaf to one degree or another. Providing correctional assistance to this category of children in special educational institutions based on our national values and territorial conditions, general and private goals, tasks, content and principles of education, scientific methods of work suitable for the capabilities of these children full development of the foundations is the main problem that is on the agenda of the special education system and is waiting for its quick solution.

**Key words:** inclusive education, children with special needs, education, upbringing, development, improvement, special education, concept, adaptation, general education, integration.

## KIRISH

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj

bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi <sup>1</sup>.

## ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Inklyuziv ta'limni taraqqiy etishi haqida qisqacha tahlil qilindi.

O'zbekiston

Respublikasi

<sup>1</sup> O'RQ-637-COH 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida (lex.uz)

Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

### **MUHOKAMA**

Inklyuziv ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim, o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi. Uning maqsadi nogironligi bo‘lgan shaxslarni ta’lim va tarbiyalashda to‘siqlarsiz muhit yaratishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar majmuasi ta’lim muassasalarini texnik jihozlash va o‘qituvchilar va boshqa talabalar uchun nogironlar bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv faoliyatini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, umumiy ta’lim muassasasida nogiron bolalarni moslashtirish uchun maxsus dasturlar kerak.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari va jamoasining alohida ehtiyojli bolaga nisbatan tolerantlik munosabati.

Ota-onalar yoki alohida ehtiyojli bola yaqinlarining inklyuziv ta’limdagi bevosita maqsadli ishtiroki.

Inklyuziv sinf tarbiyachisining tor doiradagi mutaxassislar (logoped, defektolog, psixolog, pediatr, nevropatolog, psixiatr, rehabilitator...) bilan uzviy hamkorlikda ishlashi.

Inklyuziv maktab rahbari, fan tarbiyachilari, psixolog, yetakchi va boshqa xodimlarning inklyuziv ta’lim haqida

ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Alohida ehtiyojli bolaga sinfda o‘zini qulay xis qilish imkonini beruvchi sog‘lom va barqaror psixologik muhit.

Sanab o‘tilgan omillar asosida inklyuziv ta’lim muhitini yaratishning o‘ziga xos tomonlarini unutmazlik lozim. Ular:

- bolalar uchun barcha fanlardan o‘quv materiallarini taqdim etishning optimal vizualizatsiyasiga ustuvorlik berishga ehtiyojning kattaligi;

- alohida ehtiyojli bolalarning fanlardan o‘zlashtirish imkoniyatlari nutqiy rivojlanish darajasiga bog‘liqligi;

- fanlardan beriladigan o‘quv topshiriqlarining qiyinlik darajalarini belgilashda individualizatsiyaga tayanishning muhim shartligi;

- har bir o‘quv fanni o‘qitish samaradorligi tayyorlov davri mazmuni va tashkil etilishiga bog‘liqligi;

- fanlardan davlat ta’lim standartlarining bajarilishini ta’minlashda fanlararo integratsiyaga tayanishning dolzarbligi.<sup>2</sup>

### **NATIJA**

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘z qobiliyat darajasida faoliyat ko‘rsatish, ta’lim olishi, kasb-xunar o‘rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalاندilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqliligini, o‘z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus,

2 O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori.



yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega. Tahlil shuni ko'rsatadiki, taxminan 10-15% bolalar maxsus ta'limga muhtoj ekanligi aniqlandi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishga bo'lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo'ladiki, ta'lim tizimidan butunlay chetda qolib ketayotgan maxsus ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb etish, maxsus muassasalarga borishga yashash joyi juda uzoqda bo'lganligi yoki moddiy mablag'ning yetishmasligi yoki ota-onalarning o'z farzandini maxsus muassasaga borishini hohlamasligi oqibatida qiynalalayotgan ota-onalarga ko'mak berish, maxsus ehtiyojli bolalarni

ijtimoiy jamiyatga erta va to'laqonli moslashtirish, teng huquqlilik masalasini hal etish, kamsitishlarni oldini olishdadir.

#### XULOSA

Inklyuziv ta'lim dunyoning ko'plab mamlakatlarida maxsus ta'lim tizimini isloh qilish va o'zgartirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning maqsadi ta'lim huquqini kamsitishsiz amalga oshirishdir. Maxsus ta'lim tizimini global kontekstda o'zgartirish va ta'limga inklyuziv yondashuvlarni ishlab chiqish, avvalambor, eng muhim xalqaro-huquqiy hujjatlar - Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO, homiysi) tomonidan tuzilgan deklaratsiyalar va konventsionalarga asoslanadi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olibib borilsa abatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni/Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019.
4. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие. – Казань, 2013.
5. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010.
6. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
7. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil.

# BOKSCHILARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISHNING GENDER FARQLARI

QUVVATOVA ZILOLA RISQUL QIZI

Respublika sport tibbiyoti ilmiy amaliy markazi tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Bokschilarda o'z-o'zini boshqarishning psixologik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz ushbu maqolada aynan gender farqlarni ko'rib chiqildi, 67 ta bokschi yigit qizlarda o'rganildi. Erkaklarda ayollarga nisbatan rejalashtirish, dasturlash hamda umumiy nazorat yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** O'z-o'zini boshqarish, emotsional nazorat, temperament, gender farq, iroda, hissiy barqarorlik.

**Аннотация:** При изучении психологических особенностей самоконтроля у боксеров в данной статье рассматривались гендерные различия, было обследовано 67 боксеров мужского и женского пола. Было обнаружено, что мужчины имеют более высокий уровень планирования, программирования и общего контроля, чем женщины.

**Ключевые слова:** Самоконтроль, эмоциональный контроль, темперамент, гендерные различия, воля, эмоциональная устойчивость.

**Abstract:** When studying the psychological characteristics of self-control in boxers, this article considered gender differences, 67 male and female boxers were studied. Men have been found to have higher levels of planning, programming, and general control than women.

**Key words:** Self-control, emotional control, temperament, gender difference, will, emotional stability.

Birinchi marta o'z-o'zini boshqarishning gender farqlari haqida ish olib borgan tadqiqotchi V.Mishel(1974) ayollarda erkaklarga nisbatan irodaviy o'z-o'zini nazorat qilish yuqoriroq ekanligini aytadi. Biroq bu natijalar kam sonli ishtirokchilardan olinganligi va o'rtatagi farq juda past ekanligi ko'rsatadi. [5]. Dukvort va Seligman(2006 yil) gipotezasiga muvofiq, o'z-o'zini nazorat qilish uchun jamlangan ball qizlarga nisbatan sezilarli jinsiy farqni ko'rsatdi. Shuni ta'kidlash kerakki, jinsiy farq uchun eng kichik ta'sir hajmi qoniqish o'lchovining kechikishida kuzatilgan shuningdek, bolalar bog'chasi bolalarida o'zini o'zi boshqarishda jinsiy farqlarni o'rganib chiqdi[2]. Bunday holda, o'z-o'zini tartibga solish ish xotirasini, diqqatni nazorat qilishni, almashtirishni va hissiy nazoratni o'z ichiga olgan xatti-harakatlarni tartibga solish sifatida belgilandi[4]. O'z-

o'zini tartibga solish to'g'ridan-to'g'ri bosh-oyoq-tizzalar-elka vazifasini qo'llash orqali ham, bilvosita bolalarning xatti-harakatlarini baholash shkalasi (CBSR) yordamida o'lchandi. Natijalar qizlarning o'z-o'zini tartibga solishning ikkala ko'rsatkichi bo'yicha o'g'il bolalardan ustun ekanligini tasdiqladi [4]. Yaqinda shuningdek, nemis 5-sinf o'quvchilari namunasida xulq-atvorni o'z-o'zini tartibga solishda qizlarga foyda keltiradigan sezilarli jinsiy farq haqida xabar berdi. Bunday holda, xatti-harakatlarning o'zini o'zi boshqarishi o'zini o'zi boshqarish shkalasi (SCS-KD) yordamida o'lchandi[7]. Umuman olganda, bu natijalar erta rivojlanish davrida qizlar o'z-o'zini tartibga solish choralari bo'yicha o'g'il bolalardan ustun ekanligini tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda ruhiy barqarorlik gipotezasi tadqiqotchilarning e'tiborini tortdi, ammo bu gipotezaning jinsga bog'liq tabiati

to'liq ko'rib chiqilmagan. Gottfredson va Xirchining (1990) o'z-o'zini boshqarish va ruhiy barqarorligi haqidagi argumentlari jinslar bo'ylab umumlashtirilishi uchun bir nechta taxminlarni hisobga olish kerak, bular quyidagilar:

1- o'z-o'zini boshqarishdagi gender farqlari vaqt o'tishi bilan barqaror bo'lishi kerak;

2- erkaklar va ayollar o'z-o'zini boshqarishning o'xshash rivojlanish yo'llariga ega bo'lishi kerak;

3- o'z-o'zini boshqarish barqarorligining gipotezalari ikkala jinsda ham bir xil ishlashi kerak[3].

Tadqiqotchilar faqat birinchi taxmini o'rganib chiqdilar va ayollar 13 yillik davr (Turner va Piquero, 2002) yoki 5 yil davomida (Winfrey va boshq., 2006) erkaklarnikiga qaraganda ancha yuqori o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega ekanligini aniqladilar. Ushbu topilmalar har bir jinsdagi shaxslar bir xil bo'lib, o'zini-o'zi boshqarishning bir xil rivojlanish yo'llariga ergashadi degan taxminga asoslanadi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, populyatsiya ichida bir nechta traektoriyalar mavjud bo'lishi mumkin, bu o'z-o'zidan turli xil traektoriyalarga ega bo'lgan bir nechta kichik guruhlarini anglatadi. Agar har bir jinsda bir nechta traektoriya mavjud bo'lsa, oddiy o'rtacha taqqoslashlar o'z-o'zini boshqarish rivojlanishidagi bu o'zgarishni yashiradi. Bundan tashqari, oldingi tadqiqotlar ijtimoiy omillarning o'z-o'zini nazorat qilish barqarorligiga ta'sirida gender o'xshashliklarini / farqlarini o'rgana olmadi[6].

Biz esa tadqiqotimizda bokschilarda o'z-o'zini boshqarishning gender farqlarini o'rgandik. Bunda O'zbekiston Boks federatsiyasi Yoshlar terma jamoasining 67 nafar bokschilari ishtirok etishdi (39 tasi qizlar, 28 tasi yigitlar). A.V.Zverkova E.I. Eidman ixtiyoriy o'z-o'zini boshqarish metodikasi orqali o'z-o'zini boshqarishning

umumiy darajasi, qat'iylik va hissiy nazorat shkalalari bo'yicha solishtirdik. Hamda V.I. Morosanovning Xulq-atvorni boshqarish uslubini aniqlovchi metodikasidan foydalandik. Bu metodika orqali rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash, natijalarni baholash, moslashuvchilik, mustaqillik, umumiy o'z-o'zini boshqarish shkalalari orqali gender farqlarni statistikaning student mezoni bo'yicha o'rgandik (1-jadval).

Statistiksolishtirishgako'ra A.V.Zverkova E.I. Eidman ixtiyoriy o'z-o'zini boshqarish metodikasi orqali o'z-o'zini boshqarishning umumiy darajasi, qat'iylik va hissiy nazorat shkalalari o'rtasida ahamiyatli gender farqlar topilmadi. Ammo, V.I. Morosanovning Xulq-atvorni boshqarish uslubini aniqlovchi metodikasi shkalalarida ahamiyatli farqlar topildi. Rejalashtirish shkalasi bo'yicha yigitlarda qizlarga qaraganda yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi  $r=1,96(p\leq 0,05)$ . Yigitlar va qizlar o'rtasidagi farq dasturlash shkalasida ham aniqlandi. Bunda yigitlarda biroz yuqori, student-t mezoni bo'yicha farqlar  $r=2,66(p\leq 0,01)$ . Yana bir shkala umumiy o'z-o'zini boshqarish bo'yicha ham farqlar aniqlangan bo'lib, unda ham yigitlar natijalari yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi, o'rtadagi farq esa  $r=1,67(p\leq 0,10)$  tashkil etdi.

Nazariy ma'lumotlarga e'tibor bersak o'z-o'zini boshqarish umumiy darajasi ayollarda yuqori ekanligi ko'plab tadqiqotlarda keltirilgan. Kam sonli tadqiqotlarda hamda bizning tadqiqotimizda erkaklarda yuqoriroq natijalar qayt etildi. Bunga ayollarning o'zgaruvchan emotsional impulsivligi hissiy va irodaviy o'z-o'zini boshqarishga teskari ta'sir qilishi sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda doimo o'zini o'zi boshqarishi va kamroq impulsiv bo'lishi mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, o'z-o'zini nazorat qilishdagi jinsiy farqlar xarakterga o'xshash doimiy dimorfizmlar emas, aksincha, bu jinsiy farqlar ayolning hayz davrining o'zgaruvchan



## БОЖХОНА СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАР ТИПОЛОГИЯСИ

ИСАКУЛОВА Н.Ж.

ЎзДЖТУ профессори, педагогика фанлари доктори

**Аннотация.** Мазкур мақолада божхона соҳасига оид терминлар типологияси таҳлил этилган. Инглиз тилида божхона соҳасига оид терминологик бирликларининг ясалиш жараёни ёритилган.

**Калит сўзлар:** божхона, термин, морфологик усул, синтактик усул, семантик усул, сўз ўзлаштириш усули.

**Аннотация.** В данной статье анализируется типология терминов таможенного дела. Объяснен процесс создания терминологических единиц, связанных с таможенной сферой, на английском языке.

**Ключевые слова:** таможня, термин, морфологический метод, синтаксический метод, семантический метод, метод усвоения слов.

**Abstract.** This article analyzes the typology of customs related terms. The process of creating terminological units related to the customs field in English is explained.

**Key words:** customs, term, morphological method, syntactic method, semantic method, word acquisition method

Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитасининг Божхона институтида “Божхона иши” ва “Юриспруденция” (иктисодий хавфсизликни ҳуқуқий таъминлаш) бакалавриат таълим йўналишларида қуйидагича терминлар типологияси аниқланди:

божхонада ахборот технологиялари асослари;

жисмоний ва жанговар тайёргарлик;

ҳарбий тайёргарлик;

жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар;

молия;

бугалтерия ҳисоби ва аудит;

божхона менежменти;

товаршунослик;

божхона назорат техник воситалари;

божхона статистикаси ва тизимли таҳлил;

давлат ва ҳуқуқ назарияси;

халқаро божхона ҳуқуқи;

божхона органларининг ҳуқуқни

муҳофаза қилиш фаолияти;

ТИФни тартибга солиш асослари;

божхона назорати;

хавфни бошқариш тизими;

божхона ишида экспертиза;

божхона соҳасига оид маъмурий ҳуқуқбузарликлар ва жиноят ишлари бўйича иш юритиш;

божхона қиймати;

божхона тўловлари;

давлат ва ҳуқуқ назарияси;

фуқаролик ҳуқуқи;

жиноят ҳуқуқи [1, 2, 3, 4, 6, 7, 9, 10].

Бинобарин, инглиз тилида янги сўзлар ясалишида ҳам морфологик усулнинг маҳсулдор экани кузатилади. Инглиз тилида СБ терминологик бирликларининг ясалиш жараёни бошқа лексемалар каби тўртта асосий лингвистик усулга таянади:

1) морфологик усул;

2) синтактик усул;

3) семантик усул;

4) сўз ўзлаштириш усули.

Инглиз тилда СБ терминларининг тузилиши жиҳатидан қуйидаги турларга ажратилади:

- 1) якка компонентли терминлар;
- 2) қўшма сўз шаклидаги терминлар;
- 3) сўз бирикмали терминлар;
- 4) кўп компонентдан таркиб топган терминлар;
- 5) эргашган компонентли, кўп лексемадан таркиб топган (изофали) терминлар;
- 6) аббревиатура шаклидаги терминлар [5].

Морфологик усулда ясалган божхона соҳасига оид терминларда якка компонентли терминлар бўлиб, сўз таркиби (ўзак ва грамматик қўшимчалар)ни таҳлил қилиш имконини беради. Масалан, customs терминида custom – ўзак ҳисобланиб, s – эса кўплик қўшимчаси.

Синтактик усулда қўшма сўз шаклидаги терминлар, сўз бирикмали терминлар, кўп компонентдан таркиб топган тер-

минлар ҳамда эргашган компонентли, кўп лексемадан таркиб топган (изофали) терминлар ясалади. Масалан эргашган компонентли терминларга қуйидагиларни мисол қилиш мумкин:

broker's expenses – брокер харажатлари

additional expenses – тўлдирувчи харажатлар.

overhead expenses – наклад харажатлари.

transportation expenses – транспорт харажатлари.

Синтактик усулда қўшма сўз шаклидаги терминлар, сўз бирикмали терминлар, кўп компонентдан таркиб топган терминларда от+от, феъл+от, сифат+от, феъл+от+от, от-сифат-от, сифат-от-от сўз туркумланини кузатиш мумкин. Божхона асослари бўйича божхона соҳасига оид терминлар қуйидагилардан иборат (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

#### Божхона асослари бўйича божхона соҳасига оид терминлар

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	товарлар номенклатураси – nomenclature of goods, портал мониторлар - portal monitors, металлдетектор - metal detector, <b>божхона органлари</b> - customs authority, <b>божхона ҳудуди</b> - customs territory, <b>божхона чегараси</b> - customs border, <b>божхона назорати</b> - customs control, <b>божхона режими</b> - customs regime, <b>божхона мақсадлари</b> - customs aim, <b>божхона тартиб-таомили</b> - customs procedures, <b>божхона тўловлари</b> - customs payment, <b>валюта назорати</b> - currency control, <b>транспорт воситаси</b> - means of transport, <b>юк операциялари</b> - freight operations
V+N	кўрик ойналари - inspection windows, кўрик шурплари - inspection chips, кўрик эндоскопи - inspection endoscope, <b>божхона иши</b> - customs matter, <b>божхона расмийлаштируви</b> - customs clearance, <b>транспорт воситаси</b> , <b>товарни чиқариб юбориш</b> - release of goods
Adj+N	статистик номенклатура - statistical nomenclature, божхона экспертизаси - божхона экспертизаси, радиацивий пейжер - radiation pager, <b>божхона операцияси</b> - customs operations, <b>божхона брокери</b> - customs broker, <b>ваколатли шахс</b> - authorized person, <b>юримдик шахс</b> - legal entity, <b>жисмоний шахс</b> - natural entity, <b>товар туркуми</b> - category of goods
V+N+N	кўрик рентген қурилмалари - x-ray examination
N+Adj+N	<b>товарнинг ўзгармас ҳолати</b> - unchanged means of transport, <b>товарларнинг эркин муомаласи</b> - free circulation of goods,
Adj+N+N	<b>иқтисодий сиёсат чоралари</b> - measure of economic policy, <b>енигиб бўлмас куч таъсири</b> - invincible power effect

Божхона қиймати бўйича божхона соҳасига оид терминлар қуйидагилардан иборат (2-жадвалга қаранг):

2-жадвал.

### Божхона қиймати бўйича божхона соҳасига оид терминлар

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	бож тарифи - customs tariff, валюта назорати - customs control
Adj+N	божхона божи - customs duty, божхона қиймати - customs value
V+N+N	Божхона чегарасидан олиб ўтиш - crossing customs border
Adv+N	Чиқишга рухсат бериш - give permission to exit
Adj+V+V	Шартли чиқариб юбориш - conditional expulsion

Божхона таърифлари ва тўловлари бўйича божхона соҳасига оид терминлар қуйидагилардан иборат (3-жадвалга қаранг):

3-жадвал.

### Божхона таърифлари ва тўловлари бўйича божхона соҳасига оид терминлар

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	бож тарифи - customs tariff, божхона божи - customs duty
Adj+N	иқтисодий интеграция - economic integration, хос ставка - inherent rate, аралаш ставка - mixed rate, альтернатив ставка - alternative rate, комбинацион ставка - combined rate, акциз солиғи - excise tax, қўшилган қиймат - value added, божхона йиғими - customs fee, божхона қиймати - customs value, эгри солиқ - indirect tax, тўғри солиқ - direct tax, демпинг нархлар - dumping prices
N+Adj+N	бошқа мажбурий тўловлар - other obligatory payments
Adj+N+N	эркин савдо сиёсати - free trade policy, импорт божи - import customs duty, экспорт божи - export customs duty, мавсумий божлар - seasonal customs duty, антидемпинг божи - anti dumping customs duty, компенсация божи - compensation customs duty

Бухгалтерия ҳисоби бўйича божхона соҳасига оид терминлар қуйидагилардан иборат (4-жадвалга қаранг):

4-жадвал.

### Бухгалтерия ҳисоби бўйича божхона соҳасига оид терминлар

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	бухгалтерия баланси - balance sheet, саноат намуналари - industrial samples, хазина мажбурийатлари - treasury bills, депозит сертификатлари - certificates of deposit, устав капитали - authorized capital
Adj+N	оператив ҳисоб - operating account, сатистик ҳисоб - statistical accounting, айланма (жорий) активлар - current assets, жорий баланслар - present balance, брутто-баланс - rough balance, нетто-баланс - balanced trade, бош бухгалтер - chief accountant, ташкилий харажатлар - organizational expenses, дастлабки қиймат - initial value, реал

	инвестициялар - real investment, молиявий инвестициялар - financial investment, интеллектуал инвестициялар - intellectual investment, эҳтиёт қисмлар - spare parts, қурилиш материаллари - construction materials, инвентар ва хўжалик анжомлари - inventory and household appliances, бошқа материаллар - other goods, жўнатиш мол (товар)лар - goods (goods) shipped, бош корхона - main enterprise, камчилик фоизи - deficit percentage
Adj+N+N	ҳисоб варақлар тизими - system of accounts, икки ёқлама ёзув - double entry
Adj+Adj+N	узоқ муддатли активлар - long-term assets,
V+N	сотиш қиймати - cost of sale, тугатилиш қиймати - liquidation cost, қолдиқ қиймати - residual value
Adv+V+N	ўрнини қоплаш қиймати - cost of compensation, омбордаги маҳсулот - products in warehouse

5-жадвал.

**Давлат ва ҳуқуқ назарияси бўйича божхона соҳасига оид терминлар**

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
Adj+N	<b>маъмурий ҳуқуқ</b> - administrative law, <b>молия ҳуқуқи</b> - finance (financial) law, <b>ер ҳуқуқи</b> - land law, <b>қишлоқ хўжалик ҳуқуқи</b> - agricultural law, <b>меҳнат ҳуқуқи</b> - labor law, <b>фуқаролик ҳуқуқи</b> - civil law, <b>оила ҳуқуқи</b> - family law, <b>жиноят ҳуқуқи</b> - criminal law <b>ҳалқаро ҳуқуқ</b> - international law
Adj+Adj+N	<b>фуқаролик процессуал ҳуқуқи</b> - law of civil procedure

Менежмент асослари бўйича божхона соҳасига оид терминлар қуйидагилардан иборат (6-жадвалга қаранг):

6-жадвал.

**Менежмент асослари бўйича божхона соҳасига оид терминлар**

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	аккредитив - letter of credit, акциз - excise duty, бозор мувозанати - market equilibrium, бозор иқтисоди - market economy, бошқарув бўлими - management department, ташкилот вазифаси - duties of the organization, назорат вазифаси - control function, вексель бўйича қафиллик - bill of exchange
Adj+N	бошқарув вазифалари - management functions, мувофиқлаштирувчи вазифалари - duties of the coordinator, режалаштириш вазифалари - planning tasks бошқарув жараёни - management process, бошқарилиш меъёри - management standard, бошқарув савияси - management level, бошқарув тизими - control system
Adj+Adj+N	бошқарув классик мактаби - classical school of management

Ташқи иқтисодий фаолият давлат томонидан тартибга солиш бўйича божхона соҳасига оид терминлар қуйидагилардан иборат (7-жадвалга қаранг):



7-жадвал.

### Ташқи иқтисодий фаолият давлат томонидан тартибга солиш бўйича божхона соҳасига оид терминлар

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	божхона сиёсати - customs policy, божхонага оид юк - customs cargo, европа ҳамжамияти - european community, жаҳон баҳоси - world prices, пул эмиссияси - monetary issue
Adj+N	квота белгиланадиган товарлар - allocation goods, фьючерс битим - futures agreement
Adj+Adj+N	божхона юк декларацияси - customs cargo declaration (ccd), демпингга қарши бож - antidumping duty, ташқи савдо юклари - foreign trade cargoes, халқаро валюта фонди - international currency fund, қўшимча қиймат солиғи - tax of additional value

Товаршунослик бўйича божхона соҳасига оид терминлар куйидагилардан иборат (8-жадвалга қаранг):

8-жадвал.

### Товаршунослик бўйича божхона соҳасига оид терминлар

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	саноат ассортименти - industrial assortment, савдо ассортименти - trade assortment, савдо маркировкаси - trade mark, транспорт маркировкаси - transport mark, товар қадоғи - packing of goods
Adj+N	яширин товарлар - hidden goods, контрафакт товарлар - counterfeit goods, қатъий нархлар - fixed prices, ҳаракатдаги нархлар - current prices, сирпанувчи нархлар - slippery prices, келгусида қайд қилинувчи нархлар - upcoming prices, товаршунослик экспертизаси - commodity expertise, санитар-гигиеник экспертизаси - sanitary examination, ветеринар экспертизаси - veterinary examination, экологик экспертиза - environmental assessment, уруғли мевалар - seedy fruit, данакли мевалар - stone fruits, ёнғок мевалар - walnut fruit, субтропик мевалар - subtropical fruit, тропик мевалар - tropical fruits
Adj+N+N	товар гуруҳлари ассортименти - assortment of product groups, савдо корхонаси ассортименти - trading assortment of the enterprise, товар ассортиментининг хоссаси - product range characteristics
Adj+Adj+N	оддий ассортиментли товарлар - simple range of products, мураккаб ассортиментли товарлар - comprehensive range of products

Тўрт ва ундан ортиқ компонентли терминлар: ер ва табиат ресурсларидан фойдаланиш ҳуқуқи - right to use land and natural resources, узоқ муддатли молиявий инвестициялар - long term financial investment, қисқа муддатли молиявий инвестициялар - short term financial investment, сотиб олинadиган ярим тайёр маҳсулотлар ва бут-

ловчи қисмлар - purchased semi-finished products and components, бошқа томонга қайта ишлашга берилган материаллар - processing materials to the other side, маъсул саклашга қабул қилинган мол (товар)лар - goods (goods) accepted for storage, жиноят ижроия ҳуқуқи - criminal executive jurisdiction law, ташқи иқтисодий фаоли-

ятни тартибга солишнинг нотариф усуллари ташқи иқтисодий фаолиятни тартибга солишнинг нотариф усуллари - non tariff methods of regulation of foreign trade activities.

Солиқ ҳуқуқи – бу солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни белгилаш, жорий этиш, ҳисоблаб чиқариш, тўлаш ҳамда

солиқ мажбуриятларини бажариш билан боғлиқ бўлган ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи ҳуқуқий нормалар йиғиндисидан иборатдир [1; 36-б.]. Юридик божхона бўйича божхонага оид терминлар қуйидагилардан иборат (9-жадвалга қаранг):

9-жадвал.

### Юридик божхона бўйича божхонага оид терминлар

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	солиқ солинадиган база – <i>taxation base</i> , савдо фаолияти – <i>sales activities</i> , солиқ агентлари – <i>tax agents</i> , солиқ тўловчининг вакиллари – <i>taxpayer representatives</i> , солиқ ҳисоботи – <i>tax report</i> , товар обороти – <i>good exchange</i> , тўлов манбаи – <i>payment source</i> , асосий иш жойи – <i>main work</i> , божхона органлари – <i>customs authorities</i> , бюджетдан ажратиладиган субсидия – <i>budget subsi</i> , кредит ташкилотлари – <i>credit organizations</i> , курс бўйича фарқ – <i>rate difference</i> , солиқ сири – <i>secrets of tak</i> ,
N+V	ишларни (хизматларни) экспорт қилиш – <i>service exporting</i>
V+N	солиқ бўйича имтиёзлар – <i>taking grants</i> , солиқ солиш объекти – <i>taking object</i> , солиқ текшируви – <i>tak audits</i> , товарларни экспорт қилиш – <i>exporting goods</i> , ижара (лизинг) тўлови – <i>lizing fees</i> , ижарага берувчининг (лизинг берувчининг) фойзли даромади – <i>profit of renter</i> ,
N+N+N	солиқ тўловчининг идентификация рақами – <i>taxpayers identification code</i> , солиқ ҳуқуқий муносабатлари – <i>tax legal relations</i> , давлат солиқ хизмати органлари – <i>state tax authorities</i> , солиқ муносабатларининг субъектлари – <i>subjects of tax relations</i> ,
Adj+N	соф фойда – <i>pure profit</i> , умидсиз қарз – <i>nopelless debt</i> , фавқулодда ҳолатлар – <i>emergency sernces</i> , эгри солиқлар – <i>indirect tax</i> , юридик шахс – <i>legal person</i> , камерал назорат – <i>comerol control</i> , молия органлари – <i>financl authorities</i> , молиявий ижара – <i>financial lizing</i> , нотижорат ташкилотлари – <i>nonprofit organisations</i> , оператив ижара – <i>operative renting</i> , солиқ ҳуқуқи – <i>tax law</i> , солиқ даври – <i>tax peried</i> , солиқ қарзи – <i>tax debt</i> , солиққа оид ҳуқуқбузарлик – <i>tax offence</i> , солиқ мажбурияти – <i>tax abligation</i> , соф тушум – <i>pure income</i> ,
N+Adj+N	солиқ ҳуқуқи услуги – <i>the method of tax law</i> , солиқ ҳуқуқий нормалари – <i>tax legal norms</i> , солиқ ҳуқуқи предмети – <i>the object of tax law</i> , солиқ ҳуқуқи субъектлари – <i>the subjects of tax law</i> , солиқ ҳуқуқи тизими – <i>the system of tax law</i>
V+N+N	қайта солиқ солишнинг соддалаштирилган тартиби – <i>simplified erder of commitment</i> , ҳужжат билан тасдиқланган харажатлар – <i>expenses comfirmed by documents</i> , ишлашга берилган хом ашё ва материаллар – <i>recycled raw materials</i> , реализация қилганликни тасдиқловчи ҳужжатлар – <i>confirmation documents of realization</i>

Кўп компонентли терминлар: солиқ ва бошқа мажбурий тўловни ҳисоблаб чиқариш тартиби – the procedure for calculation of taxes and other obligatory payments, Ўзбекистон Республикаси солиқ тўловчиларининг ягона реэстри – single register of taxpayers of the Republic of Uzbekistan, Ўзбекистон Республикасининг резиденти – the resident of the Republic of Uzbekistan, товарларни (ишларни, хизмат-

ларни) реализация қилишдан олинган тушум – income from the realization of goods activities services, норезидентнинг Ўзбекистон Республикасидаги доимий муассасаси – permanent organization of non-residents of Uzbekistan Republic,

Аббревиатура шаклидаги божхона соҳасига оид терминларга қуйидагиларни мисол келтирамиз (10-жадвалга қаранг):

10-жадвал.

**Аббревиатура шаклидаги божхона соҳасига оид терминлар**

№	Группалар	Аббревиатура	Аббревиатура мазмуни
1.	Группа Е – Жўнатиш жойи (Departure)	EXW	Ex Works (жой кўрсатилган): маҳсулот сотувчининг омборидан фойдаланиш мумкин
2.	Группа F – Асосий ташиш учун тўланмайди (Main Carriage Unpaid)	FCA	Free Carrier (жой кўрсатилган): маҳсулот буюртмачининг ташувчисига етказиб берилади
		FAS	Free Alongside Ship (юклаш порти кўрсатилган): маҳсулот буюртмачи кемасига етказиб берилади
		FOB	Free On Board (юклаш порти кўрсатилган): маҳсулот буюртмачи кемасига юкланади
3.	Группа C – Асосий ташиш учун тўланган (Main Carriage Paid)	CFR	Cost and Freight (порт талаби кўрсатилган): маҳсулот мижознинг портига (туширмасдан) етказилади
		CIF	Cost, Insurance and Freight (порт талаби кўрсатилган): маҳсулот суғурта ва мижознинг портига етказиб берилади (тушириш ҳолда)
		CPT	Carriage Paid To (порт талаби кўрсатилган): маҳсулот мижознинг ташувчисига белгиланган портда етказиб берилади
		CIP	Carriage and Insurance Paid to (порт талаби кўрсатилган): товарлар суғурта қилиниб, белгиланган манзилда мижознинг ташувчисига етказилади
4.	Группа D – Етказиб бериш (Arrival)	DAF	Delivered At Frontier (жой кўрсатилган) – маҳсулот божхона расмийлаштирувисиз чегарага етказилади
		DES	Delivered Ex Ship (порт кўрсатилган) – товарлар божхона расмийлаштирувисиз кема орқали етказиб берилади
		DEQ	Delivered Ex Quay (порт кўрсатилган) – товарлар кема орқали етказиб берилади ва божхона расмийлаштирувисиз туширилади
		DDU	Delivered Duty Unpaid (жой талаби кўрсатилган) – маҳсулот буюртмачига етказиб берилади, буюртмачи бўйича божларни тўлаш
		DDP	Delivered Duty Paid (жой талаби кўрсатилган) – маҳсулот мижозга етказилади, божхона ва хатарлардан тозаланади

CCD – customs cargo declaration.  
 CVD – customs value declaration  
 Unified automated information system of  
 the State Customs Committee  
 GATT – General Agreement on Tariffs

and Trade [8].

Тадбиркорлик ҳуқуқий муносабатлар бўйича божхона соҳасига оид терминлар қуйидагилардан иборат (11-жадвалга қаранг):

11-жадвал.

**Тадбиркорлик ҳуқуқий муносабатлар бўйича божхона соҳасига терминлар**

Компонентлар	Божхона соҳасига оид терминлар
N+N	форс-мажор – <i>fors-major</i> , хўжалик ширкатлари ва жамиятлари – <i>farming companies</i> , шартнома шартлари – <i>the criteria of agreement</i> , яқка тартибдаги тадбиркорлик – <i>individual trading</i> , акциядорлик жамияти – <i>joint stock company</i> , банк маржаси – <i>margin of the bank</i> , бартер шартномаси – <i>barter agreement</i> , кредит ахбороти – <i>credit information</i> , кредит линияси (револьвер) – <i>credit league</i> , кредит сиёсати – <i>credit policy</i> , суд бошқарувчиси – <i>court ruler</i> , суд санацияси – <i>judicial rehabilitation</i> , тадбиркорлик шартномасининг предмети – <i>subject of entrepreneurship</i> , тадбиркорлик шартномасининг тарафлари – <i>the side of entrepreneurship</i> ,
Adj+N	тижорат банклари – <i>commercial banks</i> , микрокредит ташкилот – <i>microcredit organization</i> , оилавий корхона – <i>family business</i> , тадбиркорлик (бизнес) ҳуқуқи – <i>the law of entrepreneurship</i> , тадбиркорлик (бизнес) ҳуқуқи субъектлари – <i>business law</i> , тадбиркорлик фаолияти – <i>the activity of entrepreneurship</i> , тадбиркорлик шартномаси – <i>the kontrakt of entrepreneurship</i> , ташқи бошқарув – <i>external management</i> , тижоратчи бўлмаган ташкилот – <i>non-profit organization</i> , тижоратчи ташкилот – <i>badget organization</i> , хусусий корхона – <i>private company</i> , вақтинча олиб кириш (олиб чиқиш) – <i>temporary importation</i> , вақтинча сақлаш – <i>save time</i> , жамоат бирлашмаси – <i>public association</i> , ишлаб чиқариш кооперативи – <i>production cooperative</i> , келишув битими – <i>amicable agreement</i> ,
V+N	туғатишга доир иш юритиш – <i>equidation proceedings</i> , қайта молиялаш ставкаси – <i>refinancing rate</i> , судгача санация қилиш – <i>pre-trial rehabilitation</i> ,
N+N+N	божхона омбори – <i>customs ware house</i>
Adj+N+N	халқаро савдо палатаси – <i>international chamber of commerce</i>
V+Adj+N	божхона ҳудудидан қайта ишлаш – <i>reworking on custom house</i> , бож олинмайдиган савдо дўкони – <i>duty free shop</i> ,
Adj+Adj+N	масъулияти чекланган жамият – <i>limited liability company</i> , қўшимча масъулиятли жамият – <i>a fully fledged community</i> ,
N+Adj+N	банкротлик (иктисодий ночорлик) – <i>bankruptcy economic insecurity</i>

Кўп компонентли терминлар: ташқи иқтисодий фаолиятининг товар номенклатураси – *goods nomenclature of foreign trade*, божхона ҳудудидан ташқарида қайта ишлаш – *reworking outside of custom house area*, эркин божхона зонаси ва эркин омбор – *free custom zone and empty storehouse*, реал вақтда ишлайдиган ташқи савдо операцияларининг ягона электрон

ахборот тизими – *Valid system of foreign trade operations*.

Хулоса қилиб айтганда, божхона соҳасига оид терминлар божхона иши, божхона назорати божхона менежменти, товаршунослик, халқаро божхона ҳуқуқи, божхона юриспруденция, божхона статистикаси бўйича ўзига хос хусусиятлари ўрганилди. Инглиз тилида божхонага оид



## YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASI MAHMUDXO'JA BEHBUDIY NIGOHIDA

MIZROYEVA NIGORA SHAVKATJONOVNA

O'zbekiston- Finlandiy pedagogika instituti Pedagogika kafedrası assistenti

HAKIMOVA MARJONA ISKANDARZODA

O'zbekiston- Finlandiy pedagogika instituti talabasi

**Annatsiya:** Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlar masalasidagi dolzarb mavzulari, jumladan yoshlarning ilm olishlari, kasb-hunar o'rganishlari, xorijiy tillarni o'zlashtirishlari, yoshlar bilimsizligi kelajakning bilimsizligi demakdur, ilm-bilim barcha qulflarning kaliti, ota-onalarning farzandlari kelajagi uchun qayg'urish lozimligi kabi mavzular yuzasidan bildirilgan fikrlari, qarashi, munosabati haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'slar:** yoshlar, ta'lim, tarbiya, kasb-hunar, xorijiy tillar, porloq kelajak, teatr, dramaturgiya, ma'naviyat, madaniyat, milliy tarbiya, Vatan.

**Аннотация:** В этой статье рассмотрены актуальные темы, которые были подняты Махмудходжой Бехбуди. А именно об образовании и воспитании молодежи, об овладении профессией молодежи, о последствиях невежества молодежи, о том, что ключом всех проблем является просвещение и об интересах родителей в образовании молодежи

**Ключевые слова:** молодежь, образование, воспитание, профессия, иностранные языки, светлое будущее, театр, драматургия, духовность, культура, национальное образование, Родина.

Ta'rixga nazar solib qarasak, har qanday mashaqatli davru zamonda ham yoshlar ta'lim-tarbiyasi olimu fozillarning e'tiboridan chettda qolmagan. Zero olimlar millat va mamlakatning kelajak poydevori yosh avlod qo'lida ekanligini hanuz yaxshi anglab bu yo'lda o'zlarining bilimlari va mehnatlarini ayamaganlar. Mana shunday jonkuyar buyuklarimizdan biri Turkiston jadidchilik harakatining yo'l boshchisi, yoshlarning fidoiy muallimi hisoblanmish Mahmudxo'ja Behbudiydir. To'g'ri Behbudiy faqat yosh avlodni bilimli qilish yo'lida harakatlarini olib bormagan, balki uning maqsadi butun millatni, jumla Turkiston xalqini "g'aflat uyqu"sidan ilm va bilim ila uyg'otmoq edi, ammo baribir yoshlar masalasiga alohida e'tibor bergan. Yoshlarning qanday kamol topishida esa albatta ota-onalarning roli katta edi. Behbudiy nazarida tarbiyali, saviyali bilimli, dunyo qarashi keng farzandni tarbiyalash uchun avallo ota-onaning o'zi ham mana shu ta'riflarga loiq bo'lmog'i lozim deb hisoblangan. Boisi

farzandlarning kelajakda qanday bo'lib voyaga yetishlari aksariyat holatda ota-onaning qanday tarbiyalab hayotga yo'naltirganiga bog'liq. Mahmudxo'ja Behbudiyning xalqiga ko'p bora murojaat qilib ma'rifat yo'lini tanlang, ma'rifat yorug'likka eltuvchidir mazmunidagi aytgan fikrlari yoshu qariga birdek zarur edi. Yoshlar ta'lim-tarbiya tizimini tupdan isloh qilish maqsadida Behbudiy yangi usul maktablarining ochish yo'li ila ko'p zahmat chekdi va oxir-oqibat maqsadiga erishdi. Ba'zi tadqiqotlarning keltirishicha Mahmudxo'janing yangi jadid maktablarini ochishdagi rejasi uning Ismoil Gaspirali bilan tanishuvidan so'ng yanada mustahkamlanganligini ta'kidlaydi. XIX asrning 80-yillarida Sharqda Ismoil Gasprali nomi bilan mashhur bo'lgan Rossiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gaspirinskiy ilk bor yangi usul maktablarini ochish g'oyasi bilan chiqdi. Qrimning Bog'chasaroy shahridan bo'lgan I. Gaspirinskiy o'sha yillarda faylasuf, pedagog va tarjimon sifatida mashhur edi. Taxmin qilish mumkinki, yosh Mahmudxo'ja

dunyoqarashining shakllanishida Rossiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspralining xizmati katta bo'lgan [Mahmudxo'ja behbudiy tanlangan asarlar 7 b]. Behbudiy Gaspralini ustoz qolaversa eng yaqin do'stlaridan bilardi. Bu ikkala shaxsiyatlar ta'lim sohasini rivojlantirishda birgalikda kurashgan, o'z g'oyalari va maqsadlari bilan har doim o'rtoqlashgan, ko'plab yoshlarni bilim bilan o'rtoqlashishiga sabab bo'lgan yo'li va maqsadi bir pedagoglar edi. Ta'lim sohasi musulmon dunyosini birlashtirish va modernizatsiya qilish dasturini amalga oshirish mumkin bo'lgan eng muhim soha hisoblangan. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning maslakdoshlari tashabbusi ila ilk bor Samarqandda 1903-yil yangi (usuli jadid) maktablari ochiladi, keyinchalik esa bu kabi maktablarning soni Turkiston shaharlarida oshib boraveradi. Uning barcha zahmat va harakati yosh avlodni har tomonlama bilimli, saviyali bo'lib voyaga yetishligi, ularga kerakli bo'lgan o'sha davrdagi zamonaviy bilimlarni o'qitish muhimligi hamda boshqa mamlakatlar yoshlari bilan bemalol ilm yo'lida teng kurashsa oladigan navqiron yoshlarni kamolga yetkazish edi. Behbudiyning g'oyalari maktablar orqali milliy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Garchi yangi maktablar ochilganining ilk davrlarida aholining ba'zi qatlami to'g'ri tushunmasdan go'yoki diniy bilimlardan butunlay voz kechishlik bu deb, ijobiy fikrda bo'lmagan bo'lsada, keyinchalik jadidlarning maqsadini tushuna yetadilar. Aslida ham jadidlar o'qitishning yangi usullarini qo'llash orqali ta'lim jarayonini yanada samaraliroq qilish hamda musulmon maktablarida musulmon ma'naviyatiga zarar keltirmaydigan fanlarni joriy etish va shu orqali bilim samaradorligini oshirish harakatida zahmat chekardi. Yangi jadid maktablarining ketma-ket ochilishi ham shunga yarasha talab borligidan dalolat berardi. Bu maktablar islom dini qadriyatlarini yuksak saviyada saqlab,

o'quv dasturiga dunyoviy fanlarni joriy etish, shu yo'l bilan bolalarni yuksak bilimlar asosida va milliy g'oyalar ruhida tarbiyalashni boshlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan edi. Pedagoglar va jadidchilik harakati a'zolari S. Ayniy, A. Donish, M. Behbudiy, A. Shakuriy, I. Ibrat, F. Xo'jayev, A. Fitrat, M. Saidjonov, A. Qodiriy, M. Abdurashidxonov, Ajziy va boshqalar innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash payida edilar. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning hamfikrlari yoshlarni har tomonlama barkamollikka eltashda maktab ta'limini isloh qilishdan boshlashdi. Ushbu yangi usuldagi maktablarda zamonaviy bilimlar berish, til o'rgatish, hamda diniy bilimlarni to'g'ri targ'ibi ila o'rgatmoqlik asosiy maqsad qilib olingan edi. Behbudiyning bu kabi maqsadlarini uning maqolalarida, yozilgan fikrlaridan ham anglash mumkin: "... Zamona ilmi va fanidan bebehra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur" ["Samarqand" gazetasi 1913-yil 12-iyul]. "Millatlar taraqqiyiga bir necha sabablar bo'lib, tub sababi ulamo ila agniyoning hamiyat va g'ayratlaridur" ["Samarqand" gazetasi 1913-yil 30-iyul] "... Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib-taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi dur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiyisini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hozirdan mahrum qolub, sanoe' va maorif salohi ila qurollanmagn millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas. "Muborizai hayot" maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zlarining asiri bo'lur..." ["Oyna" jurnali, 1914-yil, 41-son, 970-972 betlar] Shunday qilib, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xujand, Farg'ona kabi qator shaharlarda bir qancha zamonaviy uslubdagi maktablar ochildi, islom dini qadriyatlari bilan bir qatorda boshqa dunyoviy bilimlardan ham darslar yo'lga qo'yildi. Shu o'rinda tadqiqotchi

D.A. Alimovning soʻzlarini keltirish oʻrinlidir. Zamonaviylik hodisasi nima degan savolga u shunday javob berdi: “Zamonaviylik hodisasi, eng avvalo, yuksak darajada rivojlangan aql-zakovat Sharq va Yevropa madaniyatini maʼlum darajada bilishdir” [Махмудходжа Бехбудий и его исторические возрения]. Zamonaviy maktablarni zamonaviy bilimlar bilan boyitish, yangi adabiyotlar bilan taʼminlash ham juda katta masʼuliyatni tlab etgan bir davrd Mahmudxoʻja Behbudiy mana shu masʼuliyatni oʻz zimmasiga olib yangi darsliklar, ni yaratish payiga tushdi. Nihoyat birin- ketin “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish”1904), “Risolai jugʻrofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”1905), “Muntaxabi jugʻrogiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”,1906), “Kitobat ul- atfol” (“Bolalar xati” 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblarni chop etib oʻquvchilarga taqdim etdi. Bu kabi taʼlim sohasidagi islohotlardan soʻng xalq etnik madaniyatning yuksalishi, savodxonlikning kengayishi, xalqlar hayotida taʼlim va tarbiyaning yangi usuli orqali oʻrin olgan oʻzgarishlar, savodxonlar sonining koʻpayishiga, pedagogik kadrlar shakllanishiga olib keldi. Tarixda pedagogik gʻoyalarning paydo boʻlishi va shakllanishi uzoq davrni qamrab olgan boʻlib, bosqich mabosqich rivojlanib kelinmoqda. Jadidlarning gʻoyalari ostida ochilgan oʻz davrining zamonaviy uslubdagi maktablarning yetakchi gʻoyalari hozirgi zamonda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Jumladan yangi usuldagi jadid maktablarida til oʻrganishni asosiy masalalardan biri deb olingan boʻlsa bugungi kunda ham yoshlarimizning til bilish darajasi yoki til oʻrganishiga aholida eʼtibor berilib kerakli sharoitlar yaratib berilmoqda. Mahmudxoʻja Behbudiy oʻsha davrda bir emas toʻrtta til bilishlikni tavsiya etib, kelajakda xalqlar va mamlakatlar oʻrtasidagi aloqalarda taraqqiyot eshigini ochish va zamonaviy bilimlarni

oʻrganishda til bilishlikni juda muhim ekanligini taʼkidlagan. Boisi dunyo tillarini bilishlik dunyo bilimlaridan, jahon allomalarning asarlaridan, yangiliklaridan xabardor boʻlishlikdir deb “Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bolur” [Samarqand gazetasi 1913-yil, 12-iyul], kabi fikrlarini taʼkidlaydi. Behbudiyning yoshlarga qilgan murojaatlari uning maqolalari orqali keng ommaga yetkazilar edi. Shu bilan birgalikda ota-onalarga ham eng samarali sarmoya farzandlaringizning ilm olish yoʻlidagi qilingan sarmoyadir mazmunidagi pozitsiyalarini publisistik maqolalari orqali xalqqa yetkazmoqchi boʻlard. Qilinayotgan behuda sarfu xarajotlarga, jumladan toʻyu marakalarga ketkazadigan mablagʻlar, beʼmani urfu odatlarni chiqarish oqibatida yillar davomida qora mehnat ortida misqolab jamlagan mablagʻlarini bir yoki ikki kunda havoda sovurish kabi beʼmanilikka chek qoʻyish vaqti keldi, undan koʻra farzandlarning kelajagi, bilim olishlari, kasb-hunar oʻrganishlari, qolaversa dunyo tillarini oʻrgatib, taraqqiy etgan mamlakatlarning oliy dargohlarida bilim olishlikka chorlab fazl ahlidan boʻlib, oʻz diyorining, xalqining kelajagi uchun xizmat qilishlikka nima yetsin..., mazmunidagi fikrlarini jon kuydirib, bong urub oʻz chiqishlarida, xalq bilan muloqotda, qolaversa OAV orqali, yaʼni gazeta va jurnallar vositasi ila tushuntirishga harakat qilardi. Chunonchi: “Hamvatanlarimiz mulkini sotib toʻy qilganidek siz-da, hatto, lozim boʻlganda mulkingizni sotsangizda oʻgʻlingizni zamoncha oʻqimogʻiga saʼy qilsangiz. Toʻyga isrof qilinaturgon oqchalarni oʻqimoq yoʻligʻa sarf qilsangiz [“Oyna” jurnali, 1914-yil, 21-son, 390-391-betlar]! Buni qarangki asrlar oshgan boʻlsada bu mavzular eskirmagan va Behbudiyning fikrlari ham oʻz qadru qummatini yuqotmagan. Bugungi XXI-asr texnika va texnologiya taraqqiyoti asriga ham til oʻrganish masalasi, yoshlarni kasb-hunarga oʻrgatish,



mehnat bandligini ta'minlash, zamonaviy bilimlarni samarali yo'llar ila o'rgatib, dunyo talablariga javob beradigan kadrlarni yetkazib berish ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ham jamiyatimizning illatlariga aylanib borayotgan to'yu marakalarni haddan tashqari turli begona odatlardan "boyitib" dabdabali o'tkazilishini ham oldini olishlik aholi yashash tarzida ham bir muncha ijobiy ta'sir ko'rsatsa ajab emas. Chunki hammaning yayash tarzi va sharoiti turlichadur.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek drammaturgiya sohasiga asos solgan shaxs sifatida o'zining ilk drammativiy asari "Padarkush" da ham bilimsizlikning oqibati, otionalarning farzand tarbiyasiga befarqligining ortidan keladigan ko'ngilsizliklar haqida sodda tilda xalqqa tushuntirmoqchi bo'ldi. Padarkush mavzusining o'sha davrda xalq tomonidan juda

iliq qabul qilinishi va bugungi kunda ham o'z qiymatini yuqotmaganligi ta'lim-tarbiya, bilim va kasb-hunar o'rganishlik har qanday davru zamonda dolzarb mavzu va masalalardan ekanligini isbotlaydi. Bugun hukumatimiz tomonidan yoshlar masalasi, yoshlarga e'tibor, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olishlik kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilib, imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning barchasi mamlakatimizning kelajagi, qolaversa xalqimizning farovon yashshi uchun qilinayotgan sa'yu harakatlardir. Yoshlar masalasi har qanday davru zamonda dolzarb masalalardan biri bo'lganligi barchamizga ma'lum. Zero mamlakat kelajagi yoshlar qo'lida. Shunday ekan har birimiz yoshlar tarbiyasiga, bilimli, saviyali va dunyo yoshlari bilan sog'lom raqobat qila olishliklari uchun mas'ulmiz.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudiy (Tanlangan asarlar). – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
3. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi Markazi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.
5. «Oyna» jurnali, 1914 -yil, 29-son, 550-553-betlar.
6. Пясковский А. Революция 1905-1907 годов в Ташкенте. М., 1958
7. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004.
8. Д. Алимова, Д. Рашидова. Махмудходжа Бехбудий и его исторические возрения. Т. , «Маънавият», 1998.

## BAHOLASH BO‘YICHA XALQARO TADQIQOTLAR VA XORIJIY TAJRIBA.

**YODGOR TURGANOV**  
Jizzax DPU o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** В данной статье представлена информация о проводимой в нашей стране работе по реформированию системы образования, о международных исследованиях и богатом опыте ведущих стран в области образования.

**Ключевые слова.** Образование, оценка, компетентность, оценочная компетентность, образовательная парадигма, диапазон, качество, стандарт.

**Annotation.** This article provides information about the ongoing work in our country to reform the education system, international research and the rich experience of leading countries in the field of education.

**Keywords.** Education, assessment, competence, evaluative competence, educational paradigm, range, quality, standard.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ 4623-son Qarorida «mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish, yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmalarga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash»<sup>1</sup> kabi ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor

yo‘nalishlari belgilab berildi.

Ushbu ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ta’lim sifatini, o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari, bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetensiyalarini baholash borasida ilg‘or xorijiy tajribalar va xalqaro tendensiyalar bilan yaqindan tanishtirish, ularning baholash kompetensiyalarini takomillashtirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim, jumladan, boshlang‘ich ta’lim sifatini baholash orqali yoshlarga sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etish, ularda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish borasida bugun dunyoning yetakchi mamlakatlarida ustuvorlik berilayotgan xalqaro qiyosiy tadqiqotlar mohiyati va ahamiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Bunday tadqiqotlarga, asosan, quyidagilarni keltirish mumkin: PISA – (Programme for international student

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ 4623-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020 y., 07/20/4623/0220-son, 13.06.2020 y., 07/20/4749/0758-son)

assessment) o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur, PIRLS – (Progress in international reading literacy study) matnini o'qish va tushunish bo'yicha xalqaro loyiha. Unda 4-sinf o'quvchilari ishtirok etadi. IEA (o'quv yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro assosiasiya tomonidan o'tkaziladi).

TIMSS – (Trends in mathematics and science study)–4,8,11-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim sifatini monitoring qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot. IEA tomonidan tashkil etiladi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim sifatini jahon miqyosida tan olinishida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot va loyihalar samarali instrumentlardan biridir. Ular ta'lim standartlari, eng yaxshi ta'lim tizimlari misolida ta'lim samaradorligi haqida hamda ularning xizmatlaridan foydalanishning barcha uchun teng va aniqligi haqida ma'lumot beradi; ta'lim sifati sohasida yetakchi mamlakatlarda o'xshash muammolar qanday o'z yechimini topayotganligi, maqsad va vazifalar qanday qo'yilayotganligini tushunib olishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning har biri ikkita asosiy vazifani bajaradi:

1) ishtirokchi-mamlakatlarda ta'lim ahvolini o'rganish asosida dunyoda ta'lim rivojlanishining tendensiyalarini aniqlash;

2) ishtirokchi-mamlakatlarda o'quvchilarning umumta'lim tayyorgarligini baholash va ta'lim natijalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda dunyo ta'lim tizimlariga xos bo'lgan yetakchi tendensiyalar asosida yaratilgan zamonaviy ta'lim paradigmalari va konsepsiyalari o'z ifodasini topadi. Jumladan, bugungi kunda

umumta'lim maktablari o'quvchilarini turli xil madaniyat va millat vakillari bilan birga yashash va ishlash, boshqa g'oyalar va ehtiyojlarni qadrlash; bir biriga ishonch va hamkorlik qilish; milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi muammolarni hal qilishga o'rgatishi zarur.

Bugun maktablar iqtisodiy va ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga tayyorlashi, hali yaratilmagan ish joylarida mehnat qilishga, ixtiro etilmagan texnologiyalardan foydalanishga, kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal qilishga o'quvchilarni tayyorlashi kerak. Rivojlangan davlatlar ta'limida bugun tafakkur ko'nikmalaridan foydalanishga, ijodiy faoliyat va tanqidiy tahlil, muammolarni yecha olish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. O'quvchilarda jamoada yashash va mehnat qilishga yordam beruvchi ijtimoiy va emosional malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotimizda PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilari yuqori natijalarni ko'rsatib kelayotgan Buyuk Britaniya, Kanada, Finlyandiya, AQSH, Rossiya kabi mamlakatlarda ta'lim sifatini baholash borasidagi tajribalarini yoritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ko'rsatib o'tilgan mamlakatlar ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili har bir darajada ta'lim sifatini baholash sohasidagi islohotlarga zarur yo'nalish beruvchi uchta asosiy tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi: yangi avlod standartlarini yaratish (ochiq ta'lim natijalari va ularning predmetlar bo'yicha aniqlashtirilishi: sifat va son darajalari;

standartlarning operatsional xususiyatlari: predmetli ko'nikmalar baholash parametrlari sifatida); ta'lim sifatini baholash insruimentlari va texnologiyalarini ishlab chiqish; boshqaruvchi tuzilmalarga ta'lim sifatini baholash natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish va zarur hollarda tegishli tuzatishlar kiritish imkoniyatini beruvchi teskari aloqa tuzilmasini yaratish [7].

Xorijiy mamlakatlarda standartlar quyidagi maqsadlarda ishlab chiqiladi: o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ta'lim mazmunini aniqlash; mamlakatda ta'lim darajasini ko'tarish va takomillashtirish; o'quvchilar yutuqlarini o'lchash va baholash asoslarini yaratish; o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning ota-onalarini hamda jamoatchilikni o'quvchilar yutuqlariga nisbatan kutganliklari to'g'risida habardor qilish.

PIRLS baholash dasturida o'quvchilar o'qish savodxonligining uch jihatini tahlil qilinadi: o'qish maqsadlari; tushunish jaraenlari; o'qishga munosabat [9].

2001 yilda tashkil etilgan tadqiqotda 35 davlat, 2006 yildagi tadqiqotda 40 davlatdan 215 ming o'quvchi, 2011 yilda 45 davlatdan 325 ming o'quvchi ishtirok etgan. Mazkur tadqiqotlarda Gonkong, Finlyandiya va Singapur davlatining 4-sinf o'quvchilari eng yuqori natijalarni qayd etganlar.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha baholash xalqaro tadqiqot TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) dasturi o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash halqaro Assosiasiyasi IEA tomonidan tashkil etiladi. Mazkur tadqiqot dunyoning turli mamlakatlarida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf bosqichi yakunida 4-sinflari hamda

umumiy o'rta ta'limning yakuni sifatida 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quv yutuqlarini baholash va taqqoslash bilan birgalikda ta'lim tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari va farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilib kelinmoqda.

Mazkur xalqaro baholash tadqiqotlarida tizimli ravishda Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Yaponiya, Finlandiya, Gonkong va Angliya eng yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini baholash milliy tizimini yaratishda dunyoning rivojlangan davlatlaridan AQSH va Rossiya Federasiyasi tajribalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Amerika qo'shma shtatlarida 1969 yildan buyon maxsus dastur NAEP (ta'lim tarqqiyotini baholash milliy tizimi) asosida o'quvchilarning o'quv yutuqlari baholanib, yosh va sinflar bo'yicha o'zgarishlar monitoring qilib kelinmoqda. 4, 8, 12-sinf o'quvchilari matematika, o'qish va boshqa fanlar bo'yicha har ikki yilda bir marta baholanadi. Keyingi yillarda matematika, o'qish, tabiiy fanlar, yozma nutq, san'at, fuqarolik asoslari, iqtisodiyot, geografiya va Amerika tarixi hamda chet tili va jahon tarixi kabi fanlardan baholash jarayoni amalga oshiriladi. O'quvchilarning demografik xususiyatlari, ta'lim jarayonining qo'llab-quvvatlanishi, o'quv metodlari kabi omillar o'qituvchilar va o'quvchilardan olinadigan so'rovnomalar asosida aniqlanadi.

Rossiya milliy ta'lim siyosatining ustuvor tendensiyalaridan biri ta'lim sifatini baholashning umumrossiya milliy tizimini yaratish bo'lib, asosiy maqsadi Rossiya Federasiyasida ta'lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarini va keng jamo-

atchilikni turli darajalarda ta'lim tizimining ahvoli to'g'risida obyektiv axborot bilan ta'minlashdan iborat.

Rossiyada o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash quyidagilar asosida amalga oshirilmoqda: o'rta maktab bitiruvchilari uchun yagona davlat imtihoni o'tkazish orqali; asosiy o'rta maktab bitiruvchilaridan yakuniy davlat attestasiya olish orqali; xalqaro qiyosiy tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS va h.k.) orqali; federal va mintaqaviy darajadagi monitoring tadqiqotlari orqali; ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash orqali; mamlakatning alohida ilmiy jamoa va tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan loyihaviy tadqiqotlar orqali; maktab va sinf darajasida o'tkaziladigan o'quvchilarning oraliq attestasiyalari orqali.

Bo'lajak o'qituvchilarni baholash kompetensiyasini takomillashtirishda Finlandiya tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Birlashgan millatlar tashkilotining xalqaro tadqiqotlarida qayd etilishicha, Finlyandiya keyingi yillarda bir tomondan global iqtisodiyotga jadal integratsiyalashuv sodir bo'layotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, u Yevropa institutlarining teng huquqli a'zosi sifatida o'z madaniyati, tili va milliy o'zligini namoyon qilib kelmoqda. 2006 yildagi PISA xalqaro tadqiqoti natijalariga ko'ra Finlyandiya tabiiy fanlar bo'yicha birinchi o'rinni, matematika hamda o'qish savodxonligi bo'yicha ikkinchi o'rinni egallagan [34; 3 b.].

Tadqiqotda ta'kidlanishicha, Finlyandiya maktab ta'limining maqsadi uzoq yillar davomida bola shaxsini rivojlantirish, iqtidorini yuzaga chiqarish hamda jamiyatga foyda keltirishga intiluvchan fuqaroni tarbiyalashdan iborat. Finlyandiya tajribasining ko'rsatishicha,

ta'lim muassasalari, o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyati natijalarini baholash tizimining mavjudligi ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Finlyandiya maktablarida baholashning asosan ikki xil shakli-tashqi va ichki baholashlardan foydalaniladi. Tashqi baholashning maqsadi –maktablar amaliyotida ta'lim to'g'risidagi qonunning bajarilishini nazorat qilish hamda ta'lim olish uchun shart-sharoitlarni yaxshilashdan iborat. Tashqi baholash umuman ta'lim tizimining rivojlanishi va ta'lim muassasalarining faoliyati, ularning samaradorligi, iqtisodiyoti to'g'risida turli xil ma'lumotlarni to'plash orqali ta'lim jarayonining ayrim jihatlari to'g'risida ma'lumot olishga qaratilgan (ta'limga bo'lgan ehtiyoj va talab, maktabning turli darajalarida o'quvchilarning ro'y-xatga olinishi va miqdoriy tarkibi; maktab tizimining va uning alohida qismlarining tuzilishi va faoliyati; ta'lim sifati va mavjud vositalar o'rtasidagi bog'liqlik; ta'lim sohasidagi siyosiy qarorlar; ta'lim va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar; o'quv dasturlari va o'quv kurslari; ta'lim yutuqlari va boshqalar).

Baholashni tashkil etish tamoyillari: oldindan ma'lum bo'lgan baholash mezonlari (o'qituvchilar va talabalar), baholash jarayoni haqida olingan natijalar; keng jamoatchilikka baholash natijalari, ishlatiladigan usullar va materiallarni ko'rish imkoniyati.

Baholash mazmuni: ta'lim muassasasi, o'qituvchi, o'quvchi faoliyatini baholash; maktab o'quvchilarining natijalarini baholash; umuman ta'lim tizimining rivojlanishi haqida ma'lumot olish; shaxs haqida ma'lumot olish.

Baholash usullari: so'rovnomalar,

ma'muriyat, o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar intervyulari; olingan ma'lumotlarni tasniflash, tizimlashtirish; natijalarni statistik qayta ishlash usullari; xalqaro darajadagi natijalarni taqqoslash; tahliliy sharhlar; ichki so'rovnomalarni to'ldirish, intervyu berish, o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar bilan suhbat, milliy darajada natijalarni taqqoslash.

Finlyandiya maktabining ta'lim konsepsiyasi o'quvchiga quyidagi fazilatlarni rivojlantirish uchun maqsadlarni

qo'yanligini bilan ahamiyatlidir: halol va ishonchli bo'lish; boshqalarni hurmat qilish; har kimning huquqlarini hurmat qilish; adolatli bo'lish; hamkorlik qilish va mas'uliyatli bo'lish; tinch ish ritmini saqlash; ish muhiti va hayoti uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish; maktab ishining barcha vazifalarini ongli ravishda qabul qilish; maktab darslariga muntazam qatnashish; maktab jamoasining barcha a'zolari xavfsizligini saqlab qolish.

### O'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash borasida Finlyandiya tajribasi

Boshlang'ich ta'lim misolida	
Baholash funksiyalari	Rivojlantiruvchi funksiya - bu bolaning kuchli tomonlarini ta'kidlash, o'quvchini rag'batlan-tirish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.
Baholash maqsadi	O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash. Ularning bilimlari va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish orqali bolaning "ijobiy imidjini" shakllantirish.
Baholash turlari	1 - sinfdan boshlab maktabdagi kundalik ishlarning bir qismi sifatida o'quvchining faoliyatini baholash o'z-o'zini baholash orqali amalga oshiriladi; o'qituvchilar tomonidan akademik yutuqlarni baholash; o'quvchilar hatti-harakatlarini baholash; o'quvchi tomonidan bajarilgan ish natijalarini baholash.
Baholash mezonlari	Mezonlar har bir fan uchun o'quv rejasida shakllantiriladi. Asosiy prinsip - o'quvchiga va uning ota-onasiga o'quvchining kuchli tomonlari va imkoniyatlarini, muammolarni tushuntirish, o'quvchi ko'proq harakat qilishi kerak bo'lgan jihatlarni ochiqlash.
Baholash shakllari	1. O'qituvchi tomonidan talabaning turli yutuqlarini og'zaki shaklda doimiy baholash. 2. Kundalik maktab ishining bir qismi sifatida talabalarning o'z faoliyatini o'z-o'zini baholashi
Baholash muddatlari	Baholash mezonlari, turlari va usullari o'quv davrining boshida talaba va ota-onalarga tushuntiriladi. Talaba oraliq baholash natijalarini kuzgi semestrndan so'ng, yanvar oyi oxirida oladi. O'quv yili oxirida yakuniy byulleten beriladi.
Natijalarni ro'yxatga olish	Talabalar daftarlariga og'zaki shaklda yoki ramzlar shaklida yozuvlar. Kirish yozuvlari.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining baholash kompetensiyasini takomillashtirish borasida o'qituvchilar kompetensiyasini baholashga qaratilgan

xalqaro qiyosiy tadqiqotlarning ahamiyati to'g'risida alohida to'xtalib o'tish zarur.

Avstraliya, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH, Germaniya kabi mamlakatlarda



# OLIV O'QUV YURLARIDA VIRTUAL LABORATORIALAR VOSITASIDA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

YALGASHEV UMIDJON MELIBAY O'G'LI

Guliston davlat universiteti Axborot texnologiyalari va fizika-matematika  
fakulteti Fizika kafedra erkin tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fizika fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish hamda uning afzalliklari haqida fikr va mulohazalar bildiriladi hamda Oliy o'quv yurtlarida virtual laboratoriyalar vositasida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** fizika, virtual laboratoriya, real sektor, kasbiy tayyorgarlik, xarakter xususiyatlari, qobiliyat, temperament, motivatsiya, faoliyat mohiyati, motivatsiyali, axborot, operatsion, komponent.

**Аннотация:** В данной статье представлены мнения и комментарии об использовании виртуальных лабораторий при обучении физике и ее преимуществах, а также о содержании развивающей профессиональной подготовки студентов с помощью виртуальных лабораторий в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** физика, виртуальная лаборатория, реальный сектор, профессиональная подготовка, черты характера, способности, темперамент, мотивация, сущность деятельности, мотивационная, информационная, оперативная, составляющая.

**Annotation:** This article presents opinions and comments on the use of virtual laboratories in teaching physics and its advantages, as well as on the content of developing professional training for students using virtual laboratories in higher education institutions.

**Key words:** physics, virtual laboratory, real sector, professional training, character traits, abilities, temperament, motivation, essence of activity, motivational, informational, operational, component

Kirish.

Jamiyatning ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda kadrlar va ularning kasbiy malakalari darajasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, malakali kadrlar yordamida turli soha va yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligiga erishiladi, shuningdek, yangidan yangi yutuqlar qo'lga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev malakali mutaxassislarining zahirasi sifatida yoshlarning salohiyatiga katta baho berar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi" [1]. Ayni o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakat

yoshlarining kamolotini ta'minlash, ularni har tomonlama kamol toptirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beradi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son Farmonida kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Ushbu yo'nalishlar sirasida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish, yuksak ma'naviy-axloqiy



fazilatlariga ega, bilimli hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash; mutaxassislar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuni va darajasini davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablariga muvofiqligini ta'minlash; o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublarini joriy etishni, shuningdek, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish; ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish; yoshlarni, mustaqillik g'oyalari sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil etish; oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash; ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflaridan hamda xorijiy tajribadan kelib chiqib, shuningdek iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda kasb-hunar kollejarida mehnat bozorida talab etiladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqilishini tashkil etish [1] kabilar alohida o'rin tutgan. Mazkur yo'nalishlarda belgilangan vazifalarning samarali bajarilishi oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'sib kelayotgan avlodni muayyan kasb yoki hunarga yo'naltirish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, mazkur masala davlat siyosati darajasida hal etila boshlandi. Xususan, kadrlar tayyorlash tizimining muhim bo'g'ini sifatida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining yangilanishini yo'lga qo'yilishi mustaqil hayot ostonasida turgan yoshlarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish, ularning "kasb-hunarga moyilligi,

bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi" [1].

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni umumiy holda talabalarda ixtisoslik bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish asosida ularning kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirishdan iboratdir.

Pedagogik xususiyatiga ko'ra virtual laboratoriyalardan foydalanib talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ko'p bosqichli professional ta'limning muhim bo'g'ini, o'ziga xos murakkablikka ega jarayon sanaladi.

Virtual laboratoriyalardan foydalanib talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonining mohiyati to'g'risida to'la tasavvur ega bo'lish uchun "tayyorgarlik", "kasbiy tayyorgarlik", "kasbiy tayyorgarlik sifatleri", "kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish" kabi tayanch tushunchalar asosida yoritiladigan holatlardan xabardor bo'lish talab etiladi.

O'tgan asrning 30-yillarida psixologiyaning asosiy predmeti sifatida ong va uning xususiyatlari o'rganila boshlandi. Xuddi shu vaqtdan boshlab, psixologik tadqiqotlarda faoliyat va unga tayyorgarlik (faoliyatni tashkil etishga tayyorlik) masalasi ilmiy izlanishlarning markazidan o'rin egalladi. Bu esa bugungi kunda ham ta'lim jarayonida ustuvorlik kasb etuvchi ong va faoliyat birligi, shuningdek, faoliyatli yondashuv tamoyilining asoslanishini ta'minladi [2].

Shaxsning muayyan faoliyatga tayyorligi masalasi XX asrning 70-yillaridan boshlab, psixologiya sohasida keng ko'lamda o'rganila boshlangan [2]. Mana shu davrda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohaslarining rivoji bevosita mutaxassisning faoliyati hamda uning samaradorligiga bog'liq ekanligiga ishonch hosil qilingan. Shu sababli shaxsning mehnat faoliyatiga munosabati, uni tashkil etishga bo'lgan layoqati darajasini tashxislash, unda kasbiy sifatlarni samarali shakllantirish (rivojlantirish)ga imkon beruvchi omillarni aniqlash, faoliyatga tayyorlik darajasini xolis

baholash yo'llari o'rganilgan. Bugungi kunda til iste'molida qo'llanilayotgan "kompetentlik" tushunchasi ham ilk marta mana shu davrda qo'llanilgan.

Lug'aviy jihatdan "tayyorgarlik" tushunchasi "tayyor holga kelish yoki keltirish ishlari; tayyorlash, tayyorlanish harakati, hozirlik" nimanidir bajarishga rozilik; 2) barcha ishning bajarilganlik holati, nima uchundir barchasining tayyor bo'lishi" [2].

Yu.A.Grachevning fikriga ko'ra, "tayyorgarlik" tushunchasi turli holatlar, maqsadlarni, hatto shaxs qobiliyatini tavsiflash hamda o'rganishga nisbatan qo'llaniladi va aynan mana shu sababli u ko'p ma'noli, integrativ xarakter kasb etadi [2].

Tayyorgarlik muammosi psixologik nuqta nazarda XX asrning 70-yillarida tadqiqotchilar M.I.Dyachenko, L.A.Kando'bovichlar tomonidan majmuaviy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotchilar tayyorgarlikning umumiy holatidan kelib chiqib, uni uch turga: avvaldan qilingan tayyorgarlik (umumiy va davomiy xarakterga ega tayyorgarlik); vaqtinchalik tayyorgarlik (ayni hozirgi vaqtdagi); vaziyatli tayyorgarlik (o'zgaruvchan sharoitlarni hisobga olgan holda muayyan vaziyatda harakatlanishga tayyorlanish) kabilarga ajratadi [3].

O'z tadqiqotida O.I.Shishkina tayyorgarlikni ikki turga, ya'ni uzoq muddatli tayyorgarlik va vaziyatli tayyorgarlikka ajratadi. Uzoq muddatli tayyorgarlik shaxsning faoliyatini shartlantiruvchi (faoliyatni tashkil etish hamda uning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun zarur, muhim bo'lgan) nisbatan barqaror xususiyatlar, tavsiflar, shaxsiy sifatlar tarzida tushuniladi. Vaziyatli tayyorgarlik esa shaxsning avvalgi faoliyati hamda uning kechishi va muvaffaqiyatini belgilovchi mavjud holati sifatida namoyon bo'ladi [3].

Yu.A.Grachev esa ta'lim tizimining yaxlit holati, umumiy mohiyati uning o'zida M.I.Dyachenko, L.A.Kando'bovichlar tomonidan ko'rsatilgan barcha turdagi tayyorgarlik (avvaldan qilingan tayyorgarlik,

vaqtinchalik tayyorgarlik, vaziyatli tayyorgarlik) ni namoyon etgan holda motivatsiya, bilish layoqati, his-tuyg'ular, irodaviy sifatlar kabi tarkibiy qismlarga ega bo'ladi [4]

Demak, umumiy holda tayyorgarlik negizida quyidagi tarkibiy tuzilma ifodalanadi:

1) u yoki bu faoliyat, kasbga bo'lgan ijobiy munosabat;

2) xarakter xususiyatlari, qobiliyat, temperament, motivatsiya, faoliyat mohiyatiga to'g'ri keladigan talablar;

3) zarur bilim, ko'nikma va malakalar;

4) barqaror kasbiy muhim xususiyatlar: idrok, diqqat, tafakuur, hissiy-irodaviy kechinmalar [103].

Pedagogik va psixologik yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, shuningdek, kasbiy tayyorgarlik, unga xos bo'lgan xarakterli jihatlar ham o'rganilgan.

V.Chichikin tomonidan "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi mutaxassisga nisbatan berish asosida shunday ta'riflanadi: mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi – ijtimoiy munosabatlarning professional faoliyatdan ushbu faoliyat subyekti bo'lgan shaxs vazifalarining tizimiga me'yoriy darajada o'rgartirilishini tavsiflovchi ehtiyoj va qobiliyatlarga asoslanadigan integral ta'lim sifatida tushuniladi [4]. Darhaqiqat, kasbiy tayyorgarlik ijtimoiy subyektning mutaxassis sifatida u tomonidan tashkil etiladigan professional vazifalarni to'laqonli bajarishga ham psixologik, ham jismonan tayyor ekanligini anglatadi. (1.1-rasm)

Muallifning qayd etishicha, kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy tuzilmasida uchta, ya'ni, motivatsiyali, axborotli va operatsion komponent mavjud. Ular tabiiy ravishda ehtiyoj, kasbiy bilim hamda faoliyat usullarini ifodalashga xizmat qiladi. Ko'rsatilgan komponentlarning har biri ularning o'zaro ta'sirida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, real laboratoriya ishlarini virtual ishlarga almashtirmasdan, balki ularni mustaqil



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA ALGORITMIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

AXMEDOVA U.Y.

Farg'ona Davlat Universiteti Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Algoritmik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi masalalar yechish jarayonida yuzaga keladi. Tafakkurning algoritmik uslubi nafaqat informatika darslarida, balki matematikani o'qitishda ham shakllanadi. Talabalar mantiqiy masalalarni muvofiq qilishda ular algoritmik fikrlash uslubini rivojlantiradilar. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilar o'rtasida algoritmik fikrlashni rivojlantirish haqida fikrlar keltirilgan. Boshlang'ich maktabda birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar algoritmik fikrlashni shakllanish aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** algoritm, algoritmik fikrlash, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlash algoritmi, tafakkur, o'quv jarayonida algoritmik fikrlashni shakllantirish.

**Аннотация:** Формирование и развитие алгоритмического мышления происходит в процессе решения задач. Алгоритмическое мышление формируется не только на занятиях по информатике, но и при обучении математике. Когда студенты обсуждают логические проблемы, у них развивается алгоритмический образ мышления. В статье представлены представления о развитии алгоритмического мышления у учащихся младшего школьного возраста. Сформированность алгоритмического мышления учащихся определяется с первого класса начальной школы.

**Ключевые слова:** алгоритм, алгоритмическое мышление, алгоритм работы с учащимися младшего школьного возраста, мышление, формирование алгоритмического мышления в учебном процессе.

**Abstract:** The formation and development of algorithmic thinking occurs in the process of solving problems. The algorithmic way of thinking is formed not only in computer science classes, but also in teaching mathematics. When students discuss logical problems, they develop an algorithmic way of thinking. The article presents ideas about the development of algorithmic thinking among students of primary school age. Algorithmic thinking formation of students is determined from the first grade in primary school.

**Key words:** algorithm, algorithmic thinking, algorithm for working with students of junior school age, thinking, formation of algorithmic thinking in the educational process.

O'quv jarayonida tafakkurning, xususan, algoritmiklikning shakllanishi va rivojlanishi masalalarni yechish jarayonida sodir bo'ladi. Odatiy muammolarni hal qilishda inson birinchi navbatda bilim, tajriba va sxemalarga – ma'lum bir vaqtda shakllangan harakatlar algoritmlariga - reproduktiv fikrlashga tayanadi. Vaqt, aqliy kuch, qo'shimcha bilim va ijodiy tasavvurni talab qiladigan nostandart muammolarni hal qilishda samarali fikrlash paydo bo'ladi. Fikrlash, shuningdek, bilimlarni o'zlashtirish, o'qish paytida matnni tushunish uchun va boshqa ko'p

hollarda muammolarni hal qilish bilan bir xil bo'lmagan hollarda ham zarur.[1]

Algoritmik fikrlash nima degan savolga javob beraylik. Algoritmik fikrlash muommoning yechish jarayonining ketma-ketligi. Ya'ni, biror matematik masalaning hisoblash tartibi. Faqatgina matematik masala emas balki, bshqa fanlardagi berilgan topshiriqlarning bajarilish ketma-ketligi.

Газейкина А.И.aytganidek, ilmiy va uslubiy adabiyotlarda "tafakkurning algoritmik uslubi" tushunchasi qo'llaniladi, bu algoritm yaratish qobiliyatini nazarda

tutuvchi fikrlashning o'ziga xos uslubi bo'lib,  $\neg$ muammoni bir butun sifatida ko'rishga, uni hal qilishga yordam beradigan aqliy naqshlarning mavjudligini talab qiladi. katta bloklarda,  $\neg$ so'ngra lingvistik shakllarda yakuniy natijani olish jarayonini tafsilotlash va ongli ravishda birlashtirish [2].

Algoritmik fikrlashni rivojlantirish haqida gapirishdan oldin, bu tushunchaga aniqlik kiritish va uning tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish kerak. Agar umumiy fikrlash haqida gapiradigan bo'lsak  $\neg$ , u turli xil ilmiy fanlarning o'rganish demakdir.

H.H. Еремеева “Формирование алгоритмического мышления у школьников в ходе групповой работы” nomli maqolasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini tadbiq qilgan. Ushbu fikrlash turini kichik guruhda shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Muallif algoritmik fikrlashga quyidagicha ta'rif bergan: “Algoritmik fikrlash - bu nazariy va amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan aqliy harakatlar va texnikalar tizimi bo'lib, ularning natijasi algoritmlar inson faoliyatining o'ziga xos mahsulotidir”[3]

$\neg$  Yangi materialni o'rganayotganda, ish muammoni ovoz chiqarib, keyin boshlanadi  $\neg$  Maqsadga erishish yo'llarini tahlil qilamiz va  $\neg$ algoritm yaratish zarurligiga kelamiz. Masalan, “ $\neg$ O'nlidan o'tuvchi bir xonali sonlarni qo'shish” mavzusini o'rganishda algoritm:  $\neg$

1. Men kattaroq sonni topaman.
2. Men ikkinchi sonni uning tarkibiy qismlariga ajrataman  $\neg$ .
3. Men barcha elementlarni birlashtiraman.
4. Men javobni yozaman.

Algoritmik tafakkurni aniqlashga turlicha yondashuvlarni tahlil qilindi.

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi misollar va usullar mavjud. Algoritmik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi masalalar yechish jarayonida yuzaga keladi. Fikrlashning algoritmik usuli nafaqat tabiatshunoslik darslarida, balki matematikani o'qitishda ham shakllanadi.

Inson hayoti shunday tuzilganki, butun umr davomida ko'plab muammolar va vazifalarni - kundalik, ta'lim, ixtisoslashtirilgan, kasbiy muammolarni hal qilishimiz lozim. Muammoni (topshiriqni)  $\neg$ tarkibiy qismlarga - harakatlarga ajratish, ularning tartibini aniqlash, ularni bajarish uchun ketma-ketlikka qo'yish. Ilm-fanda bajaruvchiga tushunarli bo'lgan amallar yoki ko'rsatmalarning chekli ketma-ketligi sifatida ta'riflangan algoritm tushunchasi bilan qandaydir bog'liqlik bor Tafakkurning, xususan, algoritmik fikrlash uslubi yoki  $\neg$ algoritmik fikrlashning rivojlanishi shu davrda sodir bo'ladi.

T.N. Lebedeva algoritmik fikrlashni kognitiv  $\neg$ jarayonsifatidatushunadi, bu aniq, maqsadga muvofiq (yoki oqilona)  $\neg$ aqliy jarayonlarning o'ziga xos tafsilotlari va kengaytirilgan bloklarini optimallashtirish, rasmiylashtirilgan shaklda taqdim etilgan yakuniy natijaga erishish jarayonini ongli ravishda birlashtirish bilan amalga oshiriladigan aqliy jarayonlar ketma-ketligi mavjudligi bilan tavsiflanadi. qabul qilingan semantik va sintaktik qoidalar bilan ijrochi tilida shakl  $\neg$ [4].

- Algoritmik fikrlash uslubining tarkibiy qismlari ro'yxatini keltirib o'tgan. Unga ko'ra algoritmik fikrlash uslubining tarkibi 10 ta qismdan iborat. Ular:
  - tasvirlar bilan ishlash qobiliyati;
  - tushunchalar va toifalar bilan ishlash qobiliyati:
    - mohiyatan xulosalar chiqarish qobiliyati;
    - induktiv xulosalar chiqarish

qobiliyati;

- deduktiv xulosalar chiqarish

qobiliyati;

- reproduktiv qobiliyatlarni

rivojlantirish qobiliyati;

- ishlab chiqarish qobiliyatlarini

rivojlantirish qobiliyati;

- muammoni tahlil qilish qobiliyati,


uning jarayonlardan tashqari darajalarga bo'linishi;

- vazifani rasmiylashtirish qobiliyati

(mavhum  $\neg$ );

- elementar algoritmik amallarni tushunish va amalga oshirish qobiliyati [5].

Biz tadqiqotlarimizda induktiv va diduktiv xulosa chiqarish qobiliyatiga oid topshiriqlarni yechish asosida algoritmik fikrlashni shakllantiramiz. Masalan: 3-sinf texnologiya darsligining 10-betida kartonga ayiqcha qismlarini chizing va qirqib oling degan topshiriq berilgan.



Algoritm tuzishni o'quvchilarga tushuntirgandan so'ng qanday bajaradi?

Dastlab o'quvchiga algoritm tushunchasi tushuntiriladi. Bu misolda chiziqli algoritm qo'llaniladi. Bu haqida to'liq ma'lumot beriladi. Shundan so'ng yasash tartibi o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilarning fikrlari o'qituvchi tomonidan umumiy lashtiriladi, ya'ni quyidagi algoritm tuziladi:

1. Istalgan rangdagi karton qog'oz olish
2. Ayiqchani tanasini chizish.
3. Ayiqchani boshini chizish

4. Ayiqchani qo'llarini chizish.

5. Oyoqlarini chizish

6. Chizilgan qismlarni qirqib olish

7. Qismlarni taxminiy joylashuvini tekshirib olish

8. Ayiqchani tana a'zolarini birlashtirish kerak bo'lgan nuqtalarni belgilab olish

9. Belgilangan nuqtalarni igna bilan teshish

10. Teshilgan nuqtalarga barcha qismlarni ip bilan biriktirish.

Yakuniy natija oyoq-qo'llari



## QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARIDA AXBOROT KOMPITENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

**KAYUMOVA NASIBA ASHUROVNA**

**Qarshi davlat universiteti “Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari” kafedrası**

**mudiri p.f.d (DSc) professor**

**ISKANDAROV BOTIR QURBONOVICH**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti.**

**Annotasiya.** Maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Qishloq xo'jaligi uzoq va murakkab biznes bo'lib, katta moliyaviy investitsiyalar talab qiladi. Yangi texnologiyalarni joriy etish butun jarayonni optimallashtirish, uni avtomatlashtirish, shuningdek, barcha bosqichlarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Muammoni chuqur tahlil qilish qishloq xo'jaligiga ilg'or asboblarni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan barcha asosiy muammolarni o'rganish imkonini berdi. O'zbekistonda agrobiznesni rivojlantirish uchun mo'ljallangan qishloq xo'jaligiga joriy etishning asosiy texnologiyalari tahlil qilinadi. O'zbekistonda agrobiznes samaradorligini oshirish uchun bir qator xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** **Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, agrobiznes, texnologiya, fermerlar, mahsulotlar, sun'iy yo'ldoshlar, sensorlar.**

**Аннотация.** В статье обсуждаются вопросы использования и развития информационно-коммуникационных технологий в сельском хозяйстве Узбекистана. Сельское хозяйство-длительный и сложный бизнес, требующий значительных финансовых вложений. Внедрение новых технологий позволяет оптимизировать весь процесс, автоматизировать его, а также снизить издержки производства на всех этапах. Углубленный анализ проблемы позволил изучить все основные проблемы, возникающие в процессе внедрения передовых инструментов в сельское хозяйство. Будут проанализированы основные технологии внедрения в сельское хозяйство, предназначенные для развития агробизнеса в Узбекистане. Для повышения эффективности агробизнеса в Узбекистане разработан ряд выводов.

**Ключевые слова:** Информационно-коммуникационные технологии, агробизнес, технологии, фермеры, продукты, спутники, датчики.

**Abstract.** The article discusses the use and development of information communication technologies in the agriculture of Uzbekistan. Agriculture is a long and complex business that requires large financial investments. The introduction of new technologies allows to optimize the entire process, to automate it, as well as to reduce production costs at all stages. In-depth analysis of the problem made it possible to study all the main problems that arise in the process of introducing advanced tools to agriculture. The main technologies of introduction into agriculture intended for the development of agribusiness in Uzbekistan are analyzed. A number of conclusions have been developed to increase the efficiency of agribusiness in Uzbekistan.

**Keywords:** Information communication technologies, agribusiness, technology, farmers, products, satellites, sensors.

Kirish. Yangi texnologiyalarni sotishni rejalashtirish va tarqatish kanallariga joriy etish va fermer xo'jaliklarining ta'sir qildi va endi fermerlarga tanish bo'lgan raqamli transformatsiyasi butun dunyo jarayonlarni tubdan o'zgartirishi mumkin bo'ylab agrobiznesning samaradorligi va bo'lgan ko'proq aqli texnologiyalar paydo raqobatbardoshligini ko'p jihatdan belgilaydi. bo'lmoqda. O'zgarishlar allaqachon ishlab chiqarish, Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda



agrobiznes ma'lum bir etuklikka erishdi, bu qishloq xo'jaligiga investitsiyalar darajasining barqarorlashuvi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi raqobatning kuchayishidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-113-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ekinlar holatini monitoring qilishning idoralararo axborot tizimlarini joriy etish maqsadida:

1) 2023-yil 1-sentabrdan boshlab Qishloq xo'jaligi vazirligining "Raqamli qishloq xo'jaligi" yagona integratsion platformasi;

2) Geoaxborot texnologiyalari va kosmik tasvirlarni tahlil qiladigan xizmatlarni ko'rsatish platformasi;

3) qishloq xo'jaligi ekinlarini elektron joylashtirish, kelishish, ma'lumot va hisobotlarni avtomatik shakllantirish uchun "CropAgro" axborot tizimi;

ishlab chiqilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash tizimlaridan foydalanish hajmi va sifati oshmoqda. Sun'iy yo'ldoshlar, sensorlar, operatsion va tranzaksiya tizimlaridan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi. Shu bilan birga, ma'lumotlar hajmi ham, qaror qabul qilishda ishonishingiz mumkin bo'lgan yuqori sifatli qayta ishlash va ishonchli xulosalarga bo'lgan ehtiyoj ham ortadi. Natijada, sanoat tahliliy tizimlariga va xususan, ilg'or tahlillarga talab paydo bo'ladi.

Biz uzoq yillik kuzatuvlardan aytishimiz mumkinki, qishloq xo'jaligi sohasi ko'plab tabiiy xavf-xatarlarga duchor bo'lganligi, etishtirishda bir turdagi mahsulotlarning

narxi keskin oshganligi yoki keskin arzonlashganini payqab qolamiz, yig'ish va saqlash paytida hosilning katta yo'qotilishi, biologik jarayonlarni avtomatlashtirishning imkoni yo'qligi va hosildorlikni oshirishda muvaffaqiyat qozonmaganligi sababli bu sohaga investorlarni jalb qilish bir muncha qiyinchilik tug'diradi (ayniqsa Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlarida). Shu vaqtga qadar qishloq xo'jaligi sohasi AKT dan foydalanish hisobotlar uchun kompyuterlardan foydalanish, asosan moliyani boshqarish va biznes operatsiyalarini kuzatish uchun foydalanish bilan cheklangan. Yaqindan boshlab yurtimizda ham zamonaviy klasterlar, fermerlar, dehqonlar, chorva mollari va dehqonchilik jarayonining turli elementlarini kuzatish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni boshladilar.

Qishloq xo'jaligi ob'ektlarni yagona tarmoqqa birlashtirib, ma'lumotlarni almashish va boshqarish tizimini, kompyuterlarning mahsuldorligini oshirish, rivojlanish davrini ta'minot ta'minlash va bulutli platformalar yordamida butun ishlab chiqarish tsiklining virtual (raqamli) modelini yaratish orqali qishloq xo'jaligi jarayonlarining maksimal sonini avtomatlashtirish mumkin bo'ldi.

qiymat zanjiridagi o'zaro bog'liq bo'g'inlar va ish jadvalini matematik aniqlik bilan rejalashtirish, xavf aniqlangan taqdirda yo'qotishlarning oldini olish uchun favqulodda choralar ko'rish, mumkin bo'lgan hosil, ishlab chiqarish xarajatlari va foydani hisoblash

21-asrning boshida dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyasidan foydalanish ko'rsatkichi juda past bo'lgan bo'lsa, ammo bugungi kunga kelib ulardan foydalanish ulishi ancha o'sgan. Bu qishloq xo'jaligi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirish masalasi qanchalik dolzarb ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonda bunday axborot kommunikatsiya texnologiyalari hali keng

qo'llanilmayapti va qishloq xo'jaligi sohasini yaxshilash uchun bu albatta kerak bo'ladi.

Sayyoramizda aholining o'sishi qishloq xo'jaligi maydonlarining keskin qisqarishiga olib keladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2050-yilga borib dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun fermerlar doimiy ravishda bir yarim barobar ko'p hosil yetishtirishi kerakligini ta'kidlaydi.


Natijalar. Qishloq xo'jaligini ko'p jihatdan o'zgartira oladigan va optimallashtiradigan IoT texnologiyalari bu muhim vazifani hal qilishda yordam berishi mumkin. Qishloq xo'jaligi bozori an'anaviy ravishda tashqi xavf-xatarlarga duchor bo'ladi, ularga ta'sir qilish juda qiyin va ularni oldindan aytish deyarli mumkin emas: yozda qurg'oqchilik bo'lishi mumkin yoki aksincha, ortiqcha namlik, sovuq hosilning ko'p qismini yo'q qilishi mumkin; agar qoramollar yetarlicha sifatli oziqlanishga ega bo'lmasa, salbiy ta'sir pishloq va sut segmentida sezilarli bo'ladi.

O'simlikchilikda birinchi navbatda

ekinlar holatini monitoring qilish tizimlari, jumladan, sun'iy yo'ldosh texnologiyalari va dronlarga asoslangan tizimlar joriy etilmoqda. O'zbekistonda bu sohada raqobatbardosh texnologiyalar mavjud, masalan, GLONASS. Bundan tashqari, "aqlli" texnologiya, jumladan, dalalarda uchuvchisiz yig'im-terim uskunalari bilan ko'plab tajribalar o'tkazilmoqda.

Xulosa. Shuningdek, "trend"da "Internet of Things" (IoT) tizimlari mavjud bo'lib, ular real vaqt rejimida datchiklardan olingan ma'lumotlar asosida xo'jalik holatini kuzatish va qishloq xo'jaligida ba'zi qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Davlat jamg'armalari va tuzilmalarining ba'zi rejalariga ko'ra, 2019 yilda O'zbekiston uy xo'jaliklarining uchdan bir qismi o'z ishlarida narsalar Interneti va katta ma'lumotlardan foydalanishi kerak edi. Bunday IoT tizimlari qishloq xo'jaligi texnikalarining holatini kuzatish, ekish va o'rim-yig'im kampaniyasini xavf ostiga qo'ymagan holda o'z vaqtida ta'mirlashni rejalashtirish va boshqalarga yordam beradi.

Korxonalar hosildorlik va sifatni



**1-rasm. Qishloq xo'jaligining rivojlanish bosqichlari**



# XALQARO BAHOLASH TADQIQOTIDAGI SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI UMUMIY O‘RTA TA‘LIM O‘QUVCHILARDA SHAKLLANTIRILISHI

**SHERNAZAROV ISKANDAR ERGASHOVICH**  
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti  
dotsent, pedagogika fanlar doktori (DSc)

**Annotatsiya.** Xalqaro baholash tadqiqotlaridan PISA baholash ta‘limining amaliy ahamiyati, o‘quvchilarni umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi fanlardan savodxonligini baholashga xizmat qiladigan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, olingan bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, oqilona qaror chiqarish, mustaqil fikrlash, dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan. Maqolada o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini va savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar tavsifi haqida qisqacha ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** PISA, xalqaro baholash, savodxonlik, o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kreativ fikrlash, inovatsiya, kompetensiya, loyihalash, ilmiy-tadqiqot.

**Annotation.** It follows from international assessment studies that PISA is an international assessment program that serves to assess the literacy of students in subjects in general education schools, aimed at applying the acquired knowledge and skills in life situations, making rational decisions, forming independent thinking, worldview. The article presents an international assessment program aimed at assessing students' literacy in reading, mathematics and natural sciences, according to the results of which, within the framework of the requirements for the curricula of the countries of the world, brief information is given on the characteristics of tasks aimed at applying students' knowledge and skills in life situations, the formation of thinking and communication skills, literacy.

**Keywords:** PISA, international assessment, literacy, reading literacy, mathematical literacy, science literacy, creative thinking, innovation, competence, design, research and development.

## KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘rta ta‘lim muassasalarida ta‘lim tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining – Ta‘lim to‘g‘rsidagi qonunga muvofiq barcha ta‘lim tizimi milliy va umumbashariy ma‘naviy qadriyatlar, ma‘naviy axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

PISA ta‘lim turi bu o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o‘quvchilarning bilim va

ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o‘quv dasturini belgilamaydi, targ‘ib qilmaydi va umumiy e‘tirof etishni taqozo etmaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Mamlakatimizda xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik ko‘rish va seminar mashg‘ulotlarini tayyorlash, o‘tkazish va sifatini baholash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi qoshida Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil qilindi va uning asosiy vazifalari,

faoliyati, yo'nalishlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro baholash tadqiqotlaridagi ishtiroki, unga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilarning ilmiy savodxonligini rivojlantirish, savodxonlik darajasini aniqlashga oid topshiriqlar ishlab chiqish kabi masalalar A.Radjiyev, A.A.Ismailov, X.J.Daminov, Q.K.Karimberdiyev, G.O.Tog'ayeva, N.A.Karimov, Z.A.Kosimova, G.A.Pirimov, D.Asqarova, S.R.Akbarova, D.Norboyeva, D.Manapova, M.Uralova, B.Q.Haydarov, H.P.Ahmedov, M.Maxsudov, M.Boymuratova, E.Tursunov va boshqalar ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida olimlari G.S.Kovaleva, L.O.Roslova, G.A.Sidorova, A.Y.Pentin, PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish; B.Ye.Mixaylovich, Ye.M.Bugakova, L.S.Baytimerova, V.M.Grebennikova, K.B.Belikov "ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyati tushunchasi", uni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari, kreativ va ijodiy qobiliyatini shakllantirishning asosiy mazmuni; T.P.Payudis, E.V.Sivak, D.M.Mirzanurova, T.S.Skilevaya, A.Yu.Pentin, G.Yu.Semyonova, A.Yu.Pentin, Ye.A.Nikishova, K.P.Vergeles, N.A.Zagranichnaya, Ye.L.Rutkovskaya, G.G.Nikiforov; A.A.Kozlova, Ye.S.Korolkova, A.A.Bochixina, A.V.Polovnikova, N.V.Shtilman o'quvchi va bo'lajak kimyo o'qituvchilarning funksional tabiiy-ilmiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish; O.A.Rudze, Ye.S.Kvitko, K.A.Krasnyanskaya, L.O.Roslova, L.O.Denisheva, I.I.Karamova matematik savodxonlikni shakllantirish; S.Ye.Dyukova, T.V.Koval va bosh. global kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

PISA xalqaro o'quvchilarni baholash xalqaro dasturining 2018-yilda o'tkazilgan baholash siklining asosiy bilim sohasi o'qish

savodxonligi hisoblanadi. PISA tadqiqotining 2022 yildagi tadqiqotida asosiy topshiriqlar tarkibi matematik savodxonlikka qaratilgan. Tadqiqotining o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativ fikrlash yo'nalishi uchun mo'ljallangan ushbu qamrov doirasi – o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturning barcha savodxonligi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar tahlili asosida ishlab chiqilgan. Qamrov doirasida PISA tadqiqotlari doirasida o'quvchilarning qay darajada oson va samarali o'qib-tushunish, ma'lumotlarni ilmiy talqin qila olish, ma'lumotlardan foydalangan holda matematik va statistik tahlil, ma'lumotlarni to'g'ri tushunish hamda tahlil qilish, kreativ yondashish kabi ko'nikmalari va bu ko'nikmalarning turli metakognitiv jihatlari qanday baholanishi tushuntirilgan bo'lib, unda o'quvchilarning o'qish, tushunish, tahlil qilish, qullash, sintez qilish va baholash qobiliyatlari qay darajada baholanishi va izohlanishi muhokama etilgan hamda savodxonligini baholash bo'yicha tuzilgan topshiriq namunalari keltirilgan. [7]

O'qish – axborot olish madaniyati bo'lib, badiiy adabiyotni to'g'ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma'lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo'lgan ma'lumotlarni ola bilish, o'z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to'g'ri foydalanish yo'llarini o'rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi.

Matematik savodxonlik tushunchasi turli yillardagi tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra unga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

1. Tanqidiy fikrlash;
2. Ijodkorlik, kreativlik;
3. Tadqiqot va tahlil qilish;
4. Mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik;

5. Ma'lumotlardan foydalanish;
6. Tizimli fikrlash;
7. Muloqot qilish;
8. Mulohaza yuritish.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini - o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik - bu shaxsning tabiiy fanlarga bog'liq masalalar bo'yicha faol fuqorolik pozitsiyasiga ega bo'lishi va tabiiy g'oyalarga qiziqishga tayyorgarlik qobiliyatidir. Tabiiy-ilmiy savodli inson tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolar muhokamasida ishtirok etishga intiladi va buning uchun quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi, hodisalarni ilmiy tushuntiradi, baholaydi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtiradi, ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan sharhlaydi.

Kreativ fikrlash nima?

Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative"- yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat. Kreativ fikrlash, asosan, bu ikki narsaga bog'liq – tanqidiy fikrlash va ijodkorlik. Tanqidiy fikrlash aniq va oqilona fikrlashdir. Bu aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiq va ilmiy fikrlash qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ijodga kelsak, bu yangi va foydali g'oyalarni taklif qilish, muqobil imkoniyatlarni

yaratishdir.

"Yo'qotilgan ma'lumot" metodi.

Sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga berilgan tarqatmada o'rganilayotgan biror bir badiiy asar: hikoya, masal yoki she'rning bir qismi olib tashlanadi, ya'ni ma'lumot yo'qoladi. O'qituvchi o'quvchilarga yo'qolgan ma'lumotni topishlari kerakligini aytadi. O'quvchilar kitobdagi ma'lumot bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotni izlashga kirishadi. Ular asarni o'qigandan so'ng "yo'qolgan" ma'lumotni topadilar va olgan bilimlari asosida guruh a'zolari bilan muhokama qilib ma'lumotlarni qog'ozga tushuradilar. Har bir guruh o'zida bo'lmagan ma'lumotni qayta tiklab so'zlab beradi. Bunda o'quvchilar tiklagan ma'lumot asarning mazmunini saqlab qolishi lozim.

Yuqorida berilgan topshiriq asosida o'quvchilarni o'qish savodxonligi, anglash va tahlil qilish qobiliyati, oldingi o'zlashtirgan bilimlar asosida kreativ fikrlash qobiliyatlari shakllantiriladi.

Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o'zi yashayotgan olamdagi o'rnini bilishi, matematik jarayonlarni to'g'ri va to'liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta'minlash bu bo'limning asosiy maqsadidir.

Bu bo'limdagi savodxonlik terminining maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganini aniqlash emasligini ko'rsatish uchun foydalanilgan.

Bu yo'nalish sinovlarida odatda hayotning turli sohalarida (tibbiyot, turar joy, sport va hk.) duch kelinishi mumkin bo'lgan matematikaga oid vaziyatlar taklif qilinadi.

O'quvchilarda matematik savodxonliklarini oshirish maqsadida quyidagicha savollarni ishlashni o'rganish va topshiriqlarni to'g'ri fikrlashni o'rgatish lozim.

Topshiriq: quyida berilgan savolni javobini aniqlash uchun sonlarni istalgan tarzda

yo'zishingiz mumkin. Shuni nazarda tutinki topshiriqni natijasi savolda berilgan tarzda ifodalanishi lozim.

Savolni ishlashda diqqat bilan o'ylang. O'n besh sonidan to'rt sonini ayirib 0 qiymat chiqarib bering ( $15 - 4 = 0$ ).

Javobi: o'n besh sonidan to'rt sonini ayirish uchun sonlarni Rim raqamlari orqali ifodalasakina natija to'g'ri chiqadi. Masalan:  $15 - IV = 0$

O'quvchilarning matematik savodxonligini mustahkamlash uchun shu kabi topshiriqlarni ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini oshirish kerak.

O'quvchilarga tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish uchun qo'yidagicha topshiriqlarni ishlashi va topshiriqlarni to'g'ri talqin qila olish qobiliyatini shakllantirish lozim. Masalan. Bizni o'rab turgan butun moddiy dunyo, shuningdek, Yerdan tashqarida bo'lgan kosmik fazo, sayyoralar va yulduzlar Koinotni tashkil qiladi.

Koinot haqida ma'lumotlar berilayotgan vaqtda ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir necha bloklarga bo'ladi. Har blokni 15-20 minut davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, savol-javob o'tkaziladi.

Savol-javob o'tkazish uchun ma'ruzachi o'quvchilarga topshiriqlar beriladi. Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rta tashlaydi. Shu vaqt oralig'ida bu muammoga o'quvchilarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Uning

fikri diqqat bilan tinglanadi. Masalan: o'quvchilardan raketa uchirilganda ozon ekranini teshilishi orqali havoning sovishi kuzatiladi. Sababi ekran teshilganda quyosh nurini tik tushishi kuzatiladi. Ertasiga esa ozon qavatini tiklanishi sababli bulutlar siljiydi, ayrim joylarda yomg'ir yog'adi shuning uchun kun soviydi. O'quvchilardan bu kabi hodisalarni ilmiy jihatdan talqin qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun shunga o'xshash topshiriqlar beriladi.

Masalan: havoni o'zgarishiga havo tarkibida bosimni ortib ketishi qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bosim past bo'lgan tomondan bosim yuqori tomonga siljishida temperaturani o'zgarishi kuzatiladimi?

Bunda o'quvchilar darsda qo'yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi.

Kreativ fikrlash - bu innovatsion va samarali yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir.

O'quvchilarning kreativ fikrlash savodxonligini qo'yida berilgan bir qancha topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshirish mumkin.

Topshiriq: quyidagi berilgan doskadagi rasmda ifodalangan o'quvchilarni g'oyalari haqida o'ylab ko'ring va o'quvchilar rasm orqali qanday g'oyalarni ilgari so'rishganligini aniqlang.



1-rasm. STEM devor

O'quvchilar mazkur rasmda ifodalangan tasvirlar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida o'z fikrlarini yozma bayon qiladi. Masalan:

<i>Savol:</i> rasmda ifodalangan tasvirlar tahlili	<i>Javob:</i> sizningcha bu tasvirlar qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		

Yuqorida keltirilgan topshiriqlarni bajarilishi orqali o'quvchilarda bir qancha kompetensiyalarni shakllantirish mumkin.

#### TAHLIL VA NATIJALAR (DISCUSSION AND RESULTS)

Bugungi kunda o'quvchilar matnni faqat o'qib qolmasdan, uni tahlil qila olishi, unga munosabat bildirishi, baholay olishi, ilmiy jihatdan yondashishi, kreativ fikrlarni bildira olishi zarur. O'quvchilarga faqtgina badiiy asarlar, she'rlar emas, turli matnlar: bibliografiya, shaxsiy xatlar, gazeta va jurnallardagi e'lonlar, maqolalar, geografik xaritalar, rasmlarni, voqiyilikni ifodalovchi tasvirlarni talqin qilish uchun taqdim etiladi. Ulardagi ma'lumotlar turli ko'rinishda: rasmlar, jadval, chizma, diagramma va h.k. bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro talablar darajasiga yetkazish uchun faqatgina dars jarayoni bilan cheklanib qolmasdan, sinfdan tashqari ishlarni ham yuksak darajada tashkil etmogi lozim.

PISA xalqaro baholash tadqiqoti asoschisi Andreas Shleyxerning kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish, o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish, o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonliklarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini keltirish mumkin (Buyuk Britaniya). Indoneziyada tabiiy fanlarni o'qitishda atrof-muhitda sodir bo'ladigan

hodisalar orqali tushuntirish hamda ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish; tadqiqotlarni baholash va rivojlantirish uchun amaliy kompetensiyalardan foydalanishadi. XXI asrga kelib ilmiy savodxonlikni rivojlantirish uchun fanlarni o'qitishda innovasion texnologiyalar, konseptual tushunchalar va ularning ahamiyatini oshirish usullariga ustuvorlik berilmoqda. Ta'lim oluvchilarga ilmiy savodxonlikni tabiiy fanlar haqidagi g'oyalar va tushunchalarni tarixiyligi, zamonaviyligi, qadriyatlariga mosligi hamda ularning ilmiy ta'limni isloh qilish bilan bog'liq ekanligini asoslovchi metodlar yordamida tushuntirilgan. Xitoyda boshlang'ich maktab o'qituvchilarining ilmiy savodxonligini rivojlantirish uchun o'n yil davomida o'quv dasturlari va kadrlar siyosati haqida mulohazalarni o'zgarib borishi, savodxonlikni rivojlantirishdagi o'zgarishlar, ilmiy savodxonlikni konseptual va empirik sharhlarini yillar davomida o'zgarishi, o'rta maktab fan o'qituvchilarining tabiiy fanlar haqidagi qarashlarini umumiy xulosalash kabi tushunchalarni rivojlanish orqali tushuntirilgan. Finlandiyada PISA tadqiqotidagi ilmiy savodxonlikning yuqori darajasi to'g'risida ekspert xulosalari, PISA ning siyosiy yo'nalishi bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyati to'g'risidagi tushunchalar, ta'lim tizimini amalga oshirilishini to'liq tahlil qilish orqali



milliy samaradorlik aniqlangan. Kanada davlatidagi o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotidagi natijalarni yuqoriligi va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni tez rivojlanishi hamda pedagogik kadrlarni salohiyati yuqoriligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD)ning Kanadagi vakillariga talabalarning tabiiy fanlar haqidagi g'oyalarini ishonchli va mazmunli baholashga qaratilgan topshiriqlarni tuzish vazifasi yuklatilganligini ilmiy tadqiqot ishlaridan bilish mumkin.

#### XULOSA:

Xulosa qilib aytganda pedagoglarimiz uchun bugungi kunda juda ko'p vazifalar yuklatilgan shu jumladan pedagogik mahoratga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va darsning samaradorligini oshirish uchun turli hil metodlardan foydalana

olishi kerak. Shulardan xulosa chiqargan holda o'quvchilarni o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlash qobiliyatini oshirish uchun ham dars davomida turli xil topshiriqlar va savollariga tayyorlab borishi kerak. Topshiriqlarni darslar davomida o'quvchilar o'qigandan so'ng mustaqil fikrlarini doimiy eshitib borish kerakligi va bu ham o'z navbatida o'quvchi agar noto'g'ri fikrlayotgan bo'lsa sinfdoshlarining to'g'ri fikrlarini eshitib o'zi uchun kerakli hulosalarni chiqaradi. Chunki har bir o'quvchuning fikrlash doirasi har hil bo'ladi. Shu jumladan o'quvchilarning fikrlash doiralari rivojlanishi ya'ni o'sishi uchun badiiy va ilmiy kitoblarni o'qish tafsiya qilish kerak. Kitob shunchaki o'qilibgina qolmay uning tahlili ham bo'lishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Ergashovich, S. I. (2023). ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON THE COMPETENCE APPROACH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(13), 24-29.
- Ergashovich, S. I. (2023). Development of Functional Literacy Through Creative Thinking Tasks. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 18, 20-25.
- Shernazarov, I., Sapayeva, G., & Smanova, Z. (2023). USING THE CONCEPTS OF ANALYTICAL CHEMISTRY BASED ON THE INTEGRATION OF INFORMATION COMMUNICATION AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMATION OF NATURAL SCIENTIFIC LITERACY OF STUDENTS. Евразийский журнал академических исследований, 3(3), 50-64.
- Qizi, X. N. M., & Ergashovich, S. I. (2023). NATURAL-SCIENTIFIC UNDERSTANDING OF PHENOMENA TO STUDENTS IN INTERNATIONAL ASSESSMENT. International Journal of Pedagogics, 3(02), 6-9.
- Ergashovich, S. I. (2023). IMPROVEMENT OF THE TASK AIMED AT THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL AND NATURAL SCIENCE LITERACY OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS ON THE BASIS OF IX ADAPTATION TO THE EDUCATIONAL PROCESS. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(5), 31-39.
- Yuldashevich, I. A., Asamovich, K. M., & Ergashovich, S. I. (2023). EKSPERIMENTAL TAJRIBALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK, AMALIY VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(5), 59-67.
- Ergashovich, S. I. (2022). Preparation Of Future Chemical Chemistry Teachers for Preparation for International Research. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 15, 71-76.
- Шерназаров, И. Э. (2022). БЎЛАЖАК КИМЁ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ТАДҚИҚОТЛАРИГА ТАЙЁРЛАШДА ФУНКЦИОНАЛ САВОДХОНЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ. Современное образование (Узбекистан), (10 (119)), 18-25.
- Bektosheva, S., & Shernazarov, I. (2022). O'QUVCHILARDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B8), 1570-1577.
- Shernazarov, I., & Xodjabayeva, N. (2022). XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLAR MATERIALLARIDAN FOYDALANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Science and innovation, 1(B8), 1578-1582.
- Bektosheva, S., & Shernazarov, I. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING FUNCTIONAL LITERACY IN STUDENTS. Science and Innovation, 1(8), 1570-1577.
- Ergashovich, S. I. (2022, December). PREPARATION OF STUDENTS FOR INTERNATIONAL EXAMINATION STUDIES OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS FORMATION OF SKILLS. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, pp. 121-125).
- Ergashovich, S. I. (2022). THE USE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT RESEARCH COMPETENCIES IN THE FORMATION OF THE LITERACY OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 471-477.
- Shernazarov, I., & Xodjabayeva, N. (2022). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE USE OF MATERIALS FROM INTERNATIONAL EVALUATION STUDIES. Science and Innovation, 1(8), 1578-1582.
- Ergashovich, S. I. (2022). TASKS AND IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL EVALUATION STUDIES IN UZBEKISTAN. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(18), 85-90

# XALQARO BAHOLASH PISA TADQIQOTIDA MATEMATIK SAVODXONLIK KOMPITENSIYALARI

MAXMUDOVA D.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.d.f., professor

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarda matematik va moliyaviy savodxonlik kompetensiyalari shakllantirish va uni rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligi tekshirilibgina qolmasdan, yana qo'shimcha ravishda turli ijtimoiy so'rovnomalar orqali ularning o'qish shart- sharoitlari, muammo va yutuqlari ham o'rganiladi. Shuningdek, mazkur dasturda, "Moliyaviy savodxonlik", "Muammoni hamkorlikda yechish" kabi yo'nalishlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan, o'quvchilarda matematik va moliyaviy savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha bir nechta tavsiyalar berib o'tilgan. Bundan tashqari innovasion yondashuv va zamonaviy ta'lim berish jarayonida o'quvchilarda matematik va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish yuzasida turli topshiriqlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** PISA, matematik savodxonlik, bilim sifati, matematik va moliyaviy savodxonlikdan topshiriqlar, mazmun sohalari.

**Аннотация.** В статье формирование и развитие математической и финансовой грамотности учащихся проверяется не только грамотность учащихся, но и изучаются условия их учебы, проблемы и достижения посредством различных социальных опросников. Также в данной программе дана информация о таких направлениях, как «Финансовая грамотность», «Совместное решение задач», даны несколько рекомендаций по формированию навыков математической и финансовой грамотности учащихся. Кроме того, в процессе инновационного подхода и современного образования возникают различные задачи в области развития математической и финансовой грамотности учащихся.

**Ключевые слова:** PISA, математическая грамотность, качество знаний, задания по математической и финансовой грамотности, области содержания.

**Abstract.** In the article, the formation and development of students' mathematical and financial literacy competencies, not only the literacy of students is checked, but also their study conditions, problems and achievements are studied through various social questionnaires. Also, in this program, information is given about directions such as "Financial Literacy", "Collaborative Problem Solving", several recommendations are given for the formation of students' mathematical and financial literacy skills. In addition, in the process of innovative approach and modern education, various tasks are presented in the field of development of mathematical and financial literacy of students.

**Key words:** PISA, mathematical literacy, quality of knowledge, assignments from mathematical and financial literacy, content areas.

## Kirish

Globalashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar,

mutaxassislarining o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) o'tgan davr

mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg'ayishidir. Shu ma'noda OECD dek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'lim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ular nechog'li samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo'ldi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga<sup>1</sup> muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sibkelayotganyoshavlodnima'naviyaxloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030 - yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni;

Konsepsiya doirasida, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq<sup>2</sup>:

O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment – PISA); Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS); O'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study TIMSS); Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini (The Teaching and Learning International Survey

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

– TALIS) tashkil etishga kirishildi.

#### Adabiyotlar tahlili

Dunyo hamjamiyatidagi iqtisodiy oʻzgarishlar aholining matematik va moliyaviy savodxonligini oshirishga boʻlgan ehtiyoj ortib borayotganini belgilab bermoqda. Matematik va moliyaviy savodxonlikni oshirish rivojlangan davlatlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyalarida asosiy yoʻnalishlardan biri sifatida belgilangan. Hozirgi kunda bir qancha davlatlarning rivojlanish dasturida “Moliyaviy savodxonlikni oshirish davlat dasturi”, “Fuqarolarning moliyaviy madaniyati va xavfsizligi”, “Kam daromadli aholining moliyaviy savodxonligini oshirish”, “Kelajagingizni rejalashtiring” va boshqalar kabi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirib kelinmoqda. Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, moliyaviy savodxonlik koʻplab mualliflar tomonidan koʻrib chiqilgan: J. Keyns, M. Fridman, A. Lusardi, L. Mundell, D. Remund, A. Atkinson, F. Messe, E. Zemlyanskaya, I. Sasova, M. Firsova, N. Dumnaya, O. Karamova, E. Rutkovskaya va boshqalar. “Moliyaviy madaniyat” tushunchasi A. Maloletnev, Yu. Korlyugova, S.G. Yusupov asarlarida ochib berilgan [4; 14 – 30 bet]

#### Metodologiya

Har bir davlat matematik savodxonlik yoki kompetentlik tushunchasi boʻyicha oʻz qarashlariga ega va unga kutilgan natija sifatida erishish uchun oʻz taʼlim jarayonini tashkil qiladi. Tarixan matematik savodxonlik yoki kompetentlik asosiy arifmetik koʻnikmalarga ega boʻlish, xususan, butun sonlar, oddiy va oʻnli kasrlar ustida qoʻshish, ayirish, koʻpaytirish va boʻlish amallarini bajarish, foizlarni hisoblash, soddaga geometrik shakllarning yuzi va hajmlarini hisoblash kabi koʻnikmalarni oʻz ichiga olib kelgan. Oxirgi paytlarda esa

raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi odamlarda maʼlumotlar oqimidan shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli maʼlumotlarni olish imkoniyatlarining paydo boʻlishi, turmushning sogʻliq va sarmoyalar bilan bogʻliq sohalarida, ob-havo va iqlim oʻzgarishlari, soliqqa tortish, davlat qarzi, aholi sonining oʻsishi, yuqumli kasalliklar epidemiyasining tarqalishi, jahon iqtisodiyoti kabi ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan bogʻliq koʻnikmalarga boʻlgan ehtiyojlarni ham keltirib chiqardi. XXI asr hayotiy ehtiyojlarining bunday kun sayin oʻzgarib borishi esa oʻz navbatida matematik savodxonlik tushunchasining kengayib, takomillashib borishini taqozo etmoqda.

Soʻnggi 15 yil davomida bu koʻnikmalar roʻyxati va uni takomillashtirish borasida koʻplab munozarali chiqishlar boʻlayotgan boʻlsa-da, qator davlatlar oʻz taʼlim tizimiga bu koʻnikmalarni singdirish boʻyicha tegishli oʻzgartirishlarni kiritmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ham bu borada 25 ta mamlakat mutaxassislari ishtirokida “Kelajakda taʼlim va koʻnikmalar, OECD – 2030” deb nomlangan 2030-yilgacha moʻljallangan loyihani moliyalashtirgan.

PISA tadqiqotlarida oʻquvchilarning matematik tayyorgarligini baholashda quyidagi uch jihatga alohida eʼtibor qaratiladi: topshiriqlar oʻquvchilarning kundalik hayotdagi qiziqishlari va ehtiyojlariga mosligi;

muammo mazmuni (kontekst)ning hayotiyliigi;

matematikani qoʻllash bosqichlarining faqat ayrimlarini emas, balki barchasining toʻliq qamrab olinganligi, yaʼni bu jarayonning bir qisminigina bajarish (masalan, tenglamani yechish, algebraik ifodani soddalashtirish) emas, balki masalani tushunish bosqichidan boshlab, uni matematik tilda ifodalash, yechish va yechimni talqin qilishgacha boʻlgan barcha bosqichlarning hammasini

qamrab olinganligi.

Bu jihatlar o'quvchilarning matematik tayyorgarligini baholash mazmuni, ya'ni matematik savodxonlik tushunchasida o'z aksini topgan. Matematik savodxonlik tushunchasi turli yillardagi tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra unga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi [4; 14 – 30 bet]

Matematik savodxonlik ta'rifida asosiy urg'u turli sharoitlarda berilgan real muammolarni yechish uchun matematika bilan faol munosabatga berilib, matematik mulohazalar yuritishni, xoh u induktiv, xoh u deduktiv bo'lsin, hamda tabiat va jamiyatda duch kelinadigan hodisalarni matematik belgi va timsollar yordamida, ya'ni matematika tilida ifodalash, hodisalarni tushuntirish va oldindan aytib berishda matematik mulohaza yuritish, matematikaga oid bilim, tushuncha, algoritmlar, fakt va vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Matematik savodxonlik har bir kishiga matematika olamini tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning ko'zini biladigan (konstruktiv) XXI asr fuqarosi

uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar yuritish orqali maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida shakllantirishga yordam beradi. Matematik savodxonlik maxsus tuzilgan topshiriqlar yordamida baholanadi va tadqiq qilinadi. Bu topshiriqlarning mazmuni, tuzilishi va shakli tadqiqot mohiyatidan kelib chiqib qabul qilingan muayyan talablarga javob berishi lozim bo'ladi.

Matematik savodxonlikni baholashga qaratilgan maxsus PISA sinov topshirig'ining tuzilmasi (modeli) quyidagi 3 jihat asosida tuziladi: – topshiriq tegishli bo'lgan matematika fanining mazmun sohasi, ya'ni bo'limlari; – muammo mazmuni yoki konteksti; – topshiriqni bajarishda o'quvchilar namoyish qilishi lozim bo'lgan aqliy faoliyat turi [4; 14 – 30 bet]

Shu bilan birga, yosh avlodning moliyaviy savodxonligini shakllantirish maqsadida bolalar uchun qo'shimcha ta'lim muassasalari va umumta'lim muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida pedagogik hamkorlikning keng imkoniyatlari va ilmiy asoslangan kadrlar yetishmasligi o'rtasida kamchiliklar aniqlandi.

Xususan, kichik yoshdagi o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini shakllantirish bo'yicha qisqa muddatli qo'shimcha ta'lim dasturining samaradorligini aniqlash lozim. Buni amalga oshirishda quyidagilar hisobga olinadi:

kichik maktab o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini shakllantirishda qo'shimcha ta'limning afzalliklari va imkoniyatlari;

kichik yoshdagi o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini shakllantirishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar; moliyaviy savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari;

kichik yoshdagi o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini shakllantirishning dastlabki va joriy diagnostikasi natijalari;

mashg'ulotlarning interfaol shakllaridan foydalanishni o'z ichiga olgan bolalarning muammolari, talablari va ehtiyojlari, ularning yoshi va individual xususiyatlari, amaliyotga yo'naltirilgan muhitni yaratishni ta'minlash.

Britaniyalik iqtisodchilar A.A. Atkinson va F.A. Messe o'z ishlarida moliyaviy savodxonlikni "Oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy xabardorlik, bilim, ko'nikma, munosabat va xatti-harakatlar majmui va natijada shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish qobiliyati" sifatida belgilaydi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, moliyaviy savodxonlik shaxsning ijtimoiy xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. "Moliyaviy bilimlar" atamasi ma'lum moliyaviy harakatlarni amalga oshirish, moliya, moliyaviy qonunlar sohasida harakat qilish imkonini beruvchi olingan bilimlar to'plami sifatida taqdim etiladi [4; 14 – 30 bet]

Hozirgi kun yoshlari o'rtasidagi muammolardan biri kelajak rejalari haqida o'ylab ko'rmasliklari, isrofgarchiliklarga yo'l qo'yishlarini misol qilish mumkin. Natijada ular mustaqil hayotga qadam qo'yganlarida moliyaviy bilimga ega emasliklari ularga qiyinchiliklar tug'diradi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun biz bolaga yoshligidanoq moliyaviy bilim berib borishimiz lozim. Ushbu asos uchta asosiy masala bo'yicha moliyaviy bilim, ko'nikma va munosabatlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash orqali moliyaviy ta'limni rejalashtirish, o'qitish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan:

pulni qanday boshqarish kerak;  
tanqidiy iste'molchiga aylanish;

pulning hayotimizdagi muhim rolini tushunish

Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni "matematika

tilida ifodalash (matematik modellashtirish)", "matematikani qo'llash", "topilgan matematik yechimni berilgan muammoga nisbatan talqin qilish va baholash" kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Qisqacha qilib, bu faoliyat turlarini "mulohaza yuritish", "ifodalash", "qo'llash" va "talqin qilish" va "baholash" deb yuritiladi.

Matematik mulohaza yuritish xoh u deduktiv, xoh u induktiv bo'lsin, maktabdagi matematika fanining asosini tashkil etadigan ayrim tayanch tushunchalar bilan bog'liq. Bunday tayanch tushunchalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

miqdor, sanoq sistemalari va ularning algebraik xossalarini tushunish;

abstraksiya va timsollar yordamida ifodalashning muhimligini anglash;

matematik strukturalar va ulardagi qonuniyatlarni ko'rish;

miqdorlar orasidagi funksional bog'lanishlarni tanish;

matematik modellashtirishni real olamning turli (masalan, fizik, biologik, ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar fanlardagi) hodisalarni tadqiq qilish vositasi sifatida qo'llash;

statistika asosida o'zgaruvchanlik yotishini anglash.



Matematik savodxonlik: Matematik mulohaza yuritish, masalalar yechish (modellashtirish) sikli, matematik mazmun, kontekstlar hamda XXI asr ko'nikmalari

orasidagi bog'lanish.

Topshiriqlardan namunalari

Rasmda Jahongirning ota-onasi ko'chmas mulk agentligidan sotib olmoqchi bo'lgan uyning chizmasi berilgan.

1-savol. Uy polining umumiy yuzini (devorlar qalinligi va ayvon bilan birgalikda) hisoblash uchun uydagi har bir xonaning yuzi hisoblab chiqiladi. O'lchab chiqilgan barcha xonalar polining

## UY-JOY XARIDI

yuzlari yig'indisi

uyning umumiy

maydoni

yuziga teng

bo'ladi. Biroq

buni hisoblab

chiqishning

ancha qulay va

samarali usuli

ham mavjud.

Mazkur usulda

faqat 4 ta kesma

uzunligini o'lchab, ular yordamida uyning

umumiy yuzini topish mumkin. Yuqoridagi

chizmada uyning umumiy maydonini

hisoblash uchun kerak bo'ladigan ayni shu

to'rtta kesmani belgilang va ular yordamida

uy polining umumiy yuzini hisoblang.

1-savol to'g'risida ma'lumot

Savol tavsifi: fazoviy tasavvurdan

foydalanib, uyning chizmasida umumiy

yuzini aniqlash uchun o'lchash kerak bo'lgan

minimal sondagi tomonlarni ko'rsatish.

Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.


Kontekst: shaxsiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.


1-savolning baholash mezonlari

Quyidagi holda javob to'liq qabul qilinadi:

To'g'ri javob: Quyidagi chizmada uy polining umumiy yuzini hisoblash uchun kerak bo'ladigan to'rtta kesmalar 9 xil usulda keltirilgan. Javobda bu usullardan



birinchisi ko'rsatilgan va uyning umumiy yuzi hisoblangan. Bu holda 4 ta kesma: katta to'g'ri to'rtburchakning tomonlari (9,7 m va 8,8 m), hamda chizma yuqori qismining o'ng tomonida joylashgan kichik to'g'ri to'rtburchak tomonlari (4,4 m va 2



cm). Uyning umumiy polining yuzini topish uchun uy chizmasi yuqori qismi o'ng tomoni kichik to'g'ri to'rtburchak bilan to'ldiriladi va katta to'g'ri to'rtburchak hosil qilinadi. Bu holda uy yuzi berilgan katta to'g'ri to'rtburchak yuzidan to'ldirilgan kichik to'g'ri to'rtburchak yuzi ayirib topiladi.

Bunda berilgan masshtabga ko'ra kichik to'g'ri to'rtburchak tomonlari 2 m va  $8,8 - 4,4 = 4,4$  m ga teng bo'ladi.

$S = 9,7 \cdot 8,8 - 2 \cdot 4,4 = 85,36 - 8,8 = 76,56$  (m<sup>2</sup>)

$S = 76,56$  m<sup>2</sup> [Talab etilgan yuzini o'lchab, hisoblab chiqish uchun faqatgina to'rtta kesmadan foydalanilgan.]

Quyidagi hollarda javob qabul qilinmaydi:

boshqa javoblar bo'lsa;

javob berilmagan bo'lsa [5;31 – 50 bet]



1-rasm. Fudziyama tog'i Yaponiyadagi mashhur ziyoratgoh hisoblanadi.

2-savol. Har yili faqatgina 1 iyuldan 27 avgustga qadar Fudziyama tog'iga chiqishga ruxsat beriladi. Ayni shu vaqt mobaynida taxminan 200 000 nafar odam Fudziyama tog'iga ko'tariladi. O'rtacha har kuni nechta odam Fudziyama tog'iga ko'tariladi?

- A) 340 nafar odam.
- B) 710 nafar odam.
- C) 3400 nafar odam.
- D) 7100 nafar odam.
- E) 7400 nafar odam.

2-savol to'g'risida ma'lumot

Savol tavsifi: muayyan vaqt oraliq'ida o'rtacha kunlik miqdorni aniqlash.

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.

Kontekst: ijtimoiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.

2-savolning baholash mezon

Quyidagi holda javob to'liq qabul qilinadi:

To'g'ri javob: C) 3400 nafar odam.

Quyidagi hollarda javob qabul qilinmaydi:

boshqa javoblar bo'lsa;

javob berilmagan bo'lsa [5;31 – 50 bet]

3-savol. Fudziyama tog'iga olib chiqadigan Gotemba so'qmog'ining umumiy uzunligi taxminan 9 kilometr ga teng. Sayohatchilar 18 kilometr yurganlaridan so'ng soat 20:00 da qaytib kelishlari kerak. Toshpo'lat o'rtacha bir soatda 1,5 kilometr yo'l bosib, tog'ga ko'tarilishini va tog'dan u bundan ikki marta katta tezlik bilan tushishini taxmin qildi. Shuningdek, ovqatlanish va

dam olish uchun vaqti qolishini mo'ljalladi. Toshpo'latning tog'ga chiqish va tushish tezliklaridan foydalanib, soat 20:00 da qaytishi uchun u sayohatini uzog'i bilan qachon boshlashi kerakligini aniqlang.

3-savol to'g'risida ma'lumot

Savol tavsifi: sayohat uchun agar ikkita turlicha tezlik berilgan bo'lsa, sayohatning masofasi va qaytish vaqtini topish.

Matematikaga oid mazmun sohasi: o'zgarish va munosabatlar.

Kontekst: ijtimoiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.

3-savolning baholash mezon

Quyidagi holda javob to'liq qabul qilinadi:

To'g'ri javob: ertalabki 11 da [11:00]

Quyidagi hollarda javob qabul qilinmaydi:

boshqa javoblar bo'lsa;

javob berilmagan bo'lsa [5;31 – 50 bet]

4-savol. Toshpo'lat Gotemba so'qmog'i boy'lab ko'tarilishidan oldin o'zi bilan qadam hisoblagich oldi. U yuqoriga chiqquncha qadam hisoblagich 22500 qadam bosganini ko'rsatdi. Toshpo'lat 9 kilometrlik Gotemba so'qmog'i boy'lab ko'tarilishida uning o'rtacha qadam uzunligini aniqlang. Javobingizni santimetrlarda ifodalang.

4-savol to'g'risida ma'lumot

Savol tavsifi: kilometrlarda berilgan masofani berilgan songa bo'lib, natijani santimetrlarda ifodalang.

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar. Kontekst: ijtimoiy.

Aqliy faoliyat turi: qo'llash.

4-savolning baholash mezon

Quyidagi holda javob to'liq qabul qilinadi:

To'g'ri javob: 40

Quyidagi hollarda javob qisman qabul qilinadi: natijani santimetrlarda xato ifodalangan javoblarning biror xona birligida 4 raqami turgan bo'lsa, ya'ni ,



0,4 [javob metrlarda ifodalangan]  
4000 [birliklar noto'g'ri o'tkazilgan]

Quyidagi hollarda javob qabul qilinmaydi:

boshqa javoblar bo'lsa;

javob berilmagan bo'lsa [5;31 – 50 bet]

Tahlil va natijalar

Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni “matematika tilida ifodalash (matematik modellashtirish)”, “matematikani qo'llash”, “topilgan matematik yechimni berilgan muammoga nisbatan talqin qilish va baholash” kabi aqliy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. PISA-2021 tadqiqotlarida matematika fanining mazmun sohasining har biriga yangi mavzular kiritilgan bo'lib ularga alohida e'tibor qaratish lozim.

PISA topshiriqlarini yechish uchun matematikada chuqur bilim va ko'nikmalarni talab qilinmaydi. Lekin, o'zlashtirilgan muayyan bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarga qo'llashga juda katta e'tibor beriladi. Ularni fakultativ kurs (to'garak) mashg'ulotlarida ham muhokama qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, matematika fanidan loyiha ishlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bu loyiha ishlariga mavzu sifatida PISA topshiriqlari yoki ularga o'xshash kichik ilmiy ishlanishlarni talab qiladigan topshiriqlarni berish tavsiya etiladi.

Muhokama

Matematika PISA tadqiqotlarining ochiq topshiriqlarini atroflicha o'rganish, shu topshiriqlarga o'xshash yoki ularni yechishga yordam beradigan topshiriqlarni ishlab chiqishga qiziqqan mutaxassislar uchun mazkur qo'llanma munosib manba bo'lib xizmat qiladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA topshiriqlariga

qo'yiladigan talablarga riya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga, ularni chalg'itib qo'yishi ham mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida asosiy e'tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiy matematik tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa

O'quvchilarning matematik savodxonligi, kreativ fikrlashi, o'qish savodxonligi, albatta, ta'lim tizimimizning rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini emas, balki o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlarini o'rganadi. O'quvchilar maktabda o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsani to'liq o'zlashtira olmaydilar. Samarali o'rganuvchi bo'lish uchun nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ular qanday va nima uchun o'rganilishi haqida xabar dor bo'lishi lozim. O'quvchilarning matematik savodxonligini baholashda ularning taniqidiy fikrlashi, ijodkorligi, kreativligi, mulohaza yurita olishi kabi ko'nikmalari inobatga olinadi.

O'qituvchilar matematik va moliyaviy topshiriqlardan darsning mavzusini mustahkamlash, takrorlash yoki hayotiy vaziyatlarga tadbiq qilish bosqichlarida hamda darsdan tashqari to'garak va fakultativ mashg'ulotlarida foydalanishlari mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir PISA topshirig'ini o'rganayotgan vaqtda oldin unga oid tayanch bilimlarni faollashtirish, o'quvchilarni bu topshiriqni yechishga tayyorlash lozim bo'ladi. Shuningdek, bitta topshiriqning bir savoli bir sinfning



# OLIV O'QUV YURTLARIDA FIZIKA FANIDAN VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARINI REAL LABORATORIYA ISHLARIDAN FARQI VA AFZALLIKLARI

YALGASHEV UMIDJON MELIBAY O'G'LI

Guliston davlat universiteti Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti Fizika kafedra erkin tadqiqotchisi

RAHMANOV VALIJON TURDALIYEVICH

Guliston davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti Fizika kafedra o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mualliflar, Oliy o'quv yurtlarida fizika fanidan virtual laboratoriya ishlarini real laboratoriya ishlaridan farqi va afzalliklari mazmuni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** fizika, virtual laboratoriya, kasbiy kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, elektron darslik, qobiliyat, temperament, motivatsiya, faoliyat mohiyati, motivatsiyali, axborot, operatsion, komponent, eksperimental.

**Аннотация.** В данной статье авторы расскажут о содержании отличий и преимуществ виртуальной лабораторной работы по физике в высших учебных заведениях от реальной лабораторной работы.

**Ключевые слова:** физика, виртуальная лаборатория, профессиональная компетентность, профессиональная подготовка, электронный учебник, способности, темперамент, мотивация, характер деятельности, мотивационный, информационный, оперативный, компонентный, экспериментальный.

**Annotation.** In this article, the authors will talk about the content of the differences and advantages of virtual laboratory work in physics in higher education institutions from real laboratory work.

**Key words:** physics, virtual laboratory, professional competence, professional training, electronic textbook, abilities, temperament, motivation, nature of activity, motivational, informational, operational, component, experimental.

Kirish.

Oliy ta'lim muassasalarning o'quv jarayonida fizika ustuvor asosiy fanlardan

biridir. Fizik hodisalarni va bu hodisalarni tushuntiruvchi asosiy qonuniyatlarni bilish kelajakda amaliy xarakterdagi fanlarni o'zlashtirish uchun nafaqat fundamental asos yaratadi, balki bo'lajak muhandislarning fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi.

Keyingi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurati paydo bo'ldi. Ko'pgina oliy ta'lim muassasalarda fizika fanining uzoq vaqtdan beri eskirgan laboratoriya jihozlari, o'quv jarayonini modernizatsiya qilishda

qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Ma'ruza eksperimentini namoyish qilishda, shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlarida eski, ta'mirlangan qurilmalardan foydalaniladi. Ta'lim tizimida yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, har tomonlama modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgan asosiy masalalardir. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish mavjud o'qitish texnologiyalarini samarali ravishda to'ldirishi yoki an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan qo'shimcha afzalliklarga ega bo'lishi kerak. Masalan, fizika o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish laboratoriya mashg'ulotlarini yanada jonli va qiziqarli qiladi, shu bilan birga ta'lim sifatini

oshiradi. Virtual laboratoriya - bu haqiqiy laboratoriya bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan yoki ularning to'liq yo'qligida tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy taminot kompleksidir.

Yuqori innovatsion texnologiyalar va fan texnika rivojlangan davrda texnik ta'lim yo'nalishlaridagi universitetlar oldida muhandislik-texnik muammolarni hal qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifa turibdi. Shuning uchun fizika fanini ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari shaklida o'qitishning an'anaviy usullaridan voz kechmasdan, yangi texnologiyalarni qo'llagan holda o'qitish uslublarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ldi. Zamonaviy talabada mustaqil o'z-o'zini o'qitish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifadir. Zamonaviy oliy ta'lim o'quv jarayoniga AKT-axborot va kompyuter texnologiyaning turli shakllari va qurilmalarini faol joriy etish orqali, talabaning mustaqil auditoriyadan tashqari faoliyatini prinsiplial jihatdan ta'limning yangi shakli sifatida joriy qildi. Hozirgi vaqtda talabalar tomonidan uyda bajariladigan mustaqil ishlarning hajmi va ahamiyatini yo'qotmasdan ko'p sonli mavzularni o'zlashtirilishini rivojlantirishning yangi shakli AKT qurilmalarining o'rni va rolini oshirish orqali amalga oshirilmoqda. Mustaqil ta'lim - bu qoida tariqasida, o'qituvchi tomonidan auditoriyada batafsil bayon qilingan materiallar asosida va batafsil namoyish etilgan metodikadan foydalangan holda uy vazifasining yozma, o'g'zaki va tajriba shakldagi variantini tayyorlash jarayoni. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish metodikasi ko'p jihatdan nazariy materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga olib keladi. Universitet bitiruvchisi eksperimentlar o'rnatish, mustaqil tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion texnologiyalarni yaratish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun talabalar real va virtual laboratoriya ishlarini tayyorlash va bajarishda mustaqil o'z-o'zini

o'qitishning roli muhimdir. Talabalarning ilmiy va kasbiy faolligi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan yangi innovatsion texnologiyalardan darslarda faol foydalanganligi bilan shakllanishi kerak. Mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy qarashlarida asosiy nuqtalardan biri talabalarning mustaqil ishini to'g'ri tashkil etishdir. Uni fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarish misolida tahlil qilaylik. Masalan, fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda talabaning ikki xil mustaqil ishini ko'rib chiqaylik. Birinchisi: talaba mustaqil ravishda ta'lim muassasasidan tashqarida, masalan, uyda yoki kutubxonada ishlashga tayyorgarlik ko'radi (auditoriyadantashqari ish), ikkinchisi - auditoriya ishi, ya'ni talaba ishga tayyorlanib, universitet laboratoriyalarida ishini bajaradi. Shu bilan birga shuni ta'kidlash kerakki, darslarni optimallashtirish uchun an'anaviy o'qitish usullarini to'ldiradigan yangi o'qitish usullarini ishlab chiqish kerak. Ushbu ishda biz fizika fanidan real laboratoriya ishlarini bajarishga mustaqil tayyorlanishning tarkibiy elementi sifatida virtual laboratoriya ishlaridan foydalanishni tahlil qilib ko'ramiz. Bugungi kunda ko'pchilik o'qituvchilari real laboratoriya ishlarini virtual laboratoriya ishlariga almashtirishni taklif etadi. Lekin biz buni noto'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki bo'lajak muhandis haqiqiy qurilmalar bilan ishlashi, tajriba o'tkazishi, o'lchash va matematik hisob kitob ishlarini amalga oshirishi kerak. Endi har bir ish turining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. Kompyuter laboratoriyasi qurilmalaridagi virtual laboratoriya ishlari, qoida tariqasida real eksperimental qurilmaning kompyuter modelini ifodalaydi. Virtual laboratoriya ishlari (VLI) model bo'lgani uchun u har doim ham o'rganilayotgan hodisa yoki obyektning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettira olmaydi.

Bundan tashqari, virtual ishning kamchiligi ma'lum darajada u yoki bu ishini talaba uyda yoki maxsus kompyuter bilan jihozlangan laboratoriya xonasida individual

bajarishi kerak, lekin universitetni bitirgan mutaxassis jamiyatda yashashi va jamoa bo'lib mehnat qilishini hisobga olishimiz kerak. Real laboratoriya ishlari (RLI) talabalarni guruhda ishlashga, eksperimental topshiriqlarni qo'yish va loyihalashga, ularni real bajarishga o'rgatadi. Shunga qaramay, virtual laboratoriya ishlarining an'anaviy laboratoriya ishlaridan bir qator afzalliklarini ko'rib o'tamiz:

- Laboratoriya ishlarining soni va ularning hajmi ko'p jihatdan o'quv muassasasi laboratoriya jihozlarining mavjudlik imkoniyati bilan bog'liqligi;

- O'quv xonalaridagi laboratoriya jihozlari biz xohlaganicha yangilanmasligi;

- Ba'zi bo'limlar (elektromagnitizm, kvant, atom va yadro fizikasi)dan ko'pgina tajribalarni o'quv laboratoriyalarida amalga oshirib bo'lmazligi;

- Qimmat uskunalarni xarid qilmasdan kompyuter modellarini yaratish mumkinligi;

- Real vaqt rejimiga qaramasdan virtual ishlarni qayta-qayta amalga oshirish mumkinligi.

Agar universitetlarda real laboratoriya ishlari virtual laboratoriya ishlari bilan almashtirilsa, talabalarni real vaziyatlardan ajralishga olib keladi. Virtual laboratoriya ishlarini bajarishda asboblar va jihozlar yordamida fizik kattaliklarni o'lchash bo'yicha amaliy ko'nikmalar, tajriba o'tkazish, elektr zanjirlarini yig'ish va boshqa malakalari shakllanmaydi. Haqiqiy obyektlar bilan ishlay olmaydigan mutaxassisni tayyorlash oliy ta'limdagi bitiruvchi kadrlarning sifatsizligini belgilaydi. Ko'pincha virtual laboratoriya bilan yaxshi ishlay oladigan zamonaviy talaba haqiqiy modellar bilan ishlashda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmaydi, bu esa zamonaviy muhandisni tayyorlashdagi muhim kamchilik hisoblanadi.

Har qanday real yoki virtual laboratoriya ishining bajarilishi bir necha bosqichlardan iborat:

- 1) ishga tayyorgarlik - talaba ish daftariga ishning qisqacha tavsifini kiritadi. Ishning tavsifi ishning maqsadini, qisqacha nazariyani,

zarur jihozlarni, ishni bajarish tartibini, o'lchangan qiymatlarni qayd etish jadvallarini aks ettiradi;

- 2) ishga ruxsat berish – o'qituvchi ish bo'yicha so'rov o'tkazadi;

- 3) ishning eksperimental qismini bajarish;

- 4) o'lchov natijalarini hisoblash va qayta ishlash. Asbobdagi xatolarni aniqlash;

- 5) laboratoriya ishini himoya qilish.

Talabalar har bir ish oxirida berilgan nazorat savollariga javob beradilar va tadqiqot natijalari bo'yicha yozma hisobot taqdim etadilar. Ammo asosiy farq shundaki, VLI individual ravishda amalga oshiriladi, RLI esa 2-3 kishidan iborat kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Guruhda ishlash talabalarda hamkorlikda ishlash qobiliyatini, jamoada ishlashdagi mas'uliyat hissini shakllantiradi, bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur omil hisoblanadi. Ishning eksperimental qismidagi farqni ham qayd etamiz. Keling, ushbu farqni elektromagnitizm bo'limida VLI va RLIning bajarish misolida tahlil qilaylik.

Tadqiqot natijasi va muhokama

Elektr va magnetizm bo'limiga oid VLI va RLIning ko'rib chiqaylik, "Kondensator sig'imlarini o'rganish" ishida 1-rasmda keltirilganday jixozni yig'amiz va kerakli parametrlar tanlab olinadi va qurilma ishga tushiriladi. Eksperimentni ikkita sharoitda ham ko'rishimiz mumkun;

-birinchi sharoit VLI da;

-ikkinchi sharoit RLI da.


Biz faqat birinchi sharoit uchun qurilma rasmlarini tashladik ikkinchi sharoitda bevosita talabalarni o'zlari jixozlarni kerakli ko'rsatmalar asosida yig'ishadilar.

Talaba VLIning bajarishda kompyuter modeli bilan ishlayotganda, masalan, Sichqoncha bilan "Run" tugmasini bosib, tajribani boshlaydi. Kondensator parametrlarini kirgazish orqali ish boshlanadi. Birinchi galda kremniyni dielektr sifatida oldik, orasidagi masofani  $d=7\text{mm}$  va ko'ndalang kesim yuzasini  $S=106\text{mm}^2$  deb olindi va shu ko'rsatkich bo'yicha natijalarni olamiz. Ushbu holatni


$d$  ni va  $S$  ni qiymatini o'zgartirgan holatda natijalarni birnecha qiymatlarni olishimiz va real sharoitdagi bilan solishtirishimiz mumkin.

Agar kompyuter modeli bilan ishlashda xatolik yuzaga kelsa, siz shunchaki kondensator parametrlarni tozalashingiz va tajribani yana takrorlashingiz mumkin. Ammo RLIni bajarishda xatoni tuzatish unchalik oson emas, bu esa talabani ehtiyot bo'lishga va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishga majbur qiladi. Xulosa qilib shuni


ta'kidlaymizki, real laboratoriya ishlarini virtual ishlarga almashtirmasdan, balki ularni mustaqil ish sifatida to'ldirish orqali amaliyotga joriy etish zarur. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish ta'limning an'anaviy shakllariga nisbatan qo'shimcha afzalliklar mavjud bo'lsagina o'zini oqlaydi. Biz talaba va o'qituvchi o'rtasidagi bevosita muloqotni yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ajralmas qismi deb bilamiz.




1-rasm. Kondensatorni sig'imini dielektrigi  $\epsilon = 12$  (kremniy moddasi) holat uchun aniqlash.



2-rasm. Kondensatorni sig'imini dielektrigi  $\epsilon = 3.5$  (qog'oz uchun) holat uchun aniqlash.



3-rasm. Kondensatorni sig'imini dielektrigi  $\epsilon = 2.9$  (polistrol uchun) holat uchun aniqlash.



4-rasm. Kondensatorni sig'imini dielektrigi  $\varepsilon = 5.8$  (chini uchun) holat uchun aniqlash.

“Kondensatorlarni sig'imini turli dielektik moddalarda o'rganish” ishda 1-rasm. VLI va 2-rasm, 3-rasm va 4-rasmlarda ko'rsatilgan. Talaba VLIni bajarishda kompyuter modeli bilan ishlayotganda, masalan, Sichqoncha bilan “Run” tugmasini bosib, tajribani boshlaydi. Talaba har-bir kondensator sig'imlar ko'rsatkich yozib oladi va uni real sharoitdagi ko'rsatkichlari bilan solishtiradi va tahlil qiladi.

Xulosa

Ta'lim tizimida yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, har tomonlama modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgan asosiy masalalardir. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish mavjud o'qitish texnologiyalarini samarali ravishda to'ldirishi yoki an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan qo'shimcha afzalliklarga ega bo'lishi kerak. Masalan, fizika o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish laboratoriya mashg'ulotlarini yanada jonli va qiziqarli qiladi, shu bilan birga ta'lim sifatini oshiradi. Virtual laboratoriya - bu haqiqiy laboratoriya bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan yoki ularning to'liq yo'qligida tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy taminot kompleksidir.

An'anaviy laboratoriyalar bilan taqqoslaganda, virtual laboratoriyalar bir qator afzalliklarga ega:

-virtual laboratoriyalar xavfsizroq, ya'ni yuqori kuchlanishli yoki xavfli kimyoviy moddalar bilan ishlashda virtual laboratoriya

ishlaridan foydalanish qulay;

-virtual ishlar ko'p qirrali, shuningdek, moslashuvchanlik va turli ob'ektlarga moslashish qulayligini ta'minlaydi;

-oddiy sharoitda imkonsiz bo'lgan yoki uni o'tkazish katta vaqt va moddiy xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan tajribani o'tkazish mumkin bo'ladi;

-shaxsiy kompyuterdan foydalanish nafaqat bajarilishini nazorat qilishni, balki talabani aniq laboratoriya ishini bajarishga tayyorlashni ham soddalashtiradi;

-kompyuterdan foydalanish yaxshi o'qigan o'quvchilarga o'quv materialini tezroq o'zlashtirishga va ortda qolganlarni kutmaslikka imkon beradi;

- virtual laboratoriya ishining grafik imkoniyatlari real qurilmalar bilan yoki ikki o'lchovli shaklda tasvirlab bo'lmaydigan ko'p o'lchovli jarayonlarni ko'rish imkonini beradi;

-laboratoriya ishlarini yaratish xarajatlarini kamaytirish qisqa vaqt ichida ularning bazasini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi va shu bilan o'qitishda ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Fizika o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham borligini ta'kidlash lozim:

-haqiqiy tajribani kompyuter bilan to'liq almashtirib bo'lmaydi;

-muhandislik fakulteti talabalarini o'qitishda juda muhim bo'lgan asbobuskunalar





# O'QITUVCHILARDA ZAMONAVIY DARSLARNI ONLINE TA'LIM PLATFORMALARIDA TASHKIL ETISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH

KARSHIYEVA DILNOZA UTKIRJONOVNA  
Nukus innovatsion institute

**Annotatsiya.** Hozrgi kunda zamonaviy darslarni tashkil etish, o'qituvchilarning axborot bilan ishlash va kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari zolzarb hisoblanmoqda. Ushbu maqolada aynan maktab o'qituvchilarini darslarda turli xil topshiriqlarni yaratishda online ta'lim platformalaridan smarali foydalanish metodikasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Metod, kompetentlik, kvesy, platforma, online ta'lim, veb-kvest, intellektual o'yin, elektron adabiyot.

**Аннотация.** В настоящее время актуальны проблемы организации современных уроков, работы с информацией и развития профессиональной компетентности педагогов. В этой статье речь пойдет именно о методике smarali использования онлайн образовательных платформ учителями мактаб для создания разнообразных заданий на уроках.

**Ключевые слова.** Метод, компетентность, квест, платформа, онлайн-обучение, веб-квест, интеллектуальная игра, электронная литература.

**Annotation.** Currently, the problems of organizing modern lessons, working with information and developing the professional competence of teachers are relevant. In this article, we will focus specifically on the swarali methodology of using online educational platforms by maktab teachers to create a variety of tasks in the classroom.

**Keywords.** Method, competence, quest, platform, online learning, web quest, intellectual game, electronic literature.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning pedagog kadrlarni qayta tayyorlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun zarur metodik shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni darslarini loyihalashga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish zaruriyati tug'ilmoqda.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida maktab o'qituvchilarining darslarini online platformalarida tashkil etish rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarini, xususan "Kvest" texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu texnologiyadan foydalanish uchun dastlab unga oid tushuncha, imkoniyatlari, xususiyatlari, qo'llash bosqichlari, algoritmi bo'yicha tadqiqotchilarning fikrlarini hamda ularni tadqiqotlarini tahlil etish lozim.

Asosiy qism. Dastlab "Kvest" qadimgi tsivilizasiyalar davrida paydo bo'lgan va

insoniyatni butun tarixi davomida unga hamroh bo'lgan, deb taxmin qilishimiz mumkin. Chunki "Kvest" – bu jumboqli texnologiya hisoblanadi. Insoniyat esa har doim jumboqlarni echishlari uchun turli xil izlanishlarni olib borgan. Ular turli vaqtlarda yashiringan xazinalarni va tabiiy boyliklarni topishga oid izlanishlar olib borganlar.

Ma'lum vaqtgacha "Kvest" va pedagogika parallel ravishda mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan. Bu boradagi inqilob kompyuter texnologiyalari tufayli sodir bo'ldi. "Kvest" texnologiyasi pedagogikaga 20-asrning oxirida, ya'ni kompyuter o'yinlari dunyosi rivojlangandan so'ng kirib keldi. O'tgan asrning 90-yillarida "Sierra" kompyuter kompaniyasi King's Quest, Space Quest, Police Quest kabi o'yinlarini yaratdi. Ushbu ishlab chiqilgan ba'zi kompyuter o'yinlari "Kvest" nomi bilan atala boshlandi. Bu borada E.A.Igumnovanning


fikriga ko'ra, "Kvest" – ma'lum bir maqsad uchun kerakli ma'lumotlarni qidirishdir. Uning ta'kidlashicha "Kvest" tushnchasi kompyuter o'yinlari dunyosi rivojlanishidan paydo bo'lgan. [8]

Shu bilan birga bir qator tadbirlar "vob- kvest" texnologiyasiga oid voqealar o'rganilgan va unga oid ma'lumotlar keltirilgan. Ularning fikriga ko'ra, "vob-kvest " – bu vob-yo'riq hisoboti, Internetning axborot resursini talab qiladigan rolli o'yinlari elementlari bilan muammoli vazifadir saytda harakatlanish,


qidiruv Boshlang'ich tarqatuvchilar esa" vob-kvest" – bu Internet imkoniyatlaridan foydalanishgan foydalangan hozirda mustaqil ravishda faoliyat olib borishini hisobga olgan holda texnologiyadir, degan fikrni ilgari surgan.

Metod. "GENIALLY.COM" online platformatida topshiriqlar yaratish. Vob-kvestni Genially dasturida yaratish. Genially.com saytiga kiramiz va "Nachinay pryamo seychas. Eto besplatno!" tugmasi bosiladi. Agar sizni gmail.com elektron pochtagiz bo'lsa shu pochta bilan ro'yxatdan o'tasiz.


## Создавать интерактивный контент очень





1.Genially. com platformasining bosh oynasi.2. Create genially tugmasi tanlanadi




Keyingi oynada vob-kvest interaktiv ko'rinishdagi shablonlari keltirilgan biror birini tanlaymiz. (Taqdimotli, video, infografika, infografik-animasiyali rasmlar, trening materiallar, matnli)




### 3. Interaktiv shablonlar berilgan oyna



Har bir interaktiv bo'limlarda tayyor shablonlar taqdim etiladi yoki ixtiyoriy tanlangan bir neyata shablonlardan foydalanish mumkin.




Shablon tanlangandan so'ng "Get this template" tugmasi bosiladi.



Tanlangan shablon slaydlar ketma-ketligi ko'rinishida taqdim etiladi. Tayyor rasmlar yoki matnli ma'lumotlarga o'zimiz ixtiyoriy rasm tanlashimiz yoki taqdimot rasmlaridan foydalanish mumkin. Biz giperhavolani oynaning chap tomonidagi "URL" tugmasidan foydalanamiz. Olinga giperhavolani kerakli maydonga qo'yib "Replace" tugmasi bosiladi.

Barcha slaydlar giperhavolalar va topshiriqlar biriktirilgandan so'ng o'ng tomon yuqorida "Present" tugmasi bosiladi onlayn shu platformada saqlangan shablon onlayn ko'rsatish orqali veb-kvestni tashkil etish mumkin. Yoki "Share" tugmasi orqali ijtimoiy tarmoqlar orqali URL-manzilini yuborishimiz mumkin bo'ladi.



Xulosa. Respublikada elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Online ta'lim platformalarida dars topshiriqlarini yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Ta'lim muassasalari uchun online ta'lim platformalarida zamonaviy dars topshiriqlarini yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash bo'yicha ishlar ancha sust ketmoqda. Bu esa, online platformalarda topshiriqlar yaratish uslubiyoti, uning tuzilishi, o'z ichiga oladigan komponentlarini aniq bir tizimga solinmaganligi bilan bog'liq.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari bo'yicha pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish asosida "Kvest" texnologiyasini o'quv jarayoniga qo'llash orqali quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'kidlash mumkin:

- ta'lim oluvchining yuqori ta'lim natijalariga erishish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirish;

- reproduktiv yondashuv asosida mashg'ulotning muammoli xarakteriga o'tish va ularning shaxsiy tajribalari asosida ta'lim oluvchini faol bilim faoliyatini tashkil etish;

- interaktivlik va dialogiklik, hamkorlik motivasiyasini oshirishga yo'naltirilganligi;

- mazmuni o'rganilayotgan fan yoki ta'lim sohasiga mos keladigan ta'lim oluvchi faoliyati natijasi sifatida o'quv mahsulotlarini yaratish;

- elektron axborot-ta'lim resurslardan foydalanishga oid motivasiyasini oshirish;

- turli xil manbalardan olingan o'quv materiallarni taqdim etish asosida mavzuni tushunishini namoyish etish: (taqdimot, plakat, hikoya yaratish);

- belgilangan shartlar asosida reja yoki loyihani ishlab chiqish;

- ma'lum bir janrdagi ijodiy ish - spektakl, she'r, qo'shiq, videofilmlar yaratish;

- axborotni izlash va tizimlashtirish;

- detektiv hikoya, jumboq, sirlilik hikoya - qarama-qarshi faktlarga asoslangan xulosalar;

- dolzarb muammoning echimini ishlab chiqish;

- jurnalistik tekshiruv, ya'ni axborotni ob'ektiv taqdim etish (fikr va faktlarni ajratish);

- ilmiy tadqiqotlar. Noyob hodisa va kashfiyotlarni hamda onlayn manbalarga asoslangan faktlarni o'rganish;

- muammoni shakllantirishdan tortib uni hal qilish yo'llariga, natijani taqdim etish va hayotning faol sub'ekti sifatida ta'lim oluvchini rivojlanishiga qaratilganligi;



## БОШЛАНҒИЧ СИНФ МАТЕМАТИКА ДАРСЛИГИНИНГ ХАЛҚАРО ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

МОҲИНУР САИДОВА

БухДУШИ Бошланғич кафедраси профессори

**Аннотация.** Мазкур мақолада бўлажак бошланғич синф математика ўқитувчисининг методик тайёргарлиги, мақсади, аҳамияти ва методик тайёргарликда дарсликларнинг ўрни ҳақида фикр юритилган. Янги дарсликларни яратишда хориж тажрибасига таяниш, миллий дастур, ҳамда дарсликлар уйғунлиги қиёсий таҳлил этилган. Мақолада Сингапур, Россия, АҚШ, Япония ва Ўзбекистон дарсликлари мазмуни ўзаро интегратив-когнитив муҳокама этилган. Қолаверса, бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш тизимига доир модел берилган.

**Калит сўзлар.** Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси, халқаро тажриба, дарслик, дастур, таълим сифати, математика ўқитиш методикаси, методик база, ўқитувчи учун қўлланма, таълим тизими, ижтимоий-шахсий, умумқасбий.

Кириш. Таълим тизимимизда баркамол авлодни шакллантириш масаласини ҳал қилиш давлат сиёсати даражасигача кўтарилди. Бу борада 2020-йил 27-сентябрда Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни ва у асосида Ўзбекистон Республика Президентининг 2020-йил 6-ноябрдаги «Таълим-тарбия тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4884 сонли қарори, 2020-йил 6-ноябрдаги «Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6108 сонли қарори, қолаверса, кўплаб меъёрий ҳужжатлар бошланғич таълимни ташкил этиш ва унинг мазмунини замонавий тараққиёт талаблари асосида эканлиги таъкидланмоқда. Бунда, шубҳасиз, замонавий бошланғич таълим учун илмий-методологик жиҳатдан истиқболли йўналишни модернизация қилиш ва шу асосида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларни замонавий ва рақобатбардош қилиб қасбий фаолиятга тайёрлаш долзарбдир. Бунга сабаб бошланғич таълим узлуксиз таълимнинг пойдеворидир, қолаверса, бошланғич таълимнинг асосий мақ-

сади ўқувчилардаги саводхонлик асослари ва ҳисоблаш тафаккури ҳақидаги билим ва кўникмани шакллантириш, олган билимларни ҳаётда қўллай олиши ҳамда бу орқали қатор шахсий сифатларни оширишдан иборатдир.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review)

Бугунги кун бошланғич синф ўқитувчиси кучли назарий билимга эга, янгиликка интилувчан, ўз ғояларини амалиётга тадбиқ эта оладиган, жахон тажрибасига қизиқадиган ва янги андозадаги ўқитиш тизимини таълимга олиб киришга қодир бўлиши лозим. Бу вазифаларни бажаришда бўлажак бошланғич синф ўқитувчининг оладиган билимларига, аудитория ва мустақил ўзлаштириш фаолиятига алоҳида эътибор бериш лозим.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг математик-методик тайёргарлигининг халқаро тажрибаларга мос, модификацион кўринишини ишлаб чиқиш учун амалиётда мавжуд тажрибаларни таҳлил этдик.

Бугунги кунда янгиланган ўқув режа ва дастурларни амалга оширишда ўқув-методик таъминотни бойитиш ҳамда

бошланғич синф ўқитувчиларини тайёрлаш учун инновацион ёндашувларни белгилаб олиш зарурияти юзага келди. XX асрнинг 70-йиллари бошида бошланғич таълим ўқитувчилари ва «Педагогика» факультетлари талабалари Н.Б. Истомина [15. 42-б], В.Кан-Калик [16. 144-б], Л.П. Стойлова [17. 336-б] ва бошқаларнинг ишларидан фойдалана бошлади.

Н.В. Аммосова фикрича, бугунги кун бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси замон билан ҳамнафас бўлиши лозим. Унинг фикрича, талабанинг маълум бир қолипда қотиб қолишига анъанавий таълим бевосита сабаб бўлади [4. 24-б].

Н.Г. Дендеберя, Р.И. Сунгатуллина, С.Г. Григорьеванинг илмий изланишларини таҳлил этиб, бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг математик-методик тайёргарлигини такомиллаштиришнинг бир томонлама йўналтирилган дидактик имкониятлари ва уларнинг назарий-методологик ҳолатлари мавжуд эканлигининг гувоҳи бўлдик.

Масалан, Н.У. Бикбаева – бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг билиш фаолиятини фаоллаштиришда ўрганилаётган материалга ирода кучи ва ҳиссий муносабатни талаб этувчи ўқув жараёнини алоҳида ташкил этиш сифатида таҳлил этган [10. 208-б].

М.Н. Скаткин, А.М. Умронхўжаев, Т.И. Шамова, Т.И. Шўқина ва бошқа қатор олимлар муаммоли таълим орқали бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг билиш фаолиятини такомиллаштиришда таълим жараёнини муаммоли ҳал қилиш ҳақидаги фикрларни илгари сурган. Уларнинг таҳлилга кўра, бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси ўқувчида мустақиллик, ижодкорлик, фаолликни эмас, балки билиш жараёнини ташкил этишдан иборат [19. 24-б].

- Тадқиқот методологияси (Research Methodology)

Педагогик назарияда педагогнинг касбий тайёргарлигини ўзини-ўзи ривожлантириши ва бошланғич синф ўқитувчи-

ларини касбга тайёрлаш ҳамда методик-математик тайёргарлигини такомиллаштириш масалалари бўйича турли даврларда Б.С. Абдуллаева [5. 175-б], М. Ахмедов [6. 42-б], Н.У. Бикбаева [10. 208-б], З. Ибрагимов [11. 249-б], М.Э. Жумаев [12. 240-б], Ф.М. Касимов [13. 249-б], Ш.Р. Райханов [14. 35-б]лар томонидан тадқиқотлар олиб борилган.

Бўлажак ўқитувчиларнинг методик тайёргарлигини такомиллаштириш масалаларида ҳамдўстлик мамлакатларидан Н.В. Аммосова [4.24-б], З.И. Янсуфина [20. 28-б], А.В. Абрамов [7.245-б], Ф.С. Авдеев [8.34-б], В.В. Афанасьев [9. 62-б], С.М. Баташова [21.176-б]лар ҳамда Хорижий тадқиқотлар тажрибасида В. Коувенховен [23.135-б], S.Erduran, М.П. Жименез-Алеихандре [23. 27-б]лар илмий изланишлар олиб боришган.


- Таҳлил ва натижалар (Analysis and results)

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг математика ўқитиш методикасига доир методик баъзасини такомиллаштириш учун методик баъзани бугунги кун янгиликлари, хорижий тажрибалар (ўқитувчи учун қўлланма ва дарсликларни) билан бойитиш лозим. Биз юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, МДХ ва Хориж дарсликлари, ўқитувчилари учун ёзилган методик қўлланмаларни таҳлил қилдик (3-расм).

Айниқса, дарсликлар орасида Сингапур давлатининг бошланғич синф математика дарсликлари эътиборимизни алоҳида тортди. Сингапурнинг бошланғич синфлар учун мўлжалланган математика дарсликлари ҳар бир синф учун 2 қисмдан иборат А ва В қисмлар. А қисмда мундарижаларда берилган мавзуларнинг назарий қисми берилган бўлиб, В қисмида ўқувчилар назарий билимларни турли топшириқларни ечиш орқали мустаҳкамлайдилар.

Мазкур дарсликлар мавҳум фикрлаш ва тасвирий воситалар орқали ўрганишга мўлжалланган бўлиб, бу дарслик ўқувчиларда фаол фикрлаш жараёнини, матема-





*1-расм. Сингапурнинг 1-4 синфлар учун дарслик ва иш дафт арлари*

тик ғояларни ва муаммоларни ҳал қилишни рағбатлантиради. Дарслар ўқитувчининг кўрсатмаси ва мустақил иши аралашмаси учун мўлжалланган бўлиб, ўқувчилар ғояларни муҳокама қилишга ва муаммони ҳал қилишнинг қўшимча усулларини ўрганишга таклиф этилади.

Дарсликларнинг хусусиятлари ва компонентлари куйидагилардан иборат:

Математик тушунчалар биринчи саҳифаларда киритилади ва дарҳол баҳолаш ва мустаҳкамлаш имконини берувчи махсус ўқув вазифалари орқали ўзлаштиришга ўргатилади.

Аниқ тасвирий абстракт ёндашуви ўқувчиларга математикани мазмунли тарзда таништириш имконини беради.

Дарсликнинг иш дафт арига тўғридан-тўғри боғлиқлиги диққат марказида кўриб чиқиш ва баҳолашни осонлаштиради.

Моделлаштириш усули ўқувчиларга

муаммоларни тез ва самарали равишда тасаввур қилиш ва ҳал қилиш имконини беради.

Рангли тасвирлар ўқувчиларнинг фаол иштирокини таклиф қилади ва тушунчалар ҳақида жонли муҳокамани осонлаштиради.

Навбатдаги дарсликлар «Рус мактаби» ўқув-услубий мажмуасини ўз ичига олади. Дарсликлар бошланғич умумий таълимнинг янги федерал давлат таълим стандартида ишлаб чиқилган ўқитиш тамойилларини амалга оширади.

Ўқув материални ўрганиш кетма-кетлиги ҳисоб-китобларнинг онгли натижаларини шакллантиришни, бошланғич синф ўқувчилари учун ҳисоблашнинг қулай усулини топишни, ўқув материални умумлаштиришни, ҳисоб-китобларнинг дастлабки тамойиллари ҳақидаги маълумотларни тушунишни таъминлайди.



*2-расм. Россия таълим тизимида ўқитиладиган бошланғич синф математика дарсликлари.*

Дарслик материали тизимли-фаол ёндашувни амалга ошириш, табақалаштирилган таълимни ташкил этиш ва бошланғич умумий таълимнинг асосий таълим дастурини ўзлаштиришнинг шахсий, предметли ва метапредметли натижаларига эришишни таъминлаш имконини беради.

Вазифалар тизими ўқувчиларда ўқув ва амалий муаммоларни ҳал қилиш кўникмаларини шакллантиришни ва функционал саводхонликни ривожлантиришни таъминлайди. Когнитив қизиқишни ривожлантириш, мантикий вазифалар, зукколик учун топшириқлар, шунингдек, реал ҳаётдан амалий характерга эга бўлган вазифалар билан таъминланади. Дарслик орқали ўқувчиларнинг фазовий тасаввурлари ва математик нутқи шакллантирилади. Дарсликдаги кўпгина вазифалар ўқувчиларга мустақил равишда таълим мақсадларини белгилаш, уларга эришиш учун зарур воситалар ва усулларни излаш ва улардан фойдаланиш, ўз фаолия-

тининг бориши ва натижаларини кузатиш ва баҳолаш имконини берадиган ҳаракатлар учун индикатив асосни ўз ичига олади.



Бизга ўқувчиларни креатив фикрлашга ундовчи АҚШда ишлаб чиқилган Mathematics 4 (Christian Light) дарслиги жуда манзур бўлди.

Мазкур китоб нафақат стандарт билан ишлайди қолаверса, ўқувчиларни ижодий изланишга ва интеграциялашгани билан алоҳида ажралиб туради. Ушбу дарслик синфда фойдаланиш учун мўлжалланган, аммо уйда ҳам мактабда ҳам бир хил ишланиши мумкин. Ўқувчилар ўз ишларини бошқа қоғозда бажаришлари керак. Дарслик рангли расмлар ва иллюстрациялар билан жозибали ва профессионал тарзда форматланган (3-расм).

**Glasswing Butterflies**

The tiny delicate glasswing butterfly, native to Bolivia, feeds on the nectar of a variety of rainforest flowers. They lay their eggs on a highly poisonous plant. The caterpillars are bright purple and red. Birds and animals do not enjoy this snack.

Complete the facts about the glasswing butterfly. To find the letter or number for each blank, find where the row for the symbol and the column for the number meet.


1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	B	C	D	E	F	G	H	I
J	K	L	M	N	O	P	Q	R
S	T	U	V	W	X	Y	Z	0
1	2	3	4	5	6	7	8	9

For Fun

- The wings of the glasswing butterfly are 2 9 1 5 1 7 1 9 5 5 2
- The borders of their wings are dark 2 9 6 5 5 and sometimes tinted with 5 5 or 6 9 1 5 7 5
- The wingspan of the glasswing butterfly is approximately 5 centimeters.
- The glasswing butterfly is about 2 8 to 3 9 millimeters long.

### 3- расм. Интеграцион топшириқ.

Масалан, дарсликда капалак ҳақида топшириқ берилиши билан бир қаторда, топшириқ табиат билан боғланган. Бола бир вақтнинг ўзида топшириқ мазмунидан келиб чиққан ҳолда, ижодий ёндашиб, топшириқни бажаради, қолаверса, капалак ҳақида қизиқарли маълумотни билиб олади.



Бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг методик захирасини оширишга хизмат қилувчи яна бир қўлланма (Uke

Kombra Mathematics Teacher's Manual Grade 4) Япония билан ҳамкорликда Исландияда ишлаб чиқарилган. Мазкур қўлланма бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси учун танқидий фикрлаш ва муаммоларни ҳал қилишда ёрдам беради. Қўлланма нимани ўргатиш, қандай ўргатиш ва нимани ўлчаш (баҳолаш) керак бўлган саволларга жавоб беради. Қўлланма бўлажак бошланғич синф ўқитувчисига қулай ва кундалик вазиятларда қўллашни, дарс мақсадлари орқали белгиланган билим, кўникма, муносабат ва қадриятларни эгаллашни тақозо этади. Ушбу

қўлланма кўпроқ математика дарслари учун кўплаб янги ёндашувларни тақдим этади. Қолаверса, дарсни ташкил этишни тўлиқ лойиҳалаштириб беради. Яъни ўқув қурол-

лари, ўқувчиларнинг ғоялари ва олдинги билимларидан фойдаланган ҳолда доскадан тўлиқ фойдаланиш каби изчиллик тизимини тўлиқ қамраб олади.



4-расм. Ўзбекистонда ишлаб чиқилган бошланғич синф математика дарсликлари.

Ўзбекистон бошланғич синфлари учун ишлаб чиқилган 1-4 синф математика дарсликларини тузишда ҳозирги кунда жаҳон дарсликларидан қолип олиш ва креатив фикрлашга эътибор қаратилган. Дарсликда берилган мантикий топшириқлар болаларда ижодий изланиш ва топқирликни оширишга хизмат қилади. Дарсликларда берилган топшириқларни қайта хотирлаш, қисман қайта хотирлаш ва ижодий топшириқларга ажратишимиз мумкин. Дарсликларда берилган топшириқ ва маълумотлар миллий дастурдан келиб чиқиб тузилган. Топшириқлар қуйидаги мазмунни қамраб олади;

- Мулоҳаза юритиш (M1),
  - Моделлаштириш (M2),
  - Муаммони ечиш (M3),
  - Мулоқот қилиш (M4),
  - Маълумотлар билан ишлаш (M5)
- бўйича амалий татбиқлар.

Биз МДҲ ва Хориж тажрибасини ўғаниб, ўзимизнинг таълим тизимимиз билан таққослар эканмиз, бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг математика ўқитиш бўйича ҳозирги методик заҳираси ва эришимиз зарур бўлган тизим шарт-шароитлари ишлаб чиқдик (5-расм).



5-расм. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг методик тайёргарлигини такомиллаштириш тизими.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш ижтимоий-шахсий, умумқасбий, касбий фаолиятли таркибий қисмлардан иборат. Қолаверса, математика ўқитиш методикаси фанини ўқитиш жараёнининг интегратив фаолиятга ва компетенциявий ёндашув асосида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш бўйича рағбатлантирувчи, когнитив, жараёнли, интегратив мезон-

ларни қўллаш самарали ҳисобланади.

- Хулоса ва тақлифлар (Conclusion/Recommendations)

Бўлажак бошланғич синф математика ўқитиш жараёнида дарслик, қўлланма, ўқув материаллари жаҳон андозаларига мослаштириб танлаш, таълимда сифат ва самарадорликни оширишга хизмат қилади. Қолаверса, халқаро баҳолаш дастурларида Ўзбекистоннинг ўз ўрни бўлишини кафолатлайди.



### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ўзбекистон Республикасининг 2020-йил 27-сентябрдаги «Таълим тўғрисида»ги қонуни.
2. Ўзбекистон Республика Президентининг 2020-йил 6-ноябрдаги «Таълим-тарбия тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4884 сонли қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 6-ноябрдаги «Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6108 сонли қарори.
4. Аммосова, Надежда Васильевна. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике. диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.02, доктор педагогических наук. 1991. 24 с.
5. Абдуллаева Б., Тошпулатова М., Садикова А., Жабборова Ю., Мухитдинова Н. Математика: ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» (3 синф). 2016. – 175 б.
6. Аҳмедов М., Мирзааҳмедов М. Мантиқий фикрлашга ўргатиш (4-синф «Математика» дарслиги асосида) // Ж. Бошланғич таълим, 2004, 2-сон, -Б. 42-45.
7. Абрамов А.В. Многоступенчатая подготовка учителей математики. Екатеринбург: Изд-во Урал, унта, 1999. - 245 с.
8. Авдеев Ф.С. Научно-методические основы профессиональной подготовки будущего учителя математики сельской малокомплектной школы. Авто-реф. дисс.д-ра пед. наук. М., 1994. — 34 с.
9. Афанасьев В.В. Методические основы формирования творческой активности студентов в процессе решения математических задач. Дисс. в виде науч. докл. на соиск.уч. ст. д-ра пед. наук. СПб., 1997. 62 с.
10. Бикбаева Н.У ва бошқалар «Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси» – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 208 бет.
11. Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари. Пед. фанл. докт.дисс. –Т.: 2005. -249 б.
12. Жумаев М.Э. Ўқитувчининг ижодий шахс сифатида ривожланишида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик-математик тайёргарлиги. Монография. Т.:2009 й. «Фан» нашриёти. 240 бет.
13. Касимов Ф.М. Бошланғич синф математика таълимини ижодий ташкил этишнинг методик асослари. Монография. 2020 й. 249-б.
14. Райханов Ш.Р., Касимов Ф.М. Самостоятельная учебная работа творческого характера на уроках математики в начальных классах. –Бухара: 1991. -35 б.
15. Истомина Н.Б. Методическая система развивающего обучения математике в начальной школе. Автореф. дис. док. пед. наук. М., 1995. – 42 с.
16. Кан-Калик В.А. и др., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество.– М.: Педагогика, 1990. – 144 с.
17. Стойлова Л.П. Бошланғич математика курси асослари: Педагогика билим юртлари ўқувчилари учун. – Т.: «Ўқитувчи», 1991. – 336 б.
18. Саидова М.Ж. Таълимда мультимедиа технологиялардан фойдаланиш. 2022. 295-б
19. Ташпулатова М.И. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш. Дисс.автор. 2017. 24.б
20. Янсуйфина З.И., Совершенствование методической подготовки будущего учителя математики в педвузе на основе инновационных подходов к обучению. Дисс. Автореферат. 2003. 28 р.
21. Баташова С.М. Подготовка студентов педагогического университета к профессиональной деятельности (при изучении педагогических дисциплин). Дисс. канд.пед.наук. Омск., 1998. — 176 с.
22. Kouwenhoven, W., Howie, S., & Plomp, T. 2003. 'The role of needs assessments in developing competence-based education in Mozambican higher education'. Perspectives in education, 21 (1): 135-152.
23. Jiménez-Aleixandre, M.P., & Erduran, S., Argumentation in Science Education: An Overview. In S. Erduran and M.P. Jiménez-Aleixandre (Eds.), Argumentation in Science Education. Perspectives from Classroom-Based Research (pp3-27).

# “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

XANIMKULOV BAXROM ROXMONQULOVICH  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti v.b.dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mobil texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonini modellashtirish atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Kompyuterlar, modellashtirish, modem, chizish plansheti, loyihalash, bashorat qilish, rejalashtirish.

**Аннотация.** В данной статье подробно описано моделирование процесса обучения студентов «Информатике и информационным технологиям» на основе мобильных технологий.

**Ключевые слова.** Компьютеры, моделирование, модем, построение графиков, проектирование, прогнозирование, планирование.

Pedagogika fani va amaliyotida “modellashtirish”ning metodologik ahamiyati ta’limiy faoliyatning mazmunli tomonini tavsiflaydi va faoliyatning maqsad, vosita, metodlari va shakllarida paydo bo‘ladigan yangiliklarni aks ettiradi. Bu holatda modellashtirish pedagogik faoliyatning muhim va o‘ziga xos turi sifatida ishtirok etadi, tadqiqot, loyihalash, bashorat qilish va rejalashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

Didaktik tizimlarni modellashtirish avvalida ilgari boruvchi taxminlar (model ko‘rinishida), so‘ngra uni amalga oshirish yo‘li bilan yangi pedagogik, didaktik, metodologik va texnologik ta’lim tizimlarini maqsadga muvofiq yaratishni nazarda tutadi. Pedagogik faoliyatning yangi modellarini qurish uchun bilish kerak: kerakli mahsulotning turi va xarakteri, dastlabki materialning turi va xarakteri, o‘zgartirish uchun kerakli qurollar va vositalar, alohida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan harakatlar xarakteri, ularning tartibini takomillashtirish [1].

Model quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: qo‘llashning soddaligi, oddiylik, bayonning aniqliligi, ifodaliligi bilan eng muhim xarakteristikalarini qamrab olish. Pedagogik modellar maksimal darajada

didaktik obyektlarni qamrab olishi va o‘qitishning sharoitlari, mazmuni, metodlari, shakllarini tasvirlash imkonini beradi [2].

Modellarni to‘liq tasniflab chiqish natijasida modellar o‘rtasida quyidagi farqli jihatlarni keltirish mumkin. Bular, birinchidan, yaxlit va xos (to‘liq va noto‘liq) modellar o‘rtasidagi farq, ikkinchidan, dinamik (vaqt mobaynida harakati bo‘yicha o‘zgarishga uchraydigan) va statik (o‘zgarmas makoniy strukturalar) modellar o‘rtasidagi farq, uchunchidan, uzluqli va uzluksiz va modellar o‘rtasidagi farq hamda to‘rtinchidan, determinatsiyalangan tizimlarni qayta tiklovchi modellar va ehtimolli (stoxastik jarayonlar) modellar o‘rtasidagi farq. Yuqorida keltirilgan farqlardan ko‘rinib turibdiki, ushbu taqqoslash farqlari, eng avvalo, texnikada modellardan foydalanishga va uning maqsadlariga tayanadi va texnikada mavjud bo‘lgan modellashtirish metodlarini yagona tizimga bog‘lashga xizmat qiladi. Bu yerda ko‘rib chiqilgan tasniflash to‘liq va noto‘liq (yaqin, taxminiy) modellashtirishni, determinatsiyalangan va stoxastik modellashtirishni, natural va o‘zgargan ko‘rinishdagi modellashtirish kabi qo‘shimcha bo‘linishlarni ham o‘z ichiga oladi. Shunday

qilib, umumta'lim maktablarida fanni mobil texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning klasterli modelini yaratishda axborotli ta'lim muhitining texnologik jihatlari muhim hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mobil ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish muammosi o'lchovlidir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o'zgarishlarni hisobga olgan holda, uni hal etishga yondashuvlarda yangilanishlar va yangi ilmiy qarashlarga doimiy ehtiyoj sezilayotganligi tadqiqotimizning asosiy g'oyasini tashkil qiladi. Umumta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mobil texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning klasterli modelini ishlab chiqishda ta'lim jarayonida foydalaniladigan topshiriqlarni bajarish algoritmi, yechish ketma-ketligi bo'yicha ko'rsatmalar asosida bajarish, ya'ni konstruktiv bosqichlariga (dars jarayonida topshiriqlarni ketma-ket ko'rsatmalar bo'yicha bajarish bosqichi) tatbiq etishga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Yangi modelni qurish uchun biz talab qilingan mahsulotning ko'rinishi va xarakteri, dastlabki materialning ko'rinishi va xarakteri, o'zgartirish uchun zarur qurol va vositalar, amalga oshirish kerak bo'lgan alohida harakatlar xarakteri, ularning tartibini aniqladik. O'quvchilarda "Informatika va axborot texnologiyalari" faniga oid kompetensiyalarini mobil ta'lim metodlari asosida shakllantirishni modellashtirish konsertual qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Metodik model tarkibidagi maqsadli, mazmunli, jarayoniy, baholash va natijaviy komponentlari o'zaro bog'liq hamda axborot-kommunikativ kompetentlikni ketma-ket rivojlantirishni va natijada bashorat qilinayotgan darajadagi axborot-kommunikativ kompetentli maktab

o'quvchisining kasbiy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishini ta'minlaydi (1-rasmga qarang).

Mazkur didaktik model mazmuni quyidagicha tavsiflanadi. Maqsad komponentida umumta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mobil texnologiyalar asosida o'qitishga bo'lgan ijtimoiy talab, talab asosida maqsad aniqlanadi. Mazmuniy komponentda maqsadga erishish uchun vazifalar ishlab shiqiladi. Informatika va axborot texnologiyalari o'quv kursida mobil texnologiyalardan foydalanish asosiy jihatlari hisobga olinadi. Mobil ta'limning didaktik imkoniyatlariga e'tibor qaratgan holda, yondashuvlar va tamoyillar orqali axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-tashkiliy shart-sharoitlari aniqlanadi [3].

Jarayonli komponentda Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning texnologik asoslari, o'qitish usullari, shakllari, ta'lim metodlari va vositalari orqali jarayon amalga oshiriladi. Bunda biz tarqatma materiallarga ma'ruzadan savollar va ko'p funksiyali topshiriqlarni tanladik. Ko'p funksiyali topshiriqlar deganda masalani Exell dasturida yechish jarayonida bir nechta funksiyalarni (yig'indi, ildiz, o'rta qiymat va hokazo) ketma-ket bajarish natijasida muammoning yechimini topishga olib keladigan topshiriqlar nazarda tutilgan. Masalan, korxonadagi ishchilarning oylik maoshini hisoblash, sinf o'quvchilarining o'rtacha yoshini topish va hokazo.

Baholash komponentida olib borilgan pedagogik tajriba sinov bosqichlari, axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlanganlikni aniqlash mezonlari va darajalari ishlab chiqiladi. Natijada esa, mobil texnologiyalarga asoslangan "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv kursini yaratishga erishiladi.

Axborot-kommunikativ kompetentlikni



# PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK FANLAR VA ULARNING O'ZIGA XOSLIKLARI

MUKARRAMXON KARIMOVA

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Pedagogika-psixologiya fanlari pedagogika va psixologiya tamoyillarini birlashtirgan dinamik fanlararo sohani ifodalaydi. Ushbu maqola pedagogika-psixologiya fanlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning insonning o'rganishi, xulq-atvori va ta'limini tushunishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Asosiy tamoyillar, metodologiyalar va ilovalarni o'rganib, ushbu maqola pedagogika va psixologiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib beradi, bu fanlararo yondashuv ta'lim nazariyasi va amaliyotiga qanday hissa qo'shishiga oydinlik kiritadi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika-psixologiya fanlari, fanlararo, ta'lim, o'quv, metodika, nazariya, amaliyot, talabalar muvaffaqiyati.

**Abstract:** Pedagogical-psychological sciences represent a dynamic interdisciplinary field that combines the principles of pedagogy and psychology. This article focuses on the study of the specifics of pedagogy-psychology and emphasizes their importance in understanding human learning, behavior and education. By exploring key principles, methodologies, and applications, this article illuminates the complex relationship between pedagogy and psychology, highlighting how this interdisciplinary approach can contribute to educational theory and practice.

**Key words:** Pedagogical-psychological sciences, interdisciplinary, education, training, methodology, theory, practice, student success.

**Абстракт:** Педагогико-психологические науки представляют собой динамичную междисциплинарную область, сочетающую в себе принципы педагогики и психологии. В данной статье основное внимание уделяется изучению специфики педагогики-психологии и подчеркивается их важность в понимании обучения, поведения и воспитания человека. Исследуя ключевые принципы, методологии и приложения, эта статья освещает сложные отношения между педагогикой и психологией, подчеркивая, как этот междисциплинарный подход может внести вклад в теорию и практику образования.

**Ключевые слова:** Педагогико-психологические науки, междисциплинарность, образование, обучение, методология, теория, практика, успехи студентов.

Kirish:

Pedagogika-psixologiya fanlari ikkita fundamental fan: pedagogika va psixologiya o'rtasidagi dinamik kesishuvni ifodalaydi. O'qituvchilar va tadqiqotchilar ta'lim natijalarini oshirish va talabalar rivojlanishini rag'batlantirishga intilayotgani sababli, pedagogik va psixologik tamoyillarning integratsiyasi tobora zarur bo'lib bormoqda. Ushbu muqaddima pedagogika-psixologik fanlarning xususiyatlarini o'rganish, ularning inson ta'limini, xulq-atvorini va ta'limini tushunishdagi ahamiyatini yoritib berish

uchun zamin yaratadi.

Pedagogika, o'qitish san'ati va fani, ta'lim strategiyalari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ta'limni baholashni o'rganadi. U ta'lim sharoitlarida odamlar qanday bilim olishlari, ko'nikmalarni rivojlantirishlari va ma'noni qurishlarini tushunishga intiladi. Psixologiya esa inson ongi va xulq-atvorining murakkab jarayonlarini o'rganadi, u bilish jarayonlari, motivatsiya va ijtimoiy-emotsional omillarni o'z ichiga oladi. Pedagogika-psixologiya fanlari ushbu fanlarni o'zaro bog'lash orqali ta'limning murakkabliklarini tushunish



uchun yaxlit asos yaratadi.

Pedagogika va psixologiyaning pedagogika-psixologiya fanlari doirasida sintezi shunchaki nazariyalarni yonma-yon joylashtirish emas; balki ta'lim hodisalari haqidagi tushunchamizni boyitadigan simbiotik munosabatni ifodalaydi. Ushbu fanlararo yondashuv ta'lim amaliyoti va psixologik tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tan oladi, o'qitish va o'qitish jarayonining ikki tomonlama xususiyatini ta'kidlaydi.

Pedagogika-psixologik fanlarning zahirida ta'lim sharoitida insonning o'rganishi va rivojlanishini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan asosiy tamoyillar yotadi. Bu tamoyillar pedagogika va psixologiyadan kelib chiqib, ta'lim amaliyotini ta'minlovchi turli xil tushuncha va nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu asosiy tamoyillarni tushunish ta'lim samaradorligini oshirish va talabalar muvaffaqiyatini rag'batlantirishga intilayotgan o'qituvchilar, tadqiqotchilar uchun juda muhimdir.

